O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOShKENT DAVLAT ShARQShUNOSLIK INSTITUTI

HUQUQSHUNOSLIK. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI fanining

O’QUV-O’SLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar
230000 - Iqtisod

Ta’lim yo’nalishi: 5231000 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti mamlakatshunoslik (Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari)
5231000 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Uzoq Sharq mamlakatlari)
5231000 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari)
5231000 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (MDH mamlakatlari)

Toshkent - 2015

O’quv-o’slubiy majmua namunaviy dastur va ta’lim yunalihsining o’quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va «O’zbekistonda demokratik jamiyat qo’rish nazariyasi va amaliyoti» kafedrasining « » _____ 201_ yildagi __-sonli majlisida, «Jahon siyoasati va tarixi» fakultetining ilmiy-o’slubiy kengashining « » _____ 201_ yildagi __-sonli majlisida muhokama qilingan.

Tuzuvchi:

R.Shakurov - «O’zbekistonda demokratik jamiyat qo’rish nazariyasi va amaliyoti» kafedrasi dotsenti, yuridik fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Alimov G’. - Yuristlar malakasini oshirish Markazi, «Jinoyat-huquqiy fanlar» kafedrasi mudiri, yuridik fanlari nomzodi, dotsent.

Sharapov A. - TDSHI, «O’zbekistonda demokratik jamiyat qo’rish nazariyasi va amaliyoti» kafedrasi katta o’qituvchisi, sotsiologiya fanlari nomzodi

Fanning ishchi o’quv dasturi «Jahon tarixi va siyosati» fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (201__ yil __ _____dagi __-sonli bayonnoma).

ANNOTASIYA

«Huquqshunoslik. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanidan O’quv-o’slubiy majmua Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma’qullangan Mirzo Ulug’bek nomli Milliy universitetida ishlab chiqilgan «Huquqshunoslik» fani va «O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish» o’quv kursining **N**amunaviy dasturlariga muvofiq tayyorlangan.

«O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganish» fani Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o’quv rejalariga O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganishini tashkil etish to’g’risida»gi Farmoyishiga muvofiq kiritilildi.

«Huquqshunoslik. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fani o’quv rejaga muvofiq Toshkent davlat sharqshunoslik institutining barcha ta’lim yo’nalishlari bo’yicha ta’lim oluvchi 1-kurs talabalariga o’qitiladi.

Mazkur «Huquqshunoslik. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fanidan O’quv-o’slubiy majmua mazmun jihatdan meyyoriy xujjatlarni, fanning namunaviy dasturini, ishchi-o’quv dasturini, tayanch konspektini, fanga oid o’quv materiallarni va ta’lim texnologiyalarini, ushbu fandan talabalar bilimini baholash mezonlarini, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlari uchun topshiriqlar variantlarini va test savollarini, fan bo’yicha umumiy savollarni, seminar mashg’uloti uchun topshiriqlar to’plamini, tarqatma va taqdimot materiallarini mustaqil ishni tashkil etish bo’yicha o’slubiy ko’rsatmani, fanni o’zlashtirish bo’yicha maslahatlar va tavsiyalarni, foydalanilgan adabiyotlar ro’yhatini, xorijiy adabiyotlarni hamda glossariyni o’z ichiga qamrab olgan.

KIRISH

Muayyan davlatda aholining huquqiy madaniyati demokratik fuqarolik jamiyatining muhim ko'rsatgichlaridan xisoblanadi. Binobarin, «jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, – deb ta'kidlaydi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov, ko'p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liq»[1].

Bugungi kunda, xalqimiz va shu jumladan yoshlarimizning huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirlishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi ushbu masalaning dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Mustaqillik tufayli O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z huquqini bilish va uni tasarruf qilish, fuqarolik jamiyatida o'z maqomiga qonunchilikda nazarda tutilgan talablardan kelib chiqib baho berish kabi imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish ularning siyosiy faolligini ko'tarishga, davlatni boshqarishda ularning ishtirokini ta'minlashga ko'maklashadi. Binobarin, yuksak huquqiy madaniyat, yoshlarda vatanparvarlik hamda fidoyilik fazilatlarini kamol toptiradi.

Mustaqillik yillari mobaynida bo'lajak yangi davlatchilik va demokratik ijtimioiy-siyosiy tuzumining mustahkam huquqiy zamini, xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi vujudga keltirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi istiqlolning buyuk ne'mati, yorqin timsoli sifatida jamiyatimizning har bir a'zosi dilidan teran joy oldi, har bir fuqaro e'zozlovchi mo'tabar ijtimoiy-huquqiy qadriyatga aylandi.

Konstitusiya jamiyat huquqiy tizimining o'zagi, shuningdek davlatning Asosiy qonuni sifatida barcha qonunchilik sohalarining bosh manbai hisoblanadi. Chunki, Konstitusiyada xalqning oliy irodasi o'zining qonuniy ifodasi va mujassam bayonini topadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi mamlakat huquq tizimining etakchi sohasi ekanligi, hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlarini, davlat idoralarini tizimining faoliyat yuritishini tartibga solishi, fuqarolar huquqiy maqomini, shuningdek jamiyat boshqa ijtimoiy tuzulmalari holatini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisi bo'lganligi Asosiy qonunni bilish va mazmunini chuqur anglash bugungi kunda dolarb hisoblanadi.

Shu jihatdan «Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» fanini o'rganish talabalarning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi, davlat, huquq, qonuniylik, huquq-tartibot, haqida Shu tariqa jamiyatda konstitusiyaga, qonunga nisbatan yuksak hurmat muhitini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni konstitusiyaviy-huquqiy tartibga solish saviyasini yuqori darajaga ko'tarishdir. Eng muhimi, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, har bir fuqaro o'zining Konstitutsiyada mustahkamlangan huquq, erkinlik va burchlarini to'la idrok etish orqali o'zligini mukammal anglab etishiga erishishdir. Binobarin, talabalarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida eng zarur bilimlarga ega bo'lishlari ularning siyosiy faolligini ko'tarishga, davlatni boshqarishda ishtiroklarini ta'minlashga, va nihoyat vatanparvarlik hamda fidoyilik fazilatlarini kamol toptirishga ko'maklashadi hamda yuqori malakali mutaxassis bo'lishlariga imkon yaratadi.

[1] Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси/Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. – Т.:«Ўзбекистон», 2010. –Б.27.

Mustaqillik tufayli O’zbekistonning har bir fuqarosi va shu jumladan, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirilishi ularning siyosiy faolligini ko’tarishga, davlatni boshqarishda ishtiroklarini ta’minlashga ko’maklashadi. Chunonchi, yuksak huquqiy madaniyat, yoshlarda vatanparvarlik hamda fidoyilik fazilatlarini kamol toptirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Huquqiy madaniyat keng qamrovli ijtimoiy tushuncha bo’lib, uning mazmunini insonning qonunga hurmati, qonunga asoslanib harakat qilish qobiliyati, qonuniylikni ta’minlashga intilishi tashkil etadi.

Huquqiy madaniyat huquqiy ong tushunchasi bilan chambarchas bog’liqdir. Chunki huquqiy madaniyat, huquqiy ongni tashkil etuvchi, ya’ni fuqarolarning huquq va huquqiy hodisalar haqidagi qarashlar va tasavvurlari asosida shakllanadi. Shu bois, yoshlarda huquqiy ongning kamol topishi uchun zarur bo’lgan zaminlarni yaratish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun yoshlarda davlatga, qonunchilikka, huquqqa, amaldagi huquqiy tartibot va uning jamiyatda tutgan o’rniga to’g’ri baho berish, qonunlarga og’ishmay rioya qilish ko’nikmalarini tarbiyalash talab qilinadi.

Bunday ko’nikmalarni xosil qilishda, avvalom bor, huquqiy tarbiya ahamiyatlidir. Jamiyatda yoshlar qanchalik yuqori madaniyatli bo’lsalar, huquq normalarini bilsalar, qonunlarni, yuridik adabiyotlarni o’qib, ularga amal qilsalar, huquqbuzarlik holatlari shunchalik kam bo’ladi.

Masalaning dolzarbligini inobatga olgan holda, O’zbekiston hukumati tomonidan 1997 yil 29 avgustda O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining IX sessiyasida «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» qabul qilindi.

Dasturga ko’ra respublika miq’yosida aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy tarbiyani yaxshilash, ommabop yuridik adabiyotlarni ko’paytirish, xalqning yuridik sohasidagi bilimlarini oshirishga katta e’tibor qaratilib, jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo’yildi.

So’zsiz, huquqiy madaniyatni shakllantirishda ta’lim tizimi bosqichi muhim ahamiyatga egadir. Ta’lim muassasalarida boshqa siyosiy-huquqiy fanlar qatorida, «O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini o’rganish» fanning o’qitilishi, talabalarga asosiy qonunimiz bo’yicha umummarifiy bilim berish orqali ularda konstitusiyaviy huquq va qonunchilik haqida dastlabki bilimlarni hamda muayyan huquqiy madaniyatni shakllantirish, huquqiy ta’lim orqali konstitusiya to’g’risida nazariy bilimlarini hosil qilish, amaliy malaka orqali konstitusiyaviy institutlarning xayotda qo’llash kunikmalariga ega bo’lishlariga imkon yaratiladi.

Talabalarning huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda tarbiyaviy, pedagogik uslublarining chegarasi yo’qdir. Binobarin, mamlakatimiz ta’lim muassasalarida yaratilgan sharoitlar, yoshlarning har tomonlama va jumladan, huquqiy madaniyat jihatdan yuksalish uchun katta imkoniyatlar beradi.

Bugun yoshlarimizda o’z fuqaroviy burchini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg’unlashtira bilish bilan bog’liq yangi dunyoqarash, davlatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan siyosiy-huquqiy madaniyati shakllanmoqda.

«HUQUQSHUNOSLIK. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI» FANINING ME'YORIY XUJJATLARI

1. "Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)", Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)", "Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)" va "Jahon siyosati" va "Xorijiy mamlakatalar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlaratlar va mintaqalar bo'yicha)" Davlat ta'lim standarti Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 16 sentyabrdagi 387-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. "Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)", Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)", "Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)" va "Jahon siyosati" va "Xorijiy mamlakatalar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlaratlar va mintaqalar bo'yicha)" O'quv rejasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 16 sentyabrdagi 387-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

3. "Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)", Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)", "Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)" va "Jahon siyosati" va "Xorijiy mamlakatalar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlaratlar va mintaqalar bo'yicha)" ishchi rejasi ToshDShI Ilmiy kengashining 2013 yil 4 iyuldagi 12-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ҲУҚУҚШУНОСЛИК

ФАНИДАН НАМУНАВИЙ
ДАСТУР
(бакалавр йўналиши учун)

Тошкент – 2011

Мазкур намунавий дастур Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2011 йил 9 сентябрдаги 3-сон мажлис баёни билан тажрибавий дастур сифатида маъқулланган.

Ушбу дастур "Ҳуқуқшунослик" фанидан бакалаврнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлари мазмунига қўйиладиган талаблар асосида тайёрланган.

Тажрибавий дастурни келгусида тўлдирилган ва бойитилган ҳолда чоп этиш заруратини ҳисобга олиб, фикр-мулоҳазаларингизни қуйидаги манзилга юборишингизни сўраймиз:

Тошкент шаҳар, 2-Чимбой кўчаси 96-уй, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги "Маънавий-ахлоқий тарбия" бошқармаси, тел: 246-10-58, 246-10-54.

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Икрамов Р.А. юридик фанлар номзоди, доцент (ЎзМУ)

Жўраев Й.О. юридик фанлар доктори, профессор (ЎзМУ)

Палванов И.Т. "Давлат ва ҳуқуқ асослари, экология ҳуқуқи" кафедраси ўқитувчиси (ЎзМУ)

Тақризчилар:

Холмўминов Ж.Т. юридик фанлар доктори, профессор (ТДЮИ)

Дадашева А.А. юридик фанлар номзоди, доцент (ЎзМУ)

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий-услубий кенгаши томонидан тавсия этилган (2011 йил 19 августдаги 1-сон баённома)

КИРИШ

Ушбу дастур давлат ва ҳуқуқнинг келиб чиқиши, давлат тушунчаси, белгилари, моҳияти ва типлари, давлат функциялари, давлатнинг шакллари, давлат ҳокимиятини амалга ошириш механизми, ижтимоий муносабатлар ва ҳуқуқ, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият, ҳуқуқ нормалари, ҳуқуқ шакллари (манбалари), ҳуқуқ ижодкорлиги, ҳуқуқ тизими, ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқни амалга ошириш, ҳуқуқ нормаларини шарҳлаш, юридик амалиёт, ҳуқуқий хулқ-атвор, ҳуқуқбузарлик ва юридик жавобгарлик, ҳуқуқий тартибга солиш механизми, қонунийлик ва ҳуқуқий тартибот, ҳозирги замоннинг асосий ҳуқуқий тизим ва оилалари, давлат ва ҳуқуқининг ривожланиш истиқболи ва йўллари каби масалаларни қамрайди. Шунингдек, мазкур фаннинг предметини ўрганиш жараёнида маъмурий ҳуқуқ асосларини, меҳнат ҳуқуқи асосларини, оила ҳуқуқи асосларини, жиноят ҳуқуқи асослари каби ҳуқуқ соҳаларини ўрганиш асосий мақсад қилинган.

Ўқув дастури "Ҳуқуқшунослик" фани бўйича талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига қўйилган талабларга мувофиқ ишлаб чикилган.

Фан дастури таркиби фаннинг мақсади, вазифалари ва ўрганадиган муаммолари, талабаларнинг фан бўйича эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма ва малакалар тавсифи, назарий, амалий ва мустақил иш машғулотлари ҳажми ва мазмуни, методик тавсиялар, режалар, ўқув-услубий адабиётлар ва дидактик воситалар рўйхати ҳамда баҳолаш мезонларини қамраб олган.

Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари

Фанни ўқитишдан мақсад – Ўзбекистонда адолатли фуқаролик жамиятини шакллантириш ҳамда демократик ҳуқуқий давлат барпо этишда бош ҳуқуқий омил

ҳисобланган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг жамиятдаги ўрни ва ҳуқуқ соҳаларининг асоси сифатидаги аҳамиятини, давлат ва ҳуқуқ назариясига оид асосий тушунча ва қонуниятлари ва бошқа ҳуқуқ тизими соҳаларининг асослари юзасидан талабаларнинг билимларини шакллантиришдан иборатдир.

Фаннинг вазифаси - талабаларда давлат ва ҳуқуқнинг вужудга келиши ва ривожланиши ҳамда Ўзбекистон миллий ҳуқуқ тизимининг асосий соҳалари борасидаги умумназарий билимларни шахс ва жамият манфаатларидан келиб чиққан ҳолда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қўллаш маҳоратини ўргатишдан иборат.

Фан бўйича талабаларнинг билимига, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар “Ҳуқуқшунослик” ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида ўрганиладиган масалалар доирасида бакалавр:

- давлат ва ҳуқуқ ҳодисалари, хусусан, давлат ва ҳуқуқнинг пайдо бўлиши, ривожланиши, амал қилиши ва истиқболи, демократик ҳуқуқий давлат барпо қилиш ва адолатли фуқаролик жамиятини шакллантириш, фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, Конституция ва қонун устуворлигини таъминловчи ҳуқуқий тизим ҳамда асосий қонун ҳақида тасаввурга эга бўлиши;

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва унинг асосида қабул қилинган қонунлар, ҳуқуқий тизим ва қонунчилик асосларини, ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари фаолиятини, Ўзбекистон Республикасининг маъмурий ҳудудий тузилиши, давлат ҳокимияти идораларининг тузилиши ва фаолияти ҳақида назарий ва амалий билимларга эга бўлиши;

- ихтисослиги билан боғлиқ меҳнат фаолияти давомида соҳасига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардан тўғри фойдаланиш ва ўзига тегишли ҳуқуқ ҳамда эркинликлари, мажбуриятларини қонунчилик доирасида қўллаш кўникмасига эга бўлиши лозим.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатидан узвий кетма-кетлиги

“Ҳуқуқшунослик” фани ижтимоий-гуманитар фанлар тизимида ўзига хос умумметодологик аҳамиятга эга. Мазкур фан давлат ва ҳуқуқ ҳодисаларини ўрганувчи фалсафа, тарих, социология, педагогика, политология каби бошқа бир қатор ижтимоий-гуманитар фанлар билан ҳам чамбарчас боғлиқ.

Ушбу фан юзасидан машғулотларни олиб боришда фалсафий қарашлар, тарихий жараёнлар ва ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар ҳамда педагогик услублар ёрдамида олиб бориш талаб этилади.

Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни

Давлат ва жамиятнинг ҳаётидаги энг асосий ижтимоий муносабатларни тартибга солиш билан боғлиқ давлат–ҳуқуқий фаолиятини ташкил этиш орқали жамиятдаги тинчлик - тотувликни, осайишталик ва барқарорликни таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш давлат ҳокимиятининг энг асосий вазифаси ҳисобланади.

Ушбу вазифани самарали амалга ошириш мақсадида “Ҳуқуқшунослик” фани давлат ва жамият ҳаётининг асосий принциплар ва қоидаларини, давлат ҳокимиятини ташкил этиш, унинг фаолиятида инсон манфаатларини ҳимоя қилиш усул ва воситаларини ўрганади.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Талабаларнинг “Ҳуқуқшунослик” фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг анъанавий ва илғор услубларидан, жумладан, экспресс сўровлар, тест сўровлари, дастурий ўқитиш, ақлий хужум, дебат, давра суҳбатларини ўтказиш, коллоквиумлар, муаммоли ўқитиш, техник воситаларни қўллаш, юридик клиника ва бошқа интерактив таълим усулларидан ҳамда (ечимлар дарахти, ишбилармон ўйини, дебатлар ва ҳ.к.) замонавий информацион технологиялардан (интернет сайтлари, дарслик ва қўлланмаларнинг электрон шакллари) фойдаланилади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Давлат ва ҳуқуқ назарияси асослари

Давлат ва ҳуқуқ назарияси фани предмети ва вазифалари. Давлатнинг таърифлари. Давлат моҳиятига боғлиқ назариялар. Давлатнинг келиб чиқишида мулк ва табақалашувнинг роли. Давлатнинг келиб чиқиши тўғрисида: илоҳий, патриархал, шартнома, ирригация, синфий, ислом назариялари. Давлатнинг асосий белгилари. Давлат функциялари тушунчаси. Ички функциялари: регулятив ва қўриқлаш функциялари. Ташқи функциялари. Давлат шакли тушунчаси. Бошқарув шакллари: монархия ва республика. Давлат тузулиши: унитар давлат, федератив давлат, конфедерация, сиёсий режимлар. Антидемократик режим белгилари.Жамият тушунчаси. Фуқаролик жамияти таърифи. Фуқаролик жамияти белгилари. Фуқаролик жамияти таркиби ва институтлари. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти қуриш асослари. Ҳуқуқий давлат таърифи ва белгилари. Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат қуриш асослари.Ҳуқуқ таърифи. Объектив ва субъектив ҳуқуқ. Ҳуқуқнинг асосий белгилари. Ҳуқуқ келиб чиқишига доир назариялар. Ҳуқуқ функциялари. Ҳуқуқ меъёр (норма)лари тушунчаси, белгилари ва тузилиши. Ҳуқуқ институтлари. Ҳуқуқ тизими ва таркиби. Оммавий ва хусусий ҳуқуқ. Халқаро ҳуқуқ. Ҳуқуқ тармоғи тушунчаси ва белгилари. Ўзбекистон ҳуқуқ тизими. Ҳуқуқ манбалари тушунчаси ва турлари. Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тушунчаси ва турлари. Конституция, қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамаси ҳужжатлари, вазирликлар, давлат қўмиталари ва идоралари ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ҳужжатлари аҳамияти. Ҳуқуқий муносабатлар таърифи. Ҳуқуқий муносабатлар омиллари. Ҳуқуқ субъектлари ва объектлари. Юридик фактлар. Қонунийлик ва ҳуқуқий тартибот. Ҳуқуқбузарлик таърифи ва белгилари. Ҳуқуқбузарлик турлари. Юридик жавобгарлик ва унинг турлари.

Маъмурий ҳуқуқ асослари

Маъмурий ҳуқуқ предмети. Маъмурий ҳуқуқ билан тартибга солинадиган муносабатлар турлари. Маъмурий ҳуқуқнинг бошқа ҳуқуқ фанлари билан алоқаси. Маъмурий ҳуқуқ манбалари. Умумий ва махсус қонунлар. Ўзбекистон Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекси. Маъмурий ҳуқуқ нормалари тушунчаси. Маъмурий ҳуқуқий муносабатлар. Вертикал ва горизантал ҳуқуқий муносабатлар. Фуқаро ва бошқарув органлари. Ижро этувчи ҳокимият тушунчаси, унинг таркиби. Ижро ҳокимияти муҳим хусусиятлари. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ваколатлари. Марказий махсус ваколатли ижро этувчи органлар. Вазирликлар, давлат қўмитаси, давлат идоралари тушунчаси. Маъмурий мажбурлов тушунчаси, унинг мақсади. Маъмурий мажбурлов чоралари. Маъмурий олдини олиш чоралари. Маъмурий чеклов чоралари турлари. Маъмурий тикловчи чоралар. Маъмурий жавобгарлик субъектлари. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тушунчаси. Маъмурий жавобгарликнинг асосий хусусиятлари. Маъмурий жазо ва унинг турлари. Маъмурий жазони қўлловчи давлат органлари.

Молия ҳуқуқи асослари

Молия атамаси тушунчаси. Молиявий муносабатлар. Молия ҳуқуқи предмети. Молия ҳуқуқи манбалари. Махсус қонунлар. Молия ҳуқуқий муносабатларининг хусусиятлари. Молия ҳуқуқининг ҳокимият хусусияти. Молиявий назорат тушунчаси ва вазифалари. Назорат объектлари. Молия интизоми. Молиявий назорат тизими. Умумий назоратли ва махсус назоратли органлар. Аудиторлик фаолияти. Ташаббусли ва мажбурий аудит текшируви. Банк тушунчаси. Банкларнинг асосий вазифалари. Банкнинг: а)корхона; б)савдо корхонаси; в) восита корхоналари; г) биржа агенти; д) кредит муассасаси сифатидаги вазифалари. Банк тизими. Марказий банк, тижорат банклари ва ихтисослаштирилган молия муассасалари. Бюджет ҳуқуқи тушунчаси. Давлат бюджети тизими. Даромадлар ва харажатлар. Давлат мақсадли жамғармалари. Бюджет манбалари. Солиқ ҳуқуқи тушунчаси. Солиқларнинг хусусиятлари. Солиқлар ва

банк мажбурий тўлови турлари. Солиқ принциплари - мажбурийлик, беғаразлилик, жорий этиш ва ундириб олишнинг тартибини белгилаш.

Фуқаролик ҳуқуқ асослари

Фуқаролик ҳуқуқи тушунчаси, тизими ва тамойиллари. Фуқаролик ҳуқуқининг манбалари. Фуқаролик ҳуқуқий муносабат тушунчаси. Фуқаролик ҳуқуқининг субъектлари. Фуқаролик ҳуқуқининг объектлари. Битимлар. Муддатлар. Мулк ҳуқуқи. Мулк ҳуқуқининг турлари. Мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш. Мажбурият ҳуқуқи. Мажбуриятларнинг турлари. Мажбуриятларнинг вужудга келиши ва бекор бўлиш асослари. Мажбуриятни таъминлаш усуллари. Шартнома ҳуқуқи. Шартномаларнинг алоҳида турлари. Муаллифлик ҳуқуқи.

Тадбиркорлик ҳуқуқи асослари

Тадбиркорлик ҳуқуқи предмети. Тадбиркорлик ҳуқуқининг асосий тушунчалари: иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш; иқтисодий услубларни қўллаш; хусусий тадбиркорликнинг устуворлиги; нархларни эркинлаштириш, ўзаро рақобат ва ҳ.к. Тадбиркорлик ҳуқуқи манбалари. Тадбиркорлик ҳуқуқи субъектлари ва турлари. Фуқаролар (хусусий), жамоа мулкига асосланган тадбиркорлик, давлат мулкига асосланган тадбиркорлик, аралаш мулкка асосланган тадбиркорлик. Тадбиркор фаолияти субъектлари турлари. Акциядорлик жамиятлари, ширкат хўжаликлари, хўжалик ширкатлари ҳамда жамиятлари ва бошқалар.Тадбиркорлик шартномалари, шартнома асослари. Тадбиркорлик шартномаларининг ўзига хос хусусиятлари.Тадбиркорлик соҳасидаги юридик жавобгарлик. Шартномавий жавобгарлик. Солиққа оид муносабатларда жавобгарлик. Банкротликни яширганлик учун жавобгарлик. Монополияга қарши кураш талабларини бузганлиги учун жавобгарлик. Савдо ёки воситачилик билан ноқонуний шуғулланиш.

Меҳнат ҳуқуқи асослари

Меҳнат тушунчаси. Меҳнат ҳуқуқи предмети. Меҳнат ҳуқуқига оид муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари. Меҳнатдан ташқари меҳнат муносабатлари турлари ва моҳияти. Меҳнат ҳуқуқи манбалари. Локал ҳуқуқий хужжатлар тушунчаси ва турлари. Меҳнат ҳуқуқи кафолатлари. Меҳнат шартномаси тушунчаси. Меҳнат шартномаларининг фуқаролик шартномаларидан фарқи. Меҳнат шартномаси тарафлари. Меҳнат шартномасининг мазмуни, шартлари ва муддатлари. Ишга қабул қилишни рад этиш. Меҳнат дафтарчаси. Синов тушунчаси. Меҳнат шартномаси турлари. Иш вақти тушунчаси. Умумий иш вақти. Календар иш вақти. Ҳақиқатда ишлаган вақти. Нормал, қисқартирилган ва тўлиқсиз иш кунлари. Иш вақти режими. Дам олиш вақти тушунчаси ва турлари. Таътиллар. Имтиёзли таътиллар. Интизомий жавобгарлик тушунчаси. Умумий ва махсус интизомий жавобгарлик. Интизомий жавобгарлик белгилари. Асоссиз жавобгарликка тортишга қарши курашиш кафолатлари. Интизомий жазо турлари. Моддий жавобгарлик. Меҳнатни муҳофаза қилиш тушунчаси. Меҳнатни муҳофаза қилиш вазифалари. Муҳофаза қилиш устидан назорат. Меҳнат низолари. Даъволи ва даъвосиз низолар. Якка тартибда ва жамоа меҳнат низолари. Меҳнат низоларини меҳнат низолари комиссиясида кўриб чиқиш тартиби.

Оила ҳуқуқи асослари

Оила ҳуқуқи предмети. Оилавий муносабатларнинг турлари. Оила ҳуқуқи субъектлари. Оила ҳуқуқи муносабатлари принциплари. Оила ҳуқуқи манбалари. Оила кодекси. Никоҳ тушунчаси. Никоҳ тузиш шартлари: ёш, муомала лаёқати, бошқа никоҳда бўлмаганлиги, яқин қариндош эмаслиги ва ҳ.к. Фуқаролик никоҳи. Тиббий кўрик. Сохта никоҳ. Никоҳ шартномаси. Никоҳни тугатиш. Оилавий мулк тушунчаси. Шахсий мулк предметлари. Моддий таъминот мажбурияти. Алимент ундириш. Ота-она учун алимент ундириш. Мулкни бўлиш. Даъво муддати. Ота-она ва болаларнинг ҳуқуқлари. Бола ҳуқуқлари. Оталикни белгилаш. Боланинг мулкий ҳуқуқлари. Ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш. Меҳнатга лаёқатсиз болалар таъминоти. Ота-она

қарамоғидан маҳрум бўлган болалар таъминоти. Фарзандликка олиш тушунчаси. Фарзандликка олинган болалар ҳуқуқлари. Фарзандликка олишни сир тутиш. Фарзандликка олувчиларга талаблар. Васийлик ва ҳомийлик белгилаш. Васий ёки ҳомий этиб тайинлаш мумкин бўлмаганлар шахслар. Васий ёки ҳомийликка олиш муддати. Тутинган оилага бериш. Чет эллик фуқаролар билан оилавий муносабатларга киришиш.

Экология ҳуқуқи асослари

Экология ҳуқуқи предмети. Табиат ва унинг объектлари юридик тушунчаси. Экология ҳуқуқи тизими. Экология ҳуқуқи билан алоқадор ҳуқуқ тармоқлари. Экологик хавфсизлик. Экология ҳуқуқи манбалари. Умумий, махсус ва алоҳида манбалар. Умумий тамойиллар. Махсус тамойиллар. Ўзбекистон Республикаси экологик сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари. Нодавлат экологик ҳаракат. Ўзбекистонда сиёсий тизимнинг экологиялашуви. Стратегик дастурлар ва лойиҳалар. И. Каримов асарларида экологик хавфлар манбалари ва уларни бартараф этишга доир кўрсатмалар.

Табиат объектларининг ҳуқуқий мақоми. Табиат объектлари мулк ҳуқуқи объектлари сифатида. Фойдаланиш ҳуқуқи тушунчаси. Алоҳида муҳофаза қилинадиган табиат объектлари. Атроф - муҳитни муҳофаза қилиш усуллари. Ҳуқуқий усуллар: ҳуқуқий талабларни белгилаш орқали; нормативлар, стандартлар белгилаш орқали, лицензиялаштириш; иқтисодий ҳуқуқий механизмларни белгилаш; экологик мониторинг юритиш ва экологик экспертиза ўтказиш орқали; назоратни амалга ошириш орқали. Экология назорати тушунчаси. Текшириш, ўрганиш, кузатиш ва ҳ.к. Давлат, идоравий, ишлаб чиқариш ва жамоатчилик экология назорати. Давлат экология назоратини махсус амалга оширувчи органлари. Экологик нормативлар турлари. Турғун ва ҳаракатланувчи объектлар учун нормативлар. Атроф-муҳит сифати нормативлари. Экологик экспертиза мақсадлари ва объектлари. Иқтисодий ҳуқуқий механизмлар. Ифлослантирганлик учун тўлов тўлаш. Иқтисодий рағбатлантириш мазмуни ва турлари. Экологияда юридик жавобгарлик тушунчаси. Экологияда ҳуқуқбузарлик асослари. Экологик йўқотишлар. Жиноий, маъмурий, фуқаролик (моддий) жавобгарлик.

Қишлоқ хўжалик ҳуқуқи асослари

Қишлоқ хўжалик ҳуқуқи предмети, унинг ўзига хос хусусиятлари. Қишлоқ хўжалик ҳуқуқий муносабатлари, уларнинг турлари. Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш билан боғлиқ муносабатлар: маҳсулот етиштириш, қайта ишлаш, сақлаш, ташиш, реализация қилиш ва ҳ.к. Қишлоқ хўжалиги корхоналари тушунчаси. Улар фаолиятининг ҳуқуқий асослари. Қишлоқ хўжалиги ширкатлари, фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари, бошқа тадбиркорлик субъектлари. Ёрдамчи хўжаликлар ва фуқаролар томорқалари. Қишлоқ хўжалигида шартнома муносабатлари. Шартномалар турлари.Ижара шартномаси. Контрактация шартномалари. Кредит шартномалари.Қурилиш пудрати шартномаси. Қишлоқ хўжалигида давлат бошқаруви тушунчаси. Давлат бошқарув органлари фаолияти асосий йўналишлари. Бошқарувнинг ўзига хос хусусиятлари: табиий омил, ишларнинг мавсумийлиги, мажмуавийлик омиллари. Қишлоқ хўжалигида меҳнат муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш.Меҳнатнинг ўзига хос хусусиятлари. Оила пудрати. Ширкат хўжалигида меҳнат. Фермер хўжалигида меҳнат.

Жиноят ҳуқуқи асослари

Жиноят ҳуқуқи предмети. Ижтимоий хавфли қилмиш. Жиноят ҳуқуқининг вазифалари. Жиноят ҳуқуқи принциплари. Қонунийлик, қонун ва суд олдида тенглиги, инсонпарварлик, одиллик, айб учун жавобгарликнинг муқаррарлиги.

Жиноят тушунчаси. Жиноят қонун билан қўриқланадиган объектдир. Жиноят белгилари: ижтимоий хавфлилик, ғайриқонунлик, айблилик, жазога лойиқлик. Ижтимоий хавфлилик даражасининг тўртта тури. Жиноят кодекси тузилиши. Жиноят кодекси моддалари тузилиши. Жиноятларнинг уч босқичи. Тамом бўлмаган жиноятлар.Жиноятнинг таркибий қисмлари: объекти, объектив томон, субъекти, субъектив томон.Жиноий жавобгарликда айбсизлик презупцияси. Жазо тушунчаси.

Жазо турлари. Жиноий жавобгарликдан ва жазодан озод қилиш ҳолатлари. Жиноятда иштирокчилик тушунчаси. Бошқарувчи, ташкилотчи, далолатчи ва ёрдамчи иштирокчилар. Оддий, мураккаб, уюшган гуруҳ ва жиноий уюшма иштирокчилилиги. Қилмишнинг жиноийлиги истисно этадиган ҳолатлар. Зарурий мудофаа.Охирги зарурият.Вояга етмаганлар жавобгарлигининг ўзига хос хусусиятлари. Жазо белгилаш ёши.

Халқаро ҳуқуқ асослари

Халқаро ҳуқуқнинг тушунчаси. Халқаро ҳуқуқ ривожланиш тарихи.Халқаро ҳуқуқ тармоқлари. Халқаро ҳуқуқ манбалари. БМТ Халқаро суди статути 38-моддасига кўра манбалар: а) халқаро конвенциялар; б) халқаро одатлар; в) умумий принциплар; г) суд қарорлари; д) олимлар доктриналари. Асосий ва қўшимча (қаттиқ ва юмшоқ) манбалар.

Халқаро ҳуқуқ тамойиллари тушунчаси. БМТ уставидаги тамойиллар (5 тамойил). Халқаро ҳуқуқ тамойиллари тўғрисида Декларация тамойиллари: 1) куч ишлатмаслик; 2) низоларни тинч йўл билан ҳал этиш; 3) давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик; 4) ҳамкорлик; 5) суверен тенглик; 6) ўз тақдирини ўзи белгилаш; 7) халқаро мажбуриятларни виждонан бажариш. Халқаро ҳуқуқий жавобгарлик тушунчаси. Субъектлар: давлатлар ва давлат номидан иш кўрадиган мансабдор шахслар. Халқаро сиёсий жавобгарлик. (Сатификация). Репрессалия. Реторсия. Моддий жавобгарлик. Реституция ва репарация.

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотларни ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъруза мавзулари бўйича олган билим ва кўникмаларини амалий масалалар ечиш орқали янада бойитадилар. Шунингдек дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, масалалар ечиш, мавзулар бўйича кўргазмали қуроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади.

Тавсия этилаётган семинар машғулотларининг тахминий мавзулари ва уларнинг мазмуни:

1. Давлат ва ҳуқуқ назарий асослари

Давлат тушунчаси ва моҳияти. Давлатнинг келиб чиқиши ва унга доир назариялар. Давлатнинг белгилари, функциялари ва шакллари. Жамият ва давлат. Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат қуриш ва фуқаролик жамияти ривожлантириш масалалари. Ҳуқуқ тушунчаси ва унинг белгилари. Ҳуқуқ тизими ва таркиби. Ҳуқуқ манбалари. Ҳуқуқий муносабатлар ва уларнинг тузилиши. Ҳуқуқбузарлик ва юридик жавобгарлик.

2. Маъмурий ҳуқуқ асослари

Маъмурий ҳуқуқ тушунчаси ва манбалари. Маъмурий-ҳуқуқий нормалар ва муносабатлар. Давлат бошқарув органлари тушунчаси ва бўғинлари.

Маъмурий мажбурлов. Маъмурий ҳуқуқбузарлик ва жавобгарлик.

3. Молия ҳуқуқи асослари

Молия ҳуқуқи предмети ва тизими. Молиявий – ҳуқуқий муносабатлар.

Ўзбекистон Республикасида молиявий назорат. Банк ҳуқуқи тушунчаси ва тизими. Молия ҳуқуқи бўлими сифатида бюджет ҳуқуқи асослари. Солиқ ҳуқуқи тушунчаси.

4. Фуқоролик ҳуқуқи асослари

Фуқаролик ҳуқуқи тушунчаси ва манбалари. Фуқаровий ҳуқуқий муносабатлар иштирокчилари. Мулк ҳуқуқи. Мажбурият ҳуқуқи. Фуқаровий ҳуқуқий жавобгарлик.

5. Тадбиркорлик ҳуқуқи асослари

Тадбиркорлик ҳуқуқи тушунчаси, тамойиллари ва манбалари.

Тадбиркорлик ҳуқуқи субъектлари. Тадбиркорлик фаолиятининг турлари.

Тадбиркорлар иштирокида тузиладиган шартномалар. Тадбиркорлик қоидаларни бузганлик учун жавобгарлик.

7. Меҳнат ҳуқуқининг асослари

Меҳнат ҳуқуқи тушунчаси ва аҳамияти. Меҳнат шартномаси ва уни тузишга доир талаблар. Иш вақти, дам олиш вақти ва меҳнат ҳақи миқдори.

Интизомий жавобгарлик. Меҳнатни муҳофаза қилиш тушунчаси ва унинг аҳамияти. Меҳнат низолари тушунчаси ва унинг классификацияси.

8. Оила ҳуқуқи асослари

Оила ҳуқуқи тушунчаси ва предмети. Никоҳ тушунчаси ва никоҳ тузиш шартлари. Эр ва хотиннинг мулкий ҳуқуқ ва мажбурияти. Ота-она ва болаларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари. Фарзандликка олиш.

9. Экология ҳуқуқи асослари

Экология ҳуқуқининг тушунчаси, предмети, манбалари, тамойиллари ва тизими. Ўзбекистоннинг экологик сиёсати. Алоҳида табиат объектларининг ҳуқуқий мақоми. Экология назорати, унинг турлари ва амалга оширувчи органлар. Экологик экспертиза. Атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг иқтисодий ҳуқуқий механизмлари. Экологик нормативлаштириш ва лицензиялаш. Экологик жавобгарлик тушунчаси, моҳияти ва турлари.

10. Қишлоқ хўжалик ҳуқуқи асослари

Қишлоқ хўжалик ҳуқуқи тушунчаси ва моҳияти. Қишлоқ хўжалиги корхоналарнинг турлари ва уларнинг ҳуқуқий холати. Қишлоқ хўжалигида шартнома муносабатлари. Қишлоқ хўжалигининг давлат бошқаруви. Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги қонунлар ва уларни бузганлик учун юридик жавобгарлик.

11. Жиноят ҳуқуқи асослари

Жиноят ҳуқуқи тушунчаси, вазифаси ва тамойиллари. Жиноят ва жиноятчилик тушунчаси. Жиноятнинг таркибий элементлари. Жиноий жавобгарлик ва жиноий жазо. Жиноятда иштирокчилик тушунчаси, унинг турлари. Қилмишнинг жиноийлигини истисно қиладиган ҳолатлар. Вояга етмаганлар жавобгарлиги хусусиятлари.

12. Халқаро ҳуқуқ асослари

Халқаро ҳуқуқнинг пайдо бўлиш асослари ва тушунчаси. Халқаро ҳуқуқ манбалари ва тизими. Халқаро ҳуқуқ тамойиллари тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари. Халқаро ҳуқуқий жавобгарлик

Мустақил ишларни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни

Мустақил таълимнинг турли хил шакллари мавжуд бўлиб, бунда асосий эътибор талабанинг берилган мавзулар (амалий масалалар, топшириқлар ва кейс-стадилар)ни мустақил равишда, яъни аудиториядан ташқарида бажариши, ўқиб ўрганиши ва шу йўналиш бўйича билим ва кўникмаларини чуқурлаштиришига қаратилади. Талаба мустақил ишни тайёрлашда муайян фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- дарслик ёки ўқув қўлланмалар бўйича фанлар боблари ва мавзуларини ўрганиш;
- тарқатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- мустақил ишлар, кейс-стадилар билан ишлаш;
- махсус ёки илмий адабиётлар (монографиялар, мақолалар) бўйича фанлар бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш;
- фанга оид маълумотларни ўрганиш, уларни таҳлил қилиш;
- талабанинг ўқув-илмий-тадқиқот ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ёки мавзуларни чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубидан фойдаланиладиган ўқув машғулотлари;
- масофавий (дистанцион) таълим.

«Ҳуқуқшунослик» фанидан талабаларнинг мустақил ишларини реферат, семинар, доклад тайёрлаш, Президент асарларини конспектлаштириш ва бошқа шаклларда ташкил этилиши тавсия этилади. Мустақил иш мавзуларини белгилашда маъруза ва семинар машғулотлари мавзуларини тўлдиришга ҳаракат қилиниши лозим.

Тавсия этилаётган мустақил таълимнинг мавзулари:

1. Давлат ва ҳуқуқ асослари.
2. Давлат бошқарув органлари.
3. Маъмурий ҳуқуқбузарлик ва маъмурий жазо.
4. Ўзбекистон Республикасида молиявий назорат.
5. Банк ҳуқуқи тушунчаси ва тизими.
6. Солиқ ҳуқуқи тушунчаси.
7. Юридик шахслар.
8. Мулк ҳуқуқи.
9. Тадбиркорлик фаолиятининг субъектлари.
10. Ўзбекистон Республикасида меҳнат ҳуқуқи.
11. Ўзбекистон Республикасида оила ҳуқуқи.
12. Экологик жавобгарлик тушунчаси.
13. Атроф - муҳитни халқаро – ҳуқуқий муҳофаза қилиш.
14. Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг турлари ва уларнинг ҳуқуқий ҳолати.
15. Қилмишнинг жиноийлигини истисно қиладиган ҳолатлар.
16. Халқаро ҳуқуқ ва миллий ҳуқуқ тизимлари.

Дастурнинг информацион-услубий таъминоти

Мазкур фанни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилиши назарда тутилган:

- Ҳуқуқшунослик фанидан маъруза дарсларида замонавий компьютер технологиялари ёрдамида презентацион ва электрон-дидактик технологияларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.
- фаннинг тегишли мавзулари бўйича ўтказиладиган семинар машғулотларида экспресс-сўровлар, тест сўровлари, ақлий ҳужум, гуруҳли фикрлаш, кичик гуруҳлар билан ишлаш, коллоквиум ўтказиш, ва бошқа интерактив таълим усулларини (ечимлар дарахти, ишбилармон ўйини, дебатлар ва ҳ.к.) қўллаш назарда тутилади.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

I. Раҳбарий адабиётлар

1.1. Каримов И.А. Тўла асарлар тўплами. 1 – 18 томлар. // Т.: Ўзбекистон, 1996 – 2010 йиллар.

1.2. Каримов И.А. Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 32 б.

1.3. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаравонлигини янада юксалтиришдир. Т. Ўзбекистон. 2010 йил.

1.4. Каримов И.А. “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир”. – Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2010 йил 28 январь.

1.5. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь – Тошкент: Ўзбекистон, 2010 – 56 б.

II. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 40 б.

2. “Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги тўғрисида»ги 1991 йил 31 август Қонуни.
3. «Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август Қонуни.
4. «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрь Қонуни.
5. «Судлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 14 декабр Қонуни. Т.; Адолат, 2001.
6. Ўзбекистон Республикаси Кодекслари. (2009 йил 1 июлгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Тўплам: 1-қисм. Иккинчи нашри. – Тошкент: Yurist media markazi, 2009. -832 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 29 август 1997 йилги қарори билан тасдиқланган “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури” // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 1997. – № 9. – 227-модда.

III. Дарсликлар ва ўқув қўлланмалар:

1. Ахмедшаева М.А. Давлат механизми ва ҳокимиятлар бўлиниши. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2005. –70 б.
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ.; Х.Т.Одилқориев таҳрири остида. – Т.: Sharq, 2009. – 592 б.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Mas’ul muharrirlar: H.B.Boboyev, H.T.Odilqoriyev. – T.: TDYI, 2005.
4. Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ҳуқуқи (1- қисм). Дарслик. – Т.: ТДЮИ, 2009. -608 б.
5. Земельное право Республики Узбекистан. Учебник.–Т.: ТГЮИ, 2007. 278 с.
6. Иноятов А.А. Ўзбекистон Республикасининг меҳнат ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2002. -383 б.
7. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. –Т.: Адолат, 2007 – 916 б.
8. Исломов З., Хусанов О., Мирҳамидов М. Ҳуқуқшунослик. Ўқув қўлланма, –Т.: ОЎМТВ, 2001.
9. Икрамов Р.А. Фуқароларнинг экологик ҳуқуқлари ва уларни таъминлаш. Ўқув қўлланма. –Т.: Университет 2008.-80 б.
10. Караходжаева Д.М. Семейное право. Учебник. –Т.: ТГЮИ, 2009.176с.
11. Ли А.А. Финансовое право. Учебник. Т.:Чулпана, 2008.-236 с.
12. Ли А.А. Ўзбекистон Республикасининг молия ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: ТДЮИ, 2004. - 398 б.
13. Otaxo`jayev F.M., Yuldasheva Sh.R. Oila huquqi. Darslik –T.: TDYI, 2009-396 b.
14. Раҳмонқулов Ҳ., Рўзиназаров Ш. ва б. Тадбиркорлик ҳуқуқи. Т.1. Дарслик. –Т.: Консаудитинформ, 2002. – 664 б.
15. Раҳмонқулов Ҳ., Рўзиназаров Ш. ва б. Тадбиркорлик ҳуқуқи. Т.2. Дарслик. –Т.: Консаудитинформ, 2002. – 266 б.
16. Рустамбоев М. ва бошқ. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясини ўрганиш –Т.:Янги аср авлоди, 2005.-456 б.
17. Рустамбоев М., Ахмедов Д., Хидиров С., Беков И. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясини ўрганиш (лотин ёзувидаги дарслик) –Т. Янги аср авлоди, 2005.
18. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi (maxsus qism). Darslik– T.: TDYI, 2007–655.
19. Фуқаролик ҳуқуқи. Махсус қисм. Дарслик. –Т.: Илм зиё, 2007. -926 б.
20. Қишлоқ хўжалик ҳуқуқи. Дарслик. –Т.: ТДЮИ, 2009. -280 б.
21. Ekologiya huquqi. Darslik. –T.: TDYI, 2006. -192 b.

22. Xojiyev E.T., Xojiyev T.T. Ma’muriy huquq. Darslik. –T.: Фан ва технологиялар маркази, 2008. – 608 b.
23. Ҳакимов Ғ., Самиғжанов Ф. Маъмурий ҳуқуқ. Ўқув қўлланма. –Т.ТДЮИ, 2009. – 284 б.
24. Huquqshunoslik, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / O.Karimovaning umumiy tahriri ostida.–Toshkent:TDIU,2009. –141 b.
25. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир” ҳамда “Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир” номли маърузаларини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт.- 2010.16
26. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. Ўзбекистоннинг 19 йил мустақил тараққиёт йўлида жамиятни модернизациялаш ва иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг дадил одимлари ва муваффақиятлари: талаба ёшлар ва кенг жамоатчилик билан учрашувларда фойдаланиш учун ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-маърифий мавзуда илмий-оммабоп рисола. – Т.: Иқтисодиёт, 2010.- 148 бет.
27. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммитининг Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент: Иқтисодиёт, 2010. – 146 бет.

IV. Қўшимча адабиётлар

1. Исломов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. – Т.,2004. – Б.70.
2. Маматов Х. Ҳуқуқий маданият ва Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари. – Т., 2009. – Б. 85.
3. Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент. – Т.,2005. –Б.79.
4. Одилқориев Х.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик тизими. – Т.,2008. – Б.11.
4. Таджиханов Б.У. Ҳуқуқий сиёсат ва ҳуқуқий тизимни модернизациялаш. – Т.,2007.
5. Файзиев М.М., Одилқориев Х.Т., Раҳимов Ф. ва б. Ўзбекистон миллий давлатчилик назариясининг ҳуқуқий асослари. – Т., 2006;
6. Таджиханов Б.У. Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқий тизимида демократик ислоҳотлар. – Т., 2005. – Б. 54.
7. Жавлиев Н.Б. Ҳозирги замон ҳуқуқни тушуниш муаммолари. – Т., 2008. – Б. 87–88.
8. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993. – Б. 122.
9. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва томойиллар. – Т., 2000. – Б.43.
10. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б. 78.
11. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва томойиллар. – Т., 2000. – Б.5–6.
12. Мамадалиев Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003. – Б.103.
13. Исломов З.М. Ҳуқуқ тушунчаси, моҳияти, ижтимоий вазифаси. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2004. –138 б.
14. Нажимов М.,Сайдуллаев Ш. Давлат функциялари. Т.: ТДЮИ, 2004. -36 б.
15. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T. Odilqoriev, I .T. Tulteyev va boshq.; prof. X.T.Odilqoriev tahriri ostida. –Toshkent: “Sharq”, 2009. – 568 b.
16. Лазарев В.В., Липень С.В., Саидов А.Х. Теория государства и права: Учебник. Под ред. акад. Абдурахманова К.Х. –М.: Рос. экон. акад., 2008. -620 с.
17. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ /Масъул муҳаррир А.А.Азизхўжаев. –Т.: Ўзбекистон, 2008. – 495 б.

V. Электрон таълим ресурслари:

1. http://www.lex.uz

2. http:// www.nature.uz
3. http:// www.uznature.uz
4. http://www.juristlib.ru
5. http:// www.pravo.vsem.uz
6. http:// www.kodeks.uz
7. http:// www.lawlib.uz
8. http:// www.zakon.uz

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИНИ ЎРГАНИШ

ЎҚУВ КУРСИДАН НАМУНАВИЙ
ДАСТУР
(бакалавр йўналиши учун)

Тошкент – 2011

Мазкур намунавий дастур Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2011 йил 9 сентябрдаги 3-сон мажлис баёни билан тажрибавий дастур сифатида маъқулланган.

Ушбу дастур "Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш" ўқув курсидан бакалаврнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлари мазмунига қўйиладиган талаблар асосида тайёрланган.

Тажрибавий дастурни келгусида тўлдирилган ва бойитилган ҳолда чоп этиш заруратини ҳисобга олиб, фикр-мулоҳазаларингизни қуйидаги манзилга юборишингизни сўраймиз:

Тошкент шаҳар, 2-Чимбой кўчаси 96-уй, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги "Маънавий-ахлоқий тарбия" бошқармаси, тел: 246-10-58, 246-10-54.

Ўқув курси дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Жалилов Ш.И. - юридик фанлари доктори, профессор (ЎзМУ)

Ганиева Г.Ю. - "Конституциявий ҳуқуқ" кафедраси катта ўқитувчиси (ЎзМУ)

Палванов И.Т. - "Давлат ва ҳуқуқ асослари, экология ҳуқуқи" кафедраси ўқитувчиси (ЎзМУ)

Тақризчилар:

Ақилов О.Р. - юридик фанлар доктори (ЎзР Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутати)

Файзуллаева В.Г. - юридик фанлар номзоди, доцент (ЎзМУ)

Фаннинг ўқув дастури Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий-услубий кенгаши томонидан тавсия этилган (2011 йил 19 августдаги 1-сон баённома)

Кириш

Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш ҳамда демократик ҳуқуқий давлат барпо этишда бош ҳуқуқий омил ҳисобланган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг жамиятдаги ўрни ва аҳамиятини, маъно мазмуни ҳамда моҳиятини узлуксиз ўрганиш мазкур ўқув курсини ўқитиш заруратини келтириб чиқарди.

Ушбу дастур Ўзбекистон Республикаси конституциявий тузумининг асосий тамойиллари, нормалари ва институтлари; конституциянинг моҳияти ва хусусиятлари; Ўзбекистон Республикасида шахснинг ҳуқуқий ҳолати; Ўзбекистон Республикаси конституциявий тузуми, жамият ва шахс; Ўзбекистон Республикасида сайлов ҳуқуқи ва сайлов тизими хусусиятлари; Ўзбекистон Республикасининг давлат тузилиши ва давлат ҳокимияти органларининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини ўрганишни ва уларнинг мазмун-моҳиятини билишни кўзлайди.

Ўқув курсининг мақсади ва вазифалари

Курсни ўқитишдан мақсад – талабаларда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Конституциянинг ҳуқуқий демократик давлат қуриш ва фуқаролик жамиятини шакллантиришдаги тутган ўрни ва роли тўғрисидаги билимларни ҳамда уларда фуқаролик бурчини ҳис қилиш, қонунга риоя қилиб яшаш кўникмаларини шакллантиришдан иборат.

Курснинг вазифаси – Ўзбекистон Республикаси конституциявий тузумининг асосий тамойилларини, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг мазмунини, жамият ва шахс ўртасидаги муносабатларни, жамиятнинг иқтисодий асосларини, республикамизнинг

маъмурий – ҳудудий ва давлат тузилишини, сайлов тизими, давлат ҳокимияти, олий ва маҳаллий идораларнинг тузилиши ва ваколатлари, ҳамда мамлакатдаги демократик ўзгаришлар моҳиятини, Ўзбекистонда ҳуқуқий демократик давлат барпо қилиш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнининг мазмунини тушунтириш; амалга оширилаётган ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий ислоҳотлар моҳиятини ёритиш бўйича давлат сиёсати билан таништиришдан иборат.

Фан бўйича талабаларнинг билимига, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар

"Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш" ўқув курсини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

- Конституциянинг Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқий давлат қуриш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида тутган ўрни ва роли, инсон, жамият ва давлат алоқадорлигининг конституциявий асослари, Ўзбекистон Республикасида давлат ҳокимияти тармоқлари ва фуқароларнинг ўз-ўзини бошқариш органлари тизими ва фаолияти, сайлов тизими, шунингдек, инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, мажбуриятлари ҳақида **билиши керак;**

- талаба "Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш" ўқув курсини ўзлаштириши натижасида инсон, жамият ва давлатга тегишли конституциявий тамойиллар ва қоидаларни аниқ тассаввур қилиши; қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимияти тушунчалари ва ваколатларини англаб етиши; конституциявий иқтисодий муносабатлар, сайловлар ва давлатни бошқариш, шунингдек, жамоат бирлашмалари ва ўзини ўзи бошқаришнинг фаол иштирокчисига айланиши; инсон ва фуқаро ҳуқуқлари ва эркинликлари кафолатланганлигини чуқур ҳис этиш каби **кўникмаларига эга бўлиши керак;**

- конституциявий - ҳуқуқий тамойил ва қоидаларни таҳлил қилиш, улардан ўқиш, меҳнат ва ҳаёт фаолиятида тўғри фойдаланиш, конституциявий-ҳуқуқий нормаларни шарҳлаш ва тарғибот қилишни, давлат ҳокимияти органлари фаолиятини такомиллаштириш усулларини, ўзгаларга Конституцияни ўргатиш ***малакаларига эга бўлиши керак.***

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатидан узвий кетма-кетлиги

"Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш" ўқув курси ҳисобланиб, асосий гуманитар ва ижтимоий иқтисодий фанлардан ҳисобланади ва "Ҳуқуқшунослик", "Ўзбекистон тарихи" фанлари билан узвий боғлиқ ҳолда ўргатилади. Дастурни амалга ошириш ўқув режасида режалаштирилган гуманитар ва ижтимоий иқтисодий фанлар ва умумкасбий фанлардан етарли билим ва кўникмаларга эга бўлишлик талаб этилади.

Фаннинг ишлаб чиқаришдаги ўрни

Давлат ва жамият ҳаётидаги энг асосий ижтимоий муносабатларни тартибга солиш билан боғлиқ давлат-ҳуқуқий фаолиятини ташкил этиш орқали жамиятдаги тинчлик тотувликни, осайишталик ва барқарорликни таъминлаш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш давлат ҳокимиятининг энг асосий вазифаларидан ҳисобланади.

Ушбу вазифани муваффақиятли амалга ошириш учун Конституцияни ўрганиш давлат ва жамият ҳаётининг асосий принципларини ва қоидаларини, давлат ҳокимиятини ташкил этиш, унинг фаолиятида инсон манфаатларини ҳимоя қилиш усул ва воситаларини ўрганади.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар

Талабаларнинг "Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш" ўқув курсини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларидан фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эга. Ўқув

курсини ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва ўқув-услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллардан фойдаланилади. Маъруза дарсларида ва семинар машғулотларида мос равишдаги илғор педагогик технологиялардан фойдаланилади.

АСОСИЙ ҚИСМ

20. Болтаев А.Р. Исполнительная власть в Республике Узбекистан. Монография. – Ташкент.: ТДЮИ, 2006.-268 с.
21. Жалилов Ш.И. Конституция Республики Узбекистан о достоинстве и чести личности. Т. ЎзМУ. 2003 йил.
22. Жалилов Ш.И. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ислоҳоти: тажриба ва муаммолар. Рисола. Т. Ўзбекистон. 1994 йил.
23. Жалилов Ш.И. Ўзбекистон Республикасининг ўзини ўзи бошқариш ҳуқуқи. Т. Ворис. 2007 йил
24. Исламов З. Проблемы власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. Т., ТГЮИ.. 2003
25. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. -262 б
26. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш миллий тизими. Т. Ўзбекистон. 2010.
27. 11.Мустафоев Б. Ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг мустаҳкам асоси. Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг Ахборотномаси. Т. 2010 йил №6.–Б. 2-5.
28. Маҳкамов О. Солиқ ёки бошқа мажбурий тўловлар. Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг Ахборотномаси. Т. 2010 йил №6. –42-44 б.
29. Одилқориев Ҳ.Т., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент.–Т. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005 йил
30. Рустамбоев М.Ҳ. Саидов А.Х “Яшаш ҳуқуқи ва Ўзбекистонда Ўзбекистонда ўлим жазосининг бекор қилиниши”. Т. ТДЮИ. 2009 йил.

31. Раҳмонов С. Нуриддинов Б Сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлар. Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг Ахборотномаси. Т. 2010 йил № 5 40 бет.
32. Саидов А. Ҳ. “Ўзбекистонда аёллар ҳуқуқлари”. Т. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. 2010 йил.
33. Турдибоев Х Ўзбекистон Республикаси Конституцияси– мустақиллик таянчи. Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Олий ўқув курслари Ахборотномаси. № 4 2010 йил. 29 – 31 бетлар
34. Тухташева У., Абдураҳмонхўжаева Ж. “Ўзбекистон Республикасида судьялар мақоми”. Т. ТДЮИ. 2010 йил.
35. Тўлаганов Ж., Ғозиев К Конституция–ёшлар нигоҳида. ТДЮИ. 2010 йил.
36. Хамедов И. Организационно-правовые проблемы совершенствования системы государственного управления в Республике Узбекистан: Автореф...д-ра.Yурид.наук. – Тошкент., 2004. - 46 с
37. Қирғизбоев М. Демократик кўппартиявийлик ва парламентаризм тамойилларини ривожлантириш масалалари // Ўзбекистон фуқаролик жамияти сари (Мақолалар тўплами). – Тошкент: Шарқ, 2003. –Б. 205-207
38. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон. 2010 йил.

V. Elektron ta’lim resurslari:

1. http://www.lex.uz
2. http://www.juristlib.ru
3. http:// www.pravo.vsem.uz
4. http:// www.kodeks.uz
5. http:// www.lawlib.uz
8. http:// www.zakon.uz

FANNING TAYANCH KONSPEKTI

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI ASOSLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga “Huquqshunoslik” fanining asosiy maqsad va vazifalari, mazmuni, ushbu fanning talabalarning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish va rivojlantirishdagi o’rni, yuksak huquqiy madaniyatning huquqiy davlat barpo etishdagi ahamiyati to’g’risida tushuncha berish, davlat va huquq tushunchasi, davlat va huquqning asosiy belgilarini ochib berish, davlat va huquq tushunchalari o’rtasidagi mutanosib jihatlarni yoritib berish, yoshlar orasida sog’lom muhitni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: Davlat, davlat shakli, davlatning boshqaruv shakli, davlat tuzilish, davlatning siyosiy tuzumi, huquq, huquqiy normalar, huquq tizimi, huquq tarmog’i, huquq instituti, huquq manbalari, huquqiy odat, yuridik pretsedent - normativ-huquqiy hujjat, xalqaro-huquqiy normalar.

Asosiy savollar:

1.1.Davlatning kelib chiqishi va unga doir nazariyalar.
1.2. Davlat tushunchasi, uning belgilari va shakllari.
1.3.Huquq tushunchasi, uning belgilari va funktsiyalari.
1.4.Huquqiy norma tushunchasi, uning belgilari va tuzilishi.
1.5. Huquq tizimi va huquq manbalari.

“Aqliy hujum” uchun savollar:

– Davlat deganda nima tushunasiz?
– Inson hayotida davlat ahamiyati qanday?
– Davlatning asosiy vazifalari nimadan iborat?

– Huquq deganda nima tushunasiz?
– Inson hayotida huquq ahamiyati qanday?
– Davlat va huquq o'rtasida qanday aloqa mavjud?

1.1.Davlatning kelib chiqishi va unga doir nazariyalar.

Dunyo xaritasida davlatlarning soni 200dan ortgan, davlatchilik va davlat institutlari, davlatlararo munosabatlar keng rivoj topgan bir davrda davlatlarning kelib chiqishiga doir masalalar o'z dolzarbligini yo'qotmagan masalalardandir. Bu masalaning e'tiborga loiqligi, bir tomondan, davlatning kelib chiqishini izohlab beruvchi nazariyalar sonining ko'pligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu nazariyalarning hech biri davlatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni to'laligicha ifoda etaolmaganligi, ba'zi nazariyalar zamonaviy olimlar tomonidan inkor etilayotganligi bilan bog'liq.

Davlatlarning kelib chiqish jarayonini yoritish uchun, avvalambor, davlat ijtimoiy institut sifatida insoniyat rivojlanishining qaysi bosqichida va nima sababdan vujudga kelgan degan savolga javob topishimiz dorkor, zero izlanishning aynan shu uslubi davlatning ilk shakllari, uning ijtimoiy hokimiyatning boshqa shakllaridan farqi, davlatning mohiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimizga imkoniyat yaratadi[1] va insoniyatning paydo bo'lish tarixiga nazar solishimizga undaydi.

Davlatlarning kelib chiqishiga doir ilk ma'lumotlar Qadimgi Misr, Rim, Bobil, Yunon mifologik manbalarida keltirilgan bo'lsa, bu masalaga dastlabki rasional yondashuv Zardusht (Qadimgi Eron, e.a. VIII-VII asrlar) va Konfusiy (Qadimgi Xitoy, e.a. VI-V asrlar) nomlari bilan bog'liq. Yunon faylasufi Demokrit (e.a. IV- III asrlar) davlatning vujudga kelish va rivojlanishini dunyoviy rivojlanish jarayonining bir qismi sifatida baholaydi.[2]

Insoniyat rivojining turli davlarida davlat va huquqning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib, ushbu sabablar o'z ifodasini davlatlarnuing kelib chiqishini izohlovchi turli nazariyalarda topgan. Sinfiy va irrigatsiya nazariyalari bilan bir qatorda teologik, shartnoma, zo'ravonlik, psihologik va qator boshqa nazariyalar mavjud-ki, ularning mazmun- mohiyati bilan qisqa bo'lsada tanishib chiqamiz.

Davlat va huquqning kelib chiqishning qo'yidagi nazariyalar mavjud:

1.Teologik (ilohiy) nazariya;
2. Patriarxal nazariya;
3. Shartnoma nazariyasiga;
4. Zuravonlik (boskinchilik) nazariyasi;
5. Psixologik nazariya namoyandalari/

1.Teologik (ilohiy) nazariya. Ush bu nazariya davlatning kelib chiqishini tushuntirib bergan ilk nazariya bo'lib, unga ko'ra *davlat Xudo tomonidan yaratilgan, hukmdor Xudo tomonidan berilgan hokimiyatni amalga oshiradi*. Aynan yerdagi hukmdor oily hukmdor, ya'ni Xudo bilan aloqa o'rnatish nuqtasi (Qadimgi Xitoyda), Xudoning yerdagi soyasi (Qadimgi Misr, Bobilda) hisoblanib, teokratik davlatlarga, ya'ni davlat boshligi ayni paytda uning diniy rahnamosi bo'lgan davlatlarga hos edi.

Davlatning kelib chiqishini bunday tarzda ifodalash davlat hokimiyatini muqaddaslashtirish va unga bo'lgan itoatni kuchaytirish maqsadida qo'llanilgani to'grisidagi fikrlar mavjud bo'lib, o'sha davr hujjatlariga ko'ra, qadimgi tabiat xudolari asta-sekin davlat va podsho hokimiyatining xomiylariga aylantirilgan. Xudolar ilgari tabiat kuchlarini ifoda qilgan bo'lsa, endi adolat va kuch haqidagi tushunchalarning timsoli, samoviy qozi, qudratli podsholarga aylantirilgan. Masalan Qadimgi Bobil (er.av. 1894-1595 yillar) podshosi Xammurapi (er.av. 1792-1750 yillar) o'zining qonunlar to'plamida adolat

[1] Сырых В.М. Теория государства и права. Учебник для ВУЗов. М.:1998, 7 бет.
[2] Нерсесянц В.С. "История правовых и политических учений" М.: 1999 й. 125 бет.

va xaqqoniyat xudosiga aylantirilgan Quyosh xudosi Shamashning o‘zi Bobil podshosiga qonunlar chiqarishni ato qilgan deydi.[1]

Qadimgi Sharqning yirik davlatlaridagi quldolar mehnatkash xalq ustildan o‘z xokimiyatlarini mustahkamlash, quldorldik davlatini “abadiy” saqlab qolish maqsadida podsho hokimiyatini xudolarning o‘zi qo‘riqlaydi, bu hokimiyat muqaddas va xatto ilohiy degan ta’limot yaratganlar.

Ushbu nazariya xozirgi kunda ham Islom davlatlarida qo’llaniladi.

2. Patriarxal nazariya tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqqan, monarx hokimiyati esa oilaning barcha a’zolariga raxbarlik kiladigan otadan meros bo’lib o’tgan deb xisoblaydilar. Bu nazariya Aflotun, Arastu kabi Qadimgi Yunon faylaso’flari tomonidan ilgari surilib, masalan Aflotun o’zining “Davlat” asarida oiladan o’sib chiqqan adolatli davlatni tasvirlaydi.[2]

Ingliz olimi Filmer ham davlatning oiladan kelib chiqqanini o’zining “Patriarx” asarida asoslashga urinib, Odam Ato hokimiyatni Xudodan olib, o’zining katta o’gli, patriarxga, u esa o’zining avlodlari bo’lmish qirollarga berganligi to’g’risidagi fikrni ilgari surgan.

3. Shartnoma nazariyasiga ko’ra davlat – o’zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo’lib, ana shu kelishuv - shartnoma asosida ular o’zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini monarxga beradilar. Monarx esa o’z navbatida ularni o’z himoyasi ostiga olishu, ularning huquqlarini ta’minlanishining garovi bo’lishi lozim edi. Ushbu shartnomaga ko’ra hokimiyatni suiste’mol qilgan monarx ag’darilishi mumkin edi. Ushbu nazariya tarafdorlari talaygina bo’lib, Gollandiyada ushbu nazariyani Gugo Grotsiy va Spinoza, Angliyada – Lokk va Gobbs, Fransiyada – Russo, Rossiyada Radishchev rivojlantirgan. Nemis siyosatshunosi Iogan Altuziyning fikricha, oliy xokimiyat xalqqa tegishli, qirol bilan davlat xizmatchilari faqat shartnomaning o‘ziga tegishli qismini bajarish sharti bilan xalqdan hokimiyatni olishadi. Bu Altuziyning qirol va amaldorlarning qanday qilib amalda ma’muriy hokimiyatga ega bo‘lishini tushuntirib berishga urinishidir.[3]

Shartnoma nazariyasiga ilmiy yondashuv eramizning XVIII asrlarida rivojlangan bo‘lsada, qirol va vassal, vassal va dehqon o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar ilk bora feodal davlatlarda (eramizning 1000 yillarida) paydo bo‘la boshlagan. Feodal tizim shunday tizim-ki, unda qirol va zodagonlar o‘rtasidagi munosabatlar shartnoma bilan tartibga solinib, bu shartnomaga muvofiq qirol aristokratlarga len mulki (feod) taqdim etadi va vassallar bunga javoban qirolga harbiy ko‘mak ko‘rsatishlari va soliq to‘lashlari shart bo‘ladi. Shuningdek vassallar va dehqonlar o‘rtasida ham shartnoma mavjud bo‘lib, unga muvofiq, vassal dehqonlarni himoya qilishi, ular esa vassalga hosilning bir qismini berishlari kerak bo’lgan.[4]

4. Zuravonlik (boskinchilik) nazariyasi davlatning kelib chiqishini harbiy- siyosiy omillar bilan boglab, davlatni bir qabilaning ikkinchi qabila tomonidan bostirib olinishi, bosib olingan qabilani itoat ettirish, uni ustidan hokimiyatni mustahkamlash ehtiyojining hosilasi sifatida izohlaydi. Zo’ravonlik asosida tuzilgan davlatlarga Sparta davlatini misol qilib keltirsak, ushbu nazariya tarafdorlaridan K. Kautskiy, L. Gumplovich, Ch. Dyuringlarni sanab o’tishimiz mumkin

5. Psixologik nazariya namoyandalari davlatning kelib chiqishini inson ruhiyati bilan bog’lashga urunib, ushbu hodisani turli nuqtalardan izohlashgan. Keng tarqalgan fikrlardan biri rus olimi Petrajitskiy timonidan ilgari surilib, davlat insonning itoat etish, bo’ysunish, boshqarilishga bo’lgan moyilligi hosilasidir.

---

[1] Avdiev B.I.Qadimgi sharq tarihi. M.:1952, 118 bet.

[2] Yo’qubov J., Haitboyev E. Huquqshunoslik. T.: “Yangi asr avlodi”. 2006,. 10 b.

[3] Gunnar Skirbekk, Nils Gil’ye. Falsafa tarihi. T.: “Sharq”, 2002. 275 b.

[4] Gunnar Skirbekk, Nils Gil’ye. Falsafa tarihi. T.: “Sharq”, 2002. 194-195 betlar.

Ko’rib turganimizdek, davlatning kelib chuiqish sabablarini izohlovchi nazariyalar talaygina, shu sababli davlatning tub mohiyatini anglab yetish nechog’liq mushkul bo’lsa, kelib chuqushining yagona formulasinin ishlab chiqish undanda murakkab. Davlatimiz prezidenti I.A. Karimovning «davlat- har qaysi xalk tarixiy va ma’naviy taraqqiyotining hosilasidir, uning o‘ziga hos, o‘ziga mos madaniyati rivojining natijasidir»[1] degan fikrlariga asoslanadigan bo‘lsak, davlatning kelib chiqish sabablarini ifodalab beruvchi har qanday nazariyaning asosli ekanligiga amin bo‘lamiz. Undan tashqari hozirda zamonaviy davlatlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan ilmiy ishlar talaygina bo’lib, ular asosida davlat tushunchasi, uning mohiyati to’g’risidagi bilimlarimizni kengaytirishimiz mumkin.

1.2. Davlat tushunchasi va uning belgilari.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek davlat yer sayorrasining turli hududlarida va turli davrlarida turli sabablarga ko’ra vujudga kelgan. Shuning uchun o’z zamonasining olimu-fuzalolari davlatga turlicha talqin berishgan. O’zining shakllanishida va rivojlanishida uzoq va murakkab yo’lni bosib o’tar ekan, **davlat** jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida yetarlicha rivojlanmagan siyosiy xodisa, zo’rlik va majburlashga asoslangan deb hisoblangan edi.

Aflotun va Arastu tasavvuriga ko’ra, **davlat** siyosiy aloqalar vositasida muayyan bir tarzda birlashgan va o’zaro bog’lik odamlar jamoasidir. ”Insonning o’ziga o’xshagan va ozod kishilar ustidan hukmronligini o’rnatuvchi hokimiyat”[2] shu aloqalar asosini tashkil etadi, deb xisoblardi olimlar.

Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo’lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverentetga ega bo’lgan tashkilotdir.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo’lgan, shuningdek huquq normalarini yaratishga qodir bo’lgan hokimiyatning xududiy tashkiloti.

Davlat-muayyan xududni ishg’ol etgan va yagona hokimiyatga uyushgan xalkdir; **davlat**–insonning yashash qoidasi shakli, kishilar o’rtasidagi psixologik aloqa; **davlat** absalyut ruxning mujassami. (Gegel).[3]

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, uning bir me’yorda ishlashini ta’minlaydigan, jamiyat nomidan ish ko’radigan maxsus boshqaruv, majburlov apparatiga ega bulgan tashkilotdir.

Ko’rib turganimizdek davlat tushunchasini turlicha yoritish mumkin. Bunday holat davlatning aniq bir davrda bajarib turgan vazifasi, uni tuzishdan ko’zlangan asosiy maqsad bilan chambar-chas bog’liq. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak davlat mohiyati, ya’ni uning maqsad va vazifalari, qanday sinf manfaati uchun xizmat qilayotganligi davlat tushunchasini shakllantirishda hal etuvchi ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat tabaqalashib, ommaviy hokimiyat siyosiy hokimiyatga aylanar ekan, ushbu hokimiyat imtiyozli ijtimoiy guruhlar qo’lida mujassam bo’ldi va ushbu guruhlar manfaatiga hizmat qila boshladi. Ilk davlatlar quldorlarga kambag‘al va qullarni bemalol ekspluatatsiya qilish imkoniyatini berib, hokim sinf bo‘lgan quldorlar sinfining manfaatlarini muhofaza qilishni o‘zining asosiy **vazifasi** qilib oldi.[4] Kishilik jamiyati rivojlanib borar ekan, sekin astalik bilan davlat butun insoniyat manfaatlariga hizmat qila boshladi va davlat mohiyatini tubdan o’zgartirdi..

Davlatning mohiyatini tushunib etishda uch nazariyaga asoslaniladi.

---

[1] Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari T.: “Шарқ” 1998. - 33 b.
[2] Aristotel. Politika. 2- том.(S.A. Jebelev tarjimasi)
[3] Boboyev H.B., Odilqoriyev H.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T.:2000, - 168 b.
[4] Avdiev B.I.Qadimgi sharq tarihi. M.:1975. 22-25 betlar.

1) **Ijtimoiy nazariyaga** ko'ra ***davlat*** umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalkning o'zaro munosabatini tartibga solish vositasi;

2) **sinfiy nazariyaga** ko'ra ***davlat*** sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelib bir sinfning boshkasini bostirish quroli;

3) **siyosiy – huquqiy nazariyaga** ko'ra ***davlat*** jamiyatning va davlatning uzining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Hozirga kelib davlatning maqsad va vazifalari o'zgacha ma'no kasb etib,uning mohiyati haqidagi zamonaviy qarashlar quyidagilardan iborat:

1) **Davlat** ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish vositasi.

2) **Davlat** inson huquqlari, oshkoralik, demokratiya, pluralism kabi umumdemokratik institutlarni ta'minlash vositasi.

3) **Davlat** mudofaa, tashqi bocqinchilik kuchlaridan himoyalanish, hududiy yahlitlikni ta'minlash vositasi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda davlat siyosiy tashkilot, siyosiy-hududiy institut sifatida talqin etildi. Shu o'rinda biz davlatning jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlardan **bir qator o'ziga xos belgilari** bilan farq qilishini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Davlatning belgilari xakida turli talqinlar mavjud. F.Engels o'zining «Oila, hususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan asarida davlatning asosiy belgilari sifatida aholining hududiy bo'linishi, ommaviy hokimiyat hamda soliqlar tizimining tashkil etilishini ko'rsatib o'tgandi. Rus olimi G.F.Shershenevich ham shunga o'hshash uch belgi:

A) odamlarning birlashuvi;

B) ular ustidan hukumronlik qiluvchi hokimiyat;

V) shu hokimiyat ta'siri doirasidagi «hudud»ni sanab utgan.

Xozirgi kunda davlatning umumiy e'tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatish mumkin:

1.Davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi boyicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

2. O'ziga xos ommaviy hokimiyat – davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshkaruv apparatining, majburlash apparatining mavjudligi;

3. Aholining hududlar bo'yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashi).

4. Davlat-suveren hokimiyatning yagona sohibidir;

5. Davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va hukuk normalarini aks ettiruvchi qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan xujjatlarni qabul qiladi;

6. Davlat qonuniylik va huquq tartibot posboni bo'lishga maxsus da'vat etilgan huquqni muxofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, ichki ishlar organi va boshqalar)ga ega bo'lgan yagona tashkilot.

7.Faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

Yukorida kursatib utilgan birgalikda olingan davlat belgilarining jami jamiyat siyosiy tizimida davlatning aloxida o'rni va yetakchi rolini to'la izohlaydi. Bunda albatta har bir tarixiy davrda, turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davlatning bu belgilari ham ichki mazmuni, ham tashqi ko'rinishi bilan farq qilishini hisobga olish zarur.

1.3.Davlat shakllari.

Davlat shakli deganda, davlatning tuzilishi va boshqaruv usulini belgilaydigan tashqi hususiyatlari tushuniladi. Ushbu hususiyatlar

- **davlatning boshqaruv shakli;**
- **davlatning tuzilish shakli;**
- **davlatning siyosiy tuzumi** orqali namoyon bo'ladi.

Davlatning ush bu hususiyatlarini ochib berish aniq bir davlat to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Davlatning boshqaruv shakli deganda muayyan davlatda hokimiyatni uyutirish, tashkil etish usuli tushuniladi. Bu ta'rifni yanada aniqlashtirsak, **davlatning boshqaruv shakli** oliy davlat hokimiyatini tashkil etish, davlatning oliy va markaziy idoralari tarkibi, vakolatlari, vakolatlari muddati, yuzaga kelish tartibi, shuningdek, ularda xalkning ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Insoniyatga davlat boshqaruvining azaldan ma'lum bo'lgan monarhiya va respublika shakllari mavjud.

Monarxiya yakkahokimlikni anglatib (yunonchada "monos" bir, "arxe" hokimiyat") oliy hokimiyat yakka, yagona hokim – davlat boshlig'i - monarx qo'lida mujassam bo'lgan, ushbu hokimiyat avloddan avlodga meros qilib qoldiriladigan davlat boshqaruv shaklidir.

Monarxiyaning *mutlaq* (absolut) va *cheklangan* (kostitutsion) shakllari mavjad bo'lib, *mutlaq (absolut) monarxiyada* oily hokimiyatni amalaga oshiradigan monarx (qirol, imperator, podsho, sulton, amir) faoliyati boshqa idora bilan cheklanmaydi. Mutlaq monarxiya, asosan, quldorlik va feodalizm davrlariga hos bo'lib, bunday davlatlarga hozirda Saudiya Arabistoni, Qatar, Bryney, Vatikan kabi davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

ppўқ

Monarx hokimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan vakolatli idora bilan cheklangan bo'lsa, bunday davlatda boshqaruv shaklining *cheklangan* (kostitutsion) shakllari o'rnatilgan demakdir.

O'z navbatida *konstititsion monarxiyaning dualistik* va *parlamentar* monarxiya tyrlari mavjud. *Dualistik monarxiya* boshqaruvning bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tish davrida turgan davlatlarga hos bo'lib, monarx ijro hokimiyatini o'z qo'lida mujassam etib, parlament emas, balki monarx oldida javobgar hukumatni shakllantiradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat esa parlamentga tegishli bo'ladi.

Parlamentar monarxiyalarda monarx hokimiyati davlat boshqaruvining barcha sohalarida chegaralangan bo'lib, monarxning rasmiy ravishda saqlanib qolingan vakolatlarini bajarishini, qonuniy hujjatlarni ishlab chiqishini ham parlament oldida javobgar bo'lgan ministrlar ma'qullashlari lozim. Buyuk Britaniya, Belgiya, Norvegiya, Niderlandiya, Monako, Lyuksenburg, Lixtenshteyn, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Kambodja,Tayland, Yaponiya kabi davlatlar parlamentar monarxiya boshqaruv shakli o'rnatilgan davlatlar hisoblanadi.

Monarxiyaning yana bir o'ziga hos turi mavjud bo'lib, monarxiya hamda respublikaning jihatlarini o'zida mujassam etgan *saylanadigan monarxiyadir*. BAA hamda Malayziya uchun hos bo'lgan boshqaruvning bunday shakliga ko'ra, davlat boshligi, masalan BAAda, amirliklarning shayhlaridan iborat Oliy Kengash a'zolari orasidan 5 yilga saylanadi.

Respublika davlat boshqaruvining keng tarqalgan shakli bo'lib, respublika boshqaruv shaklida davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab kuyilgan idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Yunonchada "umumiy ish" ma'nosini anglatuvchi respublikalarning o'ziga hos belgilari bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Hokimiyat oily organlari aniq muddatga saylanib qo'yiladi;
- Hokimiyat vakolatlari taqsimlanadi;
- Fuqarolarning davlat boshqaruv ishlarida ishtirok etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Hozirda respublikaning *prezidentlik, parlamentar, va aralash turlari* mavjud bo'lib, ular orasidagi farq davlat boshligi - president vakolatlari doirasidan kelib chiqqan.

Prezidentlik respublikalarida davlatni xalq saylaydigan, juda keng vakolatlarga ega bo'lgan, ham davlat, ham hukumat boshlig'i hisoblangan president boshqaradi. Prezidentlik respublikalarida hukumat prezident tomonidan tuzilib, u prezident oldida hisob beradi. Prezidentlik respublikalari ijroiya hokimiyatida Bosh vazir lavozimi iste'sno holatlarida uchrashi mumkin. Odati vitse president lavozimi mavjud bo'ladi. Mumtoz prezidentlik respublikalariga AQSh, Meksikalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Parlamentar respublikalarda davlat parlament tomonidan deputatlar orasidan saylangan president tomonidan boshqarilib, u asosan vakillik funktsiyalarini bajaradi. Prezidentlik respublikalaridan farqli o'laroq parlamentar respublikalarda parlament tomonidan shakllantirilgan hukumat Bosh Vazir tomonidan boshqarilib, prezident shu hukumat takliflariga ko'ra o'z vakolatlarini amalga oshiradi. Parlament hukumatni ishonchsizlik votumini e'lon qilib tarqatib yuborishi, prezident esa o'z navbatida hukumat taklifiga binoan parlamentni tarqatib, mudatdan oldin saylovlar e'lon qilishga haqlidir. Parlamentar respublikalarga Avstriya, Italiya, Germaniyalarni misol qilib keltira olamiz.

Aralash respublikalar davlat boshqaruv shaklining aytarli yangi ko'rinishi hisoblanib, bunday davlatlarda prezidentlik va parlamentar respublikalar elementlari aralashib ketgan. Hususan xalq tomonidan saylangan Prezident vakolatlari keng bo'lib, parlament tomonidan saylangan hukumatga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Ham president, ham parlament oldida javobgar hukumatni Bosh Vazir boshqaradi. Aralash respublikalarda Prezident ba'zi holatlarda parlamentni tarqatib yuborishi mumkin. Bunday davlatlar sirasiga Frantsiya, RF kiritishimiz mumkin.

Davlatning tuzilish shakli davlat shaklining muhim bir ko'rsatkichi bo'lib, davlatning ma'muriy-hududiy tashkil etilishi tushuniladi. Aniqlik kiritadigan bo'lsak, **davlat tuzilishi** deganda davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi, uning bo'laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlari bilan o'zaro aloqalari, davlat tarkibiy qismlarining huquqiy holati tushuniladi. Davlat tuzilishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar mavjud:

1) muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy maqsadlar;

2) davlatdagi millatlarning soni va o'zaro munosabatlari;

3) davlat hududining katta kichikligi.

Tuzilishi bo'yicha davlatlar *oddiy (unitary) va murakkab* (federativ va konfederativ) turlarga bo'linadi.

a) oddiy, yoki unitar davlatlar butun mamlakat miqyosida yagona vakillik, ijroiya, va sud organlari tizimiga, yagona Konstitutsiya va qonunlar tizimiga ega bo'lgan davlat hisoblanib, o'z suverenitetiga ega bo'lmagan viloyat, oblast, okrug, tuman deb turlicha nomlanadigan ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi.

b) *murakkab yoki federativ* (lotincha "feodus" ittifoq degani) *davlat* bir qancha davlatlar birlashuvidan hosil bo'lgan, hududi unga birlashgan davlatlar, ya'ni federatsiya sub'ektlari hududidan tashkil topgan davlat bo'lib, bunday davlatlarda hokimiyat idoralari hamda qonunchilik tizimining ikki darajasi

(ya'ni butun federatsiya va aniq federatsiya sub'ekti miqyosida ta'sir kuchiga ega hokimiyat idoralari hamda qonunchilik tizimi) mavjud bo'ladi. Federativ davlat sub'ektlari davlat tuzilmalari hisoblanib, ular ichki suverenitet, yuridik mustaqillikka ega bo'lishadi, ammo ularga **sessesiya**, ya'ni ajralib chiqish huquqi berilmaydi.

Federatsuyalarning ikki turi – ***shartnoma asosida tashkil topgan*** va ***shartnomaga asoslanmagan*** turlari mavjud.

Shartnoma asosida tashkil topgan federativ davlatlarga AQSh, Avstraliya, Malayziyalarni misol qilib keltirib, ularni o'z mustaqilligiga ega bo'lgan, lekin shartoma asosida birlashgan davlatlar ittifoqi sifatida baholashimiz mumkin.

S***hartnomaga asoslanmagan*** federatsiyalar esa o'z ma'muriy hududiy birliklariga kengroq huquqlar berish maqsadida ularni federatsiya sub'yektlariga aylantirgan davlatlar hisoblanib, ularga Hindiston, Nigeriya, RFlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ham unitar, ham federativ davlatlar yagona fuqarolik, yagona pul, soliq va kredit tizimiga, yagona armiyasiga ega bo'ladi.

Davlatlarning yana bir hududiy tuzilmasi, ***konfederatsiya*** mavjud bulib, ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan to'liq suverenitetga ega bo'lgan ***davlatlar ittifoqi*** hisoblanadi. Konfederatsiya aniq bir maqsadda tuzilganligi, unga a'zo davlatlarning konfederatsiyadan erkin chiqish huquqiga ega ekanligi sababli uncha mustahkam bo'lmagan ittifoq hisoblandi.

Davlatning siyosiy tuzumi aniq bir davlatga to'liq tavsif berish uchun muhim omil hisoblanib, davlat hokimiyatini amalga oshirish usuli va yo'llari, mamlakatdagi siyosiy vaziyat, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasi va shahsning huquqiy holati to'g'risida ma'lumot beradi. **Davlatning siyosiy tuzumi** insonning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi eng muhim elementdir.

Davlatning siyosiy tuzumi davlat shaklining boshqa ikki elementi - boshqarish shakli va davlat tuzilishi bilan uzviy bogliq bo'lib, uning ikki turi- ***demokratik va antidemokratik*** turlari mavjud.

Hokimiyatni amalga oshirishning ***demokratik usulida*** insonnig siyosiy va fuqarolik huquqlarining tengligi, fuqarolarning umum'etirof tilgan huquq va erkinliklridan to'la foydalanishlari, fuqarolarning davlat hokimiyati idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol istirok etishlari, pluralism, ya'ni fikrlar hilma – hilligi, qonun ustuvorligi ta'minlanadi.

Antidemokratik davlatlar uchun yuqorida qayd etilgan hususiyatlar yod bo'lib, davlatning huquqdan ustunligi, jamiyat hayotining barcha sohalarini nazorat qilishi, shahs manfaatlariga befarqligi, jamoat tashkiliotlarining davlatlashtirilishi, kam sonly millat huquqlari poymol etilishi kuzatiladi.

Antidemokratik siyosiy tuzumlar *totalitar, fashistik va avtokratik* ko'rinishga ega bo'ladi.

Totalitar rejim sharoitida siyosiy rahbar, xalq dohiysi boshchiligidagi hukmron siyosiy partiya tomonidan yaratilgan yagona rasmiy mafkura mavjud bo'lib, fuqarolar tashabbusi nokerak va zararli, fuqarolar erkinligi esa havfli degan aqidaga amal qilinadi. Sudsiz repressiyalar, militarizatsiya, tashqi agressivlik totalitar davlatlarga hos bo'ladi.

Fashistik rejim totalitarizmning eng dahshatli korinishi bo'lib, millatchilik mafkurasi, bir millatning boshqa millatdan ustunligi to'g'risidagi goyalarga asoslantiriladi.

Avtoritar rejimga asoslangan davlatlarga huquq, ahloq tushunchalari yod bo'lmasa-da, bunday davlatlarda davlat boshqaruvida xalqning ishtiroki emas, balki hokimiyatni xarbiy to'ntarish yoli bilan qo'lga kiritgan bir guruh - elita, va ularning dohiysi ishtiroki kuzatilib, rahbarlikni amalga oshiruvchi guruh uchun katta imtiyozlar, yengilliklar yaratiladi.

1.3.Huquq tushunchasi, uning belgilari va funktsiyalari.

Huquq masalasi insoniyatni davlat masalasi kabi ko'p asrlar davomida qiziqtirib kelib, uning mohiyatini tushunib yetishga o'z davrining mashhur olimu-fuzalolari bel bog'lashgan. "Adolat", "haqiqat" tushunchalari bilan chambarchas bogliq bo'lgan "huquq" tushunchasi "davlat" tushunchasi kabi turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Ilmiy adabiyotlarda hozirga kelib "huquq"ning mohiyatini ochib berishga hizmat qiladigan turlicha yondashuv va ta'riflarni uchratishimiz mumkin.

Birinchidan, "huquq" muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshirishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlar majmui sifatida talqin etiladi. Bunday huquq **subyektiv huquq** deb atalib, unga insonning yashash huquqi, biror bir mulkka egalik qilish huquqini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ikkinchidan, “huquq” bajarilishi hamma uchun majburiy bo’lgan hulq-atvor qoidalari yigindisi sifatida tushunilib, bunday ma’noda “huquq” “obyektiv huquq deb ataladi.

Uchinchidan, “huquq” ijtimoiy fan sohalaridan birining nomi bo’lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o’zida mujassamlashtiradi.

Qadimgi Rim mutafakkirlari **huquqni** yahshilik, halol yashash, har kimga o’ziga munosibini berish, o’zgalarga zarar yetkazmaslik, ezgulik va adolat san’atidir, deb ta’riflaydi.

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nosr al-Farobiy **huquqni** fozil odamlarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. **Huquq**, uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta’minlash, xavfsizlikni ta’min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. **Huquq** extiroslarni jilovlash vositasidir. **Huquq** — insonni asrash, avaylash qurolidir.

Zamonamizning olimlari ham “**huquq**”ga ta’rif berib, uni davlat tomonidan o’rnatiladigan yoki ma’qullanadigan va qo’riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo’lgan yashash qoidalari deb bilishadi.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyatordir[1]

Huquq davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulk-atvor qoidalari tizimidir[2].

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov huquqga shunday ta’rif bergan: «**Huquq** ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi dir ».[3]

“Huquq” tushunchasi **“davlat”** tushunchasi bilan chambarchas bog’liq bo’lib, bunday bog’liqlik huquqning davlat tomonidan yaratilishi, uning bajarilishi esa davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanishida namoyon bo’ladi. O’z navbatida huquq ham davlat hayotida hal etuvchi ahamiyatga ega bo’lib, aynan huquq davlatdagi ijtimoiy hayotni tartibga soladi, qolaversa, aynan huquq normalarida davlatning davlat ekanligi yozma ravishda bayon etiladi.

“Huquq” ham oz navbatida”davlat” singari o’z belgilariga ega. Masalan A.Saidov bilan U.Tojixanov o’zlarining «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida kuyidagi huquq belgilarini ko’rsatib berishgan:

1.Huquqning ijtimoiyligi.

2.Huquqning normativ hususiyatga egaligi.

3.Huquqning majburiyligi.

4.Huquqning rasmiyligi.

5.Huquqning muayyan jarayon ekanligi.

6.Huquqning shaxsiylashtirilmaganligi.[4]

Huquqiy adabiyotlarda huquqnig boshqa belgilari ham ko’rsatilgan. Masalan, X.B.Boboyev, X.T.Odilkorievlar o’zlarining «Davlat va huquq nazariyasi» darsligida huquq tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy belgilarni ko’rsatib berishgan:

1.Huquqning barcha uchun majburiyligi;

2.Huquqning qonun va boshqa aniq shakllarda ifodalangan bo’lishi;

3.Huquqning davlat tomonidan o’rnatilishi, muxofaza qilinishi;

4.Huquqning ijtimoiy tartib-intizom, erkinlik, adolatparvarlik, tenglikni ta’minlash vositasi ekanligi;

---

[1] Davlat va huquq nazariyasi. A’zamxo’jaev A ва O’razaev Sh. Tahriri ostida. T. 255 b.

[2] Tadjihonov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari. O’quv qo’llanma. T. 1999. 40 b.

[3] Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari. T.:«O’zbekiston», 26 b.

[4] Saidov A., Tadjihonov U. «Davlat va huquq nazariyasi». T..: “Adolat”. 2001. 97-100 betlar.

5.Huquqning sub’ektiv va ob’ektiv huquqlarga bolinishi va sub’ektiv huuqlar orqali xarakat qilishi;

6.Huquq extiroslarni jilovlash vositasi ekanligi.[1]

Mazkur belgilarning majmui huquq haqida to’larok tushunchaga ega bo’lish imkonini beradi.

Huquq turli davrlarda turli guruhlar manfaatini himoya qilishga, alohida bir guruh kishilar irodasini ifoda etishga hizmat qilgan ekan, turli davrlarda uning mohiyati turlicha talqin qilingan. Hozirda davlatning barcha fuqarolarining erk-irodasini ifoda etayotgan huquq, o’zining paydo bo’lgan ilk davrida mulkdorlar sinfi manfaatlarini himoya qilib kelgan. Shuning bilan uning mohiyati belgilanar edi. Hozirda huquq o’z mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi **funktsiyalarni** bajaradi:

- ***Tartibga solish.*** Bu funktsiya jamiyatning normal faoliyatini ta’minlashga hizmat qilib, turli ijtimoiy aloqalarni, hususan, ishlab chiqarish, mehnat qilish, ahborot va mahsulot ayrboshlashdan kelib chiqqan aloqalar mezonini mustahkamlaydi.

- ***Qo’riqlash.*** Ushbu funktsiya huquqga huquqiy muhofaza va huquqiy javobgarlik choralarini belgilash, javobgarlikni o’tash tartibini o’rnatish orqali davlat tuzimi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy hayoti, ma’lum ijtimoiy guruhlarning hukmronligi, mafkura asoslari, jamiyatning barcha a’zolarining xayoti, erkinligi, mulkini qo’riqlash imkoniyatini beradi.

- ***Tarbiyalash.*** Ishontirish, majburlash, jazolash usullarini qo’llashni inkor etmagan holda, turmushda qilinishi mumkin bo’lgan yoki ta’qiqlangan harakatlarni, ahloqiy va huquqiy qadriyatlarni aniqlashda huquqning tarbiyaviy funktsiyasi namoyon bo’ladi.

1.4.Huquqiy norma tushunchasi, uning belgilari va tuzilishi.

Har qanday jamiyat uning a’zolari o’rtasida kelib chiqadigan turli hil munosabatlarlning mavjudligi bilan tavsiflanadi, zero insonlar o’rtasidagi munosabatsiz jamiyatning rivojlanishi, uning takomillashishi mumkin emas. Lekin ikki va undan ko’p kishilar ortasida kelib chiqadigan har qanday munosabat biror bir meyorga, qolipga solinishi lozim, negaki bunday munosabatlarda turli manfaatlar mavjud-ki, bir kishining manfaati ikkinchisining manfaatidan ustun bo’lishi mumkin emas. Aynan shunday tenglikni ta’minlash maqsadida insoniyat umumiy **hulq-atvor qoidalarini** ishlab chiqargan-ki, ular **ijtimoiy normalar,** ya’ni jamiyatning, jamiyat a’zolari bo’lmish insonlarning hayotini tartibga, bir meyorga solishga hizmat qiladi. Ijtimoiy norma, yoki ijtimoiy meyorlarning quyidagilari mavjud:

- *Ahloq normalari* – adolat va nohaqlik, burch va ma’suliyat, ezgulik va yovuzlik, sha’n, qadr-qimmat haqidagi axloqiy tushunchalarga tayanilgan holda ishlab chiqilgan xulq-atvor qoidalari;

- *Odat normalari* – ko’p marotaba takrorlanganligi tufayli kishilar hayotida mustahkamlanib qolgan xulq-atvor qoidalari;

- *Siyosiy normalar* – siyosiy huquqlar egalarining ushbu huquqlardan foyldalishlaridan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi xulq – atvor qoidalari;

- *Diniy normalar* - dindorlarning hayot tarzini belgilab beruvchi xulq – atvor qoidalari.

Ijtimoiy normalar turkumi juda keng bo’lib, ular orasida ***huquqiy normalar*** alohida ahamiyatga va hususiyatlarga ega.

Huquqiy normalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, xalq irodasini ifodalovchi, davlat tomonidan o’rnatilgan, kafolatlangan va muhofaza qilingan, davlat meyoriy hujjatlarida aks ettirilgan, bajarilishi jamiyatning barcha

[1] Boboyev H.B., Odilqoriyev X.T. «Davlat va huquq nazariyasi» TDYUI. 2000. 203bet.

a’zolari uchun majburiy bo’lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalaridir.

Huquqiy norma ham ijtimoiy norma ekan, har qanday ijtimoiy norma kabi huquqiy normaning asosiy vazifasi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish ekan, huquqiy normaning ***o’ziga hos belgilari*** nimadan iborat?

- Huquqiy norma davlat tomonidan, ya’ni qonun va qonun osti aktlarini chiqarish mahsus vakolatlariga ega bo’lgan davlat organlari tomonidan o’rnatiladi;
- Huquqiy norma qonun va boshqa hujjatlarda aks ettiriladi;
- Huquqiy normaning bajarilishi barcha uchun majburiy;
- Huquqiy normaning bajarilishi zarur bo’lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanadi.

Huquqiy norma tuzilishiga ko’ra bir – biri bilan bog’liq bo’lgan, lekin har doim ham uyg’un uchramaydigan quyidagi uch tarkibiy qism (element)dan: ***gipoteza, dispozitsiya, sanktsiyalardan*** tashkil topadi.

Gipoteza - huquq normasining tarkibiy qismi bo’lib unda usbu norma qaratilgan shahslar guruhi hamda (yoki) norma amal qila boshlaydigan, bajariladigan sharoit bayon etiladi.

Dispozitsiya - huquq normasining shunday tarkibiy qismi-ki, unda bajarilishi nazarda tutilgan xulq-atvor qoidasi ifoda etiladi, huquq sub’yektining huquq va majburiyatlari ko’rsatiladi.

Sanktsiya - huquq normasining huquqbuzarlarga nisbatan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi.[1]

Huquqiy normaning ushbu uch elementi bilan misollar yo’rdamida yaqinroq tanishishga harakat qilamiz. O’R Konstitutsiyasining 77-moddasiga binoan, Saylov kuni 25 yoshga to’lgan hamda kamida 5 yil O’R hududida muqim yashayotgan O’R fuqarosi O’R Oliy Majlisining qonunchilik palatasi hamda O’R OM Senati a’zosi bo’lishi mumkin. Ushbu modda Konstitutsiyaviy huquq meyori bo’lib, ko’pgina Konstitutsiyaviy huquq meyorlari kabi, ushbu meyorda sanktsiya mavjud bo’lmay, gipoteza va dispozitsiya qismlari namoyon bo’lmoqda. Hususan, ushbu *moddaning “saylov kuni 25 yoshga to’lgan hamda kamida 5 yil O’R hududida muqim yashayotgan O’R fuqarosi”* degan qismi huquqiy meyorning <u>gipoteza</u> qismi bo’lib, unda usbu norma qaratilgan shahslar guruhi hamda (yoki) norma amal qila boshlaydigan, bajariladigan sharoit bayon etilgan. Moddaning “O’R Oliy Majlisining qonunchilik palatasi hamda O’R OM Senati a’zosi bo’lishi mumkin” degan qismi huquqiy meyorning <u>dispozitsiya</u> qismi bo’lib, unda bajarilishi nazarda tutilgan xulq-atvor qoidasi ifoda etilgan.

Oila Kodeksida ham gipoteza va dispozitsiya kabi huquqiy meyorning tarkibiy qismlari uyg’unlikda uchraydigan huquqiy meyorlarni uchratishimiz mumkin. Hususan, u erda aytilishicha, 18 yoshga to’lgan erkaklar, 17 yoshga to’lgan ayollar oila qurishga haqlidirlar. Ushbu moddaning “18 yoshga to’lgan erkaklar, 17 yoshga to’lgan ayollar” to’g’risidagi qismi huquqiy meyorning gipoteza qismi bo’lsa, “oila qurishga haqlidirlar” degan qismi huquqiy meyorning dispozitsiya qismidir.

<u>*Sanktsiya* -</u> huquq normasining huquqbuzarlarga nisbatan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi ekan, uni asosan jinoyat huquqi meyorlarida uchratishimiz mumkin. Hususan, O’R Jinoyat Kodeksining 142 moddasida, turar joyga unda yashovchilarning erkiga hilof ravishda zo’rlik ishlatib g’ayriqonuniy bostirib kirish 3 yilgacha ahloq tuzatish ishlari, yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deyilgan. Bunda moddaning “turar joyga unda yashovchilarning erkiga hilof ravishda zo’rlik ishlatib g’ayriqonuniy bostirib kirish” to’g’risidagi qismi dispozitsiya bo’lsa,

[1] Юридический словарь. М.:OLMA-PRESS Образование. 2005. 109, 150 va 489-490 betlar.

moddaning “3 yilgacha ahloq tuzatish ishlari, yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi” degan qismi sanktsiya hisoblanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, huquqiy normalarni jamiyatda mavjud munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, vakolatli davlat organlari hujjatlarida o’z ifodasini topgan, bajarilishi davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanadigan hulq-atvor qoidalari sifatida ta’riflashimiz mumkin. Ushbu hususiyatlarga ega hulq-atvor qoidalarining barchasi uygunlikda huquq tizimini tashkil etadi. Ushbu masalani ma’ruzamizning keyingi qismida kengroq yoritishga urinib ko’ramiz.

1.5. Huquq tizimi va huquq manbalari.

Yuqorida qayd etilganidek, **huquq** bu davlat tomonidan o’rnatilgan, barcha uchun majburiy bo’lgan hulq-atvor qoidalaridir va uning asosiy **funktsiyalaridan** biri turli hil ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Ijtimoiy munosabatlarning soni va turli tumanligi ularni tartibga soladigan qoidalarning, ya’ni huquqiy meyorlar sonining kattaligini va turli tumanligini taqazo etadi. Ushbu huquqiy meyorlarning, qonun - qoidalarning barchasi **huquq tizimini** tashkil etadi.

Huquqshunos olimlar ta’biri bilan aytganda “**Huquq tizimi** meyoriy materialning muayan tartibda ketma-ket birlashishi va joylashishida ifodalanadigan va ijtimoiy munosabatlar tizimi ob’ektiv taqazo etadigan huquqning ichki tuzilishidir”[1].

“Huquq tizimi turli tuman, lekin o’zaro mustahkam aloqada bo’lgan yuridik normalar yigindisi”.[2]

Kishilar orasida mavjud munosabatlarni shartli ravishda ma’lum guruhlarga bo’lishimiz mumkin. Masalan, mehnat munosabatlari, oilaviy yoki mulkiy munosabatlar. Ushbu munosabatlar orasidagi farq ularnu tartibga soluvchi huquqiy meyorlar orasidagi farqni taqazo etadi. Yani, alohida turkumni tashkil etuvchi munosabatlar tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinadi-ki, ushbu huquqiy meyorlar o’zaro bog’liqligi va alohida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi munosabati bilan alohida **huquq tarmogini** tashkil etadi. Ya’ni, **huquq tarmog’i** bu ma’lum sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy meyorlar yig’indisi bo’lib, o’z navbatida ushbu huquqiy meyorlar o’zaro bog’liqligi va muvofiqligi bilan ajralib turadi. Demak, davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilma-xilligi huquq tizimining huquq tarmoqlariga bo’linishini taqazo etib, huquqiy tartibga solinadigan mavjud ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqqan holda, hozirda O’zbekiston huquq tizimining **quyidagi huquq tarmoqlarini** ajratib ko’rsatishimiz mumkin:

Konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, ekologik huquq, soliq huquqi, bojhona huquqi, jinoyat huquqi, ho’jalik huquqi, moliya huquqi, bank huquqi, ho’jalik - protsessual huquqi, fuqarolik – protsessual huquqi, jinoyat –protsessual huquqi va qator boshqalar. Huquq tarmoqlarining nomlanishi ularning har biri o’ziga hos ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi to’g’risida dalolat beradi.

Yuqorida qayd etilgan huquq tarmoqlarini, o’z navbatida, ikki katta guruhga ajratishimiz mumkin: *ommaviy huquq va hususiy huquq.*

Ommaviy huquq guruhiga kiruvchi huquq tarmoqlari quyidagilar: *Konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq, soliq huquqi, bojhona huquqi, jinoyat huquqi, jinoyat –protsessual huquqi* va boshqalar. Ularning o’ziga hos tarafi ushbu huquq tarmoqlarining davlat bilan fuqarolar o’rtasida kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solishidadir. Davlat bilan fuqarolar o’rtasida kelib chiqadigan munosabatlar hokimiyat va bo’ysinish munosabati bo’lib, ushbu munosabatlar asosan davlat boshqaruvi sohasida mavjud bo’ladi va ularda

[1]Islomov Z., Husanov O., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. Ma’ruzalar matni. T.:2000. 95 bet.

[2] Yoqubov J., Haitboyev E. Huquqshunoslik. Darslik. T.: “Yangi asr avlodi” 2006. 33-34 betlar.

taraflarning tengsizligi, yani bir tarafning ikkinchi tarafdan ustunligi, mavqeining balandligi, bir tarafning ikkinchi taraf irodasiga so'zsiz itoat etishi kuzatiladi.

Hususiy huquq guruhiga kiruvchi huquq tarmoqlari o'zaro teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladilar. Bunday huquq tarmoqlari orasida mulkiy va shahsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi mehnat huquqini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Ommaviy huquq va hususiy huquq guruhiga kiruvchi huquq tarmoqlari, nafaqat, tartibga solish predmeti, ya'ni tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlari bilan, balki tartibga solish usuli bilan ham farqlanadi. Huquqiy tartibga solish usuli deganda huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishiga yordamlashadigan vositalar, usullar yig'indisidir. Bunda o*mmaviy huquq* guruhiga kiruvchi huquq tarmoqlariga ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining birining ikkinchisiga bo'ysinishiga asoslangan tartibga solish usuli (masalan majburlov usuli) hos bo'lsa, h*ususiy huquq* guruhiga kiruvchi huquq tarmoqlariga taraflarning tengligiga asoslangan tartibga solish usuli hosdir.

Huquq tizimi singari huquq tarmoqlari ham o'z navbatida alohida turkumlarga, ya'ni huquq institutlariga bo'linadi. **Huquq instituti** huquq tarmog'i tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarni tashkil etuvchi alohida kichikroq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy meyorlar yig'indisidir. Masalan, huquq tarmog'i sifatida fuqarolik huquqi taraflar o'rtasida kelib chiqadigan mulkiy va shahsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solsa, fuqarolarning merosga egalik qilish huquqlaridan kelib chiqadigan munosabatlari fuqarolik huquqining meros huquqi deb nomlanadigan huquqiy instituti bilan tartibga solinadi.

Huquq to'g'risidagi bilimlarimizni **huquq manbalari** to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirishimiz o'rinli. Huquq yoki huquqiy meyorlarga ta'rif berar ekanmiz, ularning vakolatli davlat organlari hujjatlarida aks ettirilishiga bir necha bor to'htalib otdik. Demak alohida hulq-atvor qoidasi, albata, biror bir ob'ektiv hollatda ifodalanishi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, vakolatli davlat organlarining qonun kuchiga ega bo'lgan hujjatida, yoki davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan bo'lishi lozim-ki, shundagina ushbu qoida, hulq-atvor qoidasi huquqiy normaga aylanishi mumkin. Ya'ni, hozirda gap huquq manbalari to'g'risida borib, **huquq manbalari** deganda huquqni ob'yektiv ifodalash usullari tushuniladi. Huquq manbalarining quyidagi turlari mavjud:

- ***Huquqiy odat; Yuridik pretsedent; Normativ-huquqiy hujjat; Xalqaro-huquqiy normalar.***

Huquqiy odat deb muntazam takrorlanishi natijasida barqaror hulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiqlangan hulq-atvor qoidasiga aytiladi. Huquqiy odat asosan urug'chilik jamiyatlari davriga hos bo'lib, asta sekin davlat tomonidan qabul qilingan meyoriy hujjatlarning qabul qilinishi va qo'llanishi natijasida siqib chiqarilgan. Hozirda odatning qo'llanilishi qonun doirasi qamrab ololmaydigan yoki qonunning o'zi odat normasiga tayanishni havola etadigan hollardagina kuzatiladi.

Yuridik pretsedent ham barcha zamonaviy davlatlarda birday ahamiyatga ega bo'lmagan, lekin o'ziga hos huquq manbai hisoblanib, meyoriy (umummajburiy) kuchga ega sud yoki boshqa bir ma'muriy organ qarori hisoblanadi. Bunda ushbu qaror kelgusida huddi shunday ishlarni ko'rilishida namuna, mayor sifatida qo'llanilib, shuning bilan uning huquqiy kuchi belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjat davlatning huquqiy ijodkorligi yoki umumhalq referendumi natijasida yaratiladigan huququy meyorlarni ifodalovchi rasmiy hujjat.Huquq manbalari orasida mihum ahamiyatga ega bo'lib, O'Rda huquq manbai sifatida tan olingan. Normtiv huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

Qonun - qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan mahsus tartibda qabul qilinadigan, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, davlat organlari qabul qiladigan boshqa meyoriy hujjatlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'lgan meyoriy

huquqiy hujjat. *Qonunlarning konstitutsiyaviy* va *joriy* turlari mavjud. *Konstitutsiyaviy qonunlar* davlat va jamiyat tuzilishining tub asoslarini, shahs, davlat organlari va boshqa tashkilotlar huquqiy mavqeini belgilab beruvchi, amaldagi Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kirituvchi qonunlar hisoblanadi. *Konstitutsiyaviy qonunlar* ovoz berishda ishtirok etuvchi deputatlarning murakkab ko'pchiligi, ya'ni 2/3 qismi rozilik ovozini bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Davlat va jamiyat hayotini tartibga solishga qaratilgan, Konstitutsiya qoidalari va printsiplari asosida hamda ijrosi manfaati yo'lida chiqarilgan boshqa qonunlar *joriy qonunlar* hisoblanib[1], *joriy qonunlarni* qabul qilish uchun ovoz berishda ishtirok etayotgan deputatlar oddiy ko'pchiligining (yani 50+1) roziligi etarli bo'ladi.

Prezident tomonidan chiqariladigan hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmagan, ularning bajarilishini ta'minlash maqsadida qabul qilinadigan, butun mamlakat miqyosida majburiy kuchga ega bo'lgan, prezident tomonidan mustaqil tartibda chiqariladigan meyoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanib, ularning farmon, qaror va farmoyish kabi turlari mavjud.

Prezident farmonlari ijroiya hokimiyat tizimida eng yuqori kuchga ega bo'lgan meyoriy huquqiy hujjat hisoblanib, yuridik kuchi va ahamiyati jihatidan qonundan keyingi o'rinda turadigan, aholi ijtimoiy hayotining hamda davlat boshqaruvining qonunlar va hukumat qarorlari bilan qamrab olinmagan dolzarb masalalarni hal etish imkonini beradigan hujjatdir.[2]

Hukumat tomonidan chiqariladigan hujjatlarga normativ huquqiy harakterga ega, bajarilishi butun davlat hududida majburiy bo'lgan hukumat, ya'ni O'R Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoishlari taaluqli bo'lib, muhim ahamiyatga hamda meyoriy huququi tusga ega bo'lgan hukumat qarorlari *qaror* shaklida joriy etilsa, tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlar *farmoishlar* shaklida chiqariladi.

*Vazirliklar va boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa idoralar hujjatlari*ga qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlariga muvofiq holda hamda ularning ijrosini ta'minlash, boshqaruv faoliyatining tegishli tarmog'iga rahbarlikni, ijro, nazorat, ijozat funktsiyalarini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan buyruqlar, yo'riqnomalar, qoidalar, tavsiyalar, nizomlar taaluqlidir. Ushbu hujjatlar ta'sir kuchi tegishli tarmoq chegaralari bilan chegaralansa-da, ularning ba'zilari davlat ro'yhatidan o'tkazilib, matbuotda e'lon qilinsa tashqi ta'sir doiralariga ega bo'ladi. Masalan tegishli vazirlik yo'riqnomalari meyoriy xarakterga ega bo'lsa, buyruqlar nomeyoriy, individual tusga ega bo'lishu mumkin.

Joylardagi vakillik va ijroiya organlarining hujjatlari Konstitutsiya, qonunlar, prezident farmonlari, hukumat qarorlari, markaziy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hujjatlariga muvofiq holda va ularni ijro etish uchun qaror va farmoishlar shaklida qabul qilinib, ularning ta'sir kuchi tegishli vakillik va ijroiya organlarining hokimiyati ta'sir etadigan hudud doirasi bilan cheklanadi.

Xalqaro-huquqiy normalar davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida ular uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'zaro huquq va majburiyatlarni yaratuvchi, ularning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi meyoriy hujjatlar bo'lib, ular orasida xalqaro shartnomalar alohida ahamiyatga ega. ***Xalqaro-huquqiy normalar***ning o'ziga hos jihati, ularning mamlakat ichki qonunchiligidan ustunligidir. O'R qonunchilgida ham quyidagicha qoida mustahkamlanib qo'yilgan: "Basharti xalqaro shartnoma va bitimlarda O'R qonun hujjatlaridan o'zgacha qoida mustahkamlanib

[1] Odilqoriev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. T.:"O'zbekiston", 1995. 43-44 betlar.

[2] Odilqoriev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. T.:"O'zbekiston", 1995, 46-47 betlar.

qo'yilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma va bitim qonunlari qo'llaniladi". Shu o'rinda O'R ushbu xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya, ya'ni tegishli xalqaro shartnoma O'R Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan, majburiyligi tan olingan bo'lishi kerakligini inobatga olishimiz lozim.

O'Rda ***normativ-huquqiy hujjatlar*** hisoblanmish O'R Konstitutsiyasi, O'R Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan O'R qonunlari, O'R Prezidenti farmonlari, O'R Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoishlari, ***v***azirliklar va boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa idoralar hujjatlari, joylardagi vakillik va ijroiya organlarining hujjatlari hamda O'R OM ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar huquq manbalari sifatida tan olingan.

XULOSA.

Davlat va huquq tushunchalari, ularning mazmun mohiyati ni tushunib yetish davlatchilik va huquqning jo'shqin rivojlanib borayotgan hozirgi davrida juda katta ahamiyatga ega. Mazmun mohiyati rivojlanishning uzoq va mashaqqatli davri davomida takomillashib borgan davlat va huquq hozirda insoniyat manfaatlari yo'lida hizmat qilib kelmoqda. Agarda davlat ijtimoiy qarama qarshiliklarni ijtimoiy kelishuv, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylangan bo'lsa, huquq ijtimoiy tartib intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik, va tenglikni vujudga keltirish vositasidir. Albatta davlat va huquq tushunchalarini bunday talqin qilishda davlatda o'rnatilgan siyosiy tuzum hal etuvchi ahamiyatga ega.

"Huquqshunoslik" fanining ushbu mavzui doirasida "davlat", "huquq" tushunchalari keng yoritilib, davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar, davlat shakllari, huquq tizimi, huquq manbalari va ush bu tushunchalar bilan bog'liq boshqa masalalar yoritilgan. Mustaqil ish mavzulari bilan yaqindan tanishish maqsadida talabalarga A.Saidov, U. Tadjixanov, Z.Islamov, X.Odilkoriev, X.Boboyev kabi nazariyotchi - olimlarlar tomonidan yozilgan darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni o'rganishni tavsiya etamiz.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Davlatning kelib chiqish sabablari qanday?
2. Davlatning qanday belgilarini bilasiz?
3. Davlat shakli deganda nima nazarda tutiladi?
4. "Huquq" tushunchasining qanday ma'nolarini bilasiz?
5. Huquqning asosiy belgilari nimalardan iborat?
6. Huquq manbalari deganda nima nazarda tutiladi va huquq manbalarining qanday turlari ma'lum?
7. Huquq tizimi nima va ushbu tizimning tarkibi qanday?
8. Huquqiy norma va uning tarkibi to'g'risida nimalar bilasiz?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalashtirish va isloh qilishdir". T.: O'zbekiston 2005.
2. I.A. Karimov. "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odam, deb hisoblashar edi". – T.: O'zbekiston, NMIU, 2005.
3. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat. 2008.
4. U. Tadjihonov, A. Saidov. "Davlat va huquq asoslari". O'quv qo'llanma. T.: "Adolat". 1999.
5. A.Saidov, U. Tadjihonov. "Davlat va huquq nazariyasi". T..: "Adolat". 2001.
6. H.B. Boboyev, X.T. Odilqoriyev. "Davlat va huquq nazariyas". TDYUI. 2000.
7. Z. Islomov, O.Husanov, M.Mirhamidov. "Huquqshunoslik". Ma'ruzalar matni. T.,2000.
8. J.Yoqubov, E. Haitboyev. "Huquqshunoslik". Darslik. T.: "Yangi asr avlodi" 2006.
9. H.T. Odilqoriev. "O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni". T.: "O'zbekiston", 1995.

10. B.I.Avdiev “Qadimgi sharq tarihi”. M.,1975.
11. Юридический словарь. M.:OLMA-PRESS. Образование. 2005.
12. www.gov.uz
13. www.edu.uz
14.www. lex.uz

MA’MURIY HUQUQ ASOSLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalar ongiga ularga ma’muriy huquqi tushunchasi, ma’muriy-huquqiy munosabatlar turlari, ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasi, uning belgilari va tarkibi, ma’muriy jazo turlari to‘g‘risida bilim va ko‘nikma hosil qilish orqali qonunlarga rioya qilish, talabalarning huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar orasida sog’lom muhitni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: boshqaruv, boshqaruv munosabatlar, kuzatuv, nazorat, tekshiruv, fuqarolar va ijro etuvchi organlar, ma’muriy majburlov choralari, ma’muriy huquqbuzarlik, ma’muriy javobgarlik, ma’muriy jazo.

Asosiy savollar:

1. Ma’muriy huquq tushunchasi, uning predmeti va manbalari.
2. Ma’muriy huquq sub’ektlari.
3. Ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy jazo.

“Aqliy hujum” uchun savollar:

– Sizningcha ma’muriy huquq fani nimani o’rganadi?
– Ma’muriy huquqni bilish ahamiyati nimadan iborat?
– Qaysi davlat organlari ma’muriy jazo tayinlash huquqiga ega?

1.Ma’muriy huquq tushunchasi, uning predmeti va manbalari.

Ma’muriy huquq O’R huquq tizimiga kiruvchi eng muhim huquq tarmoqlaridan biri hisoblanib, ma’muriy huquq huquq tizimini huquq tarmoqlariga bo’linishiga asos bo’lib xizmat qiluvchi tegishli shaxslar o’rtasida kelib chiqadigan o’ziga hos huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Kishilik jamiyatida, davlatchilik tizimida alohida ahamiyatga ega bo’lgan munosabatlar davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar bo’lib, **ma’muriy huquq** davlat boshqaruvini tashkil etish tartibi va boshqaruvni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ana shunday ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlarni o’z ichiga olgan huquqning alohida tarmog’idir.

Ma’muriy huquq davlat boshqaruvi tizimining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi bilan bog’liq holda paydo bo’ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog’idir.[1]

Ma’muriy huquq ijro etuvchi hokimiyatning tashkil qilinishi va amal qilishi jarayoni hamda davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar majmuidir.

Ma’muriy huquq O’zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining mustaqil tarmog’i sifatida davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning amal qilishi, rivojlanishi va to’xtatilishini o’rgatadi.

Ma’muriy huquq tavsiflari talaygina bo’lsa-da, ular mazmunan bir biriga yaqin. Yuqorida berilgan ta’riflarning barchasida ma’muriy huquqning davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi to’g’risida so’z boradi. Shu sabali ham ushbu huquq tarmog’i “ma’muriy huquq” yoki boshqaruv huquqi deb ataladi

[1] Islomov Z., Husanov O., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. Ma’ruzalar matni. T.:2000. 121 b.

Har qanday huquq tarmog'i singari **ma'muriy huquq** o'z predmetiga ega. Davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan turli ijtimoiy munosabatlar, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak ma'muriy-huquqiy munosabatlar ***ma'muriy huquq predmetini*** tashkil etadi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarni uch turkumga ajratish mumkin.

I. O'R butun hududida ijro hokimiyati tizimining faoliyat yuritishi bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar.

II. Davlat va mahalliy boshqaruv organlarini tashkil etish hamda ularning faoliyat yuritishi bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar.

III. Nodavlat tuzilmalarning faoliyat yuritishi bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar.

Ma'muriy huquqiy munosabatlarni vertikal hamda gorizontal munosabatlar guruhlariga ham bo'lishimiz mumkin. Bunda

- tashkiliy jihatdan biri ikkinchisiga bo'ysunadigan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni (O'z R Vazirlar Mahkamasi bilan vazirliklar, qo'mitalar va hokimliklar o'rtasida kelib chiqadigan munosabatlar);
- davlat boshqaruv organlari va ularga bo'ysunadigan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni;
- davlat idora organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni *vertikal munosabatlar* guruhiga kirgizsak, *gorizontal munosabatlar* guruhiga
- biri-biriga bo'ysunmaydigan davlat idora organlari o'rtasidagi munosabatlar (ikki vazirlik yoki ikki hokimlik o'rtasida kelib chiqadigan munosabatlar);
- davlat idora organlari va jamoat birlashmalari o'rtasidagi munosabatlar kiradi.

Yuqoridagi munosabatlarni tahlil qilgan holda aytishimiz mumkin-ki, ma'muriy huquq normalari davlat boshqaruv organlari, korxona, muassasa va tashkilotlarni tashkil etish, ularni o'zgartirish yoki ularni tugatish qoidalarini belgilab berish bilan bir qatorda, boshqaruv organlarining ijrochilik va farmoyish beruvchilik faoliyatining samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

Har qanday huquq tarmog'ining asosiy vazifasi tartibga solish bo'lgani kabi, **ma'muriy huquqning** ham ***asosiy vazifasi*** yuqorida qayd etilgan munosabatlarni tartibga solishdir. Lekin ma'muriy huquq tartibga solishning oziga hos usuliga ega bo'lib, ***ma'muriy-huquqiy tartibga solish*** usulining o'ziga hosligi tomonlarning notengligi xisoblanadi: bir tomonning irodasi ikkinchi tomon irodasi ustidan hukmronlik qiladi. Ya'ni ma'muriy huquqiy munosabatlarda bir tomon hamma vaqt yuqori turuvchi davlat boshqaruv organi bo'ladi va u davlat nomidan farmoyish berish huquqiga ega. Ikkinchi taraf esa ushbu farmoishni o'zining quyi mavqeidan kelib chiqqan holda so'zsiz bajarishi lozim.

Ma'muriy – huquqiy tartibga solish ma'muriy huquqning me'yorlari orqali amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq me'yorlari, avallo, davlat boshqaruvining prinsiplarini belgilab beradi. Bu me'yorlar davlat boshqaruv organlarini tashkil etish, tugatish masalalarini, ularning tizimini, maqsadi va vazifalarini, vakolatlar doirasini belgilab beradi. Ma'muriy huquq me'yorlari jamoat tashkilotlari va fuqarolarning boshqaruv sohasidagi huquq hamda burchlarini, davlat apparatiga xizmatga kirish qoidalarini, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik, masalalarini, yo'l harakati, savdo, ov qilish, oliy o'quv yurtlariga test orqali kirish va u yerda ta'lim olish qoidalarini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq me'yorlari ma'muriy huquqbuzarlik sanaluvchi xatti xarakatlar doirasini belgilab beradi va unday xarakatlar sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralarini belgilaydi.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi ma'muriy huquq o'z me'yorlarining oddiy majmui emas, balki mukammal tizimi, ya'ni ma'lum qoidalar asosida, bir tartibda belgilangan

normalar yig'indisidir. Ushbu normalar, meyorlar o'z ifodasini topgan meyoriy hujjatlar **ma'muriy huquq manbalari** hisoblanadi

O'R ma'muriy huquqining asosiy manbai bo'lib O'R Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyada davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomi va ular faoliyatini tashkil etish asoslari, bunday organ va davlat mansabdor shahslarining huququy vakolatlari, O'R fuqarolarining davlat organlari faoliyatida ishtirok etishining huquqiy asoslari, ularning asosiy huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

Davlat boshqaruv organlari faoliyatini tashkil etish, uni tartibga solish, mansabdor shahslarning huquqiy vakolatlarini belgilash, ma'muriy boshqarish, ma'muriy tartibga solish predmetiga taaluqli:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlari (masalan, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunlar);
2. O'zbekiston Respublikasi joriy qonunlari (masalan, "Ommaviy ahborot vositalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunlar);
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari (masalan, O'R Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni);
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi;
6. Vazirliklar, idoralar, qo'mitalarning buyruq va qarorlari;
7. Mahalliy boshqaruv organlarining farmoyish va qarorlari;
8. Davlat va nodavlat korxonalar (muassasalari) rahbarlarining buyruqlari;
9. Korxonalar bo'linmalari rahbarlarining farmoyishlari O'R Ma'muriy huquqining manbalari hisoblanadi.

2. Ma'muriy huquq sub'ektlari.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ma'muriy huquq davlatni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu munosabatlar ijtimoiy munosabat ekan, ularda jamiyat a'zolarining, yani insonlarning ishtiroki muqarrar. Tegishli ijtimoiy munosabat ishtirokchilari tegishli huquq tarmog'ining subyektlari sifatida tan olinadilar, qachon-ki ular huquqsubyektliligiga ega bo'lsalar.

Ma'muriy huquqning sub'ektlari deganda davlat boshqaruvi jarayoni ishtirokchilari tushuniladi. Davlat boshqaruvi davlat boshqaruv organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshirilishini, mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlari, korxona, tashkilot, muassasalar, jamoat birlashmalari ishtirokini taqazo etar ekan, **ma'muriy huquq sub'ektlari** deb quyidagilar tan olinadi:

- *davlat organlari;*
- *mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlari;*
- *davlat xizmatchilari;*
- *korxona, tashkilot, muassasalar;*
- *jamoat birlashmalari;*
- *fuqarolar.*

Davlat organlari davlat tomonidan tashkil etilib, davlat nomidan ish ko'radilar va uning manfaatini qo'riqlaydilar. Davlat boshqaruv organlari davlat apparatining bir qismi bo'lib, o'z vazifalarini bajarish uchun davlat nomidan farmoyish berish huquqiga ega. Shuning uchun ular o'z vakolatlari doirasida, faoliyat ko'rsatish, huquqiy aktlar qabul qilish va shu aktlarda ko'rsatilgan qoidalarni bajarilishini ta'minlash uchun tashkiliy ishlar olib borishi mumkin.

Davlat bosqkaruv organlari xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalarda davlat vazifalarining amaliy bajarilishini tashkil etadi.

Davlat boshqaruv organlarini quyidagi asoslarga ko'ra tasnif qilish mumkin:

1. faoliyat yuritayotgan xududiga ko'ra;

2. tashkil qilinish tartibiga ko'ra;

3. vakolatlar xarakteri va xajmiga ko'ra;

4. rahbarlikning tashkil etishiga ko'ra;

5. moliyaviy mablag' bilan ta'minlanishiga ko'ra.

1. Faoliyat yuritayotgan xududiga ko'ra davlat boshqaruv organlari

- Oliy organlar - faoliyati butun O'zbekiston Respublikasi xududida yoki Qoraqalpogiston Respublikasi xududida tashkil etilib, ular markaziy organlarning faoliyatini birlashtiradilar va ular ustidan nazorat o'rnatadilar. (Masalan, O'R Oliy Majlisi, O'R Prezidenti, O'R Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpogiston Respublikasida Vazirlar Kengashi)

- Markaziy organlar- faoliyati respublika miqyosida olib boriladigan organlar. (Masalan, vazirliklar, davlat qo'mitalari, O'R Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan organlar, respublika miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan assotsiatsiyalar, deportamentlar, palatalar, banklar)

- Mahalliy organlar- viloyat, tuman, shaxar miqyosida faoliyat yuritadigan davlat organlari (Masalan, hokimliklar, hokimlar, hokimiyat bo'lim va boshqarmalari, korxona, muassasalarning ma'muriyati.

2. Tashkil qilinishiga ko'ra davlat boshqaruv organlari:

- Prezident farmoniga ko'ra tashkil qilinadigan organlar;
- Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil qilinadigan organlar;
- Hokimlarning qaroriga ko'ra tashkil qilinadigan organlar;
- Vazirliklar va davlat qo'mitalari, assotsiatsiya, korporatsiya, konsern rahbarlari qaroriga binoan tuziladigan organlar;
- Uyushma kompaniyalar tomonidan tashkil qilinadigan organlar;
- Respublika miqyosida faoliyat yuritadigan banklar tomonidan tashkil qilinadigan organlarga bo'linadi.

3. Vakolatning xarakteri va xajmiga ko'ra davlat boshqaruv organlari

- umumiy vakolatli organlarga (masalan Prezident, O'R Vazirlar Mahkamasi; hokimlar boshchiligidagi hokimiyatlar);
- sohalararo vakolatli organlarga (masalan, davlat q`omitalari);
- bir tarmoq bo'yicha vakolatli organlarga (masalan, vazirliklar) bo'linadi.

4. Rahbarlikning tashkil etilishiga ko'ra davlat boshqaruv organlari

- kollegial organlarga (masalan, davlat qo'mitalari, assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, uyushmalar, banklar, aksionerlik jamiyatlari);
- yakka boshqariladigan organlarga (O'R Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, hokimiyatlar, ularning bo'lim va boshqarmalari, korxona, muassasa va tashkilotlar) ga bulinadi.

5. Moliyaviy mablag bilan ta'minlanishiga ko'ra davlat boshqaruv organlari

- davlat byudjeti hisobidan ta'minlanadigan byudjet organlariga (masalan, ichki ishlar organlari);
- o'z faoliyati yoki o'zlari bo'ysunadigan korxonalarning xo'jalik faoliyatidan olingan foydadan ajratilgan mablag' xisobiga ta'minlanadigan xo'jalik xisobidagi organlarga bo'linadi.

Mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlari shaharcha, qishloq va ovullardagi hamda ularning tarkibidagi mahallalarda va shahar tarkibidagi mahallalardagi fuqarolarning yig'inidir.[1] O'zini - o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga fuqarolarni jalb etishga ko'maklashadi, davlat hokimiyati organlariga, qonunlarni, yuqori davlat organlarining hujjatlarini, Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini

[1] "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'grisida"gi O'R Qonunining 1 – moddasi (1993 yil, 2- sentabr)

bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi. Bunda uning ma'muriy huquq sub'ekti sifatida e'tirof etilish sababi yorqin namayon bo'ladi.

Ma'muriy huquqiy munosbatlarning faol ishtirokchisi sifatida **davlat xizmatchilari** ham tan olinganlar. Chunki aynan davlat xizmatchilari davlat boshqaruv organlari faoliyatini amalga oshiruvchi shahsdirlar. Davlat xizmatchilarini ulardan moddiy ishlab chiqarish xususiyatlari bilan ajralib turadigan ishchi va dexqonlardan farqlash lozim. Ishchi va dexqonlar faoliyati moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa, davlat xizmatchilari o'z faoliyati davomida hech qanday moddiy boylik ishlab chiqarmaydilar.

Davlat xizmatchilari vazifalarining xajmiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. mansabdor shaxslar (rektor, direktor...);
2. mutaxassislar (shifokorlar, o'qituvchilar...);
3. yordamchi xodimlar (kotiblar...);
4. hokimiyat vakili (militsiya, soliq inspektori...).

Huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida davlat boshqaruvida jamoat birlashmalarining faoliyati alohida ahamiyatga ega. **Jamoat birlashmalari** - fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq hamda erkinliklarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishlarini rivojlantirish…..maqsadida tuzilib[1], kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yishlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.[2]

3. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksining 10-moddasiga asosan **ma'muriy huquqbuzarlik** deganda qonun xujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqaroning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy, qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. **Ma'muriy huquqbuzarlik** jinoyatdan havflilik darajasi bilan farq qilib, huquqbuzarlikning barcha hususiyatlari hisobga olinib, uni amaldagi qonunlarga binoan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas, deb hisoblangan taqdirda, bu huquqbuzarlikka nisbatan ma'muriy javobgarlik amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik bir necha alomatlarni o'z ichiga oladi: *1. ijtimoiy havflilik; 2. g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik; 3. ayblilik; 4. qilmishning jazoga loyiqligi.*

Sodir etilgan qilmish va uning oqibatlari shaxsga, fuqaroning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga zarar keltirsa, ya'ni haqiqatdan ham aniq *ijtimoiy havflilik darajasiga* ega bo'lsa, **ma'muriy huquqbuzarlik** sifatida tan olinishi mumkin**.** Undan tashqari bu qilmish *gayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik,* ya'ni ma'muriy qonunchilik tomonidan taqiqlangan harakat yoki harakatsizlik bo'lishi lozim.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda qilmishning **ma'muriy huquqbuzarlik** ekanligini ko'rsatkichi sifatida qilmishning *aybliligi* ko'rsatib o'tilgan. *Aybdorlik* qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida yuzaga kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'rsidagi Kodeksning 11-moddasiga binoan, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shahs o'z harakati yoki harakatsizligining g'ayriqonuniy ekanligini bilgan bo'lsa, bunday harakati yoki harakatsizlik natijasida zararli oqibatlarning kelib chiqishini oldindan bilgan va shuni istagan yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan hisoblanadi.

---

[1]"Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi O'R Qonunining 3- moddasi. (1991 yil, 15-fefral)

[2] O'R Konstitutsiyasining 56 – moddasi.

Mazkur Kodeksning 12-moddasiga binoan esa, agar ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shahs o’z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tushunib yetgan bo’lsa ham, lekin kaltabinlik bilan uning oldini olish mumkin deb o’ylagan bo’lsa yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan bilmagan bo’lsa, bunday ma’muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbuzarliklarning quyidagi **turlari** mavjud:

1. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar (Tuhmat, haqorat qilish, mehnatga ma’muriy tarzda majburlash);

2. Aholi sog’lig’ini muhofaza qilish sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar (yengil tan jarohati etkazish, tanosil yoki OITS yuqadigan manbani yashirish);

3. Mulkka tajovuz qiluvchi ma’muriy huquqbuzarliklar (oz miqdorda talon-taroj qilish, topib olingan mol-mulkni yashirish);

4.Tabiiy muxitni muxofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar (yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish, suv zahiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish);

5. Sanoat, qurilish va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar (qurilish qoidalarini buzish, elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash);

6. Qishloq xo’jaligi va veterinariya-sanitariya sohasidagi huquqbuzarliklar (ekinzorlarni payhon qilish, to’plab qo’yilgan hosilga zarar yetkazish, it va mushuk boqish qoidalarini buzish);

7. Transport, yo’l xo’jaligi va aloqa sohasidagi huquqbuzarliklar (metropolitendan foydalanish qoidalarini buzish, transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish, transport vositalaridan ahlat tashlab yuborish);

8. Fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklar (turar joy binolaridan foydalanish qoidalarini buzish, shaharlardagi daraxtlarni shikastlantirish yoki ularni o’zboshimchalik bilan kesib tashlash);

9. Savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbuzarliklar (bozorlarda savdo qilish qoidalarini buzish, soliqlar va boshqa to’lovlar to’lashdan bo’yin tovlash);

10. Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar (sudga hurmatsizlik qilish, xalq maslahatchisining sudga borishiga to’sqinlik qilish);

11. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar (mayda bezorilik, jamoat joylarida spirtli ichimliklar ichish, maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish);

12. Boshqarishning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar (militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik, maxsus xizmatlarni qasddan aldab chaqirganlik);

O”R Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi Kodeksda tegishli mamuriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy jazo belgilangan-ki, jazoning muqarrarligi ustuvor huquq tamoillaridan biri.

Ma’muriy jazo ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo’lib, ma’muriy huquqbuzarni qonunlarga rioya etish, turmush qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash hamda yangi huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olish maqsadida qo’llaniladi.

Ma’muriy huquqbuzarlik uchun quyidagi **ma’muriy jazo choralari** qo’llaniladi:

1. Jarima - ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shahsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma’muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniqlangan vaktdagi belgilab qo’yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng ko’p miqdori eng kam ish haqining 5 baravaridan, mansabdor shahslarga esa- 10 baravaridan ortiq bo’lmasligi kerak.

Qonunda belgilangan ayrim huquqbuzarliklar uchun fuqarolarga eng kam oylik ish haqining 10 baravarigacha, mansabdor shahslar uchun esa 15 baravarigacha solinishi mumkin.[1]

2.Xaqini to'lash sharti bilan olib qo'yish- ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etilishiga sabab bo'lgan yoki bevosita ashyo bo'lgan buyumni haq to'lash sharti bilan olib qo'yish, shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlangan holda topshirishdan iboratdir.[2]

O'qotar qurollar va o'k-dorilarni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish asosiy tirikchiligi ovchilik bo'lgan shahslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

3.Musodara qilish - ma'muriy huquqbuzarlik harakatini sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita ashyo bo'lgan buyumni musodara qilish, shu ashyoning haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga otkazishdan iborat.

O'qotar qurollar va o'q-dorilarni, boshqa ov qurollarini musodara qilish asosiy tirikchiligi ovchilik bo'lgan shahslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.[3]

4. Maxsus huquqdan mahrum qilish - muayyan shahsni unga berilgan mahsus huquq (transport vositalarini boshqarish, ov qilish kabilar)dan mahrum qilish bo'lib, ushbu chora tuman (shahar) ma'muriy ishlar sudyasi tomonidan 3 yilgacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi.[4]

Asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shahslarga nisbatan bu jazo chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

5. Ma'muriy qamoqqa olish bu jazo chorasi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shahslarga nisbatan 3 sutkadan 15 sutkagacha muddatga, favqulotda holat tartibi sharoitida esa jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun-30 sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy jazo tuman (shaxar) ma'muriy sudyasi tomonidan, favkqlotda holat tartibi sharoitida esa, shunigdek, harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilanadi[5]

Bu jazo chorasi homilador ayollarga, 3 yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, 14 yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shahslarga, 18 yoshga to'lmaganlarga, I va II guruh nogironlariga qo'llanilishi mumkin emas.

Ma'muriy huquqbuzarlikka nisbatan qo'llaniladigan jazo me'yoriy hujjatlarga aniq rioya qilgan holda belgilanadi. Jazo berishda huquqbuzarlikning o'ziga hos hususiyati, huquqbuzarning shahsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi. Mamuriy jazo ma'muriy huquqbuzarlik sub'ekti, ya'ni 16 yoshga to'lgan, muomalaga layoqatli fuqarolar, mansabdor shahslar, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shahslar, harbiy hizmatchilar, ichki ishlar organlarining oddiy va boshliqlar tarkibidagi shahslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

XULOSA.

Ma'muriy huquq – davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i ekan, uning O'R huquq tizimidagi davlat boshqaruv ahamiyati va o'rni behisob. Sababi, ma'muriy huquq normalari apparatini tashkil qilish tartibi va uning faoliyatini, mansabdor shaxslar va fuqarolarning davlat boshqaruvi saohasidagi huquq va majburiyatlarini belgilab berish bilan cheklanib qolmay, davlat organlarining xalk xo'jaligi tarmoqlarini boshqarish, ijtimoiy tartib, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini muxofaza qilish va turli hil boshqa sohalarga doir faoliyatini tartibga soladi. Ma'muriy huquqning ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazoga tegishli meyorlari

[1] O'R Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 25- moddasi.
[2] Mazkur kodeksning 26-moddasi.
[3] Mazkur kodeksning 27-moddasi.
[4] Mazkur kodeksning 28-moddasi.
[5] Mazkur kodeksning 29-moddasi.

ham alohida etiborga loiq masalalardandir. Negaki aynan shu meyorlar jamiat tartibotini o'rnatishda birlamchi hisoblanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.Ma'muriy huquq tushunchasi nimadan iborat?
2. Ma'muriy huquqning huquq tarmoq'i sifatida predmeti qanday?
3. Ma'muriy tartibga solishning o'ziga hos tarafi nimadan iborat?
4. Ma'muriy huquqiy munosabatlarning o'ziga hosligi nimada namoyon bo'ladi?
5.Ma'muriy huquqning qanday manbalarini bilasiz?
6. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi nimadan iborat?
7.Ma'muriy huquqbuzarlikning qanday belgilari mavjud?
8. Ma'muriy jazo nima va uning qanday turlari mavjud?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. "Yangilanish va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi", Ma'rifat gazetasi. 2002 yil 6 aprel.

2.I.A.Karimov. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalashtirish va isloh qilishdir". T.: O'zbekiston 2005.

3. I.A. Karimov. "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odam, deb hisoblashar edi". – T.: O'zbekiston, NMIU, 2005.

4. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat. 2008.

5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. T.: "Adolat", 1999.

6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar. T. "Adolat"- 2001.

7. R.X. Alimov. "Ma'muriy huquq". Darslik .T.: IIV Akademiyasi.1995.

8.R.X.Alimov, A.A. Mahmudov, N.T. Ismoilov. "Ma'muriy huquq". Darslik. T.: IIV Akademiyasi. 2003.

9. A.Saidov, U.Tadjixanov, X.Odilkoriev. " Davlat va huquq asoslari". Darslik. T.: "Adolat". 2002.

10. Z. Islomov, O.Husanov, M.Mirhamidov. "Huquqshunoslik". Ma'ruzalar matni. T.,2000.

11. J.Yoqubov, E. Haitboyev. "Huquqshunoslik". Darslik. T.: "Yangi asr avlodi" 2006.

12. www.gov.uz
13. www.edu.uz
14.www. lex.uz

MOLIYA HUQUQI ASOSLARI.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda moliya huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi, uslublari va manbalari to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmalar hosil qilish, davlat organlarining moliya sohasidagi faoliyatining ahamiyati to'g'risida to'liq tasavvur paydo qilish hamda shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: moliya, moliya tizimi, davlatning moliya sohasidagi siyosati, moliyaviy rejalar, pul mablag'i jamgarmasi.

Asosiy savollar:

1. Moliya huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi va tamoyillari.
2. Moliya huquqi uslublari va manbalari.
3. Davlatning moliya sohasidagi faoliyati.

"Aqliy hujum" uchun savollar:

– Mokiya huquqi qaysi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi?
– Moliya huquqi bilan bog'liq nushunchalrni keltiring.
– Qaysi davlat organlari moliyaviy nazoratni amalgam oshiradilar?

1. Moliya huquqi tushunchasi, predmeti, tizimi va tamoyillari.

Moliya huquqi O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining muhim tarmog'idan biri bo'lib hisoblanadi. Mazkur huquq tarmog'i normalari mustaqil O'zbekiston davlatining zamonaviy xujalikni yuritishda moliya va iqtisodiy siyosatini samarali olib oshirish uchun ahamiyatlidir. Moliya huquqi moliya tarmog'idagi davlat organlari vakolatlarini hamda moliya munosabatlari sohasidagi tadbirkor va fuqarolar huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Bugungi kunda davlatimizning moliya faoliyatida asosiy maqsadi inson uchun barcha shart-sharoitlar yaratish hamda uning erkin yashashini ta'minlashdir. Demak, moliya jamoat va milliy daromadni taqsimlashda iqtisodiy instrument sifatida xizmat qiladi hamda ishlab chiqarish va moddiy boyliklarni to'g'ri taqsimlashni nazorat qilsh vositasi hisoblanadi.

Moliya huquqi *– bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarni amalga oshirish uchun zarur davlatning pul jamg'armasini tashkil etish, taqsimlash va foydalanish jarayonida vujudga keladigan moliya-ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir.*

Moliya bu pullarning o'zi emas, balkim pul jamg'armasining tashkil etilishi, taqsimlanishi va foydalanishi munosabati bilan paydo bo'ladigan munosabatlardir.

*Shu bois**, moliya huquqi predmetiga** markazlashgan va markazdan tashqari pul fondlari bilan bog'liq davlat faoliyatining qo'yidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi:*

– tashkil etish;

– taqsimlash;

– foydalanish.

Demak, moliya va moliya munosabatlar pul mablag'lari bilan bog'liqdir. Biroq, barcha pul bilan bog'liq munosabatlar, jumladan, pullar bilan bog'liq oldi-sotdi, ma'muriy jarima va shunga uhshash munosabatlar moliyaviy munosabatlar deb hisoblanmaydi. Mazkur munosabatlar boshqa huquq sohalari, masalan fuqarolik huquqi, ma'muriy huquqi bilan tartibga solingan.

Moliya munosabatlar qo'yidagilar bilan ajratiladi:

a) ular davlatning moliyaviy faoliyati jarayoni natijasida vujudga keladi;

b) mazkur munosabatlar sub'ektning biri, albatta davlatning vakolatli organi (moliyaviy organ, kredit tashkilot) yoki oliy yohud mahalliy davlat xukumati organi bo'ladi;

v) bu munosabatlarning vujudga kelishi doimo pulga bog'liq (davlatga pul o'tkazish, davlat tomonidan pulni ishlatishi va h.k.).

Moliya munosabatlar jismoniy shaxslar (fuqarolar) orasida, jismoniy shaxslar va shaxsiy mulk asosda tashkil etilgan yuridik shaxslar orasida hamda shu turkumdagi yuridik shaxslar orasida paydo bo'lmaydi.

Moliya tizimini qo'yidagilar tashkil etadi:

a) davlat byudjeti (respublika, Қaraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar);

b) davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari mablag'lari;

v) xujalik sub'ektlari va iqtisodiyot sohalari moliyalari;

g) davlat va bank kreditlari;

d) mulkiy va shaxsiy sug'urta.

Moliyaviy faoliyat jarayonida davlat qo'yidagi tamoyillarga asoslanadi:

– markazlashgan va markazdan tashqari moliya faoliyatining o'zaro bog'liqligi;

– rejaga amal qilish;

– oshkoralik.

2. Moliya huquqi uslublari va manbalari.

Moliya huquqi boshqaruv tizim tariqasida davlat moliya faoliyatining turli usullarida namoyon bo'ladi. Ylarni tanlash jumladan ma'lum bosqidagi davlatning vazifalariga, daromadning manbalari turlariga, mablag'larning ishlatilishi maqsadiga, mamlakatning iqtisodiy holati va tadbirlarning muhimligiga bog'liqdir. Yuqorida ta'kidlanimizdek davlatning

moliya faoliyati mazmunining asosiy maqsadi, bu – *pul fondlarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishdir.*

Yshbu maqsadlardan kelib chiqqan holda qo'yidagi uslublarni qo'llash belgilangan:

1) pul fondlarini ***tashkil etish*** *uchun davlat pul fondiga majburiy va ihtiyoriy to'lovlar tizimini o'rnatish* (jismoniy va yuridik shahslardan olinadigan soliqlar, bojhona to'lovlari, respublikaning ichki va mahalliy zayomlarini, depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish);

2) davlat pul fondlarini ***taqsimlash*** *ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan moliyalashtirish va kreditlashtirishlarni keltirish mumkin(to'g'ridan-to'g'ri moddiy yordam, reja va dasturlarga mablag' ajratish*).

3) pul fondlaridan ***foydalanish*** *maqsadi, mazkur sohada mavjud munosabatlarga qo'yidagi usullar orqali huquqiy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir:*

– *yo'riqnomalalar berish* (masalan, davlat byudjetini to'ldirish maqsadida ihtiyoriy to'lovlarni tashkil etish uchun davlat organlariga vakolatlar berish–lotereya yoki zayomlar chiqarish yoki ayrim mansabdor shaxslarga majburiy to'lovlarni tashkil etish yuzasidan topshiriq berish);

– ta'qiqlash;

– ro'hsat berish.

O'zbekistonda yagona kodekslashtirilgan moliya huquqi yo'q. Bugungi kunda moliya huquqi manbalariga qo'yidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (51,122-m.);

– byudjet tizimi, bank va bank faoliyati, valyuta bilan muomala qilish, qimmat qog'ozlar va birja fondi to'g'risidagi va shu kabi qonun aktlari;

– davlat boshqaruvi va ijro etuvchi organlarning qonunosti aktlar (Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari qarorlari);

– davlatning moliya faoliyatining turli masalalari bo'yicha moliya-kredit va soliq organlarining normativ aktlari (Moliya Vazirligi, Markaziy Bank, davlat soliq kumitasining bo'yruq va yo'riqnomalalari);

– soliq huquqi,

– fuqarolik huquqi.

3. Davlatning moliya sohasidagi faoliyati.

Davlatning moliya faoliyati olib borishda barcha hokimiyat va boshqaruv davlat organlari qatnashadilar. Chunki, ularning har biri moliya bilan bog'liq bo'lgan ma'lum vazifalarni amalga oshiradilar. Biroq, mazkur sohasida olib borilayotgan ishlar mohiyati va mazmuniga ko'ra ularning moliya faoliyati bir-biridan farqlanadi. Bu avvalom bor, mazkur organlar vakolati hamda vazifalarining har hil bo'lishidan kelib chiqadi.

Shuni e'tiborga olib, davlatning moliya faoliyatini olib boruvchi qo'yidagi davlat organlarini keltirish mumkin:

– davlat vakillik organlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy *Majlisi).* Konstitusiyaning 78, 122-124 moddalariga muvofiq ***O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi*** davlat byudjetini qabul qiladi, soliq va boshqa majburiy tulovlarni o'rnatadi, moliya, pul-kredit, soliq, bank tizimi va byudjet tuzilishini belgilaydi, davlatning moliya faoliyatiga bog'liq muhim masalalar yuzasidan qonunlar qabul qiladi (masalan, byujet tizimi, soliqlar to'g'risida, bank va bank faoliyati, valyuta bilan muomala qilishga oid qonunlar va h.q.).

– ijro etuvchi va boshqaruv organlari *(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, xokimiyatlar).* O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi» qonun ***Vazirlar Mahkamasi***ning davlat byudjetini tashkil etish, ishlab chiqarish va ijrosini ta'minlash bo'yicha vakolatlarini belgilab beradi. ***Halq deputatlari Kengashlari va hokimiyatlar*** «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi» qonunga muvofiq ularga tegishli hududlarda respublika byudjetiga mablag' tushishini ta'minlash bo'yicha, ajratilgan byudjet mablag'laridan kapital ish va hizmatlarga jalb qilish vakolatlarga egadirlar.

2) sohaviy va mahsus vakolatga ega ijro etuvchi organlar *(vazirliklar, vedomstva va moliya bilan bog'liq ishlar asosiy faoliyatini tashkil etmaydigan boshqa sohaviy boshqaruv organlar).* Bularga misol qilib, muayyan vazifalarni amalga oshiruvchi alohida vazirliklarni keltirish mumkin.

Moliya faoliyati tizimi organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rahbarlik qiladi. Respublikasi Moliya Vazirligi butun mamlakat hududida moliyaning tashkil etilishi va narhnavolarning belgilanishi o'stidan umumiy rahbarlikni amalga oshiradi («O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi to'g'risida Hizom»ini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 5531-sonli qarori);

Moliya faoliyatini olib boruvchi mahsus vakolatga ega organlarga qo'yidagilar kiradi:

– *Markaziy Bank* («O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank to'g'risida»gi 1995 yil 21 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining qonuni);

– *Hisob palatasi,*

– *davlat soliq ko'mitasi* («davlat soliq hizmati to'g'risida»gi 1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining qonuni);

–Hazorat organlari faoliyatini koordinasiya qiluvchi respublika Kengashi va boshq.

Moliya sohasida amalga oshirilayotgan faoliyatlardan biri bu moliyaviy tartibni o'rnatishga qaratilgan moliyaviy nazorat hisoblanadi. Bugungi kunda nazorat olib boruvchi sub'ektga ko'ra moliyaviy nazoratning ikki turi mavjud:

– ***davlat moliyaviy nazorati*** (Prezident, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Halq deputatlari Kengashi, ijro etuvchi hokimiyat);

–nodavlat moliyaviy nazorati (jamoa tomonidan amalaga oshiriladigan moliyaviy nazorat).

Barcha moliyaviy nazoratlarning maqsadlari moliya intizomiga rioya qilishni hamda moliya mablag'larini samarali taqsimlash va foydalanishni ta'minlash.

Moliya intizomi bo'zilish holatlari intizomiy, ma'muriy, jinoiy-huquqiy va boshqa ta'sir choralarini qo'llashga olib keladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Moliya huquqiqaysi munosabatlarni tartibga soladi?
2. Moliya huquqi manbalarini keltiring.
3. Davlatning moliya sohasidagi faoliyati nimadan iborat?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1.Каримов И.А. Жаҳон молияйви-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2012.– 40 б.

3. Ли А. Ўзбекистон Республикасининг молия ҳуқуқи: Дарслик. –Т.: ТДЮИ, 2004. –398 б.

4. Ли А. Финансовое право Республики Узбекистан: Учебник. –Т., 2008.

5. www.gov.uz

6. www.edu.uz

7.www. lex.uz

FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda fuqarolik huquqi, uning predmeti, tamoillari, sub'ektlari va ushbu fan sohasining amaliy ahamiyati to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, jamiyat a'zolari orasida keng tarqalgan mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar va ularni huquqiy tartibga solish, mulkiy huquqlarning huquqiy ximoyasi tog'risida bilim va ko'nikmalar hisil qilib, talabalarning huquqiy madaniyatini oshirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: mulk, mulkiy munosabatlar, shaxsiy nomulkiy munosabatlar, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, subyektlarning tengligi, subyektlarning

erkinligi, shartnoma, huquqiy layoqat, muomala layoqati, emansipatsiya, muomala layoqatini cheklash, muomalaga layoqatsiz deb topish, davlat korxonalari, hususiy korxonalar.

Asosiy savollar:

1. Fuqarolik huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoillari.
2. Fuqarolik huquqi sub'yektlari.
2.1. Jismoniy shaxslar fuqarolik huquqi sub'yekti sifatida.
2.2. Yuridik shaxslar fuqarolik huquqi sub'yekti sifatida.
2.2.1. Yuridik shaxslarning turlari.

"Aqliy hujum" uchun savollar:

– Fuqarolik huquqi qaysi munosabatlarni tartibga soladi?
– Fuqarolik huquqi nima maqsadda o'qish kerak?
– Fuqaroning huquq layoqati deganda nima tushunasiz?
– Fuqaroning muomala layoqati deganda nima tushunasiz?

1.Fuqarolik huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoillari.

Mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish davrida fuqarolar va boshqa subyektlarning moddiy, ma'naviy ehtiyojlarini tobora to`laroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo`lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish juda muhim bo'lib, ushbu vazifani huquq tarmoqlaridan biri - fuqarolik huquqi amalga oshiradi. **Fuqarolik huquqi –** huquqiy jihatdan o'zaro teng, ya'ni teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan taraflar o`rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig`indisidir.

Fuqarolik huquqining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ahamiyati beqiyos, negaki fuqarolik huquqi meyorlari bian tartibga solinadigan munosabatlar huquq va muomala layoqatiga ega bo'lgan har qanday shahs kundalik hayotida kelib chiqishi mumkin. Undan tashqari fuqarolik huquqi meyorlari bilan tartibga solinadigan mulkiy va shahsiy nomulkiy munosabatlariga har birimiz kuniga bir necha bor kirishishimiz mumkin. (Masalan, avtotransport yoki uyali aloqa hizmatlaridan foydalanish, do'konlardan mahsulot harid qilish). Fuqarolik huquqining huquq tarmog'i sifatida ahamiyati u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni bilan belgilanadi.Fuqarolik huquqi tartibga soladigan munosabatlar doirasi O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-moddasida belgilab qo`yilgan. Bunga asosan fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo`lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o`zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog`liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar doirasida mulkiy munosabatlar yetakchi o`rinni egallaydi.

Mulkiy munosabatlar deganda, iqtisodiy munosabatlar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari, umuman kishi mehnatining har qanday mahsulotlarni yaratish, egallash, foydalanish va tasarruf etish bilan bog`liq bo`lgan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.[1]

Bunda mulkiy munosabatlarning barchasi ham fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinmasligini eslatib o'tishimiz lozim. Masalan, huquqiy munosabatda qatnashuvchi bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy jihatdan bo`ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlar - ma'muriy huquq normalari bilan, soliq va budjet bilan bog`liq munosabatlar - moliya huquqi normalari bilan, shuningdek yer bilan bog`liq munosabatlar - yer huquqi normalari bilan, mehnat shartnomasi hamda intizomiy bo`ysunuv bilan bog`liq munosabatlar - mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

[1] I.B. Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. (Umumiy qism). T.: TDYuI, 2006. 5 b.

Fuqarolik huquqi asosan qiymat, baho bilan ifodalanadigan va ishtirokchilari teng darajada ko`riladigan mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar shaxslar o`rtasidagi, ularning erklari bilan bog`liq bo`lgan ijtimoiy munosabatlarning alohida toifasini - huquqiy munosabatlarni bildiradi.

Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar doirasi nihoyatda keng. Bular jumlasiga oldi-sotdi, xilma-xil buyurtmalar qabul qilish (ijro etish), turar-joylarni ijaraga qo`yish va ijaraga olish, korxonalar, tashkilotlarning bir-biriga mahsulotlar yetkazib berish, qurilish ishlarini amalga oshirish, transport korxonalari orqali yuk va yo`lovchi tashish, yetkazilgan zararni qoplash, qonun va vasiyat bo`yicha meros olish, umuman har qanday shakldagi mulkni egallash, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish bilan bog`liq bo`lgan munosabatlar kiradi.[1]

Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan **mulkiy xarakterda bo`lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar** ikki turga: *mulkiy munosabatlar bilan bog`liq bo`lgan shaxsiy munosabatlarg*a va *mulkiy munosabatlar bilan bog`liq bo`lmagan shaxsiy munosabatlar*ga (shaxsiy nomulkiy) bo`linadi.

*Mulkiy munosabatlar bilan bog`liq bo`lgan munosabatlar*ga misol qilib, intellektual faoliyat natijalariga bo`lgan va mualliflik huquqiga doir munosabatlarni ko`rsatish mumkin. Bu munosabatlarda faqat mulkiy munosabatlarnigina emas, balki ularning shaxsiy huquqlarini ham, chunonchi, asarni o`z nomidan, taxallusi ostida yoki nomini ko`rsatmasdan anonim tarzda nashr etish, asarning daxlsizligi huquqlari, ixtironing muallifi bo`lib tanilish huquqi va boshqa huquqlarni belgilaydi.[2]

*Mulkiy munosabatlar bilan bog`liq bo`lmagan shaxsiy munosabatlar*ga fuqaro o`zining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro`siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatgan shaxs basharti, ularning haqiqatga to`g`ri kelishini isbotlay olmasa, sud orqali raddiya talab qilish huquqi va shu kabi boshqa huquqlar misol bo`ladi.[3] Mulkiy xarakterda bo`lmagan shaxsiy munosabatlar shaxsning o`zi bilan bevosita bog`liq bo`lgan va undan begonalashtirilmaydigan huquqlardir. Bunday huquqlar jumlasiga fuqaroning ismiga bo`lgan huquqi (FKning 19-moddasi), o`z tasviri (sur'ati)ning daxlsizligiga bo`lgan huquq, mualliflik huquqi (FKning 1046-moddasi), mualliflik nomiga bo`lgan huquq (FKning 1051-moddasi) va hokazolar kiradi.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda **fuqarolik huquqining o`ziga xos uslubi va xususiyatlari** bor, bu bilan u o`ziga yondosh bo`lgan boshqa huquq sohalaridan ajralib turadi. Chunonchi, fuqarolik huquqi oila huquqi, moliya huquqi, ma'muriy huquq, davlat huquqi, mehnat huquqi, yer huquqi bilan bevosita bog`liq bo`lsa ham, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda bu huquq sohalaridan ma'lum darajada farq qiladi. Bu farq fuqarilik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabat ishtirokchilarining ushbu munosabatlarda tenglik asosida ishtirok etishlari va ushbu munosabatlarga o'z erk-irodalari bilan kirishishlarida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik huquqi mustaqil, keng qamrovli huquq tarmog'I sifatida o'zining qator tamoillariga ega. **Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari** - bu barcha fuqarolik qonunlari mazmuniga singdirilgan asosiy, boshlang`ich qoidalardir. Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1.Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi. Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan mulkiy va shahsiy nomulkiy munosabatda ishtirok etadigan barcha fuqaro va yuridik shahslar teng hajmda huquq layoqatiga egadirlar, ularning huquq va muomala layoqatlari cheklanishiga yo`l qo'yilmaydi.

2. *Fuqarolik - huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining erkinligi.* Fuqaro-lar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o`z fuqarolik huquqlari hamda burchlariga o`z erklariga muvofiq

[1] Qarang: O'R Fuqarolik Kodeksi. 1995 y.
[2] Qarang: O'R Fuqarolik Kodeksining 60-bobi.
[3] O'R Fuqarolik Kodeksining 100-moddasi. 1995 y.

ega bo`ladilar, o`z manfaatlarini ko`zlab amalga oshiradilar.[1] Ushbu tamoilga rioya qilish fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining tashabbus erkinligini ta'minlanibgina qolmay, iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladigan yangi huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos yaratadi.

Fuqarolik - huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining erkinligi tamoili fuqarolik huquqining subyektlari nafaqat qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlarni, lekin unga zid bo`lmagan shartnomalar hamda boshqa bitimlarni ham tuzishda erkinliklarini anglatadi. Shartnoma tuzish erkinligi:

1) subyektning shartnoma bo`yicha o`z kontragenti, ya'ni shartnoma bo`yicha sherigini tanlash erkinligini;

2) shartnoma predmetini, ya'ni aynan qanday holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligini;

3) shartnoma shartlarini tanlash erkinligini bildiradi.

Ushbu uchala holatni amalga oshirishda subyektga hech qanday noqonuniy ta'sir o`tkazish mumkin emas. Shartnomalar erkinligi tamoyiliga nisbatan cheklov faqatgina qonun hujjatlarida ko`zda tutilgan hollarda tadbiq etiladi.

3. *Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarning ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida faoliyat yuritishlari.* Ushbu tamoil O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida mustahkamlangan bo'lib, butun huquqiy tizim negizini tashkil etadi. Inson, jamiyat va davlat farovonligini ta'minlashga hizmat qiladigan ushbu tamoil amalga oshiriladigan har qanday fuqarolik huquqiy munosabat qonun doirsida amalga oshirilishi lozimligini anglatadi.

4. Barcha mulk shakllarining tengligi va qonun bilan teng muhofaza qilinishi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi va O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 166-moddasida mulkning shaklidan qat'iy nazar tengligi tan olingan.

5. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari mulkining daxlsizligi. Bu qoida FKning 1-moddasida o`z ifodasini topgan. Shu bilan birga, FKning 166-moddasiga muvofiq, mulk daxlsizdir va qonun bilan qo`riqlanadi. Mulkning daxlsizligi mulkdorning mulk huquqini buzishga qaratilgan har qanday harakatning ta'qiqlanganligini anglatadi. Fuqarolik huquqining boshqa tamoyillari kabi mulkning daxlsizligi tamoyili ham mutlaqlik xarakteriga ega emasligini nazarda tutib, FKning 166-moddasi 2-qismi, mulkdorning mol-mulkini olib qo`yishga, shuningdek, uning huquqlarini cheklashga faqatgina qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo`l qo`yilishi mumkinligini belgilaydi;

*6. Fuqarolik - huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xususiy ishlariga o`zboshimchalik bilan aralishishga yo'l qoyilmaslik. Ushbu* tamoyilga rioya qilish fuqarolik huquqi subyektlariga o`z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlaridagi harakatlar bevositaligi va uzluksizligini ta'minlaydi. Fuqarolik huquqida fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy manfaatlari asosiy o`rinni egallar ekan, ana shu manfaatlar ustunligini kafolatlash maqsadida FKning 1-moddasidayoq, mazkur tamoyil mustahkamlangan. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.[2]

*7. Fuqarolik huquqlarining to`sqinliksiz amalga oshirilishi.* Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari o`z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda har qanday to`sqinliklarni bartaraf etilishini talab qilishga haqli. Qonun hujjatlaridagi ba'zi cheklashlarning mavjud bo`lishi bu tamoyilning ahamiyatiga putur yetkazmaydi. Huquq subyektlarining o`z huquqini amalga oshira olish imkoniyatiga ega bo`lishlari, bu huquqlar mavjudligining asosiy mezonidir. Aynan shu xususda to`xtalar ekan, H.R.Rahmonqulov fuqarolik-huquqiy

[1] O'R Fuqarolik Kodeksining 354 – moddasi.

[2] O`zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida"gi 2000 yil 25 maydagi qonunining 34-moddasi.

munosabatlar ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutilishini ta'kidlab o`tadi[1];

*8. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining buzilgan huquqlarining tiklanishi f*uqarolik huquqining ustuvor qoidalaridan biri bo'lib, huquqiy munosabat ishtirokchisining buzilgan huquqlarining avvalgi holatiga qaytarilishini anglatadi. (mulkni natura holida qaytarish, buzilgan shaxsiy huquqni tan olish va h.k.).

9. *Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari huquqlarining sud orqali himoya qilinishini ta'minlash.* Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari o`z huquqlarini himoya qilish uchun o`z talabini maxsus organ – sudga bildirishga haqli va bu huquq qonun bilan kafolatlanadi.

Shunday qilib, fuqarolik huquqi insonning kundalik xayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan huquq sohalaridan biri bo'lib, tomonlarning tengligi va erk-irodasiga asoslangan mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir.

2. Fuqarolik huquqi sub'yektlari.

Har qanday huquq tarmog'ining sub'yekti, ushbu huquq tarmog'i tartibga soladigan ijtimoiy munosabat ishtirokchilari hisoblanadi. Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan fuqarolik - huquqiy munosabatlar, shaxslarning erki asosida vujudga keladigan, fuqarolik - huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, bunday huquqiy munosabatlar:

1. Yuridik shaxslar o'rtasida;
2. Yuridik shaxslar bilan fuqarolar o'rtasida;
3. Fuqarolar bilan fuqarolar o'rtasida vujudga keladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxslar jismoniy shaxslarga (fuqarolar) va yuridik shaxslarga (korxona, tashkilot, jamoa xo'jaligi) bulinadi.

2.1. Jismoniy shaxslar fuqarolik huquqi sub'yekti sifatida.

O'R fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxs hisoblanib, ularning barchasi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarning to'la va teng huquqli qatnashchisi bo'lishi mumkin. Lekin buning uchun ular, albatta, ularni huquq subyektlari sifatida xarakterlaydigan asosiy huquqiy xususiyatlarga ega bo'lishlari lozim. Jismoniy shahslarni huquq subyektlari sifatida xarakterlaydigan asosiy huquqiy xususiyatlar **huquq va muomala layoqatlaridir.**

Huquq layoqati fuqarolik huquq va burchlariga ega bo`lish layoqati hisoblanib, barchaning teng ravishda huquq layoqati e'tirof etiladi.[2] Hech bir qaysi shaxs fuqarolik huquq va burchlariga ega bo`lish layoqatiga molik bo`lmay turib, fuqarolik huquqining subyekti bo`la olmaydi.

Fuqarolik huquq layoqati fuqarolarga o`zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkoniyatini beradi.

Davlat hayotning moddiy sharoitlariga qarab fuqarolarning huquq layoqati, ya'ni muayyan huquq va burchlarga ega bo`lish layoqatini belgilaydi. Huquq layoqatining xarakteri va mazmuni jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlaridan kelib chiqadi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolari huquq layoqatining mazmuni Konstitutsiyaning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" nomli ikkinchi bo`limidagi qator moddalarda keng ta'riflangan va mustahkamlangan. Ularda fuqarolarning mol-mulkka ega bo`lishi, meros olishi, meros qoldirishi, kasb va turar-joy tanlash, fan, adabiyot, san'at asarlari yaratish, tadbirkorlik faoliyati bilan va umuman qonunda ta'qiqlanmagan har qanday

[1] Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoillari. -T.: TDYuI. 2003 – 42 b.

[2] O'R Fuqarolik Kodeksining 17 moddasi.

faoliyat bilan shug`ullanish, shuningdek boshqa keng mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo`lishlari mumkinligi aytilgan va asosiy qonun darajasida mustahkamlangan.

O`zbekiston Respublikasida fuqarolarning fuqarolik huquq layoqati mazmunini FKning 18-moddasida mustahkamlab qo`yilgan. Unga asosan fuqarolar:

–mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo`lishlari;

–mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari;

–bankda jamg`armalarga ega bo`lishlari;

–tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo`jaligi bilan hamda qonunda ta'qiqlab qo`yilmagan boshqa faoliyat bilan shug`ullanishlari;

–yollanma mehnatdan foydalanishlari, o`zlari mustaqil ravishda yoki boshqa fuqarolar va yuridik shaxslar bilan birgalikda yuridik shaxslar tashkil etishlari;

–qonunga zid bo`lmagan har qanday bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda qatnashishlari;

–boshqa shaxslar tomonidan yetkazilgan zararning to`lanishini talab qilishlari;

–mahsulot turini va yashash joyini tanlashlari;

–fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtirolarning, qonun bilan qo`riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo`lishlari;

–shuningdek, boshqa mulkiy va shaxsiy huquqlarga ega bo`lishlari mumkin.

Huquq layoqati inson tug`ilganidan to uning vafotiga qadar unda mavjud bo'ladi. Kishi tug`ilishi bilan uning hayoti boshlanganidek, tug`ilishi bilan huquq subyekti sifatida yashashi ham boshlanadi. Yangi tug`ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga, chunonchi, yashash huquqi, ovqatlanish huquqi, erkin bo`lish huquqi kabi qator tabiiy huquqlarga, shu jumladan, ota-onalardan tarbiya olish va boshqa huquqlarga ega bo`ladi. Aqli zaif va ruhiy xastalar ham huquq subyekti bo`lib hisoblanadi. Ular, xususan, davolanish, pensiya olish va boshqa huquqlarga ega. Ularning mulkiy huquqlari to`liq hajmda saqlanadi.[1]

Huquq layoqati kishi, ya'ni huquq subyekti vafot etishi bilan tamom bo`ladi. O`lgan kishining to o`limiga qadar ixtiyorida bo`lgan huquq va zimmasidagi majburiyatlarning bir qismi (mulkiy, shaxsiy huquq va majburiyatlari) bekor bo`ladi, shu bilan birga ba'zi mulkiy huquqlar vorislarga o`tadi. O`lim qator huquqiy oqibatlar tug`diradigan faktdir. Shuning uchun o`lim ham tug`ilish singari fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limi (FHDYO) da oila qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

Fuqarolarning huquq layoqatidan ularning muomala layoqatini farqlay bilishimiz zarur.

Muomala layoqati fuqarolarning o`z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o`zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir.[2]

Muomala layoqatining huquq layoqatidan farqi shuki, barcha fuqarolar ham muomala layoqatiga ega bo`lavermaydilar. Muomala layoqatiga ega bo`lishning sharti shundan iboratki, muomala layoqatiga ega bo`lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o`z harakatlarining oqibatlarini tushunib harakat qiladilar. Ma'lumki, yangi tug`ilgan bola to`la huquq layoqatiga ega bo`lsa ham, o`z harakatlari bilan bironta huquq va majburiyat olmaydi. Ongli harakatlar qilish layoqati faqat ma'lum yoshga yetgandan keyingina boshlanadi. Binobarin, fuqarolik muomala layoqatining fuqaro to`la hajmda voyaga yetish bilan vujudga kelishini ko`rsatadi. Voyaga yetish 18 yoshga to`lish bilan boshlanadi. Bu yoshga yetish bilan kishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, jumladan, mulkiy munosabatlarda to`la qatnashuvchigina bo`lib qolmay, siyosiy huquqlar bilan birga, boshqa fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini ham oladi.

Qonun voyaga yetish yoshini belgilash bilan bir qatorda, voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda muomalaga layoqatli shahslarni belgilab beradi (Emansipatsiya). Ular qatoriga:

[1] I.B. Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. (Umumiy qism). T.: TDYuI, 2006. 66 b.

[2] O'R Fuqarolik Kodeksining 22 – moddasi.

- qonunda belgilangan bir yilga qisqartirilgan nikoh yoshida nikohdan o`tgan shaxslar;[1]

- mehnat shartnomasi asosida faoliyat yuritayotgan, yoki ota-onasi, boquvchisi roziligi bilan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan 16 yoshga to'lgan, voyaga etmagan shahslar kiradi. [2]

Voyaga yetgan fuqarolar teng darajada muomalaga layoqatli hisoblanadilar. Fuqarolarning muomala layoqati faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Fuqaroning muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o`z o`zidan haqiqiy emas (FKning 23-moddasi).

To`la muomala layoqati o`n sakkiz yoshga yetgan fuqarolarga berilishi O'R FQda e'tiof etilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu kodeksda:

- O`n to`rt yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlar (olti yoshdan o`n to`rt yoshgacha bo`lgan bolalar)

- O`n to`rt yoshdan o`n sakkiz yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlar (o`smirlar)ning muomala layoqati to'g'risida so'z yuritiladi.

O`n to`rt yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to`la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar.

Olti yoshdan o`n to`rt yoshgacha bo`lgan bolalar:

1) mayda maishiy bitimlar;

2) tekin manfaat ko`rishga qaratilgan, notarial guvohlantirish yoki davlat ro`yxatidan o`tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag`larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni amalga oshirishga haqlidirlar. [3]

Kichik yoshdagi bolalar mustaqil tuza oladigan mayda maishiy bitim deganda, bola yoki uning oila a'zolarining odatdagi, xar kungi ehtiyojini qondirishga qaratilgan va yuqori bo`lmagan bahodagi bitim tushuniladi.[4].

O`n to`rt yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzadilar.

Birovga yetkazilgan zararlari uchun ham kichik yoshdagi bolalar javobgar bo`lmaydilar. Ular uchun ota-onalari yoki boshqa nazoratchilari javobgardir. O`n to`rt yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlarning banklarga omonat qo`yish va ularni tasarruf qilish huquqlari qonun bilan belgilanadi.

O`n to`rt yoshdan o`n sakkiz yoshgacha bo`lgan voyaga yetmaganlar (o`smirlar) qisman muomalaga layoqatli bo`lib, qonuniy vakillari (ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylari) ning roziligi bo`lgan taqdirda o`z harakatlari bilan huquq va majburiyatlar olishlari mumkin.

O`smirlar bitimlarni ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular mustaqil ravishda o`zlarining ish haqlari yoki stipendiyalarini tasarruf qilishga, o`z asarlari, ixtirolariga bo`lgan mualliflik hamda ixtirochilik huquqlarini, o`z kashfiyotlariga bo`lgan huquqlarini amalga oshirishga, kredit muassasalariga mablag`lar qo`yish va ularni tasarruf etishga, shuningdek, mayda maishiy bitimlarni tuzishga haqlidirlar.[5]

---

[1] O'R Fuqarolik Kodeksining 22-moddasi.

[2] O'R Fuqarolik Kodeksining 28-moddasi.

[3] O'R FKning 29-moddasi.

[4] Ashurova N. Muomala layoqati. //Hayot va qonun//. 2003. № 2. -47 b.

[5] I.B. Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. (Umumiy qism). T.: TDYuI, 2006. 68 b.

Yetarli asoslar mavjud bo`lganida sud qonuniy vakillari yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga ko`ra o`smirning o`z ish haqi yoki stipendiyasini mustaqil tasarruf qilish huquqini cheklashi yoki bu huquqdan mahrum etishi mumkin.[1]

Ruhiy kasallar va aqli zaiflar **to`la hajmda muomalaga layoqatsiz** hisoblanadilar. Ongli harakatlar qilish va o`z harakatlarining yuridik oqibatlarini hisobga olish layoqati (muomala layoqati) ga, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli ega bo`lmagan fuqaro – muomala layoqatiga ega emas deb topilishi mumkin. Har qanday ruhiy kasallik yoki aqli zaiflik fuqaroni ongli harakatlar qilish va fuqarolik muomalasida qatnashish layoqatidan mahrum qilmaydi. Ruhiy holat buzilishi faktining o`zigina kishini muomalaga layoqatsiz deb topishga asos bo`lmaydi. O'R FKda ko`rsatilishicha, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o`z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqaro sud tomonidan **muomalaga layoqatsiz** deb topilishi mumkin, shu munosabat bilan unga nisbatan vasiylik belgilanadi[2].

Ruhiy kasalni yoki aqli zaif kishini sud tomonidan tayinlangan psixiator (ruhshunos) larning ishtiroki bilan bo`ladigan maxsus komissiya tomonidan ko`rib tekshirish va uning natijalari haqida dalolatnoma tuzish sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish haqida hal qiluv qarori chiqarish uchun asos bo`ladi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni ularning vasiylari tuzadilar.

Vasiylik shundan iboratki, bunda muomalaga layoqatsiz shaxs – o`n to`rt yoshga to`lmagan fuqarolar, ruhiy kasal va aqli zaiflar nomidan vasiy harakat qiladi hamda o`zining harakatlari bilan vasiylikka olingan shaxs uchun huquq va majburiyatlar tug`diradi. Vasiyning asosiy vazifasi vasiylikka olinuvchining shaxsi va mulki yuzasidan g`amxo`rlik qilishdan, vasiylikka olinuvchining manfaatlarini qo`riqlashdan iborat. Binobarin, vasiylikka oluvchi o`ziga ishonilgan mulkdan o`zi uchun hech qanday foyda olmasligi lozim. U vasiylikka olingan shaxsni asrash va uning mulkini idora etish xarajatinigina undirishga haqli. Umumiy qoida bo`yicha vasiylik va homiylik vazifalari bepul bajariladi. Vasiy va homiy o`z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsga ta'minot berishga majbur emas. Vasiy va homiyning o`z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsning ta'minoti uchun qilgan xarajatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu shaxsning mablag`i hisobidan qoplanadi, bu mablag` yetarli bo`lmagan taqdirda esa, uning ta'minoti uchun vasiylik va homiylik organlari nafaqa tayinlashi mumkin.

Vasiy vasiylikka olingan shaxs tomonidan bitimlar tuzishga haqli, lekin vasiylikka olinuvchining mulkiy ahvoliga yomon ta'sir etadigan bitimlar tuzishda vasiylik organlarining roziliklari bilan ish qilish lozim.

Vasiy voyaga yetmaganlarning tarbiyalanishlari, sog`liklari haqida g`amxo`rlik qilishga va ular bilan birga turishga majbur. Ruhiy kasallarning vasiylari esa, ularni davolash va sog`liklariga muvofiq sharoitda asrash tadbirlarini ta'minlashlari lozim.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo`lgan asoslar bekor bo`lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va belgilangan vasiylikni bekor qiladi.

Qonun ba'zi hollarda voyaga yetgan fuqarolarning **muomala layoqatini cheklash** hollarini nazarda tutadi. Chunonchi, FKning 31-moddasida ko`rsatilishicha, spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish natijasida o`z oilasini og`ir moddiy ahvolga solib qo`yayotgan fuqaroning muomalaga layoqati FPKda belgilangan tartibda sud tomonidan cheklab qo`yilishi mumkin. Bunday holda u mayda maishiy bitimlarni istisno qilganda, qolgan bitimlarni homiyning roziligisiz tuza olmaydi.

Homiylikda **homiylar** qisman muomala layoqatiga ega bo`lgan shaxslarga (o`n to`rt yoshdan o`n sakkiz yoshgacha bo`lgan fuqarolarga hamda muomala layoqati sud tomonidan cheklab qo`yilgan fuqarolarga) o`z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarni bajarishda yordam ko`rsatadilar, shuningdek ularni uchinchi shaxslarning ba'zan bo`lishi mumkin bo`lgan

[1] O'R FKning 27-moddasi 8-bandi

[2] O'R Fuqarolik Kodeksining 30 moddasi.

yomon niyatli harakatlaridan saqlaydilar. Homiylik ba'zi hollarda jismoniy kamchiliklari bo`lgan, masalan, ko`zi ojiz (ko`rlik), mayiblik sababli o`z huquqlarini o`zlari amalga oshira olmaydigan va himoya qila olmaydigan to`la muomala layoqatiga ega bo`lgan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bunday shaxslarga nisbatan homiylikning vazifasi huquqlar olish yoki ularni amalga oshirish bilan bog`liq turli harakatlarni ular uchun bajarishdan iborat.

Agar fuqaro spirtli ichimlik yoki narkotik moddalarni suiiste'mol qilishni tashlasa, sud uning muomalaga layoqati cheklanganligini bekor qiladi. Sud qaroriga asosan unga nisbatan belgilangan homiylik ham bekor qilinadi.

Fuqarolarni fuqarolik – huquqiy munosabatlarning to'la huquqli sub'yekti sifatida huquqiy maqomini o'rganar ekanmiz, uning **hususiy tadbirkor** sifatidagi faoliyati ahamiyatga loyiq masalalardan.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatining subyekti jismoniy shaxslar ham bo`lishi mumkin. O'R Konstitutsiyasi hamda O'R FK asosan fuqarolar mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo`lishlari, dehqon va fermer xo`jaligi tashkil etishlari, tadbirkorlik hamda qonunda ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug`ullanishlari, shuningdek, yollanma mehnat asosida faoliyat yuritishlari mumkin. Umumiy qoida bo`yicha, fuqarolar 18 yoshga to`lib, to`liq muomala layoqatiga ega bo`lgach, xususiy tadbirkorlik bilan shug`ullanishga haqli. Biroq, O'R FKning 28-moddasida 16 yoshga to`lgan voyaga yetmagan shaxslar ham mehnat shartnomasi bo`yicha ishlashlari hamda ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanishlari mumkinligi nazarda tutilgan.

Hususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanmoqchi bo`lgan fuqaro tuman (shahar) hokimligiga zarur hujjatlar taqdim etgan holda ariza bilan murojaat qiladi. Agar tadbirkor maxsus ruxsatnoma talab etiladigan faoliyat turi bilan shug`ullanish istagini bildirsa, tegishli organlarning xulosasini ham taqdim etishi lozim. Yuridik shaxs bo`lmasdan o`z faoliyatini amalga oshiruvchi xususiy tadbirkor sifatida ro`yxatdan o`tkazilgan jismoniy shaxsga u albatta davlat ro`yxatidan o`tkazilganligi to`g`risida guvohnoma beriladi va tegishli hududiy soliq organida qayd etiladi. Shu paytdan boshlab fuqaro tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanishga haqli. Uning faoliyatiga nisbatan O'R FKning tijorat tashkilotlari bo`lgan yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalari qo`llaniladi. Davlat ro`yxatidan o`tmasdan turib xususiy tadbirkorlik bilan shug`ullanganlik uchun qonunlarda tegishli javobgarlik mavjud.

Xususiy tadbirkorga berilgan guvohnoma muddati tamom bo`lganida, qonunga nomuvofiq faoliyat yuritganda, jumladan, ruxsat olish asosida shug`ullanish lozim bo`lgan faoliyat bilan ruxsatsiz shug`ullanganda xususiy tadbirkorlik huquqi bekor bo`ladi. Xususiy tadbirkor o`z xohishiga ko`ra guvohnomada ko`rsatilgan muddatdan oldin ham tadbirkorlik faoliyatini to`xtatishga haqli.

Bugungi kunda yakka tadbirkor fuqaro ham mustaqil, yuridik shaxs tuzib, faoliyat yuritish ham mustahkamlandi. Masalan, dehqon xo`jaligi[1] yoki xususiy notarial idoralar [2] shular jumlasidandir.

2.2. Yuridik shaxslar fuqarolik huquqi sub'yekti sifatida.

Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida **yuridik shaxslar** alohida ahamiyatga ega.

O`z mulkida, xo`jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo`lgan ham o`z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o`z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo`la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo`la oladigan tashkilot **yuridik**

[1] "Dehqon Xo'jaligi to'g'risida"gi O'R Qonunining 88-moddasi. O'R Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998 yil. 5-6-son.

[2] "Notariat to'g'risida"gi O'R Qonunining 42-moddasi. . O'R Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 yil, 2-son.

shaxs hisoblanadi.[1] Yuqorida berilgan ta'rifdan aniqlanishicha, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlargina yuridik shaxs bo`la oladi.

Yuridik shaxslar: *1) tashkiliy birlik;2) mulkiy mustaqillik;3) mustaqil mulkiy javobgarlik; 4) fuqarolik muomalasida o`z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo`lishi kerak.*

Tashkiliy birlik – bu yuridik shaxsning huquq subyekti sifatida tashkil bo`lganligini, tashkilot sifatida unda boshqaruv tizimining mavjudligi, unda faoliyat yurituvchi hodimlar yagona boshqaruv tizimiga bo'ysinishi, ushbu korxona yakdil maqsadga yo'naltirilgan muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo`lishligini bildiradi.

Yuridik shaxsning tashkiliy jihatdan tuzilishi (strukturasi)ni ko`rsatadigan Nizomi yoki Ustavi bo`lishi kerak. Ba'zi davlat muassasalari va davlat budjetida bo`lgan boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa tashkilotlar ham alohida Nizomga ega bo`lmay, mazkur turdagi tashkilotlar haqidagi umumiy Nizom asosida ish olib borishlari mumkin. Yuridik shaxslarning ayrim filiallari (xo`jalik bo`limlari, uchastkalari, agentliklari) ma'lum tizimga ega bo`lgan, muayyan tarzda tashkil etilgan bo`lsa ham, ular butun bir tashkilot (korxona, muassasa) ishining bir qisminigina bajaruvchi tashkilotlari bo`lgani tufayli yuridik shaxs bo`la olmaydi.

Mulkiy mustaqillik – fuqarolik huquqining subyekti bo`lishi uchun yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o`ziga tegishli, har qaysi davlat tashkilotining o`ziga biriktirilgan mulki bo`lishi lozim. Alohida mulkka ega bo`lmagan yoki mustaqil ravishda boshqara olmaydigan va shu sababli boshqa shaxslar bilan xo`jalik munosabatlarida bo`la olmaydigan tashkilotlar fuqarolik huquqining subyekti bo`lib hisoblanmaydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning Ustav doirasida aks ettiriladi. Ustav fondi ta'sischilarining qo`shgan pul mablag`lari, ko`chmas mol-mulklari, a'zolik badallaridan, tadbirkorlik faoliyatidan topilgan daromadlaridan, fuqarolarning ixtiyoriy xayriya mablag`laridan, aksiyalaridan tushgan dividendlardan va qonunda man etilmagan o`zga manbalardan tashkil topadi. Bu sohada ayrim cheklovlar ham bor. Chunonchi, siyosiy partiyalar davlat organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan, xorijiy davlatlar va tashkilotlardan, xalqaro tashkilotlardan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslardan, diniy tashkilotlardan, anonim xayriya beruvchilardan mablag`lar va boshqa mol-mulklar olishi ta'qiqlanadi[2].

Mustaqil mulkiy javobgarlik shundan iboratki, yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o`z majburiyatlari yuzasidan o`ziga tegishli bo`lgan (davlat tashkiloti esa, o`ziga biriktirib qo`yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo`lmaydi, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo`lmaydilar. Davlat budjetida turadigan tashkilotlarning qarzini qoplash, mablag` berish shartlari va tartibi O`zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Yuridik shaxslar o`z majburiyatlari bo`yicha o`zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi.

Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo`lmaganida davlat uning majburiyatlari bo`yicha subsidiar (qo`shimcha) javobgar bo`ladi.

Yuridik shaxsning bankrotligi uning mulkdori yoki ta'sischining g`ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo`lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo`lmaganda, uning mulkdori (yoki ta'sischisi) zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

*Fuqarolik muomalasida o`z nomidan harakat qilish* yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o`z nomidan huquqiy munosabatlarda qatnashib, turli bitimlar tuza olishi, mulkiy va mulkiy xarakterda bo`lmagan huquqlarga ega bo`la olishi va majburiyatlar vujudga keltira olishi,

---

[1] O'R FKning 39-moddasi.

[2] "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi O'R Qonuni. O'zbekistoning yangi Qonunlari. 15-son. - T.: Adolat. 1997. – 14 b.

demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo`jalik sudida mustaqil ravishda da'vogar va javobgar bo`la oladi.

Har bir yuridik shaxs o`z firma nomiga ega bo`lishi talab etiladi. Firma nomi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradi. Masalan, "Zarbdor" savdo–ishlab chiqarish jamoa korxonasi. Bu yerda "Zarbdor" – korxonaning nomi, ya'ni, korxonaning mahsulot va xizmatlari "Zarbdor" yorlig`i ostida chiqariladi. "Savdo-ishlab chiqarish" korxona faoliyatining xarakterini, "jamoa korxonasi" – korxonaning jamoa mulkchiligiga asoslanganligini bildiradi.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisi bo'lishi uchun yuridik shahslar ham huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishlari lozim. Yuridik shaxs o`z faoliyatida o`z ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq fuqarolik **huquq layoqatiga** ega bo`ladi. Ya'ni, yuridik shaxsning huquq layoqati, unga maxsus yuklangan vazifalar bilan belgilanib (maxsus huquq layoqati prinsipi), u faqat o`z ustav yoki nizomida ko`rsatilgan faoliyat bilangina shug`ullana oladi va ushbu faoliyat doirasida kirishadigan munosabatlarga qarab ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo`ladi.

Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi.[1]

Yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilab qo`yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug`ullanishi mumkin. Masalan, neft, neft mahsulotlari va gaz qazib chiqarish, ularni qayta ishlash va sotish faoliyati.

Yuridik shaxslarning **muomala layoqati** ham fuqarolik muomala layoqatidan farq qiladi. Agar fuqarolarda huquq layoqatidan farq qilib, muomala layoqati muayyan yoshga yetgach vujudga kelsa, muomala layoqati yuridik shaxslarda huquq layoqati bilan bir vaqtda tashkil topadi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarning muomala layoqatini cheklash va uni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati, ya'ni, o`z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlarini olish layoqati ularning organlari orqali amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning organlari qonun, ustav yoki nizomga muvofiq ravishda yuridik shaxsning erk-irodasini ifodalaydi va yuridik shaxs nomidan faoliyat olib boradi. Yuridik shaxslarning organlari yakka boshchilikka asoslanib, direktor, rais, boshqaruvchi yoki kollegial boshqaruv, vakillar majlisi, umumiy majlis (yoki yig`ilish) singari tartibida boshqaradigan organ bo`lishi mumkin.

Davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslarning organlari, qoida bo`yicha, yakka boshchilik asosida belgilanadi. Masalan, Toshkent Davlat yuridik instituti rektori.

Kooperativ va jamoat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslarning organlari ikki turga: yakka (tartib) boshchilikka asoslangan (masalan, boshqaruv raisi) yoki kollegial tartibda boshqarishga asoslangan (masalan, a'zolarning umumiy majlisi, boshqaruvi) bo`lishi mumkin.

2.2.1. Yuridik shaxslarning turlari.

Yuridik shaxslarning turlari jamiyatda mavjud bo`lgan mulk shakllariga bevosita bog`liqdir. Ma'lumki, O`zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo`lib, yuridik shaxslar ham o`z navbatida **davlatga tegishli** va **xususiy (nodavlat)** yuridik shaxslar ko`rinishida bo'lishi mumkin.[2]

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat organining qaroriga muvofiq, davlat mulki asosida tashkil etilgan korxonalar **davlatga tegishli yuridik shahs** hisoblanadi. Davlat korhonalari unitar korxona hisoblanib, ***unitar korxonalar*** deganda o`ziga biriktirib qo`yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan, mol-mulki bo`linmas tijoratchi tashkilot tushuniladi. Davlatga tegishli korxonalar operativ boshqaruv huquqi asosida boshqarilib, ***operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasi,*** shuningdek muassasasi o`zlariga biriktirib qo`yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo`yilgan doirada, o`z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-

[1] O'R Fuqarolik Kodeksining 41-modda 3-bandi.

[2] I.B. Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. (Umumiy qism). T.: TDYuI, 2006. 78 b.

mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi. Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo`lmaganida davlat korxona majburiyatlari bo`yicha subsidiar javobgar bo`ladi. Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin (FKning 72-moddasi).

Davlat korxonasining asosiy ta'sis hujjati bu – uning ustavidir. Davlat korxonasi ana shu ustav asosida ish olib boradi. Ustavda quyidagilar belgilanadi: korxonaning nomi, joylashgan yeri, mol-mulki va mablag`lari, xo`jalik faoliyati turi, faoliyat predmeti, mehnatni tashkil qilish va unga haq to`lash, korxona boshqaruvi, hisoboti, korxona faoliyatini qayta tashkil qilish va tugatish haqidagi qoidalar.

Mulkdori jismoniy shaxs hisoblangan va u tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot **xususiy korxona** deb e'tirof etiladi.[1] Xususiy korxona o`z mulkida alohida mol-mulkka ega bo`ladi, o`z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo`lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo`lishi mumkin. Xususiy korxona o`z majburiyatlari bo`yicha o`ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. Xususiy korxona mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo`lmagan taqdirda, xususiy korxonaning majburiyatlari bo`yicha o`ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo`ladi.

Xususiy korxona mulkdor tomonidan tuziladi, mulkdor unga tegishli mol-mulk beradi va uning ustavini tasdiqlaydi. Xususiy korxona, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilangan bo`lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xususiy korxona mulkdor tomonidan tuziladi, mulkdor unga tegishli mol-mulk beradi va uning ustavini tasdiqlaydi. Xususiy korxona, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilangan bo`lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xususiy korxonaning ustav fondi bo`linmasdir va uni mulkdorning o`zi belgilaydi. Pul, qimmatli qog`ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar yohud boshqa shaxsga beriladigan o`zga huquqlar xususiy korxonaning ustav fondiga qo`shiladigan hissa bo`lishi mumkin. Mulkdor xususiy korxonaning ustav fondiga o`zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi. Agar xususiy korxonaning ustav fondi shakllantirilayotganda mulkdor o`z oila a'zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulkni korxonaga berayotgan bo`lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Xususiy korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxona nomidan ishonchnomasiz ish ko`radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, xususiy korxonaning pul mablag`larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo`lgan buyruqlar chiqaradi va ko`rsatmalar beradi.

Vafot etganligi, muomalaga layoqatsizligi, muomala layoqati cheklanganligi yoki bedarak yo`qolgan deb topilganligi oqibatida mulkdorning xususiy korxona rahbari vazifasini bajarishi mumkin bo`lmay qolgan taqdirda xususiy korxonani boshqarish fuqarolik qonun hujjatlariga va xususiy korxonaning ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

Shu bilan birga yuridik shahslarni **tijoratchi** va **tijoratchi bo'lmagan** turlarga ajratishimiz mumkin. Foyda olishni o`z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan yuridik shahslar **tijoratchi tashkilot** bo'lib, foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot **tijoratchi bo`lmagan tashkilot** husoblanadi.[2]

---

[1] "Xususiy korxonalar to`g`risida"gi O'R Qonuning 3-moddasi. 2003 yil 11 dekabr. "O'R Qonun hujjatlari to'plami". 2004 yil, 3-son.

[2] O'R Fuqarolik Kodeksining 40-moddasi.

Tijoratchi bo`lgan yuridik shaxslar jumlasiga xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari hamda unitar korxonalar kiradi.

**Xo`jalik shirkatlari va jamiyatlari** bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatining eng faol ishtirokchilari hisoblanadi. Ular tijoratchi tashkilotlar jumlasiga kirib, ustav kapitallari, odatda, muassislarning qo`shgan umumiy (hissa) mol-mulk va mablag`lari yoki ishtirokchilarning aksiyalaridan iborat bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasining *"Xo`jalik shirkatlari to`g`risida"gi* 2001 yil 6 dekabrda qabul qilingan qonuni 3-moddasiga muvofiq muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo`lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo`lgan tijorat tashkiloti **xo`jalik shirkati** hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar. Xo`jalik shirkati, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo`lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan har qanday turdagi faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Xo`jalik sharkatlarining** ikki turi: ***to`liq shirkat* va ***kommandit shirkat*** kabi turlari mavjud.

FKning 60-moddasi va "Xo`jalik shirkatlari to`g`risidagi qonunning" 8-moddasiga muvofiq ishtirokchilari (to`liq sheriklari) o`z o`rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo`yicha o`zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat ***to`liq shirkat*** deb hisoblanadi.

FKning 61-moddasi va *"Xo`jalik shirkatlari to`g`risida"*gi qonunning 28-moddasiga muvofiq, shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo`yicha o`zlarining butun mol-mulklari bilan javob beradi gan ishtirokchilar (to`liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog`liq zararlar uchun o`zlari qo`shgan hissalar doirasida javobgar bo`ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo`shuvchi, kommanditchi) mavjud bo`lsa, bunday shirkat ***kommandit shirkat*** deb hisoblanadi.

**Xo`jalik jamiyatlari** – bu bir yoki bir necha shaxslar tomonidan jamiyat nomidan tadbirkorlik faoliyatini birga amalga oshirish uchun o`z mulklari(asosan mablag`lari)ni qo`shish yo`li bilan tuzgan tashkilotidir.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, **xo`jalik jamiyatlarining *mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo`shimcha mas'uliyatli jamiyat*** va ***aksiyadorlik jamiyatlari*** kabi turlari mavjud.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo`lingan, ishtirokchilari jamiyat faoliyati bilan bog`liq zararlar uchun o`zlari qo`shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo`ladilagan xo`jalik jamiyati ***mas'uliyati cheklangan jamiyat*** hisoblanadi.[1]

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo`lingan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo`yicha o`ziga tegishli mol-mulklari bilan hamma uchun bir xil bo`lgan va qo`shgan hissalari qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo`ladigan, ishtirokchilardan biri bankrot bo`lib qolganida uning majburiyatlari bo'yicha boshqa ishtirokchilar ularning qo`shgan hissalariga mutanosib ravishda javob beradigan xo`jalik jamiyati ***qo`shimcha mas'uliyatli jamiyat*** hisoblanadi.[2]

Ustav fondi muayyan miqdordagi aksiyalarga bo`lingan, ishtirokchilari jamiyat faoliyati bilan bog`liq zararlar uchun o`zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo`ladilar jamiyat ***aksiyadorlik jamiyati*** hisoblanadi.[3]

---

[1] O'R Fuqarolik Kodeksining 62-moddasi.
[2] O'R Fuqarolik Kodeksining 63-moddasi.
[3] O'R Fuqarolik Kodeksining 64-moddasi.

Aksiyadorlik jamiyati *ochiq* yoki *yopiq* bo`lishi mumkin.

Qatnashchilari o`zlariga tegishli aksiyalarini o`zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo`lgan aksiyadorlik jamiyati *ochiq aksiyadorlik jamiyati* deb hisoblanadi. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlari o`zlari chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o`tkazishga va qonun hujjatlarining talablarini hisobga olgan holda ularni erkin sotishga haqlidir.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdori jamiyat davlat ro`yxatidan o`tkazilgan sanada O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo`yicha ellik ming AQSH dollariga teng bo`lgan summadan kam bo`lmasligi kerak[1].

Aksiyalari faqat o`z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati *yopiq aksiyadorlik jamiyati* hisoblanadi. Bunday jamiyat o`zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o`tkazishga yoxud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga haqli emas.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdori jamiyat davlat ro`yxatidan o`tkazilgan sanada qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravari miqdoridan kam bo`lmasligi kerak.

Tijoratchi korxonalar orasida **tijorachi kooperativlar** ham alohida ahamiyatga ega. Fuqarolarning shaxsiy ishtiroki, a'zolarning (ishtirokchilarning) mulki bilan qo`shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo`jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi.

Kooperativning mol-mulki o`z a'zolarining pul va moddiy badallari, banklarning kreditlari, o`zi ishlab chiqargan mahsulotlar, bu mahsulotlarni sotishdan, kooperativ ustavida nazarda tutilgan o`zga xil faoliyatdan kelgan daromadlar hamda qonunlarda man etilmagan boshqa manbalar hisobiga hosil bo`ladi.

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatlari bo`yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo`ladilar.

Qonunchilik **tijoratchi bo`lmagan yuridik shaxslar** jumlasiga ***jamoat birlashmalari, jamoat fondlari*** va ***mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasalarni*** kiritadi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida belgilangan huquqlari, erkinliklarini va siyosat, iqtisod, ijtimoiy rivojlanish, fan-madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro`yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirish natijasida vujudga keladigan ixtiyoriy tuzilma ***jamoat birlashmasidir***. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, faxriy va nogironlar uyushmalari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy va boshqa ko`ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar birlashmalari, fondlar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari ***jamoat birlashmasi*** deb ataladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g`ayriqonuniy yo`l bilan o`zgartirish yoki O`zbekiston Respublikasi xududining birligini buzish, urushni, zo`ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan ta'qiqlangan boshqa xatti-xarakatlar qilish maqsadini ko`zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo`l qo`yilmaydi. Xarbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo`laklari tashkil etish ta'qiqlanadi.

---

[1] Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risidagi O’R Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 apreldagi 189-sonli qarori. O’zbekiston ovozi. 2003 yil 22 aprel.

FKning 75-moddasida ***jamoat fondlarga*** quyidagicha ta'rif berilgan: fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo`shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko`zlaydigan, a'zolari bo`lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi hisoblanadi.

Jamoat fondining mol-mulkidan o`z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi. Jamoat fondi qonun hujjatlariga muvofiq, o`z ustavida nazarda tutilgan maqsadlarga to`g`ri keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanishga haqli. Jamoat fondlar tijorat tashkilotlari ustav fondidagi(ustav kapitalidagi) ishtiroki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamoat fondlari har yili o`z faoliyati to`g`risida hisobot e'lon qilishi shart.

Ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lmagan faoliyat, chunonchi, ma'muriy idora etish yoki ijtimoiy-ma'naviy ishlarni boshqarishni amalga oshirish maqsadida mulkdor tomonidan ta’sis etilgan, mustaqil smetaga ega bo`lgan tashkilotlar ***mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasalar*** hisoblanadi. Bular jumlasiga shifoxonalar, oliy o`quv yurtlari, teatrlar, sud-prokuratura va boshqalar kiradi. Yuridik shaxs hisoblangan muassasalar o`z nizomlari doirasida o`zlari yuritayotgan vazifalarni amalga oshirib, turli fuqarolik bitimlarini tuzadilar, o`zlariga biriktirilgan mulkdan operativ boshqarish huquqi asosida foydalanadilar. Muassasalar o’z majburiyatlari bo’yicha ehtiyorlarida bo’lgan pul mablag’lari bilan javob beradilar. Biroq bunday mablag’ yetarli bo’lmasa, belgilangan tartibda mulkdor ham uning uchun javobgar bo`lishi mumkin.

XULOSA.

O’zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi mazmun mohiyatini o’rganar ekanmiz, uning nechog’lik muhim va ahamiyatli huquq tarmog’i ekanligini tushunib yetamiz. Darhaqiqat, inson tug’ilgan daqiqasidan to umrining ohiriga qadar o’zi bilib bilmagan tarzda fuqarolik huquqi normalariga tayanadi. Kundalik hayotimizni ham ushbu huquq tarmog’i meyorlaris tasavvur qilib bo’lmaydi.

Bozor munosabatlarining rivojlantirishi, hususiy tadbirkorlikni yanada jo’sh urishi, O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda jahon integratsiya jarayonlarida faol qatnashishi ham fuqarolik huquqining salmog’ini oshiradi. Negaki, aynan fuqarolik huquqi normalari hususiy mulk, hususiy tadbirkorlik, intellektual mulk huquqi kabi tushunchalarni belgilaydi. Fuqarolik huquqi bilan yanada yaqinroq tanishish maqsadida bo’lgan talabalarga O’R Fuqarolik Kodeksi, ma’ruza matnida keltirilgan O’R Qonunlari, H.R. Rahmonkulovning O’R Fuqarolik Kodeksining I- va II-qismlariga tavsif va sharhlari, I.Zokirovning «O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi» darsligi, Z.Islamovning «Huquqshunoslik» ma’ruza matnlarini tavsiya etamiz.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1..Fuqarolik huquqi tushunchasi nimadan iborat?

2. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning belgilari qanday?

3. Fuqarolik huquqiy tartibga solish usulining o’ziga hos jihati qanday? 4.Mulkiy munosabatlar deganda qanday munosabatlar tushuniladi?

5. Shahsiy nomulkiy munosabatlar qanday munosabatlar?

6. Huquq va muomala layoqati mazmuni nimadan iborat?

7. Jismoniy va yuridik shahslarning huquq va muomala layoqatida qanday farq bor?

8. Yuridik shahslarning asosiy belgilari nimadan iborat?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1.I.A.Karimov. “Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalashtirish va isloh qilishdir”. T.: O‘zbekiston 2005.

2. I.A. Karimov. “Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odam, deb hisoblashar edi”. – T.: O‘zbekiston, NMIU, 2005.

3. I.A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: Ma’naviyat. 2008.

4.O'R Fuqarolik Kodeksi.T.: “Adolat”, 1996.
5.H.R. Rahmonkulov. “O’R Fuqarolik Kodeksining I- va II-qismlariga tavsif va sharhlar”. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1997.
6. “Xususiy korxonalar to`g`risida”gi O’R Qonuni. 2003 yil 11 dekabr. "O’R Qonun hujjatlari to’plami”. 2004 yil, 3-son.
7. “Dehqon xo’jaligi to’g’risida”gi O’R Qonuni. O’R Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998 yil. 5-6-son.
8. O`zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida”gi 2000 yil 25 maydagi qonuni.
9.“ Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi O’R Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 apreldagi 189-sonli qarori. O’zbekiston ovozi. 2003 yil 22 aprel.
10. Rahmonqulov H.R. “Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoillari”. -T.: TDYuI. 200.
11. I.B. Zokirov. “O’R Fuqarolik huquqi”. Darslik. (Umumiy qism). T.: TDYuI, 2006.
12. Z. Islomov, O.Husanov, M. Mirhamidov. “Huquqshunoslik”. Ma’ruzalar matni. T.,2000.
13. J.Yoqubov, E. Haitboyev. “Huquqshunoslik”: Darslik. T.: “Yangi asr avlodi”. 2006.
14. www.gov.uz
15. www.edu.uz
16.www. lex.uz

TADBIRKORLIK HUQUQI ASOSLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarning tadbirkorlik huquqi tushunchasi, predmeti, tamoyillari, subyektlari, manbalari to’g’risidagi bilimlarini chuqurlashtirish, kegaytirish va mustahkamlash.

Tushuncha va tayanch iboralar: tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, iqtisodiy uslublarni qo’llash, xususiy tadbirkorlik ustuvorligi, narhlarning erkinligi, o’zaro raqobatdoshlik.

Asosiy savollar:

1. Tadbirkorlik huquqi tushunchasi, predmeti va tamoyillari.
2. Tadbirkorlik huquqi subyektlari tushunchasi va turlari.
3. Tadbirkorlik huquqi manbalari.

1. Tadbirkorlik huquqi tushunchasi, predmeti va tamoyillari.

O’zbekiston Respublikasi o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan buyon erkin bozor iqtisodiyoti hamda erkin bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o’tish jarayonida xo’jalik yurituvchi subyektlarning huquqiy holati o’zgarib bormoqda, shu bilan birga, yuzaga kelayotgan munosabatlar yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Buning natijasida turli xo’jalik yurituvchi subyektlar o’rtasida vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish va ularni muntazam takomillashtirib borish taqozo qilinmoqda.

Bozor munosabatlarining tobora rivojlanib borishi yangi-yangi mulkdorlar guruhini shakllantiradi, tadbirkorlarni keltirib chiqaradigan bu guruhlar xo’jalik munosabatlarining mustaqil subyekti bo’lib ishtirok etadi. Ular o’rtasidagi mulkiy munosabatlarning aksariyati xo’jalik qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasi, bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan birga, borgan sari kengayib boradi, xususan, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohasida korxonalar, tadbirkorlar, fermerlar, dehqon xo’jaliklari, banklar, birjalar va shunga o’xshash boshqa subyektlar o’ziga xos maxsus faoliyat ko’rsatadilar.

Tadbirkorlik huquqi huquq tarmog’i sifatida iqtisodiyot sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normalar yig’indisidan iborat. Ularga, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,

qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiradi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida – bozor munosabatlariga qaratilgan O’zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi belgilanib, Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashini ta’kidlangan. Binobarin, mamlakatimizda tadbirkorlik erkinligi –O’zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida»gi Qonuni bilan alohida ta’minlangan.

Mazkur huquq soha mohiyatidan kelib chiqqan holda tadbirkorlik huquqiga qo’yidagicha tushuncha berish mumkin. **Tadbirkorlik huquqi** respublikamizdagi huquq sohalaridan biri bo’lib, mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o’tib borishida, davlat va jamiyat, xo’jalik manfaatlarini hisobga olgan holda, xo’jalik subyektlari o’rtasidagi xo’jalik munosabatlarni tartibga soluvchi, bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yig’indisidir.

Ma’lumki, ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi.

O’z navbatida, huquqiy munosabat o’zaro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bog’liq bo’lgan shaxslar o’rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar deganda, xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, tijorat hamda notijorat tusdagi xo’jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish borasida xo’jalik yurituvchi subyektlar ishtirokida yuzaga keladigan va xo’jalik huquqiy normalari bilan tartibga solib turiladigan munosabatlar tushuniladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar elementlari shu munosabat subyektlari, obyektlari va uning mazmunidan iborat bo’ladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning subyektlari bo’lib shu munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar hisoblanadi. Xo’jalik huquqiy munosabatlarning subyekti bo’lgan korxonatashkilotlar va boshqa yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati ular davlat ro’yxatidan o’tkazilgandan boshlab vujudga keladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabat obyekti deb, xo’jalik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari nimaga qaratilgan bo’lsa, shunga aytiladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning obyektlari birinchidan, ashyolar, pul va qimmatli qog’ozlar, o’zga molmulklar; ikkinchidan, subyektning sodir etishi shart bo’lgan harakatlari; uchinchidan, huquq subyektining faoliyati; to’rtinchidan, xo’jalik faoliyatida foydalaniladigan nomulkiy ne’matlar (firma nomi, tovar belgisi, tijorat siri va boshqalar) hisoblanadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning mazmuni, obyektiga qarab turlari mutlaq ashyoviy huquqiy munosabatlar mutlaq-nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar o’z xo’jalik faoliyatini yuritish bo’yicha mutlaq huquqiy munosabatlar nisbiy huquqiy munosabatlar nomulkiy huquqiy munosabatlar mavjud bo’lmagan majburiyatni bajarish uchun berilgan pul miqdori va boshqa mol-mulk, agar qo’lga kirituvchi mol-mulkni qaytarishni talab qilayotgan shaxsning majburiyati yo’qligini bilganligini yoxud mol-mulkni xayriya maqsadlarida berganligini isbotlasa (Fuqarolik kodeksining 1030-moddasi).

Huquq sohasining barcha tarmoqlari singari tadbirkorlik huquqi ham asosiy va eng muhim tamoyillarga asoslanadi. Mazkur tamoyillar O’zbekiston Respublikasi qonunlarida mujassamlashgan asosiy qoidalardan kelib chiqadi.

Tadbirkorlik huquqiga oid tamoyillar respublikamizda bozor munosabatlarini tashkil etishda barcha xo’jalik subyektlarining iqtisodiy faoliyatini ma’lum bir maqsad sari yo’naltirib, huquqiy tartibga solib turadi.

Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillari:

– *tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish* (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 53-moddasi); Bu tamoyilning mohiyati har bir moddiy tovar

ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektining iqtisodiy manfaati qonunlarda belgilangan tartibda tegishli organlar orqali himoya qilinadi;

– iqtisodiy faoliyat erkinligi;

– tovar ishlab chiqaruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) subyektlarning o'zaro raqobati;

– qonuniylik;

– narxlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasini shakllantirish;

– xo'jalik munosabatlariga iqtisodiy uslublarni qo'llash asosida davlatning ta'sir etishi.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tamoyilning mohiyati har bir moddiy tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektining iqtisodiy manfaati qonunlarda belgilangan tartibda tegishli organlar orqali himoya qilinadi.

Qonuniylik tamoyilga ko'ra korxona hamda tashkilotlar davlat va jamiyatga foydali bo'lgan, qonun bilan taqiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanish ustuvorligini ta'minlashi shart. Bu esa bozor munosabatlariga o'tib borish bilan bog'liq holda iqtisodni tashkil etish, samaradorlikka erishish, davlatimiz va xalqimizning buyuk kelajagini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri bo'ladi.

Iqtisod siyosatdan alohida bo'lgan holda rivojlanadi. Bu siyosat mutlaqo iqtisodga aloqasi yo'q ekan, degan xulosa emas, albatta. Iqtisod bilan siyosat bir-biri bilan bog'lanmagan holda, biri ikkinchisiga ta'sir etgan holda bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, avval iqtisod rivojlanib boradi, so'ngra siyosat shakllanadi.

Respublika mustaqil ta raqqiyotini belgilovchi narxlarni erkinlashtirish va bozor infrastrukturasini shakllantirish tamoyili. Bu, eng avvalo, bozorni tovarlar bilan to'ldirishga va xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan iqtisodiy omillardan biridir. Shu sababli davlat narxlarni birdaniga o'z holicha qo'yib yubormasdan, asta-sekinlik bilan erkin narxga o'tib borishni ta'minladi. Tovar ishlab chiqaruvchi (ishlarni bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) subyektlarning o'zaro raqobati tamoyilining asosiy mazmuni va mohiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim kam mehnat va xarajat sarf qilib, ko'p va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqara olsa (ish va xizmat ko'rsatsa), u ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotda imtiyozga ega bo'la oladi. Ma'lumki, bu tamoyil iqtisodiyotning rivojida eng birinchi va hal qiluvchi vosita hisoblanadi.

2. Tadbirkorlik huquqi subyektlari tushunchasi va turlari.

Tadbirkorlik huquqining o'ziga xos xususiyatlari uning subyektlari bilan ham bog'liqdir. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib shu munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar hisoblanadi. Bular ***yuridik shaxs*** huquqiga ega bo'lgan barcha turdagi korxonalar, jumladan, fuqarolarning xususiy mulkiga asoslangan (jamoa, oila) korxonalar, ishlab chiqarish kooperativlari, aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat, o'zga xo'jalik jamiyatlari yoki shirkatlari, shuningdek, dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va boshqalar kiradi. Tadbirkorlik munosabatlarining yana bir muhim subyekti mavjudki, u ham bo'lsa yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ***jismoniy shaxslar***dir. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida o'z aksini topgan.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining subyektlari bo'lishi uchun tadbirkor-fuqarolar huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishlari lozim. Tadbirkor-fuqarolarning huquq layoqati ularning tug'ilishi bilan paydo bo'ladi va vafot etishi bilan bekor bo'ladi. Ularning to'la muomala layoqati 18 yoshga yetishi bilan boshlanadi, ammo ayrim hollarda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan 16 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonunda ko'rsatilgan asoslarda to'la muomala layoqatiga ega deb hisoblanishi mumkin (Fuqarolik kodeksining 28-moddasi).

Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida ***davlat***ning ishtiroki O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining asosiy tamoyillaridan biri, bu davlatning bosh islohotchi ekanligidir.

Shu nuqtayi nazardan davlat iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Bu esa bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan boshqarish va tartibga solish hamda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bevosita huquqiy vositalar yordamida hal etishga imkoniyat yaratadi.

Davlat xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi subyektlariga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Bular:

– birinchidan, uning o'z mulkiga egaligida;

– ikkinchidan, uning xo'jalik faoliyatini boshqarilishida;

– uchinchidan, bevosita xo'jalik vakolatlariga egaligida;

– to'rtinchidan, xo'jalik aloqalarida boshqa ishtirokchilar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishlarida gavdalanadi.

Davlatning barcha mol-mulkini, bu mulk respublika yoki mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, asosan, ikki guruhga:

1) davlat korxonalari va muassasalariga biriktirib qo'yilgan mulk;

2) tegishli budjet mablag'lari va davlat korxonalari, muassasalariga biriktirilmagan respublikaning davlat xazinasini tashkil qiladigan mol-mulklarga ajratish mumkin.

Xo'jalik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi usuli umumiy va alohida asoslarda amalga oshiriladi. Umumiy asos qonun chiqarish bo'lib hisoblansa, alohida asosda turli-tuman sohalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini tartibga soladi. Masalan, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish va xarid qilish, budjet manfaatlarini ko'zlagan holda qonunlar, ekologiya masalalariga oid, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarning qabul qilinishi orqali subyekt sifatida ko'rinadi.

Davlat iqtisodiy munosabatlarga kirishar ekan, boshqa subyektlar kabi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ruxsatnoma olishi talab etilmaydi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotga rahbarlik qilishining yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlar asosida amalga oshirilishi ham unga xos bo'lgan xususiyatlardan hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik huquqining subyektiga quyidagicha tushuncha berish mumkin. **Tadbirkorlik huquqining subyekti,** bu xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi, o'zining mulkiga, xo'jalik huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan, o'z faoliyati yuzasidan mustaqil da'vogar va javobgar bo'la oladigan va o'zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila oladigan (yuridik shaxs maqomini olgan) turli mulk shakllariga mansub korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yakka tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolar hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqining subyektlari tushunchasidan bunday huquqning o'ziga xos qo'yidagi belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– tadbirkorlik huquqi subyektining o'z mol-mulkiga ega bo'lishidir. O'z mol-mulkiga ega bo'lishning huquqiy shakli mulk huquqidir.

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 14-moddasiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati subyektlari belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo'lishi mumkin emas.

– tadbirkorlik subyektining davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishligi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun albatta ruxsatnoma (litsenziya)ga ega bo'lish lozimligi;

– tadbirkorlik subyektlarning xo'jalik huquq va majburiyatlariga ega bo'lishligidir. Bunday huquq va majburiyatlarning doirasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan hamda ularga muvofiq qabul qilingan mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlarining ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi.

– tadbirkorlik subyektining o'z faoliyatlari uchun mustaqil javobgar hisoblanishi. Tadbirkorlik subyektining javobgarlik masalasi va va sud orqali qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi o'z mol-mulki doirasida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga, vakolatlariga, faoliyat turiga qarab belgilanadi.

Mamlakatimizda mulk shakllarining xilma-xilligiga ko'ra xo'jalik huquqi subyektlarining qo'yidagi turlarini ajratiish mumkin::

– fuqarolarning xususiy mulkiga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar

– davlat mulkiga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'la yoki ulush qo'shib ishtirok etishga asoslangan (qo'shma korxonalar) xo'jalik yurituvchi subyektlar;

– mulkchilikning aralash shakliga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

– jamoa mulki ko'rinishidagi xususiy mulkka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar (jamoa, oila, mahalla, ishlab chiqarish kooperativlari, aksiyadorlik jamiyatlari, mas.uliyati cheklangan jamiyatlar, shirkatlar).

Xo'jalik huquqi subyektlari vakolatlariga ko'ra ham quyidagi turlarga ajratiladi:

1) faqat xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar (fermer xo'jaliklari, xususiy korxonalar va boshqalar);

2) boshqaruvni amalga oshiruvchi subyektlar (hokimiyat, vazirliklar, davlat organlari);

3) har ikkalasini qo'shib olib boruvchi subyektlar (konsern, korporatsiya)ga bo'lish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni faoliyat maqsadiga (turiga) qarab ikki turga ajratish mumkin:*1) tijoratchi tashkilot;2) tijoratchi bo'lmagan tashkilot.*

Tijoratchi tashkilot, bu foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo'ygan subyekt bo'lib (xususiy korxonalar, xo'jalik jamiyatlari), tijoratchi tashkilotlarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Tijoratchi bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z oldiga muayyan maqsadni ko'zlagan holda harakat qilib, foyda ko'rishni ko'zlamaydi.

Tadbirkorlik huquqi subyektlarini tashkil etish va tugatish Fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq, yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati yuridik shaxs hamda yuridik shaxs tuzmagan holda amalga oshirilar ekan, ular tadbirkorlik subyekti maqomini olishlari uchun belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishlari talab qilinadi.

*Qonunga asosan**, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga quyidagilar kiradi:***

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi;

– viloyat adliya boshqarmalari;

– tuman(shahar) Davlat soliq inspeksiyalari;

– tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik

– subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari.

Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish munosabatlari O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlar ba boshqa normativ aktlar bilan tartibga solinadi. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-sentabrdagi «Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka

tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va import operatsiyalari subyektlarining hisobga olish kartalarini berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorni keltirish mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish, tegishli ravishda, yustitsiya organlari yoki tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari tomonidan bir vaqtning o'zida ularni soliq va statistika organlarida hisobga qo'ygan holda amalga oshiriladi. Ariza-xabarnomani bergan paytdan boshlab tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatiga olib, unga davlat ro'yxatiga olinganligi to'g'risidagi guvohnomani berishgacha o'tadigan muddat ko'pi bilan ikki ish kunini tashkil etishi kerak.

Tadbirkorlik huquqi subyektlarining tashkil qilinishi kimning xohish-irodasiga va qanday tartibda amalga oshirilayotganligiga qarab:*ta'sis-farmoyish, ta'sis,*

– *shartnomaviy-ta'sis usullariga bo'linadi.*

Ta'sis-farmoyish usuli bilan, asosan, davlat mulkiga asoslangan korxonalar tashkil qilinadi. Bu usulning xarakterli tomoni shundaki, bunda xo'jalik yurituvchi subyekt davlat vakil qilgan shaxs tomoni.

3. Tadbirkorlik huquqi manbalari.

O'zbekiston Respublikasidagi huquq tizimining manbayi bu vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan qonunlar va chiqariladigan huquqiy hujjatlardir. Ana shu qonunlar va huquqiy hujjatlar eng avvalo, O'zbekiston xalqining erkini, xohishini ifoda etadigan huquqiy qoidalar yig'indisidir. Har bir fan uchun qonunlarning va huquqiy hujjatlarning qaysi biri yoki uning qanday qoidasi manba ekanligini ajratib olish kerak bo'ladi. Ayniqsa, bu masala tadbirkorlik huquqi uchun muhimdir. Chunki, tadbirkorlik huquqiy normalarini yagona tizimga soluvchi alohida huquqiy hujjat hozircha yo'q. Lekin, shunday bo'lsa-da, mustaqil respublikamizning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan qator huquqiy hujjatlar borki, ularning deyarli katta qismi bevosita tadbirkorlik huquqining manbayi bo'la oladi.

Demak, **tadbirkorlik huquqi manbalari**ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qjnunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qarorlar, O'zbekston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va agentliklari doirasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Endi bo'larning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha huquqlar qatori tadbirkorlik huquqining asosiy manbayidir. Eng avvalo, Konstitutsiyaning 12-bobi jamiyatning iqtisodiy negizlari xususida belgilangan qoidalari xo'jalik huquqining manbayi bo'lib hisoblanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning ana shu bobi 53-moddasida «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi» deb belgilangan.

Shu bilan birgalikda Konstitutsiyada xususiy mulkning boshqa mulk shakllari bilan bir qatorda davlat himoyasida bo'lishi, mulkdorning mulkiga o'z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi (Konstitutsiyaning 54-moddasi), yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralarning umummilliy boylik bo'lishi (Konstitutsiyaning 55-moddasi) kabi moddalari tadbirkorlik huquqiga bevosita manba bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, Xo'jalik huquqining manbayi bo'lib boshqa qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda tegishli vakolatga ega bo'lgan idoralar tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar ham hisoblanadi. Xo'jalik huquqi manbayi deb, xo'jalik subyektlari o'rtasida kelib chiqadigan xo'jalik faoliyatiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik normalarining yig'indisiga aytiladi.Aholining moddiy va maishiy farovonligi ta'minlanishini qiyinlashtiradi. Shu sababli respublikamizda bozor iqtisodiyoti

munosabatlarini borgan sari rivojlantirib borishga va uning taraqqiyotini qonun bilan kafolatlashga alohida e'tibor berilyapti. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi bu borada muhim voqea bo'ldi. Ma'lumki, Fuqarolik kodeksining mulk huquqi, majburiyat huquqi, mulkning bir shaxs egaligidan ikkinchi shaxs egaligiga o'tishiga qaratilgan shartnomalar xususidagi qoidalari bevosita bozorni tashkil etishga, uni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga xo'jalik subyektining bozor munosabatlarida erkin ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan. Fuqarolik kodeksida belgilangan mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, mulk ijarasi, lizing, pudrat, qurilish pudrati, tashish, kredit, hisob-kitob va shunga o'xshash xo'jalik subyektlari ishtirokida tuziladigan shartnomalarga oid qoidalar bevosita xo'jalik huquqiga manba bo'ladigan qoidalardir.

Tadbirkorlik huquqi manbalariga bozor munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan kundalik qonunlarni kiritish mumkin. Ulardan bir guruhi mulk bilan bog'liq munosabatlarga doirdir. Jumladan, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qonuniy kafolatlashga qaratilgan mulkchilikka oid «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Ijara to'g'risida», O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni va boshqa shunga o'xshash bir qator qonunlar qabul qilingan. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini kafolatlashga qaratilgan «Tovar bozorlarida faoliyatni cheklash to'g'risida», «Tovar belgilari, tovar kelib chiqish joyi nomi to'g'risida», «Standartlashtirish to'g'risida», «Meterologiya to'g'risida», «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida», «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunlari bu sohada muhim ahamiyatga ega Xo'jalik huquqi manbalari turlaridan birini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qarorlar tashkil etadi. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustidagi «Ayrim korxonalar va molmulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba'zi masalalari haqida»gi qarorini keltirib o'tish mumkin. Bu qaror bilan xususiylashtirilishi mumkin bo'lmaydigan mulk obyektlari sanab ko'rsatiladi.

Ayniqsa, Tadbirkorlik huquqining yangi sharoitlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlari bilan birga rivojlanishida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Farmonlar ham muhim ahamiyatga ega O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 94-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib, ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi, deb belgilangan1. Bunga 1999-yil 28-iyundagi «Moliya xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 1999-yil 23-iyuldagi «Korxonalar bankrotligi va sanatsiya mexanizmini takomillashtirish to'g'risida», 2000-yil 2-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tadbirkorlik huquqining manbalaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi chiqaradigan normativ hujjatlardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida belgilanganidek, Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Ushbu qarorlarda xo'jalik huquqi subyektlarining huquqiy holati, ularning mulk huquqi va bozorni tashkil etish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatlarni tashkil etish, rivojlantirishning chora-tadbirlari belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga misol tariqasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 2000-yil 2-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida», 2000-

yil 14-avgustdagi «Ijtimoiy muhim oziq-ovqat tovarlarini import qilish va sotishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida», 2000-yil 20-avgustdagi «Litsenziyalashni bekor qilish hamda iste'mol tovarlarni olib kelish va ularni ichki bozorda sotishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasa, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik munosabatlarini yangi sharoitda, o'ziga xos holda huquqiy jihatdan tartibga solishning samaradorligini oshirishning ta'minlanishi ular ishtirokchilarining tadbirkorlik faoliyatida faol ishtirok etishining imkoniyatini yaratishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning fikrini huquqiy tartibga solish predmeti va uslubi nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish eng dolzarb muommolardandir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Tadbirkorlik huquqining mazmun mohiyati nimadan iborat?
2. Tadbirkorlik munosabatlari qanday tamoillar asosida shakllantiriladi?
3. Sizningch tadbirkorlik huquqi qaysi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi?
4. Tadbirkorlik huquqi nima maqsadda o'rganisladi?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябр. – Тошент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2012.– 40 б.

3. «Хусусий корхоналар тўғрисида»ги ЎзР Қонунининг 3-моддаси. 2003 йил 11 декабрь. «ЎзР Қонун хужжатлари тўплами», 2004 йил, 3-сон.

4. Раҳмонқулов Ҳ., Рўзиназаров Ш. ва бошқ. Тадбиркорлик ҳуқуқи. Т.2. Дарслик. – Т.: Консаудитинформ, 2002. – 266 б.

5. Рустамбоев, М. Предпринимательское право в Республике Узбекистан: курс лекций. – Т.:Кувасайский учебный научно-производственный центр, 2002. - 182 с.

6. O`zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida"gi 2000 yil 25 maydagi qonuni.

7." Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'R Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 19 apreldagi 189-sonli qarori. O'zbekiston ovozi. 2003 yil 22 aprel.

8. www.gov.uz

98. www.edu.uz

10.www. lex.uz

MEHNAT HUQUQI ASOSLARI.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda mehnat huquqi asoslari to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmalar hosil qilish, mehnat munosabatlarini tashkil etuvchi huquq va majburiyatlar to'g'risida to'liq tasavvur paydo qilish, ulardan amalda foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali talabalar huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar orasida sog'lom muhitni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: mehnat qilishga bo'lgan huquq, mehnat munosabatlari, majburiy mehnat, diskriminatsiya, ish beruvchi, hodim, ishga joylashish, mehnat daftarchasi, sinov mudati, mehnat shartnomasi, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari.

Asosiy savollar:

1.Mehnat huquqi tushunchasi, uning vazifalari va tamoillari.

2. Mehnat huquqi sub'ektlari.

3.Ishga joylashishning huquqiy jihatlari.

3.1.Mehnat shartnomasi tushunchasi, uni tuzish va bekor qilish tartibi.

"Aqliy hujum" uchun savollar:

– Mehnat huquqi va mehnat qiliga huquq tushunchalar o'rtasida farqni aniqlang.

– Mehnat huquqi fanining talabaning hayotidagi ahamiyati qanday?

1.Mehnat huquqi tushunchasi, uning vazifalari va tamoillari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir»[1] deb ta'kidlangan. Mehnat qilishga bo'lgan huquq har bir inson uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqlaridan biri bo'lib, inson yashashi, chiroyli hayot kechirishi, o'zi uchun qulay turmush sharoiti yaratishining kafili hisoblanadi. Har bir inson o'ziga tegishli bo'lgan mehnat huquqidan foydalanar ekan, turli hil ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Ushbu munosabatlar mehnatga oid munosabatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvi va boshqa normativ xujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitiutsiyasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar, farmoyishlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlari mehnat huquqi manbalari xisoblanib, mehnat huquqining eng muhimlari ana shu xujjatlar bilan tartibga solinadi.

Vazirliklar va idoralar tomonidan chiqariladigan me'yoriy xarakterga ega bo'lgan, fuqarolar va yuridik shaxslar uchun huquq va majburiyatlar yuzaga keltiruvchi me'yoriy hujjatlar belgilangan tartibda Adliya vazirligida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, davlat ro'yxatidan otkazilganidan keyin yuridik kuchga kiradi.

«Mahalliy davlat hokimiyati tog'risida»gi O'R qonuniga muvofiq tuman, shahar, viloyat hokimliklari tomonidan q'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar shu xududdagi barcha shaxslar uchun majburiy kuchga ega va mahalliy hokimyat organlari tomonidan mehnatni tashkil etish, muayyan sharoitlar belgilash va mehnat huquqining manbai sanaluvchi me'yoriy hujjatlar chikarishlari mumkin. (masalan, mahalliy tashkilotlarning ish vaqtlarini belgilashga qaratilgan meyoriy hujjatlar).

Yuqorida keltirilgan meyoriy hujjatlarning barchasi mehnatga oid munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ekan, huquq tarmoqlaridan biri bo'lmish mehnat huquqini tashkil etadi. Ya'ni **mehnat huquqi** – mehnat munosabatlarining vujadga kelishi, amal qilishi va tugatilishini tartibga solishga, xodimlarning birgalikdagi mehnat tartibini, mehnatni muhofaza etish qoidalarini, mehnat nizolarini ko'rib chiqish tartibini belgilashga qaratilgan huquqiy meyorlar tizimidir.

Mehnat huquqi mehnatni ijtimoiy – iqtisodiy tashkil etish yuzasidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi, ya'ni jamiyatda mavjud bo'lgan birgalikdagi mehnat jarayonidagi kishilar o'rtasidagi aloqani boshqaradi. **Mehnat munosabatlarini boshqarishda** *fuqarolarning* ijtimoy ishlab chiqarishga, ya'ni *mehnat qilishga erkin manfaatdorlik asosida jalb qilinishiga,* mehnat munosabatlari *ishtirokchilarining yuridik jihatdan tengligiga* asoslanadi.

Mehnat huquqining vazifalari O'zbekiston Respublikasi mehnat kodekisida belgilangan bo'lib, unga ko'ra: "Mehnat tog'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish

[1] O'R Konstitutsiyasining 37 moddasi.

beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart - sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'ini himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishga, shu asosida barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasini yuksalishiga ko'maklashadi".[1]

Mehnat huquqining quyidagi **tamoillari** mavjud:

1.Fuqarolarning o'z mehnat layoqatlarini o'zlari erkin tasarruf etishlari tamoili mehnat layoqatiga ega bo'lgan shahsning kasb, ish joyi, mehnat sharoitlarini erkin tanlashi mumkinligini anglatadi.

2. Majburiy mehnatning ta'qiqlanganligi tamoili yuqorida qayd etilgan tamoil bilan mazmunan yaqin bo'lsada, alohida e'tiborga loyiq jihatlarga ega. ***Majburiy mehnat*** deganda jazo chorasini qo'llash tahdidi bilan biror bir ishni bajarishga majburlash nazarda tutilib:

- harbiy va alternativ hizmat to'g'risidagi hujjatlar;
- favqulotda holat sharoiti;
- qonuniy kuchga kirgan sud qarori asosida bajarilishi talab etiladigan mehnat majburiy mehnat hisoblanmaydi.

3. Mehnat munosabatlarida diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoili har bir mehnatga layoqatli shahsning mehnat huquqlariga egalik qilish va ulardan foydalanishda bir hil imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Hodimlarni ishga qabul qilish, adolatli mehnat sharoitlarini yaratish, ularning mehnatini rag'batlantirishda hodimlarning ishchanlik qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lmagan hususiyatlar, ya'ni jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab cheklash yoki imtiyozlar yaratish qonun bilan taqiqlanadi.

Mehnatning alohida turlarining (masalan, og'ir mehnat sharoitlari, zararli chiqindilar bilan ishlashni taqazo etadigan mehnat sharoitlari) talabi, yoki davlatning aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga (ayollar, voyaga yetmaganlar, nogironlar) g'amho'rligi yuzasidan kelib chiqqan cheklashlar diskriminatsiya hisoblanmaydi.[2]

2. Mehnat huquqi sub'ektlari.

Mehnat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarda asosan ikki tomon: xodim va ish beruvchi ishtirok etadi.

Xodim sifatida mehnat huquqi va muomala layoqatiga ega bo'lgan, ya'ni muayyan yoshga yetgan, o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatiga ko'ra yollanib ishlashi mumkin bo'lgan fuqaro sub'ekt bo'lib qatnashadi.

Belgilangan yoshga yetgan hamda ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzgan

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- chet el fuqarolari;
- fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatga oid munosabatlarning sub'ektlari bo'lishi mumkin. 16 yoshga to'lgan shaxs, agar ishga qabul qilinsa, demak mehnatga oid munosabatlarning sub'ekti bo'la oladi.

O'R Fuqarolik va Mehnat qonunchiligiga asosan o'z mehnat huquqlaridan 14 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shahslar ham foydalanishlari mumkin. Bunda ular ish beruvchiga ota-onalaridan birining, ota-onasi bo'lmagan taqdirda esa qonuniy vakilining yozma ravishdagi rozligini taqdim qilishi lozim.

Mehnat munosabatlari sub'ekti sifatida ikkinchi tomondan **ish beruvchilar,** ya'ni fuqarolarni ishga yollashga, ular mehnatini qonun talablari asosida tashkil etishga, mehnatga haq to'lashga layoqatli bo'lgan tijorat, tijoratga aloqasiz tashkilotlar, muayyan hollarda ayrim fuqarolar qatnashadilar.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 2-moddasi. T.:Adolat. 1999yil.

[2] O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 6 – moddasi. T.:Adolat. 1999yil.

Mehnat huquqining sub'ekti sifatida **xodimlar vakillik organlari**: kasaba uyushmalari, mehnat jamoalari, boshqa organlar ishtirok etadilar va ularning huquqiy maqomi tegishli qonunlar bilan, xodimlar jamoasi tomonidan berilgan vakolatlar bilan begilanadi.

Ish beruvchilar vakillari ham mehnat huquqining sube'ktlari sanaladi. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati to'g'risida»gi qonunga muvofiq ish beruvchilar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun turli ixtiyoriy uyushmalarga birlashishlari mumkin. Ish beruvchilar vakillik organlarining mehnat huquqi sub'ekti sifatidagi huquqiy xolati ularni tashkil etgan muassasalar bergan vakolatga, qonun xujjatlariga ko'ra belgilanadi.

Hususiy tadbirkorlik sohasida ish beruvchilar vakili sifatida faoliyat yuritish vakolati O'zbekison Respulikasi "Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlik palatasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra ushbu palatalarga berilgan. Xorijiy sarmoyalari mavjud bo'lgan korxonalarning, xorijiy mamlakatlar fuqarolarining mehnat huquqi sube'kti sifatidagi yuridik mavqeining o'ziga xos jihatlari tegishli qonunlar va qonun xujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida mehnatga oid munosabatlarning sub'ektlari bo'lmish **ish beruvchi va xodimning huquqlari** belgilanib qo'yilgan.

Ish beruvchining asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

- korxonani boshqarish va o'z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish;
- qonun xujjatlariga muvofiq, yakka tartibdagi mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;
- mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni lozim darajada bajarilishini xodimdan talab qilish;
- o'z manfaatlarini himoyalash uchun boshqa ish beruvchilar bilan birga jamoat birlashmalari tuzish va bunday birlashmalarga a'zo bo'lish.[1]

Xodimning asosiy mehnat huquqlari quyidagilardan iborat:

- O'z mehnati uchun qonun xujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqqidan oz bo'lmagan miqdorda haq olish;
- muddatlari chegaralangan ish vaqti davomida, bir qator kasblar va ishlar uchun qisqartirilgan ish kuni davomida mehnat qilish;
- har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek haq to'lanadigan yillik ta'tillardan foydalanish;
- xafsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish;
- kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- ish bilan bog'liq holda sog'liqqa yoki mol-mulkka yetkazilgan zararning o'rnini qoplashni talab qilish;
- kasaba uyushmalariga hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga birlashish;
- qariganda, mehnat qobilyatini yuqotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish ;
- o'zinig mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish ;
- jamoalarga doir mehnat nizolarida o'z manfatlarini quvvatlash.[2]

Huquqlar bilan bir qatorda ish **beruvchi va xodimlar qator majburiyatlarga egadirlar.** Hususan **xodim:**

- mehnat vazifalarini vijdonan bajarishga;
- mehnat intizomiga rioya qilishga;
- korxona, muassasa, tashkilot mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga;
- belgilangan mehnat normalarini bajarishga **majbur.**

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 17 - moddasi. T.:Adolat. 1999yil.

[2] O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 16 - moddasi. T.:Adolat. 1999 y.

O’z vaqtida **ish beruvchi**:

- mehnat uchun qonun xujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqqidan oz bo’lmagan miqdorda haq to’lashi;
- xafsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarini yaratishi;
- xodimning qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi uchun sharoitlarini yaratishi;
- ish bilan bog’liq holda xodimning sog’lig’iga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararning o’rnini qoplashi **lozim.**

3. Ishga joylashishning huquqiy jihatlari.

Mehnat layoqatiga ega bo’lgan har bir shahs o’zining ishlab chiqarish bilan bog’liq va ijodiy mehnatga bo’lgan qobiliyatidan foydalanish mutlaq huquqiga ega bo’lib, uning qonunga hilof bo’lmagan mehnat faoliyati qonun bilan himoya qilinadi. Yuqorida qayd etilganidek, O’R mehnat to’g’risidagi qonunchilikka asosan, 16 yoshga to’lgan shahslar o’zlarining mehnat qilishga bo’lgan huquqlaridan foydalanishlari mumkin.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta’lim maktablari, kolledg va litsey o’quvchilarini, ular 14 yoshga to’lganlaridan keyin, ota-onasidan birining yoki ular o’rnini bosuvchi shahsning roziligi bilan bolalarning sog’lig’iga va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta’lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o’qishdan bo’sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo’l qo’yiladi.

Har bir shahs bevosita yoki bilvosita ish beruvchiga muroajat qilish orqali o’zining ish joyini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga haqli.

O’zaro yaqin qarindosh yoki quda - anda bo’lgan shahslarning, basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo’ysinib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo’lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari taqiqlanadi.

Ishga qabul qilishni g’ayriqonuniy ravishda rad etishga yo’l qo’yilmaydi.[1]

Quyidagilar *ishga qabul qilishni gayriqonuniy ravishda rad etish* deb xisoblanadi:

- jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, boshqa jihatlarga qarab ishga qabul qilmaslik;
- ish beruvchi tomonidan taklif qilinga shahslarni ishga qabul qilmaslik;
- ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasini tuzishi shart bo’lgan shaxslarni ishga qabul qilmaslik.
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar.

Ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda, xodimning talabi bilan ish beruvchi ishga qabul kilishni rad etishning sababi to’g’risida uch kun muddat ichida yozma javob berishi shart, bu javob ishga qabul qilish huquqiga ega bo’lgan mansabdor shahs tomonidan imzolangan bo’lishi lozim. Asoslantirilgan javob berish haqidagi talablarni qondirishni rad etish xodimning ishga qabul qilish g’ayriqonuniy ravishda rad etilganligi ustidan shikoyat qilishga to’siq bo’lmaydi.

Ish beruvchiga ishga qabul qilish to’g’risidagi ariza bilan muroajat qilgan **shahs,** ish beruvchiga **quyidagi hujjatlarni taqdim qilishi talab etiladi**:

- passport, yoki shahsini tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- mehnat daftarchasi, agar u, ishga joylashuvchi shahsning bundan oldin boshqa joyda ishlaganligi tufayli, mavjud bo’lsa;
- asosiy ish joyidan ma’lumotnoma, agar ishga joylashuvchi shahs o’rindoshlik asosida ishga qabul qilinayotgan bo’lsa;
- harbiy guvohnoma yoki tegishli harbiy qismga biriktirilganligi haqida guvohnoma;
- oily o’quv yurti yoki o’rta mahsus bilim yurtini tamomlaganligi to’griidagi diplom;

[1] O’zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 78 – moddasi.

- alohida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi guvohnoma, agarda qonunchilikda tegishli mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun mahsus guvohnoma (masalan, haydovchilik guvohnomasi, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya) talab etilsa.

16 yoshga to'lmaganlar shahslar:

- tug'ilganlik to'grisida guvohnoma bilan turar joydan ma'lumotnoma;
- ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shahsning roziligini yozma ravishda ifoda etuvchi hujjat taqdim etishlari lozim.

Kasalhona, oshhona, bollalar bog'chalarida faoliyat yuritishi nazarda tutilgan shahslar sog'lig'i to'g'risida ma'lumot ham taqdim qilishlari lozim.

Tegishli hujjatlar ish beruvchiga taqdim qilinganidan so'ng ishga kiruvchi shahs bilan mehnat shartnomasi imzolanadi.

3.1.Mehnat shartnomasi tushunchasi, uni tuzish va bekor qilish tartibi.

Fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mavjud mehnat munosabatlarining oydinligini ta'minlash maqsadida O'R mehnat tog'risidagi qonunchiligi yuzaga kelishi nazarda tutilgan har qanday mehnat munosabatlarini mehnat shartnomasi orqali rasmiylashtirilishini talab etadi. **Mehnat shartnomasi** mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlarga shuningdek ichki mehnat tartibiga asoslangan xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxasislik, malaka, lavozim hamda ishni haq evaziga bajarish haqidagi kelishuv.[1]

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari hisoblanadilar.

Mehnat shartnomasining mazmuni taraflar kelishuvi bo'yicha shuninngdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normative hujjatlar bilan belgilanadi.

Mehnat shartnomasida taraflarning kelishuvi bilan quyidagilar belgilanadi:

- ish joyi (korxona yoki uning bo'linmasi);
- xodimning mehnat vazifasi - mutaxasisligi, malakasi, u ishlaydigan lavozim;
- ishning boshlanish kuni;
- mehnat shartnomasi muayyan muddatga tuzulganda uning amal qilish muddati;
-mehnat haqqi miqdori va mehnatning boshqa shartlari.

Mehnat shartnomasini tuzish paytida xodimlarning qonun va boshqa normativ xujjatlar bilan belgilangan mehnat huquqlari kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas .

Mehnat shartnomasi **yozma shaklda** tuziladi. **Mehnat shartnomasi** uch hil **muddat**ga tuzilishi mumkin:

1. Nomuayyan muddatga;
2.Besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga;
3.Muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin bo'lgan muddatga.

Mehnat shartnomasi tuzish jarayonida ish beruvchi xodimga **sinov muddatini** belgilash huquqiga ega. Sinov muddati ishga qabul qilinayotgan shahsning ishga layoqatini tekshirib ko'rish, hamda topshirilayotgan ish ishga kiruvchi shahsga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlash uchun belgilanadi. Bu muddat O'R Mehnat Kodeksining 85-moddasiga ko'ra *uch oydan oshmasligi* kerak. Dastlabki sinov natijalari bo'yicha taraflar bir-birlarini sinov muddati tugagunga qadar uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirishlari talab etiladi.

Sinov muddati:

-homilador ayollarga;
- 3 yoshgacha farzandi bo'lgan ayollarga;
- korxona uchun belgilangan mahsus kvota hisobidan ishga qabul qilngan shahslarga;

[1]O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 72-moddasi.

- mehnat shartnomasi 6 oygacha bo'lgan muddatga tuziladigan shahslarga nisbatan **belgilanmaydi.**

Mehnat shartnomasi bir hil kuchga ega bo'lgan kamida ikki nusxada tuziladi va har bir tarafga saqlash uchun topshiriladi. Mehnat shartnomasida taraflarning manzillari ko'rsatiladi. Mehnat shartnomasi xodim va ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shahsning imzolari bilan mustahkamlanib, muddati qayd etib qo'yiladi.

Mansabdor shaxsninng imzosi imzoning haqiqiy va vakolatli ekanlingini ta'sdiqlash maqsadida korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Ikki taraf tomonidan imzolangan mehnat shartnomasi ish beruvchi tomonidan unga ariza bilan muroajat etgan shahsni ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqni qabul qilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ishga qabul qilish haqidagi buyruq tuzilgan mehnat shartnomasiga to'la muvofiq ravishda chiqariladi.

Buyruq hodimga ma'lum qilinib tilhat olinadi.

Xodim ishga qabul qilingach, u avval hech qaerda ishlamagan bo'lsa, uning individual mehnat daftarchasi ochiladi. **Mehnat daftarchasi** xodimning mehnat stajini tasdiklovchi asosiy xujjatdir. Ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasini tutishi shart, o'rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno.

Ish beruvchi mehnat daftarchasiga ishga qabul qilish, boshqa doimiy ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni yozishi shart. Xodimning iltimosiga ko'ra mehnat daftarchasiga o'rindoshlik asosida ishlagan va vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrlar haqidagi yozuvlar kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish sabalari mehnat daftarchasiga yozilmaydi.

Qonun xujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi u imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.[1] Xodim shartnomada belgilanib qo'yilgan kundan boshlab o'zining mehnat vazifalarini bajarishga kirishmogi lozim.

Mehnat qonunlari mehnat qilishning ixtiyoriyligi, kasb turi va ish joyini tanlashning erkinligi tamoyillariga asoslangani xholda mehnat munosabatlarini bekor qilish mumkinligini ham belgilab beradi .

Mehnat kodeksining 97-moddasida mehnat shartnomasini bekor qilishning quyidagi asoslari ko'rsatib berilgan;

- Taraflarning o'zaro kelishuvi;
- Taraflardan birining tashabbusi;
- Mehnat shartnomasi muddatining tugashi;
- Taraflarning ihtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlar;
- Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslar;

Taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra har qanday mehnat shartnomasi istalgan muddatda bekor bo'lishi mumkin.

Mehnat shartnomasi xodimning tashabussi bilan bekor qilinishi qonunchilikda belgilangan bo'lib, xodim mehnat shartnomasini bekor qilish uchun ish beruvchini ikki xafta oldin yozma ariza taqdim qilish orqali xabardor qilishi, ikki xafta o'tgach ishni tohtatishga haqli.

Ish beruvchi esa shu muddat o'tgach xodimni ishdan bo'shatishi, u bilan xisob-kitob qilishi va mehnat daftarchasini rasmiylashtirib berishi shart.

Ikki xaftalik ogohlantirish muddati mehnat shartnomasi taraflarning o'zaro kelishuvlariga muvofiq qisqartirilishi yoki butunlay qo'llanmasligi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 100- moddasida, ish **beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi tugatilishi**ning quyidagi asoslari keltirilgan:

[1] O'R Mehnat Kodeksining 83-moddasi

1. Xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar xajmining qiskartirilishi, yohud korxonaning tugatilganligi;

2. Xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i tufayli bajarayotgan ishiga noloyiq bo'lib qolishi;

3. Xodimning o'z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi;

Mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzish deganda avval mehnat vazifalarni buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutigan ta'sir choralari qo'llanilgan muddatdan e'tiboran 1 yil davomida qaytadan mehnat vazifalarini buzish tushuniladi.

4. Xodimni bir marotaba bo'lsada o'z mehnat vazifalarini qo'pol ravishda buzganligi;

5. O'rindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi yoki o'rindoshlik bo'yicha ishning mehnat shartnomalariga ko'ra cheklanishi;

6. Mulkdorning almashishi sababli korxona rahbari bilan tuzilgan shartnomani bekor qilinishi.

Ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinayotganda xodimlar bu hakida oldindan yozma ravishda ogohlantirilishlari lozim. **Ogohlantirish muddatlari** mehnat shartnomasining tugatilish sabalariga bog'liq.

1. Xodimlar soni yoki shtatlar qisqarishi, korxonaning tugatilishi munosabati bilan mehnat shartnomasining tugatilishi to'g'risida **ikki oy avval ;**

2. Xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i tufayli bajarayotgan ishiga noloyiq bo'lib qolganligi sababli mehnat shartnomasining tugatilishi to'g'risida *ikki hafta avval*;

3. Xodim tomonidan mehnat intizomi muntazam yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzilishi tufayli ish beruvchi mexnat shartnomasini bekor qilganda kamida **uch kun oldin** ogohlantirilishi shart.

Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan muayyan voqea xodisalarning yuz berishi mehnat munosabatlari mazmuniga ta'sir qilishi, ularni o'zgartirib yuborishi, hatto ayrim hollarda xodim va ish beruvchi istagiga zid ravishda mehnat shartnomasining bekor bo'lishiga olib kelishi mumkin. Mehnat kodeksida **taraflar ihtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ammo mehnat shartnomasining bekor bo'lishiga sabab bo'ladigan holatlar** ko'zda tutilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Xodimning xarbiy yoki alternativ xizmatga chaqirilishi;

2. Shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning ishga tiklanishi;

3. Xodimning sud hukmi bilan (xukm qonuniy kuchga kirgach) ishni korxonada davom ettirishga imkon bermaydigan jinoiy jazoga tortilishi;

4. Xodimning ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar qo'pol buzilgani holda ishga qabul qilinganligi;

5. Xodim vafoti;

6. Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollar.[1]

Xodim harbiy hizmatga chaqirilganida harbiy orginlarning chaqirik qog'ozi uni ishdan bo'shatilishiga va qonunda ko'zda tutilgan kafolatlarni (ishdan bo'shatish nafaqasi) unga berilishiga asos b'oladi.

Ish beruvchi tomonidan g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatilgan, keyinchalik sud qarorlari asosida yoki boshqa asoslarga ko'ra noqonuniy ishdan bo'shatilgan *shahsning o'z vazifasiga tiklanishi*, shu tufayli uning o'rnida ishlash uchun ishga qabul qilingan shahsni korxonada boshqa ish bilan ta'minlanishining imkoni yo'qligi yoki u taklif qilingan boshqa

[1] O'R Mehnat Kodeksining 106 –moddasi.

ishga o'tishni rad etganligi tufayli ishdan bo'shatilishi nazarda tutiladi. Shu asos bilan ishdan bo'shatilgan xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi berilishi lozim.

Xodimnng i jinoiy javobgarlikka tortilishi, basharti jazoni ijro etish xodim o'z vazifasini korxonada bajarishni davom ettirishni istisno etadigan bo'lsa (ozodlikdan mahrum etish, ish joyidan boshqa joyda ahloq tuzatish joylarida o'tash, muayyan huquqlardan mahrum qilish, qamoq) u ishdan bo'shatilishi mumkin. Bunga qonuniy kuchga kirgan sud hukmi asos bo'ladi.

XULOSA

Mehnat huquqi O'R huquq tizimida o'zining yuqori mavqeiga ega bo'lgan huquq tarmoqlaridan biridir. O'R Konstitutsiyasida e'tirof etilgan fuqarolarning mehnat qilish huquqining amalda qo'llanilishi, albatta, ushbu huquq tarmog'i meyorlarining samaraliligi bilan bog'liq.

Mehnat huquqi talabalarga ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi mehnat, kasbga oid bo'lgan barcha munosabatlar mazmun - mohiyatini, ularni to'g'ri va samarali shakllantirish tartibini o'rgatadi. Yaqin kelajakda o'ziga tegishli mehnat huquqidan fqydalana boshlaydigan talabalar uchun bu bilimlar nihoyatda muhim. Mehnat munosabatlarida o'z huquqlaridan samarali foydalanish, ularni paymol bo'lishiga yo'l qo'ymaslik mehnat samaradorligini oshirishi tabiiy. Buning uchun talabalar mehnat huquqiy munosabatlari, mehnat huquqi sub'ektlari, ob'ektlari, ish vaqti, ish haqi, dam olish vaqti, mehnat muxofazasi, mehnat intizomi, mehnat nizolari va boshqa mehnatga oid tushunchalarga ega bulishlari talab etiladi. Mehnat huquqiga oid bilimlarni kengaytirish uchun talabalarga huquqshunos olimlarimizning darslik, o'quv qullanmalarini, O'R Mehnatga oid Qonunlari bilan yaqindan tanishib chiqishni tavsiya etamiz.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Mehnat huquqining mazmun mohiyati nimadan iborat?
2. Mehnat munosabatlari qanday tamoillar asosida shakllantiriladi?
3. Ish beruvchi va xodimning asosiy huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
5. Ishga joylashish tartibi qanday?
6. Mehnat shartnomasi qanday tartibda tuziladi?
7. Ishga joylashish jarayonida ishga kiruvchi shahs ish beruvchiga qanday hujjatlarni taqdim qilishi lozim?
8. Mehnat shartnomasi qanday hollarda bekor qilinadi?
9. Ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida ogohlantirish muddatlari qanday?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odam, deb hisoblashar edi". – T.: O'zbekiston, NMIU, 2005.
2. I.A. Karimov. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalashtirish va isloh qilishdir". T.: O'zbekiston 2005.
3. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat. 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. T.: "Adolat", 1999.
6. Y. Tursunov. "Mehnat huquqi". O'quv qo'llanma. T., 2000.
7. A.A. Inoyatov. "Mehnat huquqi". T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2002.
8. Z. Islomov, O.Husanov, M.Mirhamidov. "Huquqshunoslik". Ma'ruzalar matni. T.,2000.
9. J.Yoqubov, E. Haitboyev. "Huquqshunoslik". Darslik. T.: "Yangi asr avlodi", 2006.
10. www.gov.uz
11. www.edu.uz
12. www. lex.uz

OILA HUQUQI ASOSLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda oila huquqini tashkil qiluvchi aosiy bilimlar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, oilaviy munosabatlarni tashkil etuvchi shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlar mazmuni hamda ulardan amalda foydalana olish ahamiyati to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish orqali talabalar huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar orasida sog’lom muhitni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: Oila, nikoh, FHDYo organlari, nikoh yoshi, nikohning ihtiyoriyligi, nikohni tugatish, sud yoki FHDYo organlarida nikohni tugatish, aliment majburiyatlari, umumiy mulk, mulkning teng taqsimlanishi, farzandlarga g’amho’rlik ko’rsatish, farzandlarning ota-onasiga g’amho’rlik ko’rsatishi, vasiylik, homiylik, farzandlikka olish, ota-onalik huquqidan mahrum bo’lish.

Asosiy savollar:

1.Oila huquqi tushunchasi, uning vazifalari va tamoillari.

2.Nikoh tushunchasi, uni tuzush shartlari va tartibi.

3.Oila a’zolarining shahsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari.

“Aqliy hujum” uchun savollar:

– Sizningcha oila huquqi fani nimani o’rganadi?

– Aynan Siz uchun oila huquqining ahamiyati nimadan iborat?

1.Oila huquqi tushunchasi, uning vazifalari va tamoillari.

Huquqiy demokratik davlat barpo etilayotgan xozirgi davrda oilaning tutgan urni alohida ahamiyatga ega.

Oila - bu jamiyatning bir bo’lagi, kichik bir vatan, insoniy muhabbat ifodasi, insonni dunyoga keltiradigan makon, ilk tarbiya o’chogi, yurt boyligi va tayanchi, mehr-muhabbat ramzi. Bu barcha fuqarolardan o’z oilasini mustaxkamlash, uning har bir a’zosini vatanparvar, davlatimiz uchun sidqidildan xizmat etuvchi, sodiq farzand qilib tarbiyalashni talab qiladi.

Oila - jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keladigan ijtimoiy xodisa bo’lib, u muayayn ijtimoiy munosabatlarni o’zida aks ettiradi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Oila - bu jamiyatning asosi va boshlang’ch zarrachasidir. Oila farovonligi, bolalarni ma’naviy va jismoniy jihatdan sog’lom qilib tarbiyalash, mamlakat boyligi va kuch - qudratining negizidir».

Respublikamizda oilaning jamiyatdagi tutgan o’rni va ishtirokini yanada oshirish, oilaning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy ma’naviy - ahloqiy manfaatlarini va farovonligini davlat tomonidan qo’llab - quvvatlashni kuchaytirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ma’lumki, 1998 yil «oila yili» deb e’lon qilinib, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Oila manfaatlarini ta’minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar davlat dasturi” tasdiqlandi. Shuningdek 1998 yil 2 fevraldagi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Respublika «Oila» ilmiy - amaliy markazi tashkil etildi. Mustaqil O’zbekistonimiz 1995 yil 6 martda «Onalikni muhofaza qilish tog’risida»gi Konvensiyaga qo’shildi.

Oilaga g’mho’rlik qilish, unga har taraflama yordam berish, insonparvar demokratik davlatning muhim vazifalaridan biridir. O’Rda oilaning davlat muhofazasida ekanligi davlatinmiz rahbarlari tomonidan qabul qilingan va qilinayotgan qator qonuniy hujjatlarda o’z aksini topmoqda. “Bolalar huquqlarini himoya qilish tog’risida”gi 2008 yil, may oyida qabul qilingan O’R Qonuni, “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo’llab quvvatlash” to’g’risidagi 2007 yil may oyida qabul qilingan 3878-sonli Prezident Farmoni, “Yosh yigit - qizlarni nikoh qurishdan avval tibbiy ko’rikdan o’tkazish to’g’risida”gi 365 sonli O’R Vazirlar Mahkamasi Qarori, “Oilada tibbiy madaniyatni yanada yahshilash chora – tadbirlari to’g’risida”gi O’R Vazirlar Mahkamasi Qarorlari buning yorqin ifodasidir.

Darhaqiqat, oila - bu shunday makon-ki, unda yuzaga keladigan munosabatlarning bir maromda, mo'tadil mavjud bo'lishi, butun jamiyat, qolaversa, davlat tinchligi va ravnaqini ta'minlanadi.

"Oila" tushunchasi bilan bog'liq munosabatlar, har qanday ijtimoiy munosabat kabi tegishli huquq tarmog'i bilan tartibga solinadi. Ushbu huquq tarmog'i **oila huquqi** deb atalib, **oila huquqi** nikoh tuzish tartibi va shartlarini, oilada er va xotin, ota - onalar (farzandlikka oluvchilar) va farzandlar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik qilish yuzasidan vujudga keladigan munosabatlarni, nikohni bekor qilish tartibi va shartlarini, fuqarolik holati to'g'risidagi xujjatlarni ro'yhatdan o'tkazish tartibini belgilab beruvchi huquqiy meyorlar tizimidir.

Keltirilgan ta'rif asosida ***oila huquqining predmeti*** sifatida _ oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan nikoh, qarindoshlik, bolalarni tarbiyaga olish kabi hodisalar yuzasidan vujudga keladigan munosabatlarni belgilab olishimiz mumkin.

Tartibga soladigan munosabatlaridan kelib chiqqan holda oila huquqing asosiy vazifasi sifatida jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi oila ning

Oila huquqi fuqarolik huquqi kabi huquq sohasi bilan bog'liq bo'lib, o'ziga hos **hususiyatlari** bu ikki huquq sohasidagi farqga asos bo'lib hizmat qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

-oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqiga xos bo'lmagan yuridik faktlar (nikoh, qarindoshlik, onalik, otalik, farzandlikka olish va boshqalar) asosida vujudga keladi.

-oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqidan farqli olaroq, ko'proq shaxsiy-huquqiy mohiyatga ega.

-oilaviy huquq sub'ektlarining huquq va majburiyatlari begonalashtirilmaydigan, yangi boshqalarga topshirib bo'lmaydigan huquq va majburiyatlardan iborat.

iborat bulib, oila xukuki inson va fukarolarning fukarolik xukukining normalari bilan tartibga solinadi.

Oila huquqining **manbalari** sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

- O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi (1998 yil 1 sentyabrdan boshlab kuchga kiritilgan);

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

- "Bolalar huquqlarini himoya qilish tog'risida"gi O'R Qonuni. (2008 yil may oyi)

- "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash" to'g'risidagi 2007 yil may oyida qabul qilingan 3878-sonli Prezident Farmoni,

- "Yosh yigit - qizlarni nikoh qurishdan avval tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi 365 sonli O'R Vazirlar Mahkamasi Qarori va qator boshqa meyoriy hujjatlar.

- Oila masalalari bilan bog'liq bo'lgan O'R imzolagan xalqaro hujjatlar. (Masalan, 1989 yilda OON tomonidan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida Konventsiya"ga O'R 1992da qo'shilgan)

Oila huquqi manbalari quyidagi asosiy **tamoillar** asosida shakllantirilgan:

- erkak va ayol ortasidagi nikohning ihtiyoriyligi;

- er va xotinning teng huquqliligi;

- faqat FXDYo organlari tomonidan rasmiylashtirilgan nikohning tan olinishi;

- oilaning voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolari huquq va manfaatlarini ta'minlashda ustunlik;

- ota – onalarning farzandlar farovonligi va ravnaqi haqida g'amho'rlik qilishi;

- ichki oilaviy nizolarni o'zaro kelishuv asosida hal qilish;

-farzandlarning oilada tarbiyalanishining ustunligi.

2.Nikoh tushunchasi, uni tuzush shartlari va tartibi. Nikohni ajratish taribi.

O'R Oila qonunchiligiga asosan **nikoh** o'zaro muhabbat va hurmat xislariga ega bo'lgan, nikoh yoshiga yetgan yigit va qizning ihtiyoriga asoslangan, oila qurish, dunyoga farzandlarni keltirib, ularni tarbiyalash maqsadida tuzilgan, o'zaro shahsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradigan, butun umrga mo'ljallangan ittifoqdir.

O'R Oila Kodeksi **nikoh tuzishning** quyidagi qat'iy **shartlarini** belgilaydi:

1.O'zaro nikoh tuzishni istagan shahslarning nikoh yoshiga yetishi;

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasiga ko'ra, nikoh yoshi erkaklar uchun 18-yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilanadi.

Alohida hollarda, uzrli sabablar mavjud bo'lganida (masalan, ayolning homiladorligi, yoki oilada qariyalarning mavjudligi) nikohga kirishishni hohlovchilarning iltimosiga ko'ra, nikoh yoshi nikoh davlat ro'yhatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimiyati tomonidan ko'pi bilan bir yilga kamaytirilishi mumkin.

2.Nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi;[1]

Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er va xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur q ilish taqiqlanadi.[2]

"Yosh yigit - qizlarni nikoh qurishdan avval tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi 365 - sonli O'R Vazirlar Mahkamasining Qarori nikohdan o'tishning yangi shartini belgiladi deyishimiz mumkin. U ham bo'lsa ***nikohlanuvchi shahslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish.*** Nikohlanuvchi shahslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy - irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahat berish nikohlanuvchi shahslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi[3].

Nikohlanuvchi shahsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va uni nikohlanuvchi shahsga faqat ko'rikdan o'tgan shahsning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

Agar, nikohlanuvchi shahslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shahs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi oila kodeksida oila tuzish shartlari bilan bir qatorda **nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar** ham qayd etilgan:

1) loaqal bittasi royhatga olingan boshqa nikohda turgan shahslar o'rtasida;

2) nasl - nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka – ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

3) loaqal bittasi ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shahslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.

Nikoh tuzish tartibi oila kodeksining 13 - moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb hisoblanib, haqiqiy bo'lmagan nikoh nikohlanuvchilar uchun hech qanday huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish (FHDQE) organlariga ariza bergan kundan bir oy o'tgach, ularning shaxsan o'zlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lgan taqdirda bir oylik muddat o'tgunga qadar ham nikohni rasmiylashtirishni amalga oshirish mumkin. (Masalan, yigintning xarbiy hizmatga chaqirilishi, horijiy davlatga mehnat safariga jo'nab ketishi va boshqalar).

---

[1] O'R Oila Kodeksining 15 - moddasi. T.: Adolat. 1998.
[2] O'R Oila Kodeksining 14 - moddasi. T.: Adolat. 1998.
[3] O'R Oila Kodeksining 17 - moddasi. T.: Adolat. 1998.

Aloxhida hollarda (hamiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshkalar) da nikoh ariza berilgan kuni ham tuzilishi mumkin.

FXDQE tomonidan nikohni royhatga olish rad etilsa, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysinishiga ko'ra yuqori turuvchi organlarga murojaat qilinishi mumkin.

Nikohni ajratish taribi.

O'R Oila Kodeksi nikohni tuzish tartibi bilan bir qatorda uni ajratish taribini ham belgilab bergan.

Nikohni ajratish 2 hil yo'l bilan amalga oshiriladi:

1.FHDQE organlarida;

2. sud tartibida.

Er va xotin o'rtalaridagi nikoh :

- voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa,
- nikohdan ajralishga har ikkalasi ham rozi bo'lishsa **FHDQE organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin.** Nikohni ajratishni rasmiylashtirish jarayonida ariza bilan muroajat etgan shahslar ishtirok etishlari lozim. Agarda ular uzrsiz sabablarga ko'ra nikohni ajratishni rasmiylashtirish jarayoniga yetib kelmasalar, topshirgan arizalari o'z kuchini yo'qotadi. FHDQE organlari taraflarning yarashib ketishi uchun 3 oylik muddat belgilaydi.

Shunigdek, **FHDQE organlari** Oila kodeksining 43-moddasiga ko'ra o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, ulardan birining arizasiga ko'ra quyidagi hollarda **nikohdan ajratadi:**

- Agar er - xotindan biri sud tomonidan bedarak yuqolgan deb e'lon qilinsa;
- Agar er-xotindan biri sud tomonidan ruxiyati buzilishi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;
- Er-xotindan biri sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa.

Sud tartibida nikohni ajratishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

- Nikohni ajratishda er – hotindan birining yo'qligi;
- Umumiy balog'atga etmagan farzandlarining mavjudligi.

Nikoxdan ajratish sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Sud ishning ko'rilishini keyingi qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli.[1]

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rilishi jarayonida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.

Sud agar er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishiga imkoniyati yo'q deb topsa, ularni nikohxdan ajratadi.

Sudga nikohni ajratish to'g'risidagi ariza bilan muroajat qilgan shahs davlat bojini to'lashi loim. .

Nikohni bekor qilayotgan er va xotin ajralishganidan keyin qaysi familiyada qolishlarini hal etish huquqiga egadirlar. Bu masal taraflar xoxishiga qarab hal etiladi.

O'zbekiston respublikasi Oila Kodeksiga asosan, sud tomonidan vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan deb e'lon qilingan er (xotin) qaytib kelsa, tegishli sud qarorlari bekor qilingan taqdirda, ularning birgalikdagi arizasiga ko'ra FHDQE organlari tomonidan qayta ro'yhatga olinadi. Agar ulardan biri yangi nikohga kirgan bo'lsa, nikohni tiklash mumkin emas.

Sud tartibida nikohi ajratilayotgan er va xotin *voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori, shuningdek er-xotinning*

[1] O'R Oila Kodeksiga sharhlar. T.: Adolat. 2000.

umumiy mol-mulkini bo'lishga doir nizolarni hal qilib berishni so'rab sudga muroajat etishlari mumkin.

Yuqorida qayd etilgan masalalar bo'yicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda yoki ushbu kelishuv bolalar hamda er - xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlanganda sud:

- nikoxdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota - onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;
- voyaga yetmagan bolalarni moddiy jihatdan ta'minlab turish uchun ota - onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;
- er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;
- er (xotin)dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Er va xotinning nikohdan ajralganidan so'ng bir-birlariga ta'minot berish majburiyatlari sud tomonidan quyidagi hollarda belgilanadi:

- nikoh davomida yoki nikohdan ajralganidan so'ng bir yil davomida er yoki xotin mehnatga layoqatsiz muhtoj bo'lib qolsa;
- nikoh munosbatlari uzoq vaqt davom qilgan bo'lsa, er va hotin nikohdan ajralgan vaqtdan boshlab 5 yil mobaynida pensiya yoshiga yetsa.
- Er (xotin)ning aliment olish huquqi mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda sud tomonidan tugatilishi mumkin.[1]

Sud **er (xotin)ni yordamga muxtoj mehnatga layoqatsiz xotin (er)ga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi** yohud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklab qoyishi mumkin, agar:

- er va xotin nikohda qisqa vaqt mobaynida bo'lgan bo'lsa;
- o'z ta'minoti uchun mablag' to'lanishini talab qilayotgan er yoki xotinning noloyiq hulq - atvori tufayli nikohdan ajratilgan bo'lsa,
- yordamga muxtoj er yoki xotinning mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi uning spirtli ichimliklarni, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi yoki qasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yuz bergan bo'lsa.

3.Oila a'zolarining shahsiy va mulkiy huquq va majburiyatlari.

Oila bu ota - ona, farzandlar, qarindosh – urug'lar tomonidan tuzilgan uyushma bo'lib, oilaning vujudga kelishi oila a'zolarining bir- birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi. Oilada mavjud huquq va majburiyatlarni bir necha guruhga bo'lib chiqishimiz mumkin. Huquq va majburiyatlar:

- ***shahsiy nomulkiy;***
- ***mulkiy*** kabi turlarga bo'linadi.•

O'z navbatida ***shahsiy nomulkiy va mulkiy*** huquq va majburiyatlar:

- er va hotin o'rtasidagi huquq va majburiyatlarga;
- ota - ona va farzandlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarga bo'linadi.

Er va xotinning o'zaro huquq va majburiyatlari.

Nikohning tuzilishi er bilan xotin o'rtasidagi oddiy munosabatlarning huquqiy munosabatlarga aylanishiga olib keladi. Chunki nikoh er va xotin o'rtasida huquq va burchlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladigan yuridik fakt hisoblanadi. Er va hotin o'rtasida yuzaga keladigan huquq va majburiyatlar orasida shaxsiy huquq va majburiyatlar alohida ahamiyatga ega.

---

[1] O'R Oila Kodeksining 120 - moddasi. T.: Adolat. 1998.

• Shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq tushunchalari "Fuqarolik huquqi asoslari" mavzuini ko'rib chiqish ja rayonida yoritilgan.

Er - xotinning shaxsiy huquqlariga:- familiya tanlash;- ro'zg'or ishlarida ishtirok etish;- kasb tanlash;- turar joy tanlash;- farzand tarbiyasida qatnashish;

- nikohni bekor qilish kabi **teng huquqlar** kiradi.

Er va xotinning shaxsiy huquqlarining o'zaro hurmat qilinishi, ularning bajarilishi oilada birdamlik, o'zaro hurmat o'rnatilishiga zamin yaratib, ittifok sifatidagi nikohning mohiyatini belgilaydi.

Er va xotinning **mulkiy huquqlarini** quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

- ***er va xotinning umumiy mulkka*** egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqi va ushbu huquq bilan bog'liq majburiyatlar;

- ***er va xotinning har biriga tegishli bo'lgan mulkka*** egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqi va ushbu huquq bilan bog'liq majburiyatlar;

Er va xotinning umumiy mulki deganda er va xotin nikoh davomida orttirgan, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar bo'lajak er va xotinning umumiy mablag'lariga sotib olingan mulki tushuniladi. Er va xotinning mehnat, tadbirkorlik, intellektual faoliyati natijasida qo'lga kiritgan daromadlari, shu bilan bir qatorda yoshi va mehnatga layoqatsizligi tufayli oladigan nafaqalari **er va xotinning umumiy mulki** hisoblanadi.

Umumiy bo'lgan mulkdan er va xotin o'zaro kelishgan tarzda foydalanadi va tasarruf etadi.

Er va xotinning har biriga tegishli bo'lgan mulki deganda er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ularning har biriga nikoh davomida hadya yoki meros tartibida tegishli bo'lgan mulki tushuniladi. **Er va xotinning har biriga tegishli bo'lgan mulkga** ishlab chiqarishdagi yutuqlari uchun olgan mukofot pullari, oylik maosh hisobidan to'lanmaydigan premiyalar, lotereya yutuqlari, agar bu lotereya bileti umumiy mablag'ga sotib olingani isbotlanmasa, kiritiladi.

Er va xotin har biriga tegishli bo'lgan mulkdan o'zi istaganicha mustaqil tarzda foydalanishi va uni tasarruf etishi mumkin.

Er va xotinning har biriga tegishli bo'lgan mulkidan **er va xotinning shaxsiy mulkini** farqlash lozim. **Er va xotinning shaxsiy mulki** deganda nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'iga sotib olingan bo'lsada er yoki xotinning shaxsiy foydalanishida bo'lgan mulk (kiyim – bosh, oyoq –kiyim va shu kabilar) tushuniladi. Qimmatli zebu –ziynat buyumlari bundan mustasno.

Er va xotinning asosiy mulkiy majburiyatiga er va xotinning bir – biriga ta'minot berish majburiyatidir. Er va xotin bir –biriga moddiy yordam berib turishga majbur. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan mehnatga layoqatsiz er yoki xotin ta'minot berishga qodir bo'lgan xotin yoki erdan sud orqali ta'minot olish huquqiga ega.

Er va xotin o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlar nikoh shartnomasi bilan tartibga solinishi mumkin.

Nikox shartnomasining mazmuni oila Kodeksining 31-moddasida belgilangan bo'lib, unda er - xotin o'zaro ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir - birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritish huquqi qayd etilgan.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoxhud kelmasligiga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi er - xotinning huquq yoki muomala layokatini, ularning o'z huquqlarini xhimoya kqilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muhtoj er

yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'uyuvchi yoxud oila tog'risidagi qonun xujjatlari normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tutishi mumkin emas.

Ota-ona va farzandlarning o'zaro huquq va majburiyatlari.

O'R Konstitutsiyasi hamda O'R Oila Kodeksi ota-ona va farzandlarning o'zaro ma'suliyatiga katta e'tibor qaratib, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini aniq qilib belgilab bergan. Hususan, **ota – onalar**:

- o'z farzandlariga ism, familiya, ota ismini berish;

- jamiyatga yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash;

- uni turar joy bilan ta'minlash, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish;

- o'zlarining voyaga yetmagan bolalari uchun ta'lim shakllarini, umumta'lim muassasasi turi va o'qitish tilini tanlash;

- ta'lim muassasasi ma'muriyatidagi o'quv yurtlari ustavlarida belgilangan zarur shart-sharoitlarni yaratilishini, bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lishini talab qilish;

- ta'lim muassasasini boshqarishda ishtirok etish;[1]

o'zlarining voyaga yetmagan bolalarini shaxsan tarbiyalash huquqidan kelib chiqqan holda, ularni *g'ayriqonuniy tarzda ushlab turgan boshqa har qanday shaxsdan talab qilib olish* **kabi huquq va majburiyatlarga egadirlar**.

Voyaga yetmagan farzandlar:- ***o'z ota-onalari tomonidan tarbiyalanish; - ota-onalari bilan oilada birga yashash;***

- ota-ona tomonidan moddiy ta'minlanish kabi huquqlarga ega bo'lib, bu huquqlarning ta'minlanishi farzandlarning har tomonlama kamol topishlari, insoniy qadr-qimmatlarni hurmat qilish, yaxshilik va muruvvat tuyg'ulari asosida tarbiyalanishlari uchun imkon yaratadi.

Ota – onalar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishlari shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ihtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qarori asosida aliment undiriladi.

Agar ota-ona o'rtasida voyaga yetmagan bolalariga beriladigan ta'minot miqdori kelishilmagan bo'lsa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan har oydagi ish haqi va boshqa daromadlardan unidiriladi. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun xujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Agar bola kasal bo'lsa, nogiron bo'lsa qo'shimcha ta'minot talab qilish mumkin.

Ayrim vaqtlarda voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz bolalar o'z ota-onalaridan aliment talab qilish huquqiga egadirlar. Aliment miqdorini sud belgilaydi.

Agar ota-ona:

- o'z huquq va majburiyatlarini bajarmasalar;
- uzrsiz sababli huquq va majburiyatlarni bajarishdan voz kechsalar, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasalar;
- uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'urukxona yoki boshqa davolash muassasalaridan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'hshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsalar;
- ota-onalik huquqini suiste'mol qilsalar;
- farzandlariga shavqatsiz muomalada bo'lsalar;
- muttasil ichkilikbozlik yoki giyoxvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsalar;
- o'z bolalarining xayoti yoki sog'lig'iga yohud eri (xotini)ning hayoti

[1] "Ta'lim to'g'risida"gi O'R Qonunining 30- мoddasi. 1997yil 29 avgust.

yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsalar **ota-onalik huquqidan mahrum kilinishlari** mumkin. Ota - onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota - onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi farzandiga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish huquqidan mahrum bo'ladi. Ammo ota - onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona o'z farzandiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilinmaydi. Ota - onalik huquqidan mahrum etilganlarning farzandlarini ulardan biriga berish imkoniyati bo'lmasa vasiylik va homiylik organlarining qaramog'iga beriladi. U farzandlar sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan kamida olti oy o'tgach, o'zgalarga farzandlikka berilishiga ruxsat etiladi. Ota – onalik huquqidan mahrum qilingan shahslar, ular o'z hulq atvorini, turmush tarzini, bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarida o'z ota-onalik huquqini sudga muroajat etib qayta tiklashlari mumkin.

O'R Konstitutsiyasining 66 – moddasi **voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota –onalari haqida g'amho'rlik qilish majburiyatini** belgilaydi. Ota-onalar qariganlarida, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarida, kasal bo'lganliklarida va boshqa sabablarga ko'ra voyaga yetgan farzandlaridan aliment talab qilish huquqiga egadirlar. Bunday ta'minot miqdori sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

XULOSA

O'ziga hos muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquq tarmoqlaridan biri bo'lmish oila huquqi talabalarga oila va nikoh, nikoh shartnomasi, umumiy va er va xotinning har birining mulki, vasiylik va homiylik kabi tushunchalarni, nikoh tuzish va tugatish, farzandlikka olish tartiblari, oila a'zolarining o'zaro huquq va majburiyatlari, er va xotin, farzandlar bilan ota – onalar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirib takomillashtirishga yordam beradi. Oiladek muqaddas dargohda inson shahs sifatida shakllanar ekan, oilada sog'lom muhitning mavjud bo'lishi juda muhim. Buning uchun har bir oila a'zosi o'zining va oilaning boshqa a'zolarining huquqlarini hurmat qilishi lozim Buning uchun har bir inson bu huquqlarni mukammal o'rganib olishi lozim. Bu o'rinda oila huquqining ahamiyati beqiyos.

Oila munosabatlariga oid huquq va majburiyatlarni yanada chuqurroq o'rganish istagida bo'lgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi, unga berilgan sharh hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, oila huquqi masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni yaqindan o'rganishni tavsiya etamiz.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1.«Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini» deganda nimani tushunasiz?

2. Nikoh tushunchasi va uni tuzish tartibi nimadan iborat?

3.Nikoh tuzishga mo'nelik qiluvchi qanday holatlarni bilasiz?

4.Nikohni bekor qilish tartibi qanday?

5.Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari nimadan iborat?

6.Farzandlarning ota-onalari oldidagi majburiyati qanday?

7.FXDQE organlari tomonidan qaysi holatlarda nikoh bekor qilinishi mumkin?

8.Qaysi holatlarda sud ota yoki onani ota-onalik huquqidan mahrum qilishi mumkin?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: Ma'naviyat. 2008.

2. I.A.Karimov. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalashtirish va isloh qilishdir". T.: O'zbekiston 2005.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2003.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. T.: Adolat. 1998.

6. O’zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga sharhlar. T.: 2000.
7. «Bola huquqlari to’g’risida»gi BMT Konvensiyasi. Inson huquqlari bo’yicha shartnomalar. T. 2004.
8. “Bolalar huquqlarini himoya qilish tog’risida”gi O’R Qonuni. 2008 , may.
9. “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo’llab quvvatlash” to’g’risidagi 2007 yil may oyida qabul qilingan 3878-sonli Prezident Farmoni,
10. “Yosh yigit - qizlarni nikoh qurishdan avval tibbiy ko’rikdan o’tkazish to’g’risida”gi 365 sonli O’R Vazirlar Mahkamasi Qarori.
11. F. M. Otaxo’jaev. «Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi» T. O’zbekiston 2000.
12. F.M. Otaxo’jaev. “O’zbekiston Respublikasi Oila Huquqi”. Darslik. T.:O’zbekiston. 2005.
13.M.S.Vosiqova «Oila va qonun» T., 1993.
14. www.gov.uz
15. www.edu.uz
16. www.zivo.tdu.uz
17. www.ec.tdu.uz

EKOLOGIYA HUQUQI ASOSLARI

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda ekologiya huquqi, uning vazifalari, predmeti, tamoillari to‘g‘risida bilimlarini hosil qilish, ekologiya huquqi usullari haqida umumiy tasavvurlarini shakllantirish, ularga ekologiya huquqi manbalari tog’risida ma’lumot berish va shu asosda mazkur huquq sohasiga jid qonun va boshqa normativ aktlarni qo’llash amaliy kunikmalarini hosil qilish orqali ularning huquqiy madaniyatini oshirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: atrof tabiiy muhit, tabiat ob’ektlari, ekologik xavfsizlik, ekologik siyosat, ekologik nazorat, ekologik normalar, ekologik yuridik javobgarlik.

Asosiy savollar:

1. Ekologiya huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoillari.
2. Ekologiya huquqi usullari.
3. Ekologiya huquqi manbalari.

“Aqliy hujum” uchun savollar:

1.Ekologiya deganda nima tushunasiz?
2. Athjf tabiiy muhit qaysi ob’ektlarni o’ ichiga oladi?

1. Ekologiya huquqi tushunchasi, predmeti va tamoyillari.

Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqurlashuvida ozmi-ko`pmi O`zbekiston Respublikasining ishtiroki bor. Istiqomat qilayotgan 26 mln.dan ziyod aholining yarmidan ko`prog`i ekologik xavfsiz bo`lmagan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro`y bergan ekologik inqiroz holati Sovet davrining noekologik agrar va iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxyin Prezident I.A.Karimov, ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg`unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqdalar[1].

XX asr oxiriga kelib O`zbekistonda quyidagi taktik va strategik yo`nalishlar ishlab chiqilgan: «2005 yilgacha bo`lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning Davlat dasturi», «O`zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishning ekologik ta'minlashning milliy harakatlar rejasi», «O`zbekiston Respublikasida atrof muhit gigisenasi bo`yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo`yicha milliy strategisi va reja». Bu hujjatlarda davlatimizning jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabat shakli, hozirgi kunda va kelajakda qanday bo`lishi, O`zbekistonning ekologik konsepsiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab

[1] Karimov IA. O`zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: O`zbekiston, 1998.

berilgan. Ekologik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo`nalishlari ko`rsatib o`tilgan.

O`zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining asosiy maqsadi — kishilarning hasotiy zarur bo`lgan ekologik xavfsiz muhitini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, sirni tabiat bilan jamiyit o`rtasidagi iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo`llash. Ekologiya huquqi O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining muhim tarmog'idan biri bo'lib hisoblanadi. Ekologiya huquqi murakkab ta`limot tizimiga ega bo`lib, tabiat qonuniyatlari va jamiyat qonunlarining o`zaro moslashishi, muvofiqlashishi natijasida shakllanadi, rivojlanadi va taraqqiy etadi.

"Ekologiya" so'zi grekcha ("oykos" – o'y, turar joy hamda "logos" – ta'limot) inson yashaydigan o'y, joy to'g'risidagi ta'limotni bildiradi. Ilk bor ushbu so'z nemis olimi Ernest Gekkelь tomonidan 1866 yilda ilmiy muomalaga kiritildi va so'ng XX asrning ikkinchi yarmida boshqa mamlakatlarda ommalashgan.

Ekologiya huquqi*–tabiat va jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasidir.*

Ekologiya huquqi predmetini qo'yidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi: *– atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish; – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; – aholi ekologik havfsizligini ta'minlash.*

Ekologiya – tabiat fanlarining barcha soha va tarmoqlariga kirib borib, jamiyat hasotining muhim jabhalari hisoblangan iqtisodiyot, sisosit, ma'navisit-madanisit, ijtimoiy majmualarni qamrab oldi. Tabiat va jamiyat hayotining barcha soha va yo`nalishlarini qamrab olgan ushbu jarayon, yani «Ekologiyalizatsisilashtirish» asosida bugungi kunda murakkab tizimga ega bo`lgan, global ahamisitdagi ekologiya fani shakllandi. Ekologiya fani hozirgi kunda 70 ga yaqin «Tabiat-jamisit tizimida» gi ta'limot va g`osilar majmuasini o`z ichiga oladi, yani, odam ekologiyasi, iqtisodiyot ekologiyasi, muhandislik ekologiyasi, agro ekologiya, kimsovis ekologiya, va shu jumladan ekologiya huquqi.

Tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar juda xilma-xil va murakkab bo`lganligi uchun ham ***ekologiya huquqining tamoyillari***ni quidagi turlarimni ajratishimiz mumkin: *– qonuniylik; –ijtimoiy adolat; –oshkoralik; –ishontirish va majburlov choralarining hamkorligi; –shahslarning huquq va burchlarining birligi va boshq.*

Mazkur tamoyillar tabiat-jamisit tizimidagi o`zaro munosabatlar so`hasini, chegaralarini belgilab berishda ekologik-huquqiy mexanizmining barqarorligini kafolatlashda va qonunchilik qoida-talablarning ekologik munosabatlarini tartibga solish tartibini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

2. Ekologiya huquqi usullari.

Atrof-muhitni muhofaza qilish usullari:

1) huquqiy usullar:

– huquqiy talablarni belgilash orqali;

– normativlar, standartlar belgilash orqali, lisenziyalashtirish;

– iqtisodiy huquqiy mexanizmlarni belgilash;

– ekologik monitoring yuritish va ekologik ekspertiza o'tkazish orqali;

– nazoratni amalga oshirish orqali.

2) munosabtlarga ta'sir qilishning iqtisodiy usullari:

– alohida ekologik jamg'armalarni tashkil etish;

– tabiiy resurslardan oqilona foydalanganlik uchun aniq yo'nalishlar bo'yicha imtiyozlar va rag'batlantirishlarni ta'sis etish.

Ekologiya nazorati *davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik tekshirish, o'rganish, kuzatish va h.k. orqali amalga oshiriladi.* Yshbu nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan huquqbuzarliklar uchun tegishli javobgarlik vujudga keladi. Ekologiya nazorati - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo`mitalari va idoralari,

korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o`rganish va kuzatish chora-tadbirlarni qo`llash bilan bog`lik siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig`indisini o`z ichiga oladi. Ekologiya nazoratining asosiy maqsadi atrof tabiiy muhit barqog`arorligini saqlashdan iborat bo`lib, davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borilishini taqozo etadi. Ekologiya nazorati murakkab jarayonni o`z ichiga oladi va turli xil chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishni taqazo etadi. Demak, ekologiya nazorati bilan bog`lik murakkab faoliyatini olib borishda ekologiya nazorati subyektlari tomonidan quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy usullar qo`llaniladi:

Ekologik ekspertiza – ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va simarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. **Ekologik ekspertizaning** eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va aholining hayoti va sog`lig`iga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo`jalik obyektlarining ta'sirlarini oldini olish, bartaraf etish bilan bog`liq preventiv chor-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir. Davlat ekologik ekspertizasining subyektlari bo`lib, odatda buyurtmachi, pudratchi, iste'molchi hisoblanadi. Buyurtmachi – ekspertizani tayinlash, tashkil etish huquqiga ega bo`lgan maxsus vakolatli organdir.

Ekologik yuridik javobgarlik ekologiya huquqi usullari orasida alohida o’rin tutadi. ***Ekologik huquqbuzarlik*** *uchun jinoiy, ma’muriy, fuqarolik javobgarliklar belgilangan.* Masalan, jinoyat va Ma’muriy huquqbuzarlik to’g’risidagi kodekslar ekologiya sohasidagi qilmishlar uchun javobgarlik to’g’ridan to’g’ri belgilangan, Fuqarolik kodeksga muvofiq esa tabiatni ifloslantirganlik uchun to’lovlar to’lash ta’kidlangan. Ekologiyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o`zining asosiy maqsadi va tamoyil bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o`ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Ushbu xususiyatlar o`simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni taksi uslubi asosida undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralari, yani tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum qilish choralarini qo`llashdan iboratdir. Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga ega: tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini qo`llash; atrof tabiiy muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash; yangi ekologik huquqbuzarlikni sodir etishni ogohlantirish. Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik eng ko`p qo`llaniladigan javobgarlik turidir. Ma'muriy javobgarlikka tortishga ma'muriy huquqbuzarlik asos bo`ladi. qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g`ayri huquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik deyiladi.

3. Ekologiya huquqi manbalari.

O’zbekistonda yagona kodekslashtirilgan ekologiya huquqi yo’q. Bugungi kunda ekologiya huquqi manbalarini qo’yidagilar tashkil etadi:

1) O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining normalari (50,55-m.);

2) O’zbekiston Respublikasi qonunlari;

3) Davlat hokimiyati va boshkaruv organlari qonunosti aktlari (Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari qarorlari).

Jumladan, ***O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining*** 50-moddasida – «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishga majburligi», 55-moddasida esa «Er, er osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida» ekanligini belgilaydi.

2) O’zbekiston Respublikasi qonunlari qo’yidagilar tashkil etadi:

– «Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida»gi 1992 yil 9 dekabrdagi O’zbekiston Respublikasining qonuni.

– 1993-yil 6-may – “Suv va suvdan foydalanish to`g`risida”gi qonuni

– 1993-yil 7-may “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida”gi qonun

– 1994-yil 23-sentabr “Yer osti boyliklari to`g`risida”gi qonun

– 1996-yil 27- dekabr “Atmosfera havosini muhofaza qilish to`g`risida”gi qonun.

– 1997-yil 26-dekabr “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to’g’risida”gi qonun

– 1997-yil 26-dekabr “O’simlik dunyosini muhofaza qilish to’g’risida”gi qonun

– 1998-yil 30-aprel “Yer kodeksi “

– 1999-yil 15-aprel “O’rmon to’g’risida”gi qonun.

Konstitutsion qoidalarga mos ravishda qabul qilinadigan mazkur qonunlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiy resurslardan oqilona foydalanishning talablari, mexanizmi mustahkamlanadi.

Shuningdek ushbu O`zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiradigan organlarning umumiy va maxsus vakolatlarini belgilab beradi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo`yicha normativ hujjatlar (qaror, nizom, qoida va tartiblar) qabul qiladi; tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo`yicha davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshirishni tashkil etadi; tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar va to`lovlar miqdorini belgilasdi; atrof tabiiy muhit monitoringi, tabiiy resurslar davlat kadastrlari yuritilishini tashkil etadi; maxsus vakolatga ega bo`lgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi; davlat ekologik nazoratini tashkil etadi; yer uchastkalarini egalik qilishga, foydalanishga, shu jumladan ijaraga beradi, yer uchastkalariga bo`lgan huquqni bekor qiladi; yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini beradi va uni bekor qiladi, yer osti boyliklaridan foydalanishning litsenziyalash tizimini tashkil etadi; umumtarqalgan foydali qazilmalar ro`yxatini belgilaydi; ekologik jihatdan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi; tabiiy ofatlar va yirik avariyalarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshiradi; ekologiya sohasida xalqaro aloqalarni o`rnatadi hamda rivojlantiradi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida mahalliy davlat hokimiyat organlarining vakolatlari Konstitutsiyasida (100-modda), O`zbekiston Respublikasining 1993 sil, 3-sentabr “Mahalliy davlat hokimiyat organlari to`g`risida”gi qonunda (10, 24, 25-moddalari), “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida”gi qonunda (10-modda) va tabiiy resurslar to`g`risida”gi qonunlarning tegishli moddalarida belgilangan. Masalan, mahalliy davlat hokimiyat organlari yer munosabatlarini tartibga solishda muhim o`rin egallaydilar va bu masalaga Yer kodeksining 5-7 moddalari bor.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ekologiya huquqi asoslari nimani o’rgatadi?
2. Ekologiya sohasini tartibga soluvchi qanday qonunlarni bilasiz?
3. O`zbekistonning ekologiya sohasidagi siyosati haqida nima bilasiz?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2012.– 40 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг БМТ саммитинг Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 146 б.

3. Заповедники и национальные парки из серии: «Охраняемые природные территории Республики Узбекистан». – Т., 2005.

4. Икрамов Р.А. Фуқароларнинг экологик ҳуқуқлари ва уларни таъминлаш. Ўқуқ қўлланма. – Т.: Университет, 2008. – 80 б.

5. Иргашев Т.П. Сохранить природу – значит сохранить жизнь на земле // Экологический вестник Узбекистана. № 1. 1995. - С. 47-50.

6. Саидов А., Таждиханов У., Одилқодириев Х. Давлат ва хукук асослари. Основы государства и права. [Electronic resource]: Дарслик/ учебник. – Т.:"Шарк", 2002. - 720 с.

7. Хайруллаева В. От демократии – к экологии // Экологический вестник Узбекистана. № 1. 2000. - С. 12.

8. Холмуминов Ж.Т. Экологическую грамотность–всем//Сельское хозяйство Узбекистана. №6. 1995. – С. 53-54.

9. Холмуминов Ж.Т. Экология и право // Щит. 2005 №10, 14-16 с.

10. Холмўминов Ж.Т. Эколого-правовые проблемы использования орошаемых земель в Республике Узбекистан. – Т.: “Фан”, 1996.

JINOYAT HUQUQI ASOSLARI

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalar ongiga jinoyat huquqi tushunchasi, uning vazifasi va tamoillari, jinoyat tushunchasi, uning turlari, jinoiy javobgarlik asoslari, jinoyat uchun jazo va uning turlari to‘g‘risida bilimlarini hosil qilish orqali qonunlarga rioya qilish, jinoiy hatti-harakatlardan tiyilish g‘oyalarini yanada chuqurroq singdirish, talabalarning huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar orasida sog’lom muhitni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: jinoiy qilmish, shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari, manfaatlarni qoriqlash, jinoyatni oldini olish, ayb, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi, harakat, harakatsizlik, huquqqa xiloflilik, ijtimoiy xavfning darajasi, jinoyat tarkibi, jinoiy jazo.

Asosiy savollar:

1. Jinoyat huquqi tushunchasi, uning predmeti vazifa va tamoillari.
2. Jinoyat tushunchasi, uning belgilari va tarkibi.
3. Jinoyat uchun jazo va uning turlari.

“Aqliy hujum” uchun savollar:

– Sizningcha jinoyat huquqi fani nimani o’rganadi?

– Jinoyat huquqi fanini o’rganich nima uchun kerak?

1. Jinoyat xukuki tushunchasi. uning predmeti, vazifa va tamoillari.

Jinoyat huquqi tushunchasi ikki: *qonunchilik sohasi* va *huquq tarmog‘i* ma’nosida qo‘llaniladi. Yurisprudensiya, ya’ni yuridik fanlar tizimida ham jinoyat huquqi mustaqil huquqiy fan sifatida muhim o‘rin egallagan. Jinoyat huquqi boshqa huquq tarmoqlaridan, xususan, maxsus huquq tarmoqlaridan o‘ziga xos vazifalari, predmeti va tartibga solish metod (uslub)lari bilan farq qiladi.

Jinoyat huquqi — qilmishning jinoiyligi va bunday jinoiy qilmishlar uchun tayinlanadigan jazo choralarini belgilovchi hamda jinoyat sodir etilishi bilan yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar tizimi.

Jinoyat huquqi — huquq tizimining mustaqil huquq tarmog‘i bo‘lib, qilmishning jinoyat ekanligini, jinoiy javobgarlikning asoslari va chegaralari, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qiluvchi holatlarni belgilovchi Oliy davlat hokimiyati organi tomonidan o‘rnatilgan huquq normalari yig‘indisi.

Jinoyat qonunchiligi — Oliy davlat hokimiyati organi tomonidan o‘rnatilgan jinoyat, deb hisoblanadigan qilmishlar doirasi, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik, jazo tayinlash, jazo turlari va hajmi, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish asoslari, shuningdek, jinoiy javobgarlik asoslari va prinsilarini belgilovchi huquq normalari majmuyidan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimidagi mustaqil qonunchilik sohasi.

Jinoyat huquqi huquq tarmog‘i sifatida *umummajburiylik* va *mustaqillik xususiyatlari*ni o‘zida aks ettiradi.[1]

Jinoyat huquqining *umummajburiylik xususiyati* shunda namoyon bo‘ladiki, shaxs jinoiy qilmish sodir etdimi — u javobgarlikka tortilishi kerak, jinoyat sodir etganlikda aybdor, deb topilgan shaxsni javobgarlikka tortish esa, davlat tomonidan majburlov choralari (kuchi)ni qo‘llash orqali ta’minlanadi. Jinoyat huquqining bunday xususiyatga egaligi ushbu huquq sohasi normalarining imperativligini bildiradi.

Jinoyat huquqining umummajburiylik xususiyati quyidagi ikki omil bilan belgilanadi:

- *birinchidan,* jabrlanuvchini himoya qilish, uning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini tiklash hamda jinoiy qilmish natijasida yetkazilgan zararni qoplash;

- *ikkinchidan,* jinoiy qilmish sodir etgan shaxsni tarbiyalash, uni jinoiy javobgarlikka tortish, jinoiy oqibatni, ya’ni jinoyat tufayli yetkazilgan zararni bartaraf etishga majburlash.

Boshqacha qilib aytganda, jinoyat huquqining umummajburiylik xususiyati jamiyat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning jinoyat-huquqiy mexanizmi hisoblanib, jamiyatdagi har bir shaxsning xavfsizligini ta’minlovchi shart-sharoitlarni ifodalaydi. Bunday shart-sharoitlarning yetarli darajada bo‘lishi davlatning huquqiy-tartibga solish funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, jinoyat huquqining ijtimoiy-tartibga solish funksiyasini hamda mavqeyini belgilab beradi.

Jinoyat huquqining *mustaqillik xususiyati* uning boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohalaridan ajratilganligini bildirmaydi, balki jinoyat huquqining mustaqilligi uning huquq sohasi sifatida davlat va jamiyat manfaatlari, xavfsizligi va normal rivojlanishiga tajovuz qiluvchi qilmishlarni jinoyat, deb topish uchun asos bo‘luvchi belgilar doirasini mustaqil o‘rnata olishida ifodalanadi.

Shu tariqa, jinoyat huquqi keng ma’noda juda murakkab, keskin salbiy ijtimoiy voqelik hisoblangan jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi me’yoriy normalar manbayi sifatida tushuniladi.

Jinoyat huquqining boshqa huquq sohalaridan mustaqil ekanligi uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan tavsiflanadi:

- *birinchidan*, faqat jinoyat huquqigina qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligini, jinoiy javobgarlik asosini, jazo qo‘llash hamda jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishni belgilovchi huquqiy normalar uchun yagona qonuniy manba sifatida namoyon bo‘ladi;

- *ikkinchidan*, jinoyat huquqi o‘zining tartibga solish predmetiga ega bo‘lib, ushbu huquq sohasining predmeti hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlar jinoiy qilmish sodir etilishi bilan vujudga keladi;

- *uchinchidan,* jinoyat huquqi maxsus tartibga solish uslubiga ega bo‘lib, bunday uslublar va ularning harakatiga ta’sir etuvchi yuridik faktlar boshqa huquq sohalari uchun xos emas.

Har bir huquq sohasining predmeti va metodlari uning boshqa huquq sohalaridan farqlarini ko‘rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Jinoyat huquqi predmeti — jinoyat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar.

Jinoyat huquqining predmeti *deganda,* shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf soluvchi jinoiy qilmish sodir etilishi bilan vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Jinoyat huquqi predmetini aniqlash, bu — jinoyat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasini belgilash demak.

Keng ma’noda jinoyat huquqining predmeti deganda, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlagan holda jinoyat huquqi normalarining ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish tartibi tushuniladi.

[1] M.H. Rustamboyev, B.J. Ahrorov Jinoyat huquqi. Darslik. T.:TDYuI. 2003. 3-4 betlar.

Jinoyat huquqining predmeti bo‘lib, ijtimoiy *salbiy (zarar keltiruvchi*), ya’ni jinoiy tajovuz vaqtida vujudga keladigan jamiyat manfaatlariga zarar keltiruvchi munosabatlar hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, jinoyat huquqining predmeti sifatida ko‘proq jazolash sanksiyalari bilan bog‘liq salbiy munosabatlarni ko‘rish mumkin.

Har qanday huquq tarmog’i singari jinoyat huquqi ham o’z vazifalariga ega.

M. Usmonaliyevning fikriga ko‘ra, «... jinoyat huquqining asosiy vazifasi jinoyat uchun jazolash emas, balki ijtimoiy munosabatlarni har qanday tajovuzlardan himoya qilishdir». Lekin bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki barcha huquq sohalari kabi jinoyat huquqi ham o‘zining predmeti hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Jinoyat huquqining **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, mulkini, tabiiy muhitni, jamoat va davlat manfaatlarini hamda butun huquqtartibotni jinoiy tajovuzlardan qo’riqlash;

- jinoyatlarni oldini olish;

- fuqarolarni Respublikaimz Konstitutsiyasi va qonunlariga aniq rioya etish ruxida tarbiyalashga yordam berish.[1]

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlik asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini belgilaydi.

Jinoyat huquqining vazifalari davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosati orqali amalga oshiriladi. Uning asosiy mazmuni jinoyat qonunining amalda qo‘llanilishi taktikasi va strategiyasini belgilash hamda jinoyatchilikning oldini olish ijtimoiy-huquqiy choralarni ishlab chiqish va amalda qo‘llanishida ifodalanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosatning asosiy qoidasi jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini amalga oshirishidan iboratdir. Bunday siyosat qonun talablariga to‘la va so‘zsiz rioya qilish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipiga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining asosiy **tamoillariga** quidagilar kiradi:

- ***Qonuniylik tamoili.*** Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari fakat Jinoyat qonunchiligi, hususan Jinoyat Kodeksi bilan belgilanadi. Hech kim sudning hukmi bo’lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga hilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas;

- ***fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoili.***Jjinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir hil huquq va majburiyatlarga ega bo’lib, huquq oldida teng barobar javobgardirlar.

- ***demokratizm tamoili.*** Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar ahloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin.

- ***insonparvarlik tamoili.*** Jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko’zlashi mumkin emas.

- ***odillik tamoili.***Jinoyat sodir etishda aybdor bolgan shaxsga nisbatan qo’llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi odilona bo’lishi, ya’ni jinoyatning og’ir-engilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo’lishi lozim.

- ***ayb uchun javobgarlik tamoili .***Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo’lishi lozim.

- ***javobgarlikning muqarrarligi tamoili.*** Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.

Jinoyat huquqi, huquqning barcha sohalaridan quyidagi jihatlari bilan **farq qiladi:**

[1] O’R Jinoyat Kodeksining 2-мoddasi. T.:Adolat. 2001.

- jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga kelgan jinoiy - huquqiy munosabatlarda, bir tomondan jamiyat, davlat, ikkinchi tomonidan esa jinoyat sodir etgan shaxs sub'ekt bo'lib qatnashadi;

- jinoiy - huquqiy norma bilan belgilab qo'yilgan taqiqlarni buzganlik uchun sud davlat nomidan qo'llaydigan jinoiy jazoni tayinlaydi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «hech kim sud hukmisiz va qonunga nomuvofiq holda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishi va jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas».[1]

Jinoyat huquqi normalari o'z mazmuniga ko'ra ikki qismga bo'linadi: ulardan biri jinoyat huquqining umumiy, jinoyat, jinoiy jazo va uning turlari, jinoyat sodir etgan shahslar, aybni og'irlashtiruvchi va engilashtiruvchi holatlar kabi tushunchalarni o'zida mujassam etsa, ikkinchisi esa aniq jinoyatlar belgilarini ta'riflab, mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolarni aniqlaydi. Birinchi hil normalar jinoyat huquqining umumiy qismini, ikkinchi hil normalar esa maxsus qismini tashkil etadi.

Boshqa huquq tarmoqlari singari jinoyat huquqi ham o'z manbalariga egadir. Ular: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Protsessual Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining jinoyat qonunchiligiga doir qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyish va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlaridir.

2.Jinoyat tushunchasi, uning belgilari va tarkibi.

Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, 14-moddaning 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan **jinoyat**, deb topiladi.

Jinoyat – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma'lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi.

Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxsning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan birga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o'ylar, fikriy xulosalar qanchalik zarar keltiruvchi bo'lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo'yilgan.

Shaxs tomonidan sodir qilingan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat, deb hisoblanishi uchun u ijtimoiy xavfli bo'lishi kerak.

Ijtimoiy xavflilik – bu jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan manfaatlar (obyektlar)ga zarar yetkazilishi yoki shunday zarar yetkazish xavfi hisoblanadi.

Demak, shaxs tomonidan sodir qilingan qilmish jinoyat, deb hisoblanishi uchun u ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo'lishi kerak, bunday qilmish quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. *Harakat* – bu faol xulq-atvor bo'lib, nafaqat, shaxs tana a'zolarining (jismoniy) harakatida ifodalanadi, u aytilgan so'z, ruhiy, tahdidlar (qo'rqitishlar)da ham namoyon bo'lishi mumkin.

2. *Harakatsizlik* – passiv xulq-atvor bo'lib, bajarilishi shart yoki mumkin bo'lgan majburiyatni bajarishning real imkoni bo'la turib bajarmaslikda ifodalanadi.

3. *Aralash jinoyatlar* – bu shunday jinoyatlarki, ular obyektiv tomondan harakat va harakatsizlik yig'indisidan iborat bo'ladi yoki boshqacha aytganda, harakat va harakatsizliklar natijasi hisoblanadi. Bunday jinoyatlar ko'pincha ma'lum bir qoidani buzish bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 204, 260, 266-moddalarida javobgarlik belgilangan qilmishlar.

Jinoyat – huquqiy hodisa sifatida o'ziga xos jihatlarni ifodalovchi ma'lum bir belgilarga ega. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat, deb

[1]O'R Konstitutsiyasining 26-moddasi. T.: «O'zbekiston» 2003.

hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o‘rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo‘lishi kerak.[1]

Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarini mustahkamlovchi maxsus modda mavjud emas. Shu sababdan jinoyat belgilari jinoyat qonunida jinoyatga berilgan ta’rif asosida aniqlanadi.

Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, faqat ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqargan qilmishlargina jinoyat hisoblanmay, balki qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektga real zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ham jinoyat hisoblanadi.[2]

Bundan ko‘rinib turibdiki, jinoyatga berilgan ta’rifdan kelib chiqib, qilmishda jinoyatning barcha belgilari bo‘lsagina u jinoyat, deb topiladi. Agar muayyan zararli oqibatning kelib chiqishida shaxsning aybi bo‘lmasa, bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat huquqida bunday harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, deb aytiladi.

Har qanday ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat, deb hisoblash uchun barcha jinoyatlar uchun zarur bo‘lgan jinoyatning belgilari, shuningdek, shu jinoyatda aybning mavjud ekanligi va aybning shakllari ishlab chiqilgan, ana shu belgilar va aybning biror shakli mavjud bo‘lsagina qilmish jinoyat hisoblanadi.

Yuqorida jinoyatga berilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda jinoyatning quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
2) qilmishning huquqqa xilofliligi;
3) qilmishda aybning mavjudligi;
4) qilmishning jazoga sazovorligi.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi tushunchasi harakat yoki harakatsizlik bilan birga qilmish natijasida yuzaga kelgan zararli oqibatni qamrab oladi. Shuning uchun Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismiga kiritilgan jinoyatlar ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Ularning ijtimoiy xavfliligi qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkinligi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy munosabatlar iqtisodiy, g‘oyaviy, shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin. Zarar esa, moddiy, ruhiy (ma’naviy) va jismoniy bo‘lishi mumkin.

Qilmishning huquqqa xilofliligi ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanganligini ifodalaydi. Bu belgi qonuniylik prinsipining «qonunda ko‘rsatilmagan bo‘lsa, demak jinoyatning o‘zi yo‘q», qoidasidan kelib chiqadi («*Nullum crimen sine cupla*»).

Huquqqa xiloflilik jinoyatning yuridik belgisi bo‘lib, keng ma’noda:

- *birinchidan*, jinoyat qonuni bilan ijtimoiy xavfli va aybli qilmishlarning taqiqlanganligini;
- *ikkinchidan*, jazo qo‘llash tahdidini bildiradi.

Huquqqa xiloflilik – jinoiy qilmish tufayli huquqiy normalarning buzilishini ifodalaydi.

Qilmishda aybning mavjudligi (aybdorlik) belgisi. Aybning mavjudligi belgisi jinoyat huquqining «ayb uchun javobgarlik prinsipi»dan kelib chiqib, «*Nullum crimen, nulla poena sine cupla*», ya’ni «Aybsiz jinoyat ham, jazo ham yo‘q», qoidasini o‘z ichiga oladi.

Ayb – bu shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatiga bo‘lgan ruhiy munosabati.

Shaxs faqat aybli ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘ladi.

Aybdorlik tushunchasi Jinoyat kodeksining 20-moddasi mazmuniga ko‘ra, «Ushbu kodeksda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxs jinoyat sodir etishda aybdor, deb topilishi mumkin»ligidan kelib chiqadi.

Jinoyat tushunchasidagi aybli harakat yoki harakatsizlik – ijtimoiy xavfli qilmishning qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishini bildiradi.

Aybdorlik jinoyat belgisi bo‘lishi bilan birga jinoiy javobgarlikning asosiy belgilaridan biri ham hisoblanadi.

---

[1] M.H. Rustamboyev, B.J. Ahrorov Jinoyat huquqi. Darslik. T.:TDYuI. 2003. 28-29 betlar.
[2] O’R Jinoyat kodeksining 14-modda, 2-qismi.

Quyidagi holatlardan kelib chiqib shaxsning aybdorligini yoki aybsizligini aniqlash mumkin:

1. Shaxsning o‘zi sodir qilayotgan qilmishining ijtimoiy xavfliligi, uning darajasi va xususiyatini tushunishi;
2. Shaxsning sodir etayotgan qilmishi tufayli vujudga keladigan oqibatning ijtimoiy xavfliligini tushunishi;
3. Shaxsning o‘z harakatlarini boshqara olishi.

Jinoyatning jazoga sazovorlik belgisi – har qanday jinoyat uchun jazo tayinlanishining muqarrarligini bildiradi. Jazo esa sud hukmi bilan tayinlanadigan davlatning majburlov chorasidir. Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazoga «Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir», deb ta’rif berilgan.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat belgilari qilmishning jinoiyligini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib, jinoyatning moddiy (tashqi) belgisi – «ijtimoiy xavflilik» bo‘lsa, jinoyatning formal belgisi – «huquqqa xiloflilik», deb hisoblanadi, shuningdek, jinoyatning «aybning mavjudligi» va «jazoga sazovorlik» belgilari huquqqa xiloflilik belgisidan kelib chiqadi.

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan to‘rt belgining barchasi qilmishda bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lsagina, qilmish jinoyat, deb topiladi va, aksincha, ana shu belgilardan bittasi bo‘lmasa, qilmish jinoyat, deb hisoblanmaydi.

Jinoyatlarni u yoki bu belgilariga ko‘ra, **turkumlarga** ajratish mumkin.

Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq, jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar;
b) uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar;
d) og‘ir jinoyatlar;
e) o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘lingan.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Bunday jinoyat guruhiga – onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi (Jinoyat kodeksining 99-moddasi), ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish (101-modda), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (106-modda), qiynash (110-modda), o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (112-modda), besoqolbozlik (120-modda), ko‘p xotinli bo‘lish (126-modda), tarix yoki madaniyat yodgorligini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (132-modda), ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish (136-modda), fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (144-modda) kabilarni kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlardan oldin esa, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga qonunda ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan yengilroq jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar kiritilgan edi.

Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Bunday jinoyatlar guruhiga – kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish (Jinoyat kodeksining 98-moddasi), qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (105-moddaning 2-qismi), kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (116-moddaning 4-qismi), ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (121-moddaning 2-qismi), bolani almashtirib qo‘yish (124-modda), o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz buzuq harakatlar qilish (129-moddaning 2-qismi), qabrni tahqirlash (134-modda), saylov huquqining yoki ishonchli vakillar vakolatlarining amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish (147-modda), talonchilik (166-moddaning 1,2-qismi) kabi jinoyatlar kiradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlardan oldin esa, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilib, qonunda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kirgan.

*Og‘ir jinoyatlar*ga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Agar qonunda ozodlikdan mahrum qilishning eng oz qismi uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar uchun tayinlansa, eng ko‘p qismi og‘ir jinoyatlar guruhiga kiruvchi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 118-moddasi (nomusga tegish) sanksiyasida ozodlikdan mahrum qilishning muddati uch yildan yetti yilgacha berilgan. Demak, eng yuqori qismi yetti yil bo‘lganligi uchun bu jinoyat og‘ir jinoyatlar guruhiga kiradi.

Og‘ir jinoyatlar guruhiga – qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (104-moddaning 2-qismi), nomusga tegish (118-moddaning 1,2-qismlari), voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (127-moddaning 3-qismi), odamlardan foydalanish uchun ularni yollash (135-moddaning 2-qismi), odam o‘g‘irlash (137-moddaning 2-qismi), urushni targ‘ib qilish (150-modda), yollanish (154-modda), milliy, irqiy yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (156-moddaning 2-qismi), davlat sirini oshkor qilish (162-moddaning 2-qismi), bosqinchilik (164-moddaning 1,2-qismlari) kabi jinoyatlarni kiritish mumkin.

O‘ta og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o‘lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Bunday jinoyatlar guruhiga – qasddan odam o‘ldirish (Jinoyat kodeksining 97-moddasi), jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish (119-moddaning 3,4-qismlari), agressiya (151-modda), urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda), genotsid (153-modda), terrorizm (155-moddaning 2,3-qismlari), davlatga xoinlik qilish (157-modda), josuslik (160-modda), qo‘poruvchilik (161-modda) kabi jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlarni obyektiga ko‘ra tasniflash masalasi Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismidagi jinoyatlarni maxsus (turdosh) obyektiga qarab guruhlarga ajratish va maxsus obyektning ahamiyatiga qarab joylashtirilishini belgilaydi. Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi jinoyatning maxsus (turdosh) obyektiga ko‘ra, bo‘lim va boblarga ajratilgan. Ya’ni, Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi, birinchi bo‘limida «Shaxsga qarshi jinoyatlar», ikkinchi bo‘limida «Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar», uchinchi bo‘limida «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar», to‘rtinchi bo‘limida «Ekologiya sohasidagi jinoyatlar» va shu kabi jinoyatlar bo‘limlarga ajratib joylashtirilgan.

Jinoyat kodeksining 16-moddasi, 2-qismida jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari belgilangan bo‘lib, unda: «Ushbu kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi», deb yozilgan. Ushbu jinoyat huquqiy tushunchada jinoiy javobgarlik uchun asos deb, aybdorning qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi belgilangan bo‘lsa-da, lekin jinoyat tarkibi tushunchasiniig o‘zi to‘liq ochib berilmagan.

Jinoyat tarkibi haqidagi ta’limot jinoyat huquqi fanining markaziy masalalaridan biridir. Jinoyat tarkibining to‘g‘ri aniqlanishi jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun asos

hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida odil sudlovni amalga oshirish va qonunchilikni mustahkamlash hamda pirovard natijada ayblanuvchining taqdirini hal etishda katta ahamiyatga egadir.

Yuridik adabiyotlarda jinoyat tarkibiga turlicha ta’riflar berilgan. Lekin jinoyat tarkibi haqidagi ta’limotning qator masalalari bo‘yicha olimlar o‘rtasida yagona bir fikr mavjud emas.

Adabiyotlardagi jinoyat tarkibini aniqlashga doir fikrlarning turlicha ekanligiga qaramay, ko‘pgina mualliflar jinoyat tarkibi tushunchasini obyektiv va subyektiv belgilar yig‘indisidan iboratligini tan olib, jinoyat tarkibi ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat, deb topishga xizmat qiladi, deya ta’kidlashadi.

Jinoyat tarkibining to‘rt i elementi mavjud.

1.Jinoyatning obyekti;

2.Jinoyatning obyektv tomoni;

3.Jinoyatning subyektiv tomoni;

4.Jinoyatning subyekti

Jinoyatning obyekti jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz tufayli unga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan har qanday ijtimoiy munosabatlarga, masalan, shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmati, davlat manfaatlariga, mulk huquqini amalga oshirishga, odil sudlovni amalga oshirishga xo‘jalik yoki iqtisodiy faoliyat va boshqalarga ziyon yetkazadi.

Jinoyat tarkibining *ikkinchi elementi* uning **obyektiv tomonidir.** Jinoyatning obyektiv tomoni sodir etilgan jinoyatning tashqi tomonini ifodalovchi elementdir.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Biroq, ko‘pchilik qilmishlarni jinoyat, deb hisoblash uchun u tufayli ro‘y bergan ma’lum bir oqibatlarini aniqlamoq zarur.

Jinoyat tarkibining *uchinchi elementi* uning **subyektiv tomonidir.**

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni jinoiy qilmishning ichki tomoni bo‘lib, shaxsning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga bo‘lgan ruhiy munosabatini ko‘rsatadi. Bunda aybidan tashqari jinoyatning subyektiv tomonini tasniflovchi motiv va maqsad ham mavjud bo‘ladi.

Ayb qasddan yoki ehtiyotsizlik shaklida bo‘lishi mumkin. Ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin. O‘z navbatida qasddan qilingan jinoyat to‘g‘ri qasddan yoki egri qasddan sodir qilingan bo‘lishi mumkin. Ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar o‘z-o‘ziga ishonish yoki beparvolik orqasida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda, Jinoyat kodeksida moddaning nomi yoki uning dispozitsiyasida aybning shakli ko‘rsatiladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 97-moddasida qasddan odam o‘ldirish, 98-moddasida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish, 102-moddasida ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish, 111-moddasida ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish ko‘rsatilgan.

Jinoyat tarkibining *to‘rtinchi elementi* uni sodir etgan shaxs, ya’ni jinoyatning *Jazo* – sud hukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor, deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan va sudlanuvchini ozodlikdan mahrum qiluvchi yoki uning huquq va erkinliklarini cheklovchi majburlov chorasi.

Ayrim holatlarda ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi uchun subyektning umumiy belgilari (yoshi va aqli rasoligi) yetarli bo‘lmay, bundan tashqari jinoyat subyektining maxsus belgilarini aniqlash lozim bo‘ladi, masalan, harbiy jinoyatlarning subyektlari, albatta, harbiy xizmatchi bo‘lishi, mansabdorlik jinoyatlarning subyekti mansabdor shaxs bo‘la oladi. Ayrim hollarda subyekt faqat shifokor, transport vositasining haydovchisi bo‘ladi va hokazolar.

3. Jinoiy jazo va uning turlari.

Jazo – bu jinoyat sodir etishda aybli, deb topilgan shaxsga nisbatan davlat tomonidan sud hukmi asosida qo‘llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasi.[1]

Davlat nomidan qo‘llaniladigan majburlov chorasi turlicha bo‘lib, jinoiy jazo bu majburlovning alohida shakli hisoblanadi. Bu haqda qator tarixiy ma’lumotlar mavjud. Italiyalik olim Ch. Bekkaria (1738—1794) «Jinoyat va jazolar haqida» deb nomlangan asarida (1764-yil): «Faqat qonunda, sodir etilgan jinoyatga nisbatan jazo belgilanishi mumkin va bunday qonunni qabul qilish vakolati qonun chiqaruvchiga beriladi. Hech qanday sudya haqiqatni buzmasdan, jinoyatning boshqa ishtirokchilariga jazo tayinlay olmaydi. Qonunda belgilanmagan jazo, ya’ni qonunda belgilangan doiradan chetga chiqqan jazo adolatsiz hisoblanadi», degan edi.

Jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi bo‘lib, u boshqa majburlov choralaridan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi:

1) *Jinoiy jazo jinoyat qonunida qat’iy belgilangan bo‘ladi*. Jinoyat kodeksida sudlar uchun qat’iy bo‘lgan jazo choralari belgilangan bo‘lib, sudlar jazo tayinlashda «Maxsus» qism normasi sanksiyasida ko‘rsatilgan doirada jazo tayinlaydilar.

2) *Jinoiy jazo faqat sud tomonidan tayinlanadi*. Bu qoida Jinoyat kodeksining 42-moddasida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Jinoyat kodeksining 69—75-moddalarida belgilangan asoslarga ko‘ra jazodan ozod qilish, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirilishi ham faqat sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Amnistiya akti asosida yoki avf etish orqali jazodan ozod qilishda, bu aktni chiqargan organning amnistiya yoki avf etish to‘g‘risidagi normativ akti asosida ozod qilinadi.

3) *Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir etishda aybdor, deb topilgan shaxslarga nisbatangina qo‘llaniladi*. Mahkum jazoning ijrosidan qochganda ham jazo mahkumning oila a’zolariga yoki yaqin qarindoshlariga nisbatan qo‘llanishi mumkin emas. Aybdor shaxsga jazo qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy to‘lovlar uning oila a’zolari yoki yaqin qarindoshlaridan undirilmaydi.

4) *Jinoy jazoning mazmuni shaxsni ozodlikdan mahrum qilishda yoki huquq va erkinliklarini cheklashda ifodalanadi*. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish oqibatida u ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish va qamoq jazolari qo‘llanilganda mahkum jamiyatdan ajratiladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilganda shaxsning erkin kasb tanlash huquqi, muayyan lavozimni egallashi cheklanadi.

5) *Jinoiy jazoning davlat xususiyatiga ega ekanligi*. Bu shundan iboratki, shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor, deb topish, jazo, uning aniq turi va miqdorini belgilash faqat maxsus davlat organi – alohida hokimiyat- sudga taalluqli bo‘lib, davlatning boshqa organlari yoki jamoat tashkilotlari uni qo‘llay olmaydi. Sud hukmi davlat nomidan chiqarilib, qonuniy kuchga kirgan sud hukmi barcha davlat, jamoat muassasalari ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy.

6) *Sudlanganlik shaxsning faqat jinoiy jazoga tortilganligi tufayli kelib chiqadi*. Jazo tayinlangan, hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan hisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan hisoblanadi. Sudlanganlik muddatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi bilan uning barcha huquqiy oqibatlari bekor bo‘ladi..

7) *Jazo – bu jinoyat sodir etgan shaxsni sodir etgan qilmishi uchun jazolash*. Jazoning bu zo‘rlov, majburlov tomoni jinoyatchini jismoniy, mulkiy, ma’naviy va boshqa jihatlardan ma’lum darajada cheklash va mahrum qilishdir. Sud shaxsni ozodlikdan mahrum etganda, uni istagan joyda yashash huquqini chegaralashi, muayyan mansabni egallash yoki muayyan ish bilan shug‘ullanishini cheklashi mumkin.

[1] O’R Jinoyat Kodeksining 42 moddasi.

8) *Jinoiy jazoning vazifasi faqatgina sodir etilgan qilmish uchun jazolash bo‘lmay, shuningdek, mahkumlarni tuzatish va qayta tarbiyalash hamdir*. Jinoyatchilarni tuzatish uchun tarbiyalashning alohida vositasi bo‘lgan jinoiy jazo choralari zarurdir. Shuning bilan birgalikda kam ahamiyatli va ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni sodir qilgan shaxs, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilinib, ma’muriy, intizomiy yoki jamoat ta’sir choralarini qo‘llash yo‘li bilan ham tarbiyalanadi.

Jinoyat kodeksining 42-moddasida **jazoning**:

1) mahkumni axloqan tuzatish;

2) shaxsning jinoiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish;

3) boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish kabi **maqsadlari** belgilab qo‘yilgan.

Jazo jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda, jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning asosiy shakllaridan hisoblanadi. Qilmishning jazoga sazovorligi jinoyat qonunini ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish vositasiga aylantiradi, huquqiy normalarni inson, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish mexanizmiga aylantiradi.

Sudning qonunni qo‘llovchi vazifasi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan aniq jazo turining sud hukmida belgilanishida namoyon bo‘ladi. Sud maksimal darajadagi individuallashtirilgan jazo tayinlash uchun jinoyatning xususiyati va jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligini e’tiborga oladi.

Jinoyat kodeksining 43-moddasida jazo tizimi berilgan bo‘lib, unda jinoyatni sodir etishda aybdor, deb topilgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turlari ko‘rsatilgan.

Jazo tizimi yengilidan og‘iriga qarab joylashtirilgan jazo turlari yig‘indisidir. Yangi Jinoyat kodeksida belgilangan jazo tizimida avvalgi jinoyat qonunidagi bir qancha jazolar: badarg‘a, surgun, vazifasidan bo‘shatish, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash, jamoat izzasi kabi jazolar o‘rin olmagan. Buning sababi yuqoridagi jazolarining amalda ijobiy natija bermaganligidadir.

Jinoyat qonunida belgilangan barcha jazo turlari: asosiy va qo‘shimcha jazolarga bo‘linadi.

Jinoyat kodeksda jamiyat va davlatimizda so‘nggi yillarda ro‘y bergan o‘zgarishlar e’tiborga olinib, **jazo turlari** quyidagicha joylashtirilgan:

Asosiy jazoga quyidagilar kiradi*: а) jarima; б) muayyan huquqdan mahrum qilish; в)axloq tuzatish ishlari;г) xizmat bo‘yicha cheklash;д) qamoq;е) intizomiy qismga jo‘natish;ж) ozodlikdan mahrum qilish;з) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.*

Qo‘shimcha jazoga *harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish* kiradi. Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat kodeksi jazo tizimidan mol-mulkni musodara qilish chiqarildi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham **asosiy** jazo sifatida, ham **qo‘shimcha** jazo sifatida qo‘llanishi mumkin. Umumiy va maxsus jazolar jazo chorasi subyektning maxsus belgilariga qarab qo‘llaniladi.

Jinoyat qonunida belgilangan jazo choralari tizimi qat’iy bo‘lib, sud sudlanuvchiga nisbatan qonunda belgilangan jazo chorasidan boshqa biron-bir jazo chorasini qo‘llay olmaydi. Jinoyat kodeksida belgilangan jazo tizimi, jazolash siyosatiga to‘la mos kelib, o‘zida jinoyat huquqi prinsiplarini to‘liq ifodalaydi. Amaldagi jinoyat qonuni o‘z xususiyati va mazmuniga ko‘ra, turli jazo choralarini belgilab, jinoyatchilikka qarshi kurashda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jinoyat kodeksida **jarima**, aybdordan davlat daromadiga pul undirilishi, deb tushuntirilgan. Jinoyat kodeksining 44-moddasida jarimaning miqdori eng kam oylik ish haqining besh barobaridan olti yuz barobarigacha miqdorda belgilanadi.

Jarima davlatning majburlov chorasi sifatida aybdorga iqtisodiy ta’sir ko‘rsatish orqali jinoyat sodir etgan shaxsning mulkiy huquqlarini cheklashdan iboratdir. Shuning uchun ham jarima jazo tizimida ko‘rsatilgan jazo choralarining eng yengili hisoblanadi.

Jinoyat qonuniga ko‘ra, jarima faqat pul miqdorida belgilanadi. Davlatning ushbu majburlov chorasini qo‘llash haqidagi sud hukmida jarimaning aniq miqdori ko‘rsatilishi lozim. Bunda jarimaning miqdori hukm chiqarilayotgan vaqtdagisiga qarab emas, balki jinoyat sodir etilgan vaqtdagi eng kam oylik ish haqi miqdoriga qarab belgilanadi.

Jarima uch oy ichida to‘lanishi lozim. Aks holda, sud aybdorning jazoni ijro etishdan bosh tortganligi masalasini ko‘rib chiqishi kerak.

Muayyan huquqdan mahrum etish jazosining mazmuni aybdorga muayyan mansabni egallash, u yoki bu faoliyat turi bilan shug‘ullanishni taqiqlashdan iborat. Bu jazo turi ushbu jinoyatni sodir etishda aybdor, deb topilgan shaxsning bevosita muayyan huquqi bilan bog‘liq bo‘lsagina qo‘llaniladi. Jinoyat qonunining ushbu moddasida jazolash xususiyatiga ko‘ra, bir turdagi ikki jazo birlashtirilgan: muayyan mansabni egallash va muayyan faoliyat bilan shug‘ullanishdan mahrum etish.

Muayyan huquqdan mahrum etish faqat aybdor jinoyat sodir etish vaqtida ushbu huquqqa ega bo‘lgan holdagina qo‘llaniladi.

Axloq tuzatish ishlari jinoiy jazo sifatida mahkumning sud hukmida belgilangan miqdorda ish haqidan ushlab qolgan holda majburiy mehnatga jalb qilishda ifodalanadi.

Bu jazo turi asosiy jazo turi hisoblanib, faqat Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan hollarda qo‘llaniladi. Shuningdek, axloq tuzatish ishlari quyidagi hollarda:

1) axloq tuzatish ishlari yengilroq turdagi jazoni qo‘llash tartibida Jinoyat kodeksining 57-moddasiga muvofiq qo‘llanishi mumkin;

2) aybdor jarima jazosini ijro etishdan bo‘yin tovlagan holda, jazoning ijro etilmagan qismi Jinoyat kodeksining 44-moddasiga muvofiq axloq tuzatish ishlariga almashtirilganda;

3) bu jazo turi Jinoyat kodeksining 74-moddasiga ko‘ra, ozodlikdan mahrum etish jazosining o‘talmay qolgan qismini yengilroq to‘rdagi jazo bilan almashtirilganda qo‘llaniladi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi o‘zida insonparvarlik prinsipini ifodalaydi. Mahkumga bu jazoni qo‘llash orqali u erkinligidan mahrum qilinmaydi, o‘z oilasida, uyidan ajralmagan holda o‘zi avval ishlagan muassasa (korxona, tashkilot)da ishlaydi. Bu jazoni qo‘llash orqali mahkumga moddiy ta’sir ko‘rsatiladi, ya’ni aybdor ish haqining muayyan qismi davlat foydasiga o‘tkaziladi.

Jinoyat qonunida axloq tuzatish ishlarining ikki turi ko‘rsatilgan:

- mahkum jazoni o‘zi ishlab turgan joyda o‘taydi;
- jazoni jazo ijrosini nazorat qiluvchi organ belgilab bergan joyda o‘taydi.

Jazoning qaysi turini o‘tash lozimligini sud belgilaydi.

Xizmat bo‘yicha cheklash jazosi Jinoyat kodeksiga yangi kiritilgan jazo choralaridan biri hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 47-moddasiga muvofiq, xizmat bo‘yicha cheklash – ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi, praporshik, michman va harbiy xizmatni kontrakt asosida o‘tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, oylik ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha bo‘lgan miqdori davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iborat jazo chorasi. Xizmat bo‘yicha cheklash faqat asosiy jazo sifatida tayinlanilishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 45-moddasi dispozitsiyasi shaxsni jamiyatdan batamom ajratgan sharoitda saqlashdan iborat **qamoq** jazosini ko‘zda tutib, uning bir oydan olti oygacha muddatga belgilanishi ko‘rsatilgan. Qamoq jazosi qonunga ilk bor kiritilib, oldin hech qaysi ittifoqdosh respublika jinoyat qonunchiligida bunday jazo turi ko‘rsatilmagan edi. Qamoq jazosi o‘z mohiyatiga ko‘ra, qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilish. Qamoq jazosi asosiy jazolardan biri bo‘lib, boshqa jazolar bilan qo‘shib tayinlanishi mumkin emas.

Intizomiy qismga jo‘natish faqat muddatli harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanilalib, xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddatga maxsus ichki tartibi ancha qattiq bo‘lgan harbiy qismga jo‘natishda ifodalanadi. Intizomiy qismga jo‘natish asosiy jazo turi bo‘lib, uning ijrosi Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Intizomiy qismda mahkumlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta’tillar berilmaydi. Qonunda intizomiy qismda jazoni o‘tash muddati belgilangan bo‘lib, u Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi moddalarida nazarda tutilgan hollarda ikki oydan bir yilgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi mahkumni sud belgilagan muddat mobaynida jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir. Bu asosiy jazo turi bo‘lganligi uchun qonun sanksiyasida ko‘rsatilgan hollardagina qo‘llaniladi. Ozodlikdan mahrum qilish boshqa hech qanday asosiy jazo turi bilan birga qo‘llanishi mumkin emas. Ushbu jazo turi aybdor axloq tuzatish ishlaridan bo‘yin tovlasa, o‘lim jazosi avf etish tarzida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilganida qo‘llaniladi.

60 yoshdan oshgan erkaklar va ayollar uchun ozodlikdan mahrum qilish muddati Jinoyat kodeksi sanksiyasida ko‘rsatilgan jazo muddatining to‘rtdan uch qismidan oshmasligi kerak. Bu norma imperativ xususiyatga ega bo‘lib, jazoni og‘irlashtiruvchi hollarda ham o‘zgartirilmaydi. Bu jazoni qo‘llashda erkak kishining jinoyat sodir etilgan vaqtdagiga nisbatan emas, balki hukm chiqarish vaqtidagi yoshi hisobga olinadi. Ayol kishining yoshi esa ahamiyatga ega emas. Bu qoida shaxs bir yoki bir necha jinoyat sodir etgan hollarda ham tatbiq etiladi. Bitta jinoyat yuzasidan tayinlangan jazoning umumiy muddati 15 yildan (20 yilning to‘rtdan uch qismi), bir necha jinoyat bo‘yicha 18-yil-u 9 oydan (25 yilning to‘rtdan uch qismi) oshmasligi kerak.

XULOSA.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti — bu qonunlarning so‘zsiz bajarilishi. Jinoyat huquqi boshqa huquq sohalariga qaraganda har bir shaxsni qonunlarni xurmatlash, ularga rioya etishni ta’minlash vazifasini o’tuvchi asosiy huquq tarmoqlaridan biridir. Jinoyat, sodir etgan jinoyati uchun jazoning muqarrarligi, jazo va uning turlari kabi tushunchalar bilan yaqindan tanishish talabalarga qonunlarni hurmat qilish, ularni buzmaslik, jinoyat sodir etishdan saqlanishi uchun zamindir. Talabalarga jinoyat huquqi bilan chambarchas bog’liq jinoyat protsessual huquqini o’rganishni ham tavsiya etamiz. Negaki bu bulimlar hech bir shahsning protsessual huquqlarining buzilmasligining garovidir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Jinoyat huquqi tushunchasi va uning predmeti nimadan iborat?
2. Jinoyat tushunchasi va uning asosiy belgilari qanday?
3. Jinoiy tarkibi elementlarining mazmuni qanday?
4. Jinoyat subyektining asosiy hususiyatlari nimalardan iborat?
5. Jinoyatning qanday turlari sizga ma’lum?
6. Jazo tushunchasi va uni qo’llashdan asosiy maqsad qanday?
7. Asosiy jazo turlari qanday?
8. Qo’shimcha jazolarning qanday turlarini bilasiz?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». T.: «Sharq», 1999.
2. I.A.Karimov «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» Xalk so’zi. 2005 yil 29 yanvar soni.
3. I.A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: Ma’naviyat. 2008.
4. Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O’zbekiston 2003.
5. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. T-2001.
6. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar. T-2003.
7. O’R Prezidentining “O’lim jazosini bekor qilish to’g’risida”gi Farmoni. // “Xalq so’zi” gazetasi, 2 avgust 2005 yil.

8. O’R Prezidentining “Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o’tkazish to’g’risidagi”gi Farmoni. // “Xalq so’zi” gazetasi, 9 avgust 2005 yil.
9. M.H. Rustamboyev, B.J. Ahrorov. “Jinoyat huquqi”. Darslik. T.:TDYuI. 2003.
12. Z.Islamov., M.Mirxamidov., O.Xusanov «Xukukshunoslik» 2000.
13. www.gov.uz
14. www.edu.uz
15. www.zivo.tdu.uz

XALQARO HUQUQ ASOSLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda xalqaro huquq, uning tamoillari, asosiy subyektlari, O’Rning xalqaro huquq subyekti sifatidagi faoliyati va uning huquqiy asoslari to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilish, uning O‘zbekiston Respublikasi uchun ahamiyatini tushuntirib berish orqali talabalarning huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlar orasida sog’lom muhitni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: xalqaro munosabatlar, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, o’z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar, “erkin shaharlar”, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo’l bilan hal etish, xalqaro shartnomalar, deklaratsiya, konventsiya, xalqaro doktrinalar.

Asosiy savollar:

1. Xalqaro xuquq tushunchasi, uning predmeti, tamoillari va manbalari.
2. Xalqaro huquq manbalari. Xalqaro huquq manbalari tizimida xalqaro shartnomalar.
3. Xalqaro huquqning asosiy sub’ektlari. O’zbekiston xalqaro huquq sub’ekti sifatida.

“Aqliy hujum” uchun savollar:

– Sizningcha xalqaro huquqi fani nimani o’rganadi?
– O‘zbekiston Respublikasi qachondan bochkab zalqaro munosabatlar sub’ekti buldi?

1. Xalqaro xuquq tushunchasi, uning predmeti, tamoillari va manbalari.

Har qanday ijtimoiy munosabatlar o’z mohiyatiga ko’ra tartibga solinishini talab etadi. Turli hil munosabatlar qatorida alohida ahamiyatga va nufuzga ega bo’lgan xalqaro munosabatlar ham bundan mustasno emas. Xalqaro munosabatlar tarihi shu to’g’risida guvohlik beradi-ki, davlatlar umume’tirof etilgan qonun - qoidalar, barcha davlatlar uchun birdek ahamiyatga va kuchga ega bo’lgan huquqiy meyorlarsiz o’zaro munosabatlarni yo’lga qo’ya olmaydilar va rivojlantiraolmaydilar. Undan tashqari, aynan xalqaro munosabatlar umume’tirif etilgan huquq normalari bilan tartibga solinishi alohida talab etiladigan munosabatlardir, negaki xalqaro munosabat ishtirokchilari manffatlari ko’p hollarda bir-biriga zid kelib, ularning hisobga olinishi va ta’minlanishi huquq meyorlari orqali amalga oshirilishi dunyodagi tinchlik va xavfsizlikning garovidir.

Gap davlatlarning tashqi faoliyati yuzasidan kelib chiqadigan xalqaro munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro huquq to’g’risida bormoqda. 1995 yilda N’yu-York shahrida bo’lib o’tgan birinchi Butunjahon Xalqaro huquq Konferentsiyasi xalqaro huquqni “xalqaro muloqot tili” deb uning mohiyati va ahamiyatini belgilab berdi. Davlatlarning o’zaro munosabatlarini amalga oshirishda rioya qiladigan hulq-atvor qoidalarini belgilash bilan bir qatorda, xalqaro huquq davlatlarni o’z zimmalariga olgan xalqaro majburiyatlarini bajarishga undovchi, davlatlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan meyorlardan ham iborat.

Xalqaro huquqning yuzaga kelishi, rivojlanishi va takomillshib borishi, albata kishilik dunyosining rivojlanish tarihi hamda xalqaro munosabatlar tarihi bilan chambarchas bog’liq. Kishilik jamiyatlarining rivoji xalqaro hayotning rivojlanishiga asos solgan. Ya’ni Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim, Nil, Efrat, Tigr daryolari vodiylarida joylashgan Messopotamiya va Afrika hamda Osiyodagi boshqa qator davlatlar bir birlariga yaqin joylashgan davlatlar bilan turli hil munosabatlarga kirishib, o’z’-

o’zidan xalqaro huquqiy tusga ega bo’lgan meyorlarga asos solishgan. Avvaliga ikkitmonlama xarakterga ega bo’lgan ushbu normalar, o’zaro munosabatga kirishuvchi davlatlar doirasining kengayishi munosabati bilan regional hususiyatga ega bo’la boshladi. Xalqaro huquq tarihini shu davrdan boshlab bayon etish katta qiziqish uyg’otsa-da, uni davrlarga bo’lish bilan cheklanamiz. Shunday qilib, **xalqaro huquqning rivojlanish tarixini quyudagi bir necha bosqichga bo’lishimiz mumkin:**

1. *Qadimgi davr xalqaro huquqi;*
2. *O’rta asrlar xalqaro huquqi;*
3. *Yangi davr xalqaro huquqi.*

O’z navbatida yangi davr xalqaro huquqi:

1. 1648 yildan to 1815 yilgacha bo’lgan xalqaro huquq (Vena Kongressining chaqirilishi bilan nihoyalangan Napoleon urushlari davri);
2. 1815 yildan to I - Jahon urushu tugab 1919 yilda Versal tinchlik shartnomasining imzolanishigacha bo’lgan davr xalqaro huquqi;
3. 1919 yildan to II - Jahon urushi tugab 1945 yilda BMTning tashkil etilguniga qadar bo’lgan davr xalqaro huquqi;
4. 1945 yilda BMTning tuzilish davridan to hozirgi kunga qadar mavjud zamonaviy xalqaro huquqiga bo’linadi.[1]

Hozirgi zamon xalqaro huquqi ikkinchi jahon urushi kezlari insoniyat ko’rgan talofatlarni qaytarilishini oldini olish, dunyodagi tinchlik va xavfsizlikni davlatlar o’zaro kelishgan va birlashgan holda ta’min etishlari mumkinligini anglagan pallada yuzaga kelgan bo’lib, BMT tizimi belgisi ostida rivojlanib kelmoqda. BMT bayrog’i ostida birlashgan jahon hamjamiyati dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida xalqaro huquqni tashkil etuvchi meyorlarni ishlab chiqar ekan, yer yuzidan qurolli nizolar yo’q bo’lib ketmagan, hozirgi kunda ham dunyoning turli burchaklarida urush talofatlari insonlar hayotiga zomin bo’layotgan bo’lsa-da, BMTning ahamiyatini yo’qqa chiqarish adolatdan emas.

“Xalqaro huquq” tushunchasini aniqlash va unga tarif berish Xalqaro huquq fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Xalqaro huquq fanida xalqaro huquq tushunchasiga berilgan turli hil tariflardan bir nechtasini keltirib o’tamiz.

Xalqaro huquq - davlatlarning irodasini muvofiqlashtirish asosida tuzilgan va rivojlanadigan, davlatlarning tinch - totuv yashashi, xalqlarning teng huquqliligi va o’z taqdirini o’zi belgilashini taminlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar tizimi.

Xalqaro huquq bu davlatlar va ushbu huquq tizimining boshqa sub’ektlari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy meyorlar tizimidir.

Xalqaro huquq - ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining ta’siri bilan bog’liq ravishda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi va davlatlar irodasining nisbiy uyg’unligini ifodalovchi shartnomalar, odat normalari va tamoilllar tizimidir.

Xalqaro huquq xalqaro (davlatlararo va boshqa turdagi) munosabatlarni tartibga soluvchi meyorlar majmui va tizimidir.

Xalqaro huquq huquqning mustaqil tarmog’i bo’lib, o’zida bir butun va yahlit tamoillar va meyorlar tizimini, ya’ni eng avvalo davlatlar o’rtasidagi xalqaro munosabatlar sohasini tartibga soluvchi, yuridik majburiy bo’lgan hulq-atvor qoidalarini ifodalaydi.

Xalqaro huquq faqat normalar yig’indisi bo’libgina qolmay, xalqaro huquq sub’yektlari o’rtsaida muayan sohada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmoqlari majmuidir

[1] Международное право. Учебник. М.: «Международные отношения», 2000. 17-34 бетлар.

Xalqaro huquq davlatlarning milliy huquq tizimlari bilan parallel tarzda mavjud bo'ladi. Davlatlarning ***milliy huquq tizimlari*** tegishli davlat organlari, ushbu davlat bilan siyosiy – huquqiy bog'liq bo'lgan fuqarolar hamda yuridik shahslar o'rtasida ushbu davlat miqyosida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solsa, ***xalqaro huquq*** davlatlarning boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarini tartibga soladi. Ya'ni, Xalqaro huquq obyektiga har qanday emas, balki muayyan xalqaro munosabatlar kiradi. *Xalqaro munosabatlar* bu davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan siyosiy, iqtisodiy - madaniy, xuquqiy, diplomatik, xarbiy va boshqa turdagi aloqalar, hamkorliklar majmuidir. Bu o'rinda **xalqaro huquqning asosiy hususiyatini** ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Xalqaro huquq davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarni tatibga soladi. Bunda suveren davlatlar nazarda tutilib, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquqning asosiy tamoillaridan biri bo'lmish *davlatlarning suveren tengligi* tamoiliga asoslaniladi. Suveren davlatlar esa siyosiy, iqtisodiy, harbiy salohiyatidan qat'iy nazar o'zaro teng bo'lib, teng teng ustidan hokimiyat o'rnata olmaydi degan qadimgi Rim postulati (par in parem non habet imperium)ga rioya qilish juda muhimdir.

Shu o'rinda **Xalqaro huquq,** huquq tarmog'i sifatida **tartibga soladigan munosabatlar** to'liq turkumini keltirishni o'rinli deb bildik:

- davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlar;
- davlatlarning Xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi bilan bog'liq davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar;
- davlatlar va nisbiy mustaqil Xalqaro maqomga ega bo'lgan davlat ko'rinishidagi tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar (masalan, Vatikan Rim katolik cherkovining markazi sifatida alohida o'ziga hos Xalqaro huquqiy maqomga ega).

Xalqaro huquqning yana bir **hususiyati** uning bajarilishi, unga rioya etish hech qanday majburlov kuchi bilan ta'minlanmaganligi. Davlatlar, o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq meyorlarini o'zaro kelishgan holda ishlab chiqadilar va ihtiyoriy bajaradilar. Dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan BMT Xavfsizlik Kengashining qarorlari bundan mustasno.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy myorlar va tamoillar tizimi ekanligi to'g'risida yuqorida to'htalib o'tdik. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish BMT Nizomida mustahkamlab qo'yilgan, umume'tirof etilgan **Xalqaro huquq tamoillari** asosida amalga oshiriladi. Hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy tamoillari xalqaro munosabatlarning asosiy muammolarini hal etish uchun eng ko'p ahamiyatga ega bo'lgan ko'pchilik tan olgan meyorlar sifatida belgilash mumkin.[1]

1945 yilda qabul qilingan BMT Nizomi hamda 1970 yilda BMT Nizomiga binoan davlatlar o'rtasidagi yahshi qo'shnichilik munosabatlari va hamkorlikka taaluqli xalqaro huquq printsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya **xalqaro huquqning quyidagi tamoillarini** belgilab bergan:

- *kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;*
- *xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;*
- *davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;*
- *BMT Nizomiga binoan davlatlarning o'zaro hamkorlik qilishlari majburiyatiga ega ekanliklari;*
- *Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega ekanliklari;*
- *Davlatlarning suveren tengligi;*
- *Davlatlarning o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari;*

[1] A. Mamatqulov. Xalqaro huquq. T.: "Adolat", 1997 yil, 36 bet.

1966 yilda Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi

- i*nson huquqlarini hurmat qilish tamoilini* xalqaro huquqning tamoillari qatoriga kiritdi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki Yakunlovchi Xujjati mazkur tamoyillar qatoriga quyidagi tamoillarni kiritgan:

- *Chegaralar dahlsizligi.*
- *Davlatlarning hududiy dahlsizligi.*

Jahon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni hal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham shakllanmokqda. Ular orasida

- *atrof - muhitning davlatlar tomonidan himoya qilinishi tamoili alohida ahamiyatga ega.*

Xalqaro huquq tamoyillarining o'ziga hosligi ularning universalligidir. Xalqaro huquqnig barcha sub'ektlari ushbu tamoiillarga qat'iyan rioya qilishlari lozim, chunki mazkur tamoiillarni har qanday tarzda buzish muqarrar ravishda xalqaro munosabatning boshqa ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlariga dahl qilishga olib keladi. Xalqaro huquq tamoyillari butun xalqaro - huquqiy normalar tizimining qonuniylik mezoni xisoblanadi.

2. Xalqaro huquq manbalari. Xalqaro huquq manbalari tizimida xalqaro shartnomalar.

Xalqaro huquq manbalari deganda xalqaro huquqiy meyorlar obyektiv ifodalangan shakllar nazarda tutiladi. Xalqaro huquq manbalari ro'yhatini aniq va to'la ifodalagan meyoriy hujjat mavjud bo'lmasada, BMT Xalqaro Sudi Statutining 38 moddasiga asosan, Xalqaro huquqning quyidagi manbalarini ko'rsatib berishimiz mumkin :

- Davlatlar tomonidan tan olingan qoidalarni belgilab beruvchi umumiy va mahsus ***Xalqaro shartnomalar;***
- Huquqiy meyor sifatida tan olingan ***Xalqaro odatlar;***
- ***Xalqaro sud va arbitraj qarorlari;***
- ***Xalqaro huqumatlar aro tashkilotlar rezolutsiyalari;***
- Xalqaro huquq sohasida katta yutuqlarga erishgan, yetuk olimlarning ***doktrinalari.***

Bunda ***xalqaro shartnomalar*** va ***xalqaro odatlar*** xalqaro huquqning asosiy manbalari sifatida tan olinsa, qolganlaridan yordamchi manba sifatida qo'llaniladi.

Xalqaro shartnomalar xalqaro huquqning asosiy manbai bo'lib, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari tomonidan yozma shaklda tuzilgan kelishuvi hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar uni tuzgan, unga qo'shilgan davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari uchun huquq va majburiyatlar keltirib chiqarib, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Xozirgi zamonda jahondagi davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, madaniy aloqalar, savdo – sotiq, sanoat va boshqa sohalardagi hamkorliklarni o'rnatish hamda amalga oshirishning asosiy shakli - ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar bo'lib qolmoqda.

Xalqaro shartnomalarning subyekti bo'lib xalqaro huquqning subyektlari hisoblansa, xalqaro shartnomalarning ob'ektlari siyosiy, iqtisodiy, xo'jalik aloqalari sohasida davlatlar o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar, savdo, sanoat, ilmiy – texnikaviy hamkorlik, moliya va boshqa sohalarda huquqiy tartibga solinishi talab etiladigan xatti- xarakatlardir.

Xalqaro shartnomalar turli belgilari va xususiyatlariga ko'ra **bir necha turlarga ajratiladi.** Jumladan, xalqaro shartnoma *ishtirokchilari doirasiga* ko'ra:

- Xalqaro huquqning barcha subyektlari ishtirok etishi mumkin bo'lgan *umumiy xalqaro shartnomalarga* (Masalan, BMT Nizomi);
- Ishtirokchilar soni chegaralangan *regional yoki partikular xalqaro shartnomalarga* (Masalan, Arab Davlatlari Ligasi Nizomi);

Xalqaro shartnoma *predmetiga ko'ra:*

- *savdo – sotiq, sanoat, transport, aloqa, moliya – kredit* va xokazo sohalardagi *shartnomalarga;*

Xalqaro shartnomada ishtirok etish huquqining kelib chiqishiga ko'ra:

- Shartnomada ishtirok etish uchun uning boshqa ishtirokchilarining roziligi talab etilmaydigan *ochiq shartnomalar*;
- Shartnomada ishtirok etish uchun uning boshqa ishtirokchilarining roziligi talab etiladigan *yopiq shartnomalar*.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yuqoridagilar bilan bir qatorda:

- Davlat rahbarlari tomonidan imzolanadigan *davlatlararo shartnomalar*;
- Huqumat nomidan imzolanadigan *huqumatlararo shartnomalar*;
- *Vazirliklar va idoralararo shartnomalar*ni farqlaydi.

Xalqaro munosabatlar sohasida davlatlararo hamkorlikni nazarda tutuvchi kelishuvlar shartnoma, ahdlashuv, pakt, dekloratsiya, konventsiya, protokol va hokazo nomlar bilan atalishi mumkin. Ammo bu hol ularning mohiyatiga ta'sir etmaydi.

Xalqaro shartnomalarni tuzishda *shartnoma tashabbusi*dan foydalanish, ya'ni biron bir davlat yoki davlatlar guruhining tegishli sohada xalqaro shartnoma qabul qilishni taklif etishi va shartnoma matni loihasini taqdim etishi shartnoma tuzish jarayonini ancha yengillashtiradi. **Xalqaro shartnomalar tuzish** muayyan davrni o'z ichiga oluvchi jarayon bo'lib, ***ma'lum bosqichlarga bo'linadi***:

- shartnoma matnini ishlab chiqish va uni qabul qilish (muzokaralar olib borish, xalqaro konferentsiyalarda muhokama qilish);
- shartnoma meyorlarining majburiyligini tan olish (imzolash, ratifikatsiya qilish).

Xalqaro shartnomalar tuzish qoida tariqasida davlat boshlig'i tomonidan, mamlakat Konstitutsiyasida, boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda yoki davlat boshlig'i tomonidan berilgan vakolatga muvofiq, bunday shartnomalarni imzolash huquqi boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar o'z tarkibi jihatidan asosan uch qismdan: Kirish qismi (preambula), asosiy qism va yakunlovchi qoidalardan iborat bo'ladi.

Shartnomaning kirish qismi (preambula)da uning tuzilgan joyi, vaqti, tomonlari, maqsad va vazifalari belgilab qo'yiladi.

Asosiy qismda uning mazmuni, tomonlari o'z zimmalariga olayotgan majburiyatlarni bajarish vaqti, joyi, usuli, pul majburiyatlari va ularni bajarish kabi shartnoma tuzishdan kelib chiquvchi aniq hatti – harakatlar ko'zda tutiladi.

Shartnomaning yakuniy qismida tomonlar javobgarligi, shartnomani muddatidan avval bekor qilish asoslari va tartibi, uni prolongatsiya (uzaytirish) qilish, unga qo'shimcha va ozgartirishlar kiritish tartiblari, uning ochiq yoki yopiq ekanligi kabi holatlar aks ettiriladi. Vakolatli mansabdor shaxsning imzolari shartnomani yakunlaydi.

Xalqaro shartnomalar yahlit bir xujjatdan iborat bo'lishi yoki turli ilovalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar, odatda, davlat vakolatli mansabdor shaxs (davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i, tarmoq vaziri va xokazo) tomonidan imzolanishi bilan kuchga kiradi. Ammo shartnoma tuzayotgan tomonlar uning kuchga kiritilishi yuzasidan boshqacha muddatlarni belgilashlari ham mumkin. Yuksak milliy va davlat axamiyatiga ega bo'lgan xalqaro shartnomalarni kuchga kiritilishi yuzasidan mahsus tartib belgilanishi mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78 – modda 21 – bandida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan muhim ahamiyatga molik shartnomalari va bitimlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilinmog'I (tasdiqlanmog'i) lozim.

Xalqaro shartnomalar uning ishtirokchisi bo'lgan davlatlar tomonidan bajarish uchun majburiydir.

Xalqaro shartnomalar unda ishtirok etayotgan tomonlar rasmiy davlat tillarida, ularning hohishiga ko'ra ular uchun neytral bo'lgan tilda ham tuziladi. Ko'p tomonlama shartnomalar tegishli xalqaro tashkilotning rasmiy ishchi tillarida tuziladi. Masalan, BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari doirasida tuziladigan xalqaro shartnomalar BMT rasmiy tillari bo'lmish ingliz, frantsuz, nemis, rus va arab tilarida tuzilishi nazarda tutiladi.

Xalqaro shartnomalarni tuzish va ijro etishga oid xalqaro huquqiy qoidalar bir qator xalqaro xujjatlarda belgilab qo'yilgan. Jumladan, "Xalqaro shartnoma huquqi haqida"gi 1969 yilgi Vena Konventsiyasi, BMTning "Tovarlarni xalqaro olish – sotish shartnomalari haqida"gi 1980 yilgi Vena Konventsiyasi shulardandir.

Xalqaro odatlar ham o'z mohiyatga ko'ra xalqaro huquqning asosiy manbalari qatoridan o'rin olgan bo'lib, xalqaro huquq subyektlari tomonidan o'xshash holatlarda uzoq davr mobaynida muntazam takrorlanishi natijasida barqaror hulq-atvor meyorlariga aylangan va majburiy tus olgan hulq-atvor qoidalari sifatida ta'riflanadi.

Xalqaro odatlar xalqaro huquqning asosiy manbalaridan biri bo'lsa-da, uning keng ma'noda talqin etilishi uni huquq manbai sifatida qo'llashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun xalqaro huquq subyektlari XX asr o'rtalaridan boshlab odat normalariga yozma shakl berib, ularni konventsion yoki shartnomaviy meyorlarga ayantirishga harakat qilishmoqda.

Xalqaro sud va arbitraj qarorlari xalqaro huquqning yordamchi manbalari hisoblanib, BMT Xalqaro Sudi, boshqa xalqaro sud va arbitraj organlari qarorlari shular jumlasidandir.

Xalqaro huqumatlararo tashkilotlar rezolutsiyalari ham xalqaro huquq manbalari orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan manba hisoblanib, masalan BMT Xavfsizlik Kengashining majburiy harakterga ega bo'lgan qarorlari xalqaro munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Xalqaro huquq sohasida katta yutuqlarga erishgan, yetuk olimlarning ***qarashlari, fikrlari, doktrinalari*** o'tmishda xalqaro huquq manbalari orasida o'ziga hos o'rin egallagan bo'lib, hozirda ushbu manbaning ba'zi davlatlar nuqtai-nazarini asoslash, xalqaro huquqiy meyorlarni talqin qilishdagi zamonaviy ahamiyatini kamsitib bo'lmaydi.

3.Xalqaro huquqning asosiy sub'ektlari.

Har qanday huquq sohasi kabi xalqaro huquq ham o'z subyektlariga ega. Huquq subyekti bu huquq va majburiyatlarga ega shahsdir. Bevosita xalqaro huquqtartibot qoidalaridan kelib chiqqan huquq va majburiyatlarga ega xalqaro munosabat ishtirokchilari **xalqaro huquqning subyekti** hisoblanadi.

Milliy qonunchilikdan farqli o'laroq, xalqaro huquqda subektlarni huquq layoqatiga ega va muomala layoqatiga ega subyektlarga ajratib bo'lmaydi. Xalqaro huquqiy subyektlik xalqaro huquq subyektining xalqaro munosabatlarda ishtirok etish orqali o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish hamda uning xalqaro huquqtartibotga bo'ysinishida namoyon boladi. Xalqaro huquq subyektlari uchun ularning huquqiy jihat hamda huquq va majburiyatlari hajmining bir hilligi emas, balki ularning xalqaro munosabatlardagi ishtirokining bevosita xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinishi muhimdir.[1]

Xalqaro huquq subyektlari ichki davlat munosabatlarining qatnashchilaridan farqli o'laroq, biron bir yurisdiktsiya ta'siri ostida bo'lmaydilar, o'zlaridan yuqori turuvchi siyosiy hokimiyatga ega bo'lmaydilar. Faqat xalqaro huquq subyektlari xalqaro huquq tartibotni o'rnatish va uni takomillashtirish, xalqaro huquq normalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ushbu normalarni bajarilishini taminlashlari mumkin. Xalqaro munosabatlarda xalqaro huquq subyektlari nomidan mahsus vakillar - mansabdor shahslar ishtirok etadilar.

[1] Международное право. Учебник. М.: «Международные отношения», 2000. 77 бет.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda **xalqaro huquq subyektlarini** bir biridan mustaqil bo'lgan, biron-bir siyosiy hokimiyatga bo'ysinmaydigan, xalqaro qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun yuridik qobilikka ega bo'lgan uyushmalar sifatida ta'riflashimiz mumkin.[1]

Xalqaro huquq subyektlarining ikki turi mavjud: Birlamchi yoki suveren subyektlar; Ikkilamchi yoki suveren bo'lmagan, hosila subyektlar.

Birlamchi yoki suveren subyektlar **qatoriga:** - *davlatlar;* - *o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar* kiradi.

Ikkilamchi yoki suveren bo'lmagan, hosila subyektlar qatoriga: Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar; *Davlat ko'rinishidagi o'ziga hos uyushmalar* kiradi.

Birlamchi yoki suveren subyektlar huquqiy subtektivligi biron-bir tashqi iroda natijasida yoki biron – bir xalqaro ko'rsatma yoki e'tirof bilan belgilanmay, ularning mavjudlig fakti (ipso fakto) ularga halqaro huquq va majburiyat egasi bo'lishini taqazo etadi. ***Birlamchi yoki suveren subyektlar*** xalqaro huquq tartibotni yaratib, ularning o'zaro munosabatga kirishishlari xalqaro huquqning barqaror mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

Ikkilamchi yoki suveren bo'lmagan, hosila subyektlarning huquqiy subyektliligi suveren davlatlarning, kelishuvlari, o'zaro imzolagan bitimlari asosida belgilanib, ularning xalqaro munosabatlardagi harakatlar erkinligi Nizom yoki boshqa ta'sis hujjatlari bilan belgilanib, ushbi hujjatlarning o'zgartirilishi yoki tugatilishi ***hosila subyektlar***ning huquqiy subyektliligining o'zgartirilishi yoki tugatilishiga olib keladi.

Davlatlar xalqaro huquqning asosiy suveren subyektidir. Bunda davlatning suverenligi uning xalqaro huquq subyekti sifatida namoyon bo'lishi uchun asosiy talab hisoblanadi. Hozirgi davrda *suveren davlatlar tashkil etilishining bir necha usullari* mavjud:

- Sotsial inqiliob natijasida;
- Milliy ozodlik kurashi va mustamlaka zulmining tugatilishi natijasida (II –Jahon urushidan so'ng 90ga yaqin mamlakat mustaqillikka erishgan);
- Bir qancha davlatlarning unitar yoki federativ tarzda bir davlatga birlashishi natijasida (Masalan, 1960 yilda Tanganika va Zanjibarning qo'shilishi natijasida Tanzaniya Birlashgan Respublikasi vujudga keldi);
- Mavjud davlat hududidan bir qismining ajralib chiqishi natijasida (1947 yilda Hindistonning shimoliy qismida Pokistonning vujudga kelishi, 1971 yilda Sharqiy Pokistondan mustaqil davlat sifatida Bangladeshning ajralib chiqishi);
- Davlatning bir necha mustaqil davlatlarga bo'linib ketishi natijasida (Masalan, SSSRning bo'linib ketishi natijasida qator mustaqil davlatlarning vujudga kelishi)[2]

Barcha davlatlar teng ravishda xalqaro huquqiy subyektlikka ega bo'lib, xalqaro munosabatlarda ishtirok etish bilan bog'liq **barcha huquq va majburiyatlarga teng ravishda ega bo'ladilar.** Hususan davlatlar:

- Boshqa davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan aloqaga kirishish;
- Boshqa davlatlar bilan diplomatic va konsullik munosabatlarni amalga oshirish va o'zi a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlar huzurida vakolatxonalar saqlashi;
- Xalqaro shartnomalar tuzish yoki xalqaro huquqiy normalarni yaratishda boshqa biron – bir tarzda ishtirok etish;
- Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga a'zo bo'lish va xalqaro konferentsiyalarda qatnashish;
- O'z huquqiy subyektliligini himoya qilish.

[2] A. Mamatqulov. Xalqaro huquq. T.: "Adolat", 1997 yil, 21 bet.
[2] A. Mamatqulov. Xalqaro huquq. T.: "Adolat", 1997 yil, 24 bet.

O’z mustaqilligi uchun kurashayotgan millatlar va xalqlar mustamlakachilarga qarshi ozodlik kurashi jarayonida o’z taqdirini o’zi belgilash huquqini qo’lga kirita borib, xalqaro munosabatlarning mustaqil ishtirokchilari sifatida maydonga chiqmoqda. Ularning huquqiy subyektliligi boshqa subyektlarning irodasi va mayliga bog’liq bo’lmay, ular o’z taqdirini o’zi belgilash huquqi asosida erkin ifodalangan irodalariga binoan o’z siyosiy maqomlarini o’rnatadilar.[1]

Millatlar va xalqlarning tenghuquqligi va o’z taqdirini o’zi belgilash tamoilidan foydalanish ushbu tamoilga rioya qiladigan, millatlar va xalqlarning manfaatlarini davlat boshqaruv organlari darajasida himoya qiladigan va ta’minlaydigan, millatlar va xalqlar vakillarining davlat boshqaruv organlarida ishtirokini ta’minlaydigan davlat hududiy yahlitligi va siyosiy birligiga ziyon keltirishi mumkin emas.

O’z mustaqilligi uchun kurashayotgan millatlar va xalqlarning xalqaro huquqiy subyektliligi o’z yuridik tabiatiga ko’ra davlatlarning xalqaro huquqiy subyektliligiga yaqin turib, hali o’z davlatini tuzmagan millat kurash jarayonida shakllangan, xalqning suveren irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi arafasida tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshiruvchi siyosiy organ orqali xalqaro huquq subyekti bo’la oladi. Bularga ozodlik urushlari sharoitida muvaqqat revolutsion hukumatlar, ozodlik kurashlarining tinch metodlari qo’llanilgan sharoitda - muvaqqat vakillik organlaridir.

O’z taqdirini o’zi belgilash tamoilidan kelib chiqqan holda o’z **mustaqilligi uchun kurashayotgan millatlar va xalqlar:**

- Davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqaga kirishish;
- Davlatlar bilan muzokara olib borish, xalqaro tashkilotlar va xalqaro konferentsiyalar ishida qatnashish uchun rasmiy vakillar yuborish;
- Xalqaro huquqiy normalarni yaratishda ishtirok etish va amaldagi normalarni mustaqil bajarish;
- O’z mustaqilligi uchun kurash jarayonida xalqaro huquqiy muhofazadan foydalanish va davlatlar, xalaro tashkilotlar, shuningdek o’z mustaqilligi uchun kurashayotgan boshqa millatlar va xalqlardan zarur yordam olish **huquqlariga** egalar.

Hozirda falastin xalqi o’z qonuniy milliy huquqlari qondirilishiga va mustaqil falastin davlatini barpo etishga intilmoqda. Falastin xalqining xalqaro subyektliligini amalga oshirayotgan Falastin Ozodlik Tashkiloti BMT huzurida doimiy kuzatuvchu maqomiga ega bo’lib, Arab Davlatlari Ligasiga a’zolikni qo’lga kiritgan.

Xalqaro hukumatlaroaro tashkilotlar – muayan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan, tegishli organlar tartibiga, tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo’lgan hamda xalqaro huquqqa binoan ta’sis etilgan davlatlarning uyushmasidir.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar ikkilamchi yoki suveren bo’lmagan, hosila subyektlar hisoblanib, ularning huquqiy subyektliligi, xalqaro munosabatlardagi harakatlar erkinligi ularni ta’sis etuvchi suveren davlatlarning xohish –irodasi, kelishuvlari, o’zaro imzolagan bitimlari asosida Nizom yoki boshqa ta’sis hujjatlari bilan belgilanadi. (Masalan, 1945 yilda tashkil etilgan BMT, huddi shu yili tashkil etilgan Arab Davlatlari Ligasi, 1963 yilda tashkil etilgan Afrika Birligi Tashkiloti). Xalqaro tashkilot davlatlararo shartnoma asosida emas, balki xalqaro tashkilot organining qarori asosida ham tashkil etilishi mumkin (Masalan, 1946 yilda tashkil etilgan Butun jahon sog’liqni saqlash tashkiloti, 1947 yilda tashkil etilgan Fuqarolik Aviatsiyasi xalqaro tashkiloti, 1956 yilda tashkil etilgan Atom Energiyasi bo’yicha Xalqaro Agentlik, 1965 yilda tashkil etilgan BMTning sanoatni rivojlantirish bo’yicha tashkiloti).

[1] BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1960 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Mustamlaka mamlakatlarga va xalqlarga mustaqillik berish to’g’risida”gi Deklaratsiya.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning huquqiy subyektliligi ta'sis hujjatlarida belgilangan maqsad va vazifalar bilan cheklangan bo'lganligi sababli funktsional hususiyatga ega.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, davlatlardan farqli o'laroq, suverenitetga, hududlar va aholiga ega bo'lmaydilar va hudud bo'yicha boshqaruvni amalga oshirmaydilar. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar hohish – irodasi bu tashkilotga a'zo davlatlar hohish – irodasi mazmuni bilan belgilanadi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar unga a'zo bo'lgan davlatlar huquqlari va majburiyatlaridan farq qiluvchi mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. **Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar** quyidagi **huquqlar**dan **foydalanadilar:** bitimlar tuzish; imtiyoz va immunitetlarga ega bo'lish; vakolatlikka ega bo'lish.

Davlat ko'rinishidagi o'ziga hos uyushmalar ham ikkilamchi yoki suveren bo'lmagan, hosila subyekt hisoblanib, bunday siyosiy - hududiy uyushmalar to'liq mazmundagi suverenitetga ega bo'lmasa-da, ichki boshqaruvni mustaqil tarzda olib boradi.

Ushbu subyektlarning huquqiy subyektliligi ham suveren davlatlarning, kelishuvlari, o'zaro imzolagan tinchlik bitimlari asosida belgilanadi. Bunday bitimlar davlat ko'rinishidagi o'ziga hos uyushmalarning xalqaro huquqiy subyektliligini, mustaqil konstitutsion tuzumini, davlat boshqaruv organlari tizimini, huquqiy meyorlar ishlab chiqarish, cheklangan xarbiy kuchlarni tashkil etish huquqlarini belgilab beradi. Masalan, 1915 yilgi Vena traktatiga binoan Krakov shahri Rossiya, Avstriya va Prussiya himoyasi ostidagi erkin va mustaqil shahar deb e'lon qilingan (uning bunday maqomi 1946 yilgacha saqlangan edi), 1919 yilgi Versal tinchlik shartnomasi Dantsik (Gdansk) shahrini "erkin davlat" deb e'lon qilgan edi (1920 -1939 yillar davomida), 1971 yilda SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Frantsiya tomonidan imzolangan to'rttomonlama bitim G'arbiy Berlinga nisbatan ham "erkin shahar" maqomini belgiladi. Hozirda 1929 yilning 11 fevralida Italiya va Muqaddas that o'rtasida imzolangan Lateran shartnomasi asosida davlat- shahar maqomi berilgan Vatikan xalqaro huquqning subyekti sifatida tan olinib, Vatikanning huquqiy subyektliligi uning Katolik cherkovini mustaqil boshqarib turish markazi ekanligi va dunyo siyosatidagi o'rni bilan belgilanadi. Xalqaro huquqning subyekti sifatida Vatikan hozirda 165dan ziyod davlatlar bilan diplomatik va rasmiy munosabatlarni o'rnatgan, ko'pgina xalqaro shartnomalarda ishtirok etib, BMT, YuNESKOning rasmiy kuzatuvchisi maqomiga ega.

O'zbekiston xalqaro huquq sub'ekti sifatida.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi unga xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti maqomini berdi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq Respublikamiz xalqaro huquning umume'tirof etilgan tamoillariga asoslangan holda o'z siyosatini olib bormoqda. "Biz tashqi siyosatimizni shakllantirishda Konstitutsiyaviy tamoillarga tayanyapmiz. Bu - tashqi munosabatlarda ochiq, teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik qilish, xalqaro huquqning umue'tirof etilgan qoidalariga rioya etsh demakdir".[1]

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatini:

- davlatlarning suveren tengligi;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- chegaralarning dahlsizligi;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- bochqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoillari va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari asosida olib boradi.[2]

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini

[1] Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. –T.: "O'zbekiston", 1993, 25 bet.
[2] O'R Konstitutsiyasining 17- modasi.

ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo’stliklarga va boshqa davlatlararo tizilmalarga kirishi va ulardan ajrab chiqishi mumkin.

Mustaqillik yillarida O’zbekiston 120dan ziyod davlat bilan diplomatik aloqalarni o’rnatdi. Oshkentda 35ta davlatning elchihonasi ochildi, 19ta davlat elchilari esa O’zbekiston Respublikasida o’rindoshlik asosida faoliyat yurgizyapti. Respublikada 88ta xorijiy vakolathonalar akreditatsiyadan o’tgan, 24 hukumatlararo va 13ta hukumatlarga tegishli bo’lmagan tashkilotlar faoliyat olib bormoqda.

O’zbekiston Respublikasi tashqi faoliyatining huquqiy asoslari yaratilib, hususan “O’zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to’g’risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta’minlab beruvchi davlat organlari tizimi qayta shakllantirildi. Tashqi ishlar vazirligining funktsiyalari va faoliyatining yo’nalishlari o’zgartirildi. Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini yo’lga qo’yish va rivojlantirish maqsadida Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki tashkil etildi, tashqi savdo bilan shug’ullanuvchi firmalarning mahsus tizimi shakllantirildi, horojiy bank va kompaniyalarning 260dan ziyod vakolatxonalari ochildi.

O’zbekiston xalqaro huquqning to’la huquqli subyektliligi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi, uning Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tashkilotlariga a’zo bo’lishida, Yevropada Xafvsizlik va Hamkorlik tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etishida namoyon bo’ladi.

O’zbekiston o’z mustaqilligini tobora mustahkamlab, jahon hamjamiyatida munosib o’ringa, obru – e’tiborga ega bo’lib borayotgan bugungi kunda xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan turli aloqalar o’rnatish, hamkorlikni kuchaytirish o’ta muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalardan biriga aylanmoqda. Umumjahon xo’jalik tizimlariga kirishning, butun dunyo miqyosidagi iqtisodiy jarayonlarga tobora kengroq qo’shilishning asosiy huquqiy shakli bo’lib Respublikamizning boshqa davlatlar bilan o’rnatadigan shartnomaviy aloqalari xisoblanadi. Davlatlararo shartnomalarga oid xalqaro huquq normalarini bilish, shartnoma tuzish jarayonini chuqur anglab yetish O’zbekistonni xalqaro hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirishning, davlatimiz manfaatlari va xavfsizligini samarali ximoya qilishning ishonchli va ta’sirchan vositasidir.

O’zbekiston jahon hamjamiyati tan olgan, umume’tirof etilgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, xalqaro huquqiy meyorlarni o’z qonunchiligida aks ettirmoqda.

XULOSA.

Davlatimizning suverenitetga erishishi o’z tashqi siyosatini mustaqil amalga oshirish, jahon hamjamiyatiga kirib borish, BMT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’lish, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o’zaro manfaatli munosabatlar o’rnatish imkonini berdi. Hozirda O’zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarining faol ishtirokchisi sifatida jahon hamjamiyatida o’zining salmoqli o’rniga ega bo’lib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarni mustahkamlash, shartnomaviy va diplomatik amaliyotni kengaytirish bilan bir qatorda Respublikamiz umuminsoniy global muammolarni xalqaro darajada hal qilishda o’zining mustaqil fikri bilan jahon hamjamiyatining e’tiborini o’ziga qaratmoqda.

«O’zbekistonning tashqi siyosati borasidagi faoliyatining asosini davlat milliy manfaatlarining ustuvorligi, xalqaro huquq mezonlari, tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch munozaralar yo’li bilan hal etish kabi jahon miqyosida e’tirof etilgan tamoyillar tashkil etadi» - degan edi yurtboshimiz I.A.Karimov.[1]

[1] Karimov I.A. Ozod va Obod vatan , erkin va farovon hayot – pirovatd maqsadimiz. T.6. T.: “O’zbekiston”, 2000 , 30-31 - betlar.

Bunday sharoitda xalqaro huquq sohasidagi bilimlarni talaba yoshlar orasida keng targ'ib etish juda muhim. Xalqaro huquq kishilik sivilizatsiyasining yutug'i, umuminsoniy qadriyat va xozirgi zamon jahon tartibotining huquqiy asosidir. BMT xalqaro munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquqning ustunligini, uni o'rganish, targ'ib qilish, o'qitish va yoyish zarurligini alohida e'tirof etadi. Bugungi kunda xalqaro huquqiy savodhonlikni oshirish, xalqaro huquqni o'rganishni rag'batlantirish va xalqaro huquqiy bilimlarni aholi o'rtasida keng yoyish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, talaba yoshlarga ham xalqaro huquq haqidagi tushunchalar qisman bo'lsada o'rgatilishi lozim deb xisoblanadi. Bu mavzuni kengaytirilgan holda o'rganish uchun talabalarga A.X.Saidov, R.T. Xakimov, K.Mirzajanov, R.A. Tuzmuxamedov va boshqa mutaxassis yurist olimlar tomonidan tayyorlangan «Xalqaro huquq» faniga oid darslik, o'quv qo'lanma, o'quv - uslubiy tavsiyalarni o'rganishni tavsiya etamiz.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Xalqaro huquqning huquq tarmog'i sifatida ta'rifi va o'ziga hos hususiyati qanday?
2. Xalqaro huquq va davlatning ichki huquqi nisbati nimada?
3. Xalqaro huquq davlatlarning tashqi siyosati va diplomatiyasida qanday o'ringa ega?
4. Xalqaro huquqiy meyorlar yaratilishining o'ziga hos jihati nimada?
5. Xalqaro huquq tamoyillari mazmuni nimadan iborat?
6. Xalqaro huquqning qanday manbalarini bilasiz?
7. Xalqaro shartnoma qanday tuziladi va rasmiylashtiriladi?
8. Xalqaro huquqiy subyektlilik deganda nima nazarda tutiladi?
9. Xalqaro huquqning birlamchi va ikkilamchi subyektlari orasida qanday mutanosiblik mavjud?
10. O'Rning xalqaro huquqiy subyektliligining qanday huquqiy asoslari mavjud?

QONUN VA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: "O'zbekiston". 2000.
2. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: "O'zbekiston", 1993.
3. O'R Konstitutsiyasi.
4. BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1960 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Mustamlaka mamlakatlarga va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risida"gi Deklaratsiya.
5. Mamatqulov A. Xalqaro huquq. T.: "Adolat", 1997 yil,
6. Международное право. Учебник. М.: «Международные отношения», 2000.
7. Saidov A.X. Xalqaro huquq.Darslik. 2-tom. T.: "Adolat", 2001.
8. Saidov A.X. Xalqaro huquq tushunchasi va mohiyati. Uquv qo'llanma. T.: "Adolat",2000.
9. A.X Saidov. Xalqaro huquq sub'ektlari. T.2000.
10. Tuzmuxamedov R.A., Xakimov R.T. Основы международного права. – T.: «Мир Экономики и права». 1998.
11. «Международное право». Под ред. Г.В. Игнатенко. М.,1995.
12. «Международное право». Отв. ред. Г.И.Тункин. М.,1994.
13. www.gov.uz
14. www.edu.uz
15. www.zivo.tdu.uz

KONSTITUTSIYA VA UNING DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarga "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish" fanining asosiy maqsad va vazifalari, mazmuni to'g'risida

tushuncha berib, ushbu fanning talabalarning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish.

Tushuncha va tayanch iboralar: Konstitutsiya, davlatning asosiy qonuni, konstitutsiyaviy tuzum, inson huquqlari, davlat hokimiyat organlari, ichki va tashqi siyosat tamoillari, konstitusyai funksiyalari, yuridik konstitutsiya, formal konstitutsiya, yozilgan va yozilmagan konstitutsiya.

Asosiy savollar:

1. Konstitutsiya tushunchasi, mohiyati va funksiyalari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari.

“Aqliy xujum” savollari:

1. Konstitusiya deganda Siz nimani tushunasiz?
2. Konstitusiya axamiyati kanday?
3. Qabul qilingan Asosiy qonunni nima uchun mustaqil O’zbekistonning birinchi Konstitusiyasi deyapmiz? Nima, oldingi konstitusiyalar O’zbekistonniki emasmi?

1. Konstitusiya tushunchasi, mohiyati va funksiyasi.

«O’zbekistonimizning mustaqil taraqqiyot yillarida erishgan barcha-barcha yutuq va marralari, uning ulkan sur’atlari bilan o’sishi avvalo, Konstitusiyamizning xayotbaxsh qudrati va salohiyatini, unda mujassam bo’lgan prinsiplar, qoida va normalarning naqadar chuqur o’ylangani, har tomonlama mustahkam asosga ega ekanini yaqqol namoyon etadi– deb asosli ta’kidlaydi yurtboshimiz Islom Karimov».

«Konstitusiya» atamasi lotincha so’z bo’lib «conctituto» – nizom, qoida, qonun ma’nosini bildiradi va Qadimgi Rimda vujudga kelgan va o’sha vaqtlarda Rim imperatorlarining farmonlarini ifodalash uchun ishlatilgan.

Hozir qo’llaniladigan ma’nodagi konstitusiyalar XVSH asrdagi burjua inqiloblari davrida vujudga kelgan. Konstitusiyaga davlat hokimiyatini cheklash hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyalanishini ta’minlashga mo’ljallangan hujjat sifatida qaralgan.

Ilk rasmiy rasmiy ravishdagi Konstitusiya 1787 yilda AQSHda paydo bo’lgan. 1791 yilda Fransiya, 1793 yilda Pol’sha Konstitusiyalari qabul qilingan.

Konstitusiya, shakliga ko’ra, ***bir*** yoki ***bir necha*** yozma normativ-huquqiy hujjatdan iborat bo’lishi mumkin. Masalan, SHvesiya Konstitusiyasi bir xildagi oliy yuridik kuchga ega bo’lgan uchta normativ-huquqiy *hujjatlarning yig’indisi* (kodifikasiyalanmagan konstitusiyalar) shaklida ifodalangan – 1974 yilgi Boshqaruv shakli, 1810 yilgi Taxt vorisligi to’g’risidagi, 1974 yilgi Matbuot erkinligi to’g’risidagi hujjatlar.

YOzma konstitusiyalar bilan bir qatorda *yozilmagan* (qisman yozma) *konstitusiyalar* ham uchraydi. Misol sifatida Buyuk Britaniyaning parlament qonunlari, sud presedentlari va odatlar (konstitusiyaviy bitimlar)dan iborat konstitusiyasini keltirish mumkin.

Konstitusiya oliy yuridik kuchga ega bo’lgan hamda inson va davlat o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni, davlatning tizilishi va davlat hokimiyatining tashkil etilishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat sifatida ta’riflash mumkin.

O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi *oliy yuridik kuchga ega bo’lgan, konstitusiyaviy tuzum asoslarini, inson va fuqaro huquqiy holatining asoslarini, davlat hokimiyati tizimini, mahalliy o’zini o’zi boshqarish prinsiplarini mustahkamlaydigan normativ-huquqiy hujjatdir (prof. X.Odilqoriev).*

Konstitusiyaning ***mohiyati*** *u qabul qilinayotgan vaqtda turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar o’rtasida davlatning jamiyat va shaxs hayotiga aralashuvini cheklashga oid eng asosiy masalalar bo’yicha erishiladigan ijtimoiy kelishuv yoki bitimni ifodalashidadir.*

«Konstitusiya o’zining tub mohiyati, falsafasi, g’oyasiga ko’ra yangi xujjatdir, - deb baho berdi mamlakatimiz Prezidenti. -Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar

ham yo'q. **Konstitusiya jahon konstitusionalizmi tajribasiga keng tayanish va uning ijobiy jihatlaridan bahramand bo'lish asosida yaratilgan.**

Konstitusiyaning qo'yidagi funksiyalarini ajratish mumkin:

– yuridik funksiya;

– siyosiy funksiya;

– mafkuraviy funksiya.

Konstitusiyaning *yuridik funksiyasi* uning uchun huquqiy tizim uchun asosiy huquqiy manba ekanligida huquqiy tizimning o'zagini tashkil etishida namoyon bo'ladi.

Konstitusiyaning *siyosiy funksiyasi* shundan iboratki, u davlat hokimiyatining tashkil etilishi asoslarini, davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, umuman, siyosiy tizimning ishlash prinsiplarini belgilab beradi.

Konstitusiyaning *mafkuraviy funksiyasi* jamiyatning ma'naviy turmushiga muayyan siyosiy va huquqiy g'oyalarni, tasavvurlar va qadriyatlarni singdirishida namoyon bo'ladi.

Konstitusiyaning ichki tuzilishi – konstitusiya tarkibidagi qismlar joylashuvining ketma-ketligidan kelib chiqadigan tuzilishidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining tuzilishi *muqaddimada, olti bo'lim va 128ta moddani o'z ichiga olgan yigirma olti bobdan tashkil topgan. SHuningdek, Asosiy qonunimizda xulosa va o'tish qoidalarini aks etilgan.*

Masalan, *O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining muqaddimasiga muvofiq, mamlakatimiz oldidagi asosiy maqsad – demokratik huquqiy davlat qurish, shuningdek ana shunday davlatchilik uchun ijtimoiy-siyosiy makon vazifasini o'tovchi fuqarolik jamiyatini barpo etishdir.*

2.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yaratilishi va xususiyatlari.

Har qanday Konstitusiya muayyan tarixiy davrning, ijtimoiy-siyosiy tuzumning in'ikosi, tegishli davlat hokimiyati ijodining mahsulidir. Biron bir Konstitusiya adabiylikka, o'zgarmas-muqimlikka, mutlaqlikka da'vogarlik qilolmaydi. Basharti, Konstitusiya jamiyat ehtiyojlariga, o'ziga yuklatilgan ijtimoiy vazifa talablariga javob bermay qo'ysa konstitusiyaviy islohot zaruriyati kelib chiqadi. O'zbekiston Konstitusiyasining bugungi xolatiga kelishda bir qancha islohotlar bosqichidan o'tgan.

O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida 1924 yil 16 sentyabr' kuni O'zbekiston SSR tashkil topgan. Keyinchalik 1927 yil 30 martda II umumo'zbek Sovetlar s'ezdida O'zSSRning birinchi konstitusiyasi tasdiqlandi. Ushbu Konstitusiyaga bir necha marotaba o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekistonning konstitusiyaviy islohotning bosqichlari:

– Konstitusiyaviy islohotning ***birinchi bosqichi****ni O'zbekiston halqi sobiq Ittifoq tarkibidagi vaqti tashkil etadi (1936-1937 va 1977-1978 yillar).*

– Konstitusiyaviy islohotning ***ikkinchi bosqichi*** *31 avgust 1991 yildan to 8 dekabr 1992 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.*

– O'zbekistondagi konstitusiyaviy islohotning va taraqqiyotning ***uchinchi bosqichi*** *Respublikamizning birinchi Konstitusiyasini qabul qilinishi bilan boshlanadi.*

XX asrning 90-yillari boshlarida sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida sosialistik tuzum barbod bo'ldi. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy tuzum o'zgardi. O'zbekiston mustaqil suveren davlatga aylandi. Bunday sharoitda sovet tuzumi davrida qabul qilingan eski konstitusiya asosida yangicha hayotni qurish mumkin emas edi.

SHuning uchun ham *1990 yilning iyunida Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida yangi Asosiy Qonun loyihasini tayyorlash uchun Konstitusiyaviy Komissiya tuzildi.*

Loyihaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti 1991 yil noyabrgacha tayyorlab berildi. l.A.Karimov bu loyiha bilan tanishib chiqib, kam ish qilinganligi to'g'risida gapirdi ya yo'llanma berib, bo'lg'usi loyihaning shakl-tamoyillariga oydinlik kiritib berdi.

Loyihaning ikkinchi ishchi varianti 149-moddadan iborat bo'ldi. Respublika Prezidenti yana qo'liga qalam olib, rnatnni yaxshilab ko'rib chiqdi. Shu tariqa Konstitutsiya komissiya raisining nigohidan o'tgach, loyiha lo'nda va ifodali bo'lib bordi.

Uchinchi qilingan variant 137-moddani tashkil qilar edi. Matbuotda e'lon qilinishi oldidan yana bir bor diqqat bilan o'rganilib, 127-moddadan iborat tartibda, mazmundor qilib tuzildi. *O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy komissiyasining 1992 yil 5 sentyabrda bo'lib o'tgan majlisida Konstitusiya loyihasi atroflicha muhokama qilindi va 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Konstitusiya loyihasining umumxalq muhokamasi sentyabr oxiridan to dekabr oyining boshlarigacha davom etdi.*

Umumxalq muhokamasi davomida Konstitusiya loyihasi yuzasidan jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Loyihadagi 127 moddadan 60 tasiga tuzatish va aniqliklar kiritildi.

O'zbekiston Prezidenti Asosiy Konstitusiyani «xalqchil qomus» deb atadi. *«Uning loyihasi ustida, – dedi yurtboshimiz, – taxminan ikki yil davomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasi durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi»*[1].

Nihoyat, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 1992 yil 8 dekabrda parlament – XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining asosiy prinsiplari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining mohiyati davlatning talablarini aks ettiruvchi qo'yidagi asosiy prinsiplar tizimi orqali ochib beriladi:

1) davlat suvereniteti

2) xalq hokimiyatchiligi

3) konstitusiya va qonunning ustuvorligi

4) tashqi siyosat.

Mazkur konstitusiyaviy prinsiplarning asosiyligi, ularning boshqa prinsiplardan ustunligini va oliy kuchga egaligidan dalolat beradi.

Huquq nazariyasida suverenitetning qo'yidagi turlari ajratiladi: davlat, xalq va milliy suverenitet.

Davlat suveriniteti *prinsining mazmuni Konstitusiyaning birinchi bobida aks etgan. Mazkur prinsip o'z ichiga davlat, millat va xalqning suvereniteti (1,2,3,4-moddalar), davlat ramzlarini (5-modda) qamrab olgan.*

*Davlat suvereniteti deganda, davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning mamlakat ichkarisida ham, xalqaro maydonda boshqa davlatlarga nisbatan ham to'la mustaqilligi tushuniladi. Demak, s*uveren davlat hokimiyatining asosiy xususiyati uning mustaqilligi hisoblanadi. Davlat hokimiyatining mustaqilligi, shu davlatning boshqa davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri, bevosita munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasini suveren davlat sifatida Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklarasiya (1991 yil 31 avgust) tavsiflaydi. Deklarasiyada ko'rsatilishicha, u mustaqil O'zbekiston Konstitusiyasini yaratish uchun asos bo'ladi. Deklarasiyaning bu qoidasi 1992 yil 8 dekabrda amalga oshirildi.

Mamlakat hududining yaxlitligi-davlat suverenitetining muhim belgisidir (O'zR Konstitusiyasining 3-moddasi). Mazkur konstitusiyaviy qoida davlatimizga tashqaridan bo'ladigan munosabatlarga nisbatan qaratilgandir.

Davlat tilining konstitusiyaviy ta'kidlanishi bu davlatning milliy suverenitetiga ega bo'lishidir. O'zR Konstitusiyasining 4-moddasiga muvofiq mamlakatimizda davlat tili tariqasida – o'zbek tili e'tirof etilgan.

---

[1] *Karumov И. А.* Ўзбекиston – kelajagи buюk davlat. – T.: Ўzbekиston, 1992. – 37-bet.

Davlatning suverenligini belgilaridan biri, bu uning milliy davlatchilikning ramzlariga ega bo'lishidir. ***O'zbekiston davlatining ramzalariga*** *– gerb, bayroq va madhiya kiradi.* Ushbu ramzlarning maqomi tegishli qonunlarga muvofiq belgilanadi. Masalan, davlat gerbi va bayrog'ining(250^{x}125) ko'rinishi, qaysi joylarda tasvirlanishi va soilishi yohud madhiyaning qaysi paytlarda ijro etilishi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston *Respublikasi ramzalariga behurmatlik qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlarida javobgarlik belgilangan* (masalan, JKning 215-moddasi, ya'ni "Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish" uchun maksimal jazo tariqasida uch oygacha qamoq jazosi nazarda to'tilgan).

SHunday qilib, Konstitusiyada O'zbekistonning suveren davlat ekanligi qonuniy mustahkamlangan.

Konstitusiya **xalq hokimiyatchiligi prinsipiga** *asoslanadi va uni mustahkamlaydi. YA'ni butun hokimiyatni xalqqa tegishliligini va hokimiyatni bilvosita va bevosita amalga oshirilishini bildiradi (O'zR Konstitusiyasining 7-moddasi).* Konstitusiyaning 7-moddasiga binoan, O'zbekistonda davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalqdir va ushbu hokimiyat xalq manfaatlarini hisobga olib amalga oshiradi.

Asosiy qonunda real xalq hokimiyatchiligining mexanizmlari ko'rsatilgan. *Xalq saylovlar yordamida:*

– vakillik hokimiyati organlarini shakllantiradi,

– mamlakat Prezidentini saylaydi,

– umumxalq muhokamasi va referendumlari orqali (9-modda) jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, qarorlar va qonunlarni qabul qilishda qatnashadi.

Bu holda xalqning suveren xoxish- irodasini ifodalashning asosiy institutlari ro'yobga chiqadi va xalq tomonidan davlat hokimiyatini amalga oshirish vositalari konstitusiyaviy tartibda mustahkamlanadi.

Konstitusiya va qonunning ustuvorligi davlat-huquqiy qurilishning prinsipi sifatida, hech bir qonun yoki boshqa normativ-huquqiy akt Konstitusiyaning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emasligini bildiradi (16-modda). Konstitusiya talablarini qandaydir qonunlar va boshqa huquqiy aktlarni ro'kach qilib bajarmaslikka yo'l qo'yilmaydi. Konstitusiya va qonunlar har bir fuqaro uchun, har bir huquq sub'ekti uchun oliy qadriyat bo'lishi lozim. SHunga erishish uchun Konstitusiya va qonunlar insoniy, adolatli va demokratiya ruxida, zamonaviy shart-sharoitlar va ehtiyojlarga javob beradigan tarzda bo'lishi lozim. Faqat shu sharoitdagina ular so'zsiz bajariladi.

Konstitusiya Asosiy Qonun sifatida mamalakatning normativ-huquqiy aktlari tizimida ustuvorlikka ega. Uning normalari oliy yuridik kuchga ega. Boshqa barcha qonunlar va huquqiy aktlar Konstitusiya asosida qabul qilinishi lozim. Bu ma'rifiy jamiyatning asosiy talabidir.

Konstitusiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash alohida himoya mexanizmining mavjud bo'lishini taqazo etadi. SHu maqsadda Konstitusiyaviy sud u Konstitusiyaning 108-moddasiga binoan, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlarini Konstitusiyaga qanchalik mos kelishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Konstitusiyaviy sud a'zolari mustaqil bo'lib, faqat Konstitusiyaga bo'ysunadilar.

NAZORAT UChUN SAVOLLAR

1. Konstitutsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni qanday?
3. Konstitutsiyani qabul qilish ehtiyoji nima bilan bog'liq?
4. Konstitutsiyalarning mazmunan takomillashib borishining sababi nimada?
5. Konstitutsiyalarning rivojlanish bosqichlari qanday?
6. Konstitutsiyalarning qanday turlarini bilasiz?
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zgartirish tartibi qanday?

ADABIYoTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning xukukiy kafolati. T.: Shark, 1993.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston, 2005,
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2001.
1. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси//Халқ сўзи, 2013 йил 8 дек.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.: Uzbekiston, 2001.
5. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. «Halk so‘zi», 05.01. 2001.
6. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi 1991 yil 31 avgustdagi Konstitutsiyaviy Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000.
7. Mustaqillik deklaratsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi Qonuni. 1996 yil 29 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari: Xrestomatiya.–T.: Adolat, 2000.
9. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.
10. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.
11. Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriev. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T.:Sharq, 2001.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLIKLARI VA BURCHLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda inson huquq va erkinliklari tushunchasi, ularning inson hayotidagi yuksak ahamiyati, demokratik huquqiy davlat hamda inson huquqlari va erkinliklari tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, talabalarning inson huquqlari to‘g‘risidagi bilimlarning huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish.

Tushuncha va tayanch iboralar: Inson, fuqaro, huquq, erkinlik, tabiiy huquq, pozitiv huquq, shaxsiy huquqlar, siyosiy huquqlar, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar, inson huquqi va erkinliklari kafolatlari, fuqorlik, fuqorlikning kelib chiqishi, qon huquqi, yer huquqi, fuqorlikning tugatilishi.

Asosiy savollar:

1.Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari tushunchasi hamda ularning turkumlari.

2. O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari.

3.Fuqarolik tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi.

“Aqliy xujum” savollari:

1. Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari deganda nima tushuniladi?
2. O’zbekiston Respublikasi Konstititsiyasida inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining ifoda etilishi xususiyatlarini yoriting.
3. Inson huquqlari turlaridan qaysilarini bilasiz?
4. O’zbekiston Respublikasi fuqarosi kim bo’lishi mumkin?
5. Fuqarolik masalalari bilan qaysi davlat organlari shug’ullanadi?

1.Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari tushunchasi hamda ularning turkumlari.

Insoniyat, jamiyat va aloxida bir inson o‘ziga xos moddiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaat egasi. Manfaat va ehtiyoj esa qondirilishi lozim. Aynan manfaat va ehtiyojlarni qondirish maqsadida insoniyat tarixining turli bosqichlarida inson xuquqlari uchun kurash olib borilgan. Va shu ma’noda inson xuquqlarini inson manfaat va ehtiyojini qondirish vositasi sifatida, ularning davlat qonunlarida nechohlik ifoda topganidan esa ushbu davlatda insoning tutgan o‘rni, uning xuquqiy holati tug‘risida baho berish mumkin. Zero, ***insonning xuquqiy holati*** deganda davlat tomonidan tan olinib kafolatlangan insonga tegishla xuquq, erkinlik va burchlar majmuini tushunamiz.

Inson xuquqlari deganda xar bitta shaxs ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy imkonyatlarni, ya’ni insonning o‘z ehtiyojlari qondirish va huquqiy manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida sodir etishi mumkin bo‘lgan qonuniy xarakatlar majmuini tushunsak, ***erkinlik*** deganda esa insonning tabiat va ijtimoiy hayotning qonunlaridan mustaqil, holi ekanligini emas balki, ularni o‘rganib, o‘z ehtiyoj va manfaatlari yo‘lida foydalanishini, o‘zlarining fikr va qarashlaridan kelib chiqqan xolda mustaqil xarakatlanishini tushunamiz.

Inson **burchlari (majburiyat)-** sodir etishi lozim bulgan xatti-xarakatlar majmui.

Inson huquqlari – inson shaxsi va turmushining tarkibiy qismi. Shu bois, inson huquqlari konsepsiyasining shakllanish jarayoni jamiyatning taraqqiyot tarixi bilan uzviy bog‘liq holda, uzoq tadrijiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi.

Fransiyada 1789-yili qabul qilingan "Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi" tarixiy konstitutsiyaviy hujjatlar orasida muhim o‘rin egallaydi. Inson huquqlari g‘oyasi o‘zining uzoq tarixiy ildizlariga ega. XIX asrda ayrim davlatlarda inson huquqlari turkumiga erkinlik va tenglik, shahsning daxlsizligi, mulk huquqi, saylov huquqi va boshqa shu kabi fuqarolik va siyosiy huquqlar turlari keltirildi. Inson huquqlari borasida yangi sahifasini XX asr ochdi. Bu davrda fuqarolik va siyosiy huquqlar turlariga ijtimoiy va iqtisodiy huquq lar qo’shildi (mehnatkashlar huquqlari, kasaba uyushmalarga a]zo bo’lish huquqlari, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi va boshq.).

Inson huquqlarini tartibga soluvchi hozirgi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimida 1948-yilda qabul qilingan ***BMTning "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"*** muhim o‘rin egallaydi. "Deklaratsiya" inson huquq va erkinliklarini shaxsning daxlsiz xususiyati sifatida izohlab berdi.

Umumjahon deklaratsiyasidan farqli yangilik shundan iboratki, bu hujjatlarda inson huquqlari batafsil talqin qilinadi, ularni ro‘yobga chiqarishning davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlab qo‘yiladi, har qanday holatlarda ham fundamental inson huquqlarining davlat tomonidan cheklanishi mumkin bo‘lmagan alohida turkumlari (yashash huquqi, qiynoqlarga yo‘l qo‘yilmasligi, fikr va e’tiqod erkinligi, sudlov himoyasiga bo‘lgan huquq) ajratib ko‘rsatiladi.

"Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" xalqaro miqiyosda inson huquqlari sohasidagi me’yoriy hujjatlarni (Konvensiyalar) ishlab chiqishga qaratilgan hatti-harakatlar uchun asos bo‘lib qoldi.

Konvensiyaviy me’yorlarning huquqiy majburiyatlari hisobga olinib, xalqaro bitimlarni ratifikatsiya qiluvchi davlatlar uchun inson huquqlari sohasidagi kodifikatsiyalash faoliyati faqatgina xalqaro andozalar miqdorini ko‘paytirishgagina xizmat qilmasdan, balki ularni davlatlar milliy qonunchiligida mustahkamlab qo‘yishga qaratilgan ichki davlat me’yoriy hujjatlarni yaratish jarayonlarini ham faollashtirdi.

Shunday qilib, XX asrning yarmida jahon miqyosida inson huquqlarini xalqaro darajada himoyalash instituti shakllantirildi, mexanizmi yaratildi va xalqaro huquqiy andozalar ishlab chiqildi.

Davlat mustaqilligiga erishib, O‘zbekiston keyingi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, himoya etish borasida umumdunyoviy jarayonlarga faol qo‘shildi. Shuni alohida

ta’kidlab o‘tish kerakki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari sohasidagi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida", "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar to‘g‘risida" (1966) xalqaro Paktlar, BMTning "Bola huquqlari to‘g‘risida" (1989), “Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo‘qotish to‘g‘risida" (1979), "Qiynoqlar va inson qadr-qimmatini yerga uruvchi muammolar hamda jazo turlariga qarshi" (1984) Konvensiyalari va boshqa qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Bu, o‘z navbatida, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro-huquqiy andozalarni qabul qilish jarayonini sersamar etadi.

Inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining mohiyatini to’g’ri anglash maqsadida qo’yidagi mezonlarga muvofiq tasniflash asos bo’ldi:

1. Huquqshunos olimlar tomonidan XVI-XVIII asrlarda keltirilgn nazariyalarga kura:

– insonning tabiiy, yani ajralmas va daxlsiz huquq va erkinliklari;

– davlat tomonidan taqdim etiladigan va himoyalanadigan fuqarolar huquq va erkinliklari.

2. Huquq sub’ektlar turlariga kura:

– shaxsiy huquq va erkinliklar (aniq bir shaxsga taa’luqli);

– jamoa huqulari (jamoani tashkil etuvi bir necha shaxslarga taa’luqli).

3. Huquq va erkinliklarning cheklanishi hamda vaqtincha tuxtatilish imkoniyati mavjudligiga kura:

– cheklanishi hamda vaqtincha tuxtatilishi mumkin bo’lmagan mutloq huquq va erkinliklari;

– cheklanishi hamda vaqtincha tuxtatilishi mumkin bo’lgan nisbiy huquq va erkinliklari.

4. Huquq va erkinliklarning mazmuniga kura:

– shaxsiy huquq va erkinliklar;

– siyosiy huquqlar;

– iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.

Yuridik adabiyotlarda inson huquqlarini boshqa mezonlar asosida ham tasniflash uchraydi.

2. O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari.

Inson huquqlarini tartibga soluvchi hozirgi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimida 1948-yilda qabul qilingan **BMTning "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi"** inson huquqlarining zamonaviy konsepsiyasini muxtasar va tushunarli bayon qilib bergan.

O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining huquqiy asoslari tizimida Konstitutsiyaning o‘rni beqiyosdir.

Konstitutsiya O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, ya’ni xalqning o‘zi bevosita boshqaradigan jamiyat va demokratik huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Unda jami dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i "inson" ekanligi yorqin mujassamlashtirilgan. Insonni ulug‘lash, uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish Konstitutsiyaning asosiy g‘oyasiga aylantirilgan.

Konstitutsiyamiz Inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro huquqiy me’yorlar asosida ishlab chiqilgan va aytish mumkinki, uni yanada to‘ldirgan. Bunga Konstitutsiyaning 13-moddasi dalil bo‘lishi mumkin: "O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi."

Ushbu moddada "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da e’lon qilingan umuminsoniy huquqlar oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Ma’lumki, "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" insonlarning ajralmas va daxlsiz huquqlarini e’lon qilib, quyidagilarni belgilaydi: "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo‘lib tug‘ilganlar" (1-modda); "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir" (3-modda); "Hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emas, qulchilik va

qul savdosining barcha turlari ta’qiqlanadi" (4-modda) va hokazo. Konstitutsiyamizning 13-moddasida esa inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, deyilgan. Bu O‘zbekistonning umumbashariy insonparvarlik qoidalariga asoslangan davlat ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda odamlarning millatiga, diniga, ijtimoiy ahvoliga, siyosiy va boshqa e’tiqodiga qarab cheklashlar yo‘q. Chunonchi, Konstitutsiyaning eng muhim qismlaridan bo‘lgan ***ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”****ga bag‘ishlangan.*

Konstitutsiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u faqat fuqarolarni, ya’ni davlatimizga mansub kishilarnigina emas, balki O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning muqaddas va daxlsiz huquqlarini mustahkamlaydi. Chunki bizda inson hamma narsadan muqaddas va daxlsizdir. Qonundan tashqari hech kim uni bu huquqdan mahrum etishi mumkin emas.

Insonning erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati-uning oliy qadriyati. Hech kim qullikka yoki asoratga solinishi, sudning hukmisiz yoki prokuror ruxsatisiz o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi mumkin emas. Har bir inson erkin bo‘lib tug‘iladi. Xohlagan joyida istiqomat qilish huquqiga ega. Lekin qaerda yashasa, o‘sha yerga mansub bo‘lgan davlatning qonunlariga itoat etishga majbur.

Insonning sha’ni va or-nomusi ham daxlsiz. Hech kim insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishi, oilaviy sir-asrorlarini oshkor qilishi, insonning uy-joy daxlsizligiga tajovuz qilishi mumkin emas. Insonni kamsitish, obro‘sizlantirish, haqorat qilish, tahqirlash qonunga xilof xatti-harakat hisoblanadi va bunday harakatlar uchun qonun bo‘yicha tegishli javobgarliklar mavjud. Inson hayotiga tajovuz eng og‘ir jinoyat sanaladi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi joylashuvi tegishli huquq va erkinliklar mazmuniga asosan mustahkamlab qo‘yilgan:

1) shaxsiy huquq va erkinliklar (VII-bob, 24-31-moddalar);

2) siyosiy huquqlar (VIII-bob, 32-35-moddalar);

3) iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (IX-bob, 36-42-moddalar);

Mazkur demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Ushbu me’yor Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklari kafolatlariga bag‘ishlangan ***X bobida*** maxsus tarzda yanada mustahkamlangan. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi 1-bo‘limida "Shaxsga qarshi jinoyatlar" uchun javobgarlik belgilanadi. Bunda shaxsning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy erkinligiga, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar, shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar uchun qattiq jazo choralari nazarda tutilgan.

Demak, inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar respublikamizning milliy davlatchilik manfaatlariga to‘la mos keladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining VII-bobidagi, 24-31-moddalarga muvofiq insonlarning shaxsiy huquqlari va erkinliklarini yashash huquqi, shaxsiy dahlsizlik va turar-joy daxlsizligi kabi huquq va erkinliklar tashkil etadi.

Fuqarolarning siyosiy huquqlariga (VIII-bob, 32-35-moddalar) ularning davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, ovoz berish, yig‘ilish huquq va erkinliklar kiradi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 36-42-moddalarga asosan mehnat huquqi, mehnat erkinligi, mulk huquqi, ta’lim olish huquqi, ijod erkinligi va shu kabilar fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquq hamda erkinliklar guruhini tashkil etadi.

Inson va fuqarolaming qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan asosiy huquq va erkinliklari bilan birga ***O‘zbekiston Konstitutsiyasining XI-bobining, 47-52-moddalari***da fuqarolarning bir qancha burchlari ham mavjud.

Har qaysi inson, har bir fuqaro o‘zining haq-huquqlarini, erkinliklari va imtiyozlarini bilsa va ulardan unumli va oqilona foydalansa-yu, ammo jamiyat va davlati, jamoasi, xalqi va millati oldidagi eng muhim burchi, mas’uliyati va majburiyati nimalardan iboratligini bilmasa va chuqur his etmasa, bu adolatdan emas, albatta. Har bir inson va fuqaro jinsi, millati, mansabidan qat’i nazar, unga ta’lim-tarbiya bergan, voyaga etkazgan o‘z xalqi, millati va Vatani oldida bir umr qarzdor va burchlidir. 0‘z huquqi, erkinligini talab qiladigan har bir fuqaro ana shu huquq va erkinliklami ta’minlab bergan jamiyat va davlat oldidagi o'zining fuqarolik burchini unutmasligi lozim.

Ammo bu ishning bizlar ko‘pincha unutib qo‘yadigan ikkinchi jihati ham bor. Adolatli jamiyat qurish uchun, eng avvalo, shu tabarruk zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o‘zini ayni shu yurt farzan deb biluvchi inson o‘z davlati, o‘z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bila tarbiya etgan, voyaga etkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etisl kerak.

Asosiy Qonunning 47-52-moddalari fuqarolaming burchlari bag'ishlangan. Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan va fuqarolar tom nidan bajarilishi lozim bo‘lgan burchlar nimalardan iborat, degan sav tug‘ilishi turgan gap. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Barcha fuqarolaming eng muhim majburiyatlaridan biri Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajarishdan iboratdir (47-modda). Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish (48-modda) ham shular jum lasidandir. “Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish-nafaqat ulamin qoidalarini buzmaslik, balki fuqarolar o‘z faoliyati, hayot tarzi bil konstitutsiyaviy prinsip va asoslami, qonunchilik normalarini re voqelikka aylantirishga ko‘maklashishlari demakdir”.

Konstitutsiyada 0‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va ma daniy merosini avaylab-asrash fuqarolaming burchi ekanligi belgila' qo‘yilgan. Bu haqda 0‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49 moddasida ta’kidlab o‘tilgan. Asrlar, ming yillar mobaynida yaratilib, asrab-avaylab, sayqal topib, takomillashib, avlodlardan avlodlarga o‘tib, bizgacha etib kelgan tarixiy, madaniy-ma’naviy meros, Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Abu-Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur singari buyuk zotlaming diniy- axloqiy, tabiiy-ilmiy, falsafiy ta’limotlari o'zbek xalqining, butun insoniyatning bebaho ma’naviy boyligidir.

0‘zbek xalqi o‘tmish madaniy-ma’naviy boyliklarini ko‘z qorachig'idek avaylab kelmoqda. Ya’ni “Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir” (49-modda).Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda boMish O'zbe- (tislon Respublikasi fuqarolarining asosiy burchlaridan biridir. Fuqarolar /immasidagi bu majburiyat Konstitutsiyaning 50-moddasida belgilangan.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo ’lish zarurligi Imqidagi konstitutsiyaviy qoida zamirida juda katta ma’no, juda katta /nruriyat va juda katta hayotiy ehtiyoj bor. Chunki, insoniyat jamiyati Inbiat bilan, tabiiy boyliklar bilan, uni qurshab olgan atrof tabiiy muhit hi Ian tirik. Insoniyat hayotini va borlig‘ini, jamiyat taraqqiyotini tabiiy muhitdan, tabiiy-iqtisodiy boyliklardan ayricha holda tasavvur etib ho'lmaydi. Insoniyat dunyosi bilan tabiiy olam uzviy, ob’vektiv nloqadorlikdadir. Atrof tabiiy muhit bilan nihoyatda ehtiyotkorona, oqilona, odilona munosabatda boiinmasa, uning boyliklaridan istiqbolni o'ylab, olis kelajakni ko‘zlab, kelgusi avlodlar taqdiri va manfaatlarini hum nazarda tutib, tejab-tergab, isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘ymay loydalanilmasa, buning oqibati juda xunuk bo'ladi, bundan ayrim Kulqlar va mamlakatlargina emas, balki sayyoramizdagi barcha insoniyat cheksiz azob tortadi.

0‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida, “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot. dunyosi hamda boshqa tnbiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, deyilishi bejiz emas, albatta.

Atrof tabiiy muhitga har doim va hamisha ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, unga zarar etkazmaslik, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish har bir inson va fuqaroning asosiy burchi va vazifasidir.

0‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlami toMashga majburdirlar”.

Mamlakatimizda fuqarolaming soliq to‘lash majburiyatini qonunlashtirilishi bejiz emas. Qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlami to‘lash borasidagi konstitutsiyaviy majburiyat jamiyatda yashayotgan va davlat faoliyatining natijalaridan foydalanayotgan insonga, fuqaroga qo‘yilgan eng oddiy talabdir.

“Davlat soliqlar yordamida mudofaa qobiliyatini, fuqarolaming xavfsizligini ta’minlaydi, iqtisod, maorif, fan, sog‘liqni saqlashni rivoj- lantiradi, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan, kompleks ijtimoiy dasturlami, butun jamiyat manfaatlari yoii- dagi boshqa faoliyatni amalga oshiradi”.

0‘zbekiston fuqaroiari soliqlar va mahalliy yig‘imlami to‘Iashlari shart. Bu majburiyat 1991-yiI 15-fevralda qabul qilingan “0‘zbekiston Respublikasi fuqaroiari, fuqaroligi bo‘lmagan va xorijiy fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to‘g‘risida”gi, 1993-yil 7-mayda qabul qilingan “Mahalliy soliq va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonunlarda hamda 0‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, boshqa qonuniy hujjatlar va aktlar orqali tartibga solingan.

1998-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan 0‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 5-moddasiga muvofiq, respublika hududida umumdavlat soliqlari, mahalliy soliq va yig‘imlar amal qiladi. Soliq kodeksining 7-modasida belgilab qo‘yilishicha, mahalliy soliqlarga “mulk solig‘i, yer solig‘i, reklama uchun soliq, transport vositalarini olib-sotganlik uchun soliq, savdo yig‘imi uchun yig‘im, jumladan, alohida tovar turlari bilan savdo qilish uchun litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslami, jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslami ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransportni qo‘yish uchun yig‘im, obodonlashtirish ishlari uchun yig‘im kiradi. Soliq to‘lashdan bosh tortganlik, soliq qonunlarini buzganlik uchun soliq toiovchi shaxslar tegishli ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishlari Soliq kodeksida belgilab qo'yilgan. Soliq to‘lovchining javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va yig‘imlar to‘lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

0‘zbekiston fuqarolarining eng asosiy konstitutsiyaviy burchlaridan biri - 0‘zbekiston Respublikasining himoya qilishdir. Asosiy Qonun- ning 52-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “0‘zbekiston Respublikasini himoya qilish 0‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”.

0‘zbekiston Respublikasini - jonajon Vatanimizni himoya qilish, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash haqidagi konstitutsiyaviy qonun-qoida zamirida juda katta ilmiy, falsafiy, siyosiy-huquqiy ma’no- mohiyat bor. Buni hech unutmasligimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasida har bir fuqaroning belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni bajarishga majburligi bo‘yicha bir qator qonunlar qabul qilingan. Ularga “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “Muqobil xizmat to’g‘risida”gi, 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qa- Ixil qilingan “Harbiy qasamyod to‘g‘risida”gi qonun va qarorlarni misol silatida eslatib o‘tish mumkin. Mazkur qarorlarda respublikaning hudu- diy yaxlitligini, mustaqilligini himoya qilish fuqarolaming konstitutsiyaviy burchi ekanligi belgilab qo‘yilgan. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida ko'rsatib o‘tilgani- dek, “0‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mamla- katni mudofaa qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri boiib, 0‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning vazifasidir. 0‘zbekiston Respublikasini tashqaridan boiadigan qurolli tajovuzlardan himoya qilish 0‘zbekiston Respublikasi fuqarolari- ning konstitutsiyaviy burchidir.

Vatan himoyasi armiya safida xizmat qilish-harbiy xizmatni o‘tash har bir yigit uchun o‘ta mas’uliyatli, ayni paytda nihoyatda sharafli vazifadir. Askar Vatanini himoya qilar ekan, birinchi navbatda o‘z ota-onasi, kindik qoni to‘kilgan tuprog‘i, yoru birodarlari, qadrdonlarini ko‘z oldiga keltiradi. Vatanni asl farzandlargina himoya qila oladi.

3.Fuqarolik tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi.

Fuqarolik deganda jismoniy shaxsning ma’lum bir davlat bilan mustahkam huquqiy bog‘lanishiga aytiladi. Bunda fuqarolik fuqaroning tegishli davlatga nisbatan huquq va burchlari hamda uning suveren davlat tomonidan himoya qilinishida ifodalanadi.

Mazkur huquqiy aloqa insonning tug‘ilganida yuzaga kelib, uning butun umri davomida saqlanib qoladi. Ushbu bog‘liqlik insonning tug‘ilgan va yashayotgan hudud bilan cheklanmay, davlat tashqarisida ham o‘z kuchini yo‘qotmaydi. Fuqarolar huquqi va burchlarini davlat o‘zi belgilab beradi. Turli mamlakatlarda fuqarolarning huquq va burchlari bir xil emas. Ular mamlakatning siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy darajasiga bog‘liq.

Ilk bor "fuqaro" atamasi Fransuz revolyusiyasining 1799- yildagi "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"da bayon etilgan.

1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari to‘g‘risidagi Umumjahon Deklaratsiyasiga binoan, har bir kishi tabiiy, ajralmas, daxlsiz huquq va erkinliklarga egadir. Barcha davlat idoralari inson huquqlari va erkinliklarini oliy ijtimoiy qadriyatlari, deb bilib, ularni ta’minlashga va muhofaza qilishga majburdirlar.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganligidan qat’i nazar, hamma uchun tengdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaro tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa kishilarning huquqlariga zid bo‘lmasligi lozim. Har bir kishi Konstitutsiyada belgilangan vazifalarni bajaradi, jamiyatning normal rivojlanishi uchun shu vazifalar bajarilishi zarur.

Konstitutsiyaning qoidalari bevosita amal qiladi va barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari, fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Konstitutsiyada mustahkamlab berilgan barcha huquqlar va erkinliklar sud yo‘li bilan himoya qilinishi lozim.

Shaxs va jamiyatning o‘zaro mas’uliyati - huquqiy davlatning ajralmas belgisidir. Nodemokratik davlatda faqat fuqaroning davlat oldidagi mas’uliyati tan olinadi. U go‘yo fuqaroga huquq va erkinlik berayotganday bo‘ladi va uning maqomini tayinlaydi. Huquqiy davlatda esa buning aksini ko‘ramiz. Bu yerda davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar qoshida ularning huquq va erkinliklari uchun mas’ulligi masalasiga e’tibor qaratiladi. Bu mas’uliyat fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishida aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta’minlaydigan va keskin jazo choralari ko‘rilishini ko‘zda tutadigan tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lgan sharoitdagina amaliy tus kasb etadi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilmasligining muhim kafolati konstitutsiyaviy qoida bo‘lib, unga binoan davlatning hokimiyat tuzilmalari har bir kishiga uning huquq va erkinliklariga bevosita tegishli bo‘lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishishni ta’minlashga majbur. Huquqiy davlatda har bir fuqaroning o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqi tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992- yil 2-iyulda ***“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunida*** fuqarolik masalalari, uning huquqiy holati qonun yo‘li bilan mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi bu aloqa ularning o‘zaro huquq va burchlarida ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo‘lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z idoralari va mansabdor shaxslari orqali fuqarolar oldida mas’uldirlar, fuqaro esa davlat oldida mas’uldir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida o‘z fuqarolarining huquq, erkinliklarini va manfaatlarini himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari fuqarolikni olish asoslaridan qat’iy nazar barcha uchun tengdir.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi, millati, jinsi, ma’lumoti, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodlaridan, mashg‘ulotining turidan hamda boshqa holatlardan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha sohalarida ta’minlanadi.

Quyidagilar **O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari** bo‘ladilar:

1. Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma’lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e’tiqodidan, mashg‘ulotining turi va saviyasidan qat’iy nazar, ushbu Qonun kuchga kirgan vaqtda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lmagan hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslar:

2. Davlat yo‘llanmasi bilan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarisida ishlayotgan, harbiy xizmatni o‘tayotgan yoki o‘qiyotgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining hududida tug‘ilgan bo‘lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo‘lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lsalar va ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan bo‘lsalar:

3. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan erkak yoki ayolning chet el fuqarosi bilan yohud fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bilan nikohdan o‘tishi, shuningdek bunday nikohning bekor qilinishi er yoki xotinning fuqaroligini to‘xtatilishiga olib kelmaydi.

Konstitutsiyaning 22-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxslar **fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar** deb hisoblanadi.

Fuqarolikni qabul qilish, o‘zgartirish va yo‘qotish alohida davlatlarning ichki qonunchiligi – Konstitutsiyalar, fuqarolik qonunlari va qonunchilik aktlari asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolikning yuzaga kelishi (kelib chiqishi) ***naturalizatsiya yo‘li*** bilan, ***xalqaro shartnoma asosida*** va ayrim hollarda - ***reintegratsiya (tiklanish)*** orqali va ***taqdim etish yo‘li*** bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolikni qabul qilishning asosiy yo‘li ***tug‘ilish orqali*** kelib chiqadi, qolgan barcha usullari kam uchraydi. Sababi ko‘p kishilar tug‘ilishi bilan fuqarolikni qabul qilib, o‘z umri davomida uni o‘zgartirmaydi.

Tug‘ilish bo‘yicha fuqarolikka ega bo‘lish 2 ta asosiy shaklga ega:

"Qon huquqi" (jus sanguinus) asosida chaqaloqning fuqaroligi ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanib, tug‘ilgan joyiga bog‘lanmaydi. Bu maqsadga Yevropaning ko‘p mamlakatlari, jumladan - Avstriya, Norvegiya, Finlandiya, Italiya va boshqalar amal qiladi.

"Zamin huquqi" (jus soli) asosiga ko‘ra, fuqarolik chaqaloqning tug‘ilgan joyidan kelib chiqib, uning ota-onasi fuqaroligi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Masalan, Braziliya qonunchiligida belgilanishicha, bu davlat hududida tug‘ilgan har bir shaxs Braziliya fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikni qabul qilishning usullaridan biri *naturalizatsiya* (fuqarolikni qabul qilish) bo‘lib, bu umuman fuqaroligi bo‘lmagan yoki boshqa davlat fuqarosi bo‘lgan shaxs tomonidan fuqarolik olinishidir. Naturalizatsiya tartibda fuqarolik quyidagi hollarda qabul qilinadi:

a) fuqaroligi bo‘lmagan yoki fuqaroligini o‘zgartirmoqchi bo‘lgan shaxs so‘rovnomasiga asosan;

b) bir davlat fuqarosining boshqa davlat fuqarosi bilan nikohdan o‘tishi asosida;

v) fuqaroligi bo‘lmagan yoki boshqa davlat fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda.

Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yoki rad etish davlat tomonidan o‘rnatilgan qoidalar bilan belgilanadi. Naturalizatsiya asosida fuqarolikni berish yakka tartibda yoki manfaatdor shaxs (farzandlikka olishda) roziligi bilan amalga oshadi.

Barcha mamlakatlarning qonunchiligi bir qator cheklanishlarga ega bo‘lib, ular asosida shaxslarga siyosiy, ijtimoiy, diniy, milliy va boshqa sabablardan kelib chiqqan holda naturalizatsiyada rad etiladi.

Reintegratsiya (dastlabki fuqarolikni tiklash) kam uchraydi. Qoida bo‘yicha reintegratsiya jarayonida soddalashtirilgan tartibdagi fuqarolikni qabul qilish tartibi qo‘llaniladi.

Xalqaro shartnomalar asosida fuqarolik qabul qilish va o‘zgartirish ko‘pincha bunday holatlar tinchlik haqidagi shartnomalar, reatriatsiya haqida kelishuvlar, hududiy masalalardagi kelishuvlar vaqtida bo‘ladi. Bu usul bir necha davlatlarning birlashishi bilan bog‘liq holda yangi davlat tarkib topishi yoki bir davlat bo‘linishi natijasida bir necha davlatlar tuzilishida, bir qism hududning bir davlatda boshqa davlat tasarrufiga o‘tishi (sessiya), shuningdek qo‘shni davlatlar o‘rtasida alohida hududlarning almashuvi chog‘ida amalga oshiriladi.

Hududiy o‘zgarishlar vaqtida ko‘ngilli ravishda fuqarolik tanlash (optatsiya), o‘zgartirish (ko‘chirish vaqtida), avtomatik tarzda fuqarolikning o‘zgarishi (transfert) bo‘lishi mumkin. Transfert vaqtida bir davlatdan boshqa davlatga o‘tayotgan hudud aholisining, xohishidan qat’iy nazar, bir davlatdan ikkinchisiga o‘tar edi. Transfert kam uchraydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil sentyabridagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi "Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasiga" qo‘shildi. Bu hujjatga asosan O‘zbekiston Respublikasi konsullik tashkilotlari chet davlatlarda O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respub**likasi fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:**

1) tug‘ilganda;
2) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida;
3) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha;
4) Fuqarolik to‘g‘risidagi Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo‘yicha.

Tug‘ilgan paytida ota-onasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bola, O‘zbekiston Respublikasi hududida yohud O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida tug‘ilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo‘lib, ulardan biri bola tug‘ilgan paytida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lgan quyidagi hollarda bola O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

1) agar u O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan bo‘lsa:
2) agar u O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tug‘ilgan bo‘lsayu, ota-onasi yoki ularning biri shu vaqtda O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo‘lsa.

Ota-onasining fuqaroligi har xil bo‘lib, ulardan biri bola tug‘ilgan paytda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lgan bo‘lsa, agar bu vaqtda ota-ona O‘zbekistondan tashqarida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan bo‘lsalar, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida tug‘ilgan bolaning fuqaroligi ota-onasining yozma tarzda ifodalangan kelishuvi bilan belgilanadi.

Ota-onasidan biri bola tug‘ilgan paytda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo‘q shaxs bo‘lgan yohud noma’lum bo‘lgan taqdirda, bola qaerda tug‘ilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Onasining fuqaroligi bo‘lmagan bolaning otasi belgilanib, u O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi

bo‘lsa, 14 yoshga yetmagan bola, qaerda tug‘ilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo‘lmagan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo‘lgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilgan bolasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Ota-onasi noma’lum bo‘lgan va O‘zbekiston hududida yashayotgan bola O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z iltimoslariga ko‘ra ushbu Qonunga binoan kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma’lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e’tiqodlaridan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining ***fuqaroligiga qabul qilish shartlari*** quyidagilardan iborat:

1) chet el fuqaroligidan voz kechish;

2) so‘nggi besh yil davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganlik. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug‘ilgan va hech bo‘lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvisi O‘zbekiston Respublikasi hududida tug‘ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taalluqli bo‘lmaydi;

3) qonuniy tirikchilik manbaalarining mavjudligi;

4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish.

Bu talablar alohida hollardagina O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo‘lgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yohud malakaga ega bo‘lgan ayrim shaxslarga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin.

Agar shaxs:

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik ishlatib o‘zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo‘lsa;

- faoliyati O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo‘lgan partiyalar va o‘zga tashkilotlarga a’zo bo‘lgan bo‘lsa;

- O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq ozodliqdan mahrum etilgan va jazoni o‘tayotgan bo‘lsa, ***uni O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimonomasi rad etiladi.***

Ilgari O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lgan shaxs o‘z iltimosiga binoan ushbu Qonun talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga tiklanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik quyidagi hollarda to‘xtatiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;
2. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotish oqibatida;
3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;
4. Ushbu Qonunda ko‘zda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini to‘xtatilishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqaroligining to‘xtatilishiga sabab bo‘ladi.

Fuqarolik to‘g‘risidagi Qonunda belgilangan tartibda shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra ***O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga*** ruhsat etiladi. Agar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarning yohud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bilan bog‘liq mulkiy majburiyatlarni bajarmagan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi rad etilishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs:

-ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yohud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zurur bo‘lgan sud hukmi bo‘lsa;

-shaxsning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi manfaatlariga zid bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga yo‘l qo‘yilmaydi**.**

Quyidagi hollarda O‘zbekiston Respublikasi ***fuqaroligi yo‘qotiladi:***

1) shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, milisiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralariga ishga kirganligi natijasida;

2) agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo‘lsa;

3) agar O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg‘onligi shak-shubhasiz ma’lumotlar yoki sohta xujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqqan kundan boshlab O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo‘qotiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi O‘zbekiston Respublikasining davlat idoralari quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;

– O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi;

– O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi;

– O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalariga oid vakolatlari *quyidagilardan iborat:*

1. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida;

2. Chet elda yashayotgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etgan taqdirda ularni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida;

3. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risida;

4. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning tegishli idoralariga berilgan vakolatlar:

1) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslardan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid arizalarni qabul qiladi;

2) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizalarni asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

3) fuqarolik masalalariga doir arizani zarur hujjatlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiyaga yo‘llaydi;

4) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) Chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganligini qayd etadi;

6) O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari:

1) chet ellarda doimiy yashab turgan shaxslardan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga oid ariazalarni qabul qiladi;

2) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizani asoslash maqsadida keltirilgan dalil va hujjatlarni tekshiradi;

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси.1992й. №9. 338-модда.

3) fuqarolik masalalariga doir arizalarni zarur hujjatlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha Komissiyaga yo‘llaydi;

4) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlaydi;

5) chet elda doimiy yashab turgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganligini qayd etadi;

6) O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashab turgan fuqarolarini hisobga oladi.

Nazorat uchun savollar.

1.Inson huquqlari va erkinliklari deganda nimani tushunasiz va ular o‘rtasidagi farq nimadan iborat?

2. Inson huquqlari va erkinliklarining tarixiy rivojlanish bosqichlari qanday?

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstiutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarining e’tirof etilishining umumiy jihatlari nimadan iborat?

4. Inson huquqlarining qanday turkumlarini bilasiz?

5. “Fuqarolik” tushunchasi deganda nima nazarda tutiladi?

6. Kimlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘la oladilar?

7. Fuqarolikning yuzaga kelishi (kelib chiqishi) qanday yo‘l bilan va qay asoslarda amalga oshiraladi?

8. “Naturalizatsiya”, “reintegratsiya” ma’nolari nimalarni anglatadi?

9. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish asoslari qonunda qanday belgilangan?

10.O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari bilan qaysi davlat organlari shug‘ullanadi?

ADABIYoTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning xukukiy kafolati. T.: Shark, 1993.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O‘zbekiston, 2005,
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.- T.: “O‘zbekiston”, 1996.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2001.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.: Uzbekiston, 2001.
6. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 1948 y.
7. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro pakt, 1966 y.
8. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘isida”gi Xalqaro pakt, 1966 y.
9. “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 1992 y.
10. O‘R Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi Farmoni// “Xalq so‘zi”, 2005 yil, 2-avgust.
11. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.
12. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.
13. Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriev. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T.:Sharq, 2001.

O‘ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda fuqarolarning ijtimoiy faolligi, ushbu faollikning davlat rivojidagi ahamiyati hamda davlat tomonidan fuqarolarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish maqsadida amalaga oshirilayotgan tadbirlar, yaratilayotgan huquqiy asoslar to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, bu bilimlarning huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish.

Tushuncha va tayanch iboralar: davlat, jamiyat, shaxs, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy munosabatlar, mulkiy munosabatlar, mulk, hususiy mulk, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, hususiylashtirish, davlat mulki, ommaviy mulk, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, maqsadlar mushtarakligi.

Asosiy savollar:

1. Jamiyat va shaxs munosabatlari tushunchasi va ushbu munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solinishining ahamiyati.

2.Iqtisodiy munosabatlar va ushbu munosabatlarning moddiy va huquqiy asoslari.

3. Jamoat birlashmalari va ularning fuqarolar ijtimoiy faoliyatidagi ahamiyati.

“Aqliy xujum” savollari:

1. Jamiyat va shaxs o’rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy tartibga solinishining ahamiyati qanday?

2. Qaysi munosabatlar iqtisodiy munosabatlar deb topiladi?

3. Jamiyat va shaxs uchun iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati qanday?

4. Mulk shakllarining turlarini ayting.

1.Jamiyat va shaxs munosabatlari tushunchasi va ushbu munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solinishining ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasida insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish muhim maqsadli vazifalardan biri bo‘lib, u xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan normalari asosida, taraqqiy topgan davlatlarning huquqiy davlat qurishdagi tajribalaridan yetarli me’yorda foydalanilib, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari ta’minlangan holda amalga oshiriladi.

Rivojlangan fuqarolik jamiyati bo‘lmagan joyda davlat va shaxs ziddiyati o‘zaro huquq va majburiyatlarni biroz tenglashtirish to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Qolaversa, huquqiy davlatni ham rivojlangan fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki, pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir .

Biz fuqarolik jamiyatini kengroq tasavvur etadigan bo‘lsak, demokratiya, qonun ustuvorligi va inson huquqlari kabi tushunchalarni bu hodisaning belgilovchi kategoriyalari deyish mumkin. Islohotlarning amaliyotdagi tadbiqi ana shu tushunchalarning nazariy ishlanmalariga asoslanadi.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlatning negizi, bosh zaminidir. Fuqarolik jamiyatining mohiyati jamiyat va davlat bajaradigan vazifalar tizimining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Faqat keng siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy huquqlarga ega bo‘lgan shaxsgina fuqarolik jamiyatini rivojlantirishi, binobarin, uning rivojlanish omili bo‘lishi mumkin. Zero, fuqarolik jamiyatining ayrim tamoyillari o‘tmishda o‘tgan Sharqning buyuk mutafakkirlarimizning siyosiy-huquqiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Ularning siyosiy-huquqiy konsepsiyasi huquqning siyosiy tartibotlardan ustunligi haqidagi g‘oya bilan yo‘g‘rilgan. Bu borada IX-XI asrlarning Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari mutafakkirlari, faylasuflari, umuman, taraqqiyparvar allomalarining g‘oyalari alohida qiziqish uyg‘otadi.

Ularning fikricha, bunday davlatning asosiy vazifasi o‘z fuqarolarining moddiy ahvolini yaxshilash, tarbiyalash haqida g‘amxo‘r bo‘lish, adolat o‘rnatish, xalqni ma’rifatli qilish, ezgulik va yuksak ma’naviyatni tarqatish, o‘z fuqarolarining hayoti, sog‘ligi, sha’ni, qadr-qimmati, mol-mulkini muhofaza etish, fan rivoji uchun sharoit yaratish, tartibot va qonunchilikni ta’minlash, lavozimli shaxslar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va hokazolardan iborat.

Fuqarolik jamiyati - kishilar o‘rtasidagi ob’ektiv, o‘zaro zaruriy ta’sir doirasi bo‘lib, unda huquq hamda qonun ustuvorligi asosida kishi bir vaqtning o‘zida boshqa kishilarning maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilish barobarida, o‘z manfaatlarini amalga oshiradi. Fuqarolik holatini birdamlikning ijtimoiy mexanizmlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, ular

inson va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtiradi. Binobarin, jamiyat - guruhning barcha a’zolari uchun mushtarak bo‘lgan diniy e’tiqod hamda his-tuyg‘ularning uyushgan majmuasi hamdirki, u jamoaviylikning mohiyatini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u - ijtimoiy munosabatlar orqali birlashgan turli ijtimoiy vazifalar tizimidir.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi shaxs manfaatlarining boshqa barcha manfaatlardan ustuvor darajada rivojlanishi bilan bog‘liq, ya’ni bu "shaxs-jamiyat-davlat"ga oid konstitutsiyaviy prinsipning amaliy ifodasidir. Bunday holat huquqsiz, mazkur manfaatlarni qonunlar shaklida ifoda etadigan va himoya qila oladigan huquqiy davlatsiz mavjud bo‘la olmaydi.

Huquqiy davlat - inson huquqlarini amaliy ta’minlash tamoyilini bajarishga qodir idoradirki, u rasmiy huquqlarni qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki ana shu huquqlarni kafolatlaydi, ularni amalga oshirish vositalarini yuzaga chiqaradi. Bunday davlatda xalq hokimiyati yoki irodasi shaxs manfaatlarini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aks ettirib, uning majmuasi milliy manfaatlarni tashkil etuvchi qat’iy talabli bo‘ladi. Inson manfaatlari ustuvor jamiyatda turli qatlamlarning ehtiyojlari, manfaatlari va qadriyatlaridan millat manfaatlari tarkib topadi. Shu asosda qonunlar, jamiyat va davlat tartibotlari shakllanadi, izchil islohot siyosati olib boriladi.

Fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va huquqlari tushunchasidan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zero, jamiyat aynan shulardan tarkib topadi va ular uchun o‘z tartibotlarini rivojlantira boradi. Faqat shunday holdagina, ayni paytda, xalqning o‘z-o‘zini boshqarishi asosida iqtisodiy erkinligi, inson huquqlari, shaxs qadr-qimmati muayyan mazmun bilan boyiydi, davlat esa taraqqiyotning ilgarilab borishi uchun muayyan omilga ega bo‘ladi. Shuning uchun "mulkdorlar toifasiga keng yo‘l ochish kerak, toki u jamiyatning yetakchi xarakatlantiruvchi kuchiga, jamiyatning mas’ul shaxsiga aylansin" .

Umuman olganda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish - Asosiy qomusimizning eng buyuk maqsadidir. Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari g‘oyasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q, balki Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirganligi bilan ham ahamiyatlidir. Asosiy qomusimizda e’tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklari g‘oyasi keyingi vaqtlarda qabul qilinayotgan qonunlarda yanada mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizda qurilayotgan demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyati mulk shakllarining yangi tizimi, qudratli ishlab chiqarish kuchlari va vositalari, ilg‘or fan va madaniyat barpo etish, xalq faravonligini oshirish, takomillashtirish, erkin shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qo‘lay sharoitlar vujudga keltirayotgan jamiyatdir.

Mustaqillik O‘zbekiston xalqlari hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi va u O‘zbekiston Respublikasining Konstutsiyasida o‘zining huquqiy asosiga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashning XI sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda mustaqil O‘zbekiston davlatining Konstitutsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston xalqi ilk marotaba o‘z davlat mustaqilligiga ega bo‘ldi va bu buyuk tarixiy voqea uning Konstitutsiyasida tantanavor tarzda mustahkamlab qo‘yildi.

2.Iqtisodiy munosabatlar va ushbu munosabatlarning moddiy va huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining "Jamiyatning iqtisodiy negizlari"ga bag‘ishlangan XII bobining 53-moddasida mamlakat iqtisodiy asosini tashkil etuvchi "bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllaridagi mulk tashkil etishi, davlat iste’molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi" kafolatlanishi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy norma belgilanib, u o‘z o‘rnida mamlakat iqtisodiy munosabatlarini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli,

ya’ni u biror bir nomoddiy, moddiy ne’matga egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi va unda istiqomat qiluvchi barcha xalqlar bilan birgalikdagi umumiy manfaatlari mos keluvchi jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy islohotlarni amalga oshirish zarur edi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizlarini yaratishdan iboratdir. Avvalboshdanoq biz o‘zimiz uchun muhim saboq chiqarib, zarur huquqiy omilni shakllantirgan holda, tegishli qonunlar va me’yoriy hujjatlarni qabul qilib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolati, islohotlar ortga chekinmasligining kafolati amalda ta’minlandi. Chunki "bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat" dir.

Bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo‘lida huquqiy jihatdan ko‘p ishlar qilindi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga imkon beradigan Konstitutsiya normalari asosida yangi qonun xujjatlari majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohasiga tegishli bo‘lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan asosiy qonun hujjatlari qabul qilinib, islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi, iqtisodiy mustaqilligining huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi. Ana shu yo‘nalish doirasida "O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida"gi Qonun, "Er osti boyliklari to‘g‘risida"gi, "O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi, "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi, "Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi va boshqa tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonun xujjatlarining qabul qilinishi natijasida yer, yer osti boyliklari, tabiiy va mineral resurslar, yaratilgan ishlab chiqarish quvvati O‘zbekiston xalqining ajralmas mulki ekanligi tan olindi. Sifat jihatidan yangi iqtisodiy munosabatlarga va, eng avvalo, mulkchilik munosabatlariga asos soladigan qonunlar majmui yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan ana shunday bazaviy, asoslarni belgilab beruvchi qonunlar jumlasiga mulkchilik to‘g‘risidagi, yer to‘g‘risidagi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risidagi, ijara to‘g‘risidagi, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risidagi va boshqa qonunlarni kiritish mumkin.

Ma’lumki, iqtisodiy o‘zgarishlar va uning negizida shakllangan jamiyatning iqtisodiy asosi mulkchilik munosabatlariga bog‘liq. Respublikada mulkdorning huquqi tan olinadi va qonun yo‘li bilan himoya qilinadi. O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib, xususiy mulkchilik huquqini e’tirof qildi, mulkchilikning hamma shakllari uchun teng sharoitlar yaratdi. Yuridik va tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi, ya’ni, davlat mulkini xususiylashtirish, davlat korxonalarini mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirishning samarali mexanizmi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. Bunda ayniqsa, qishloq xo‘jaligini isloh qilishni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, shu bilan birga xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida islohotni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish va rivojlantirish muhim ahamiyatiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti agrar sohadagi iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlar)ni shakllantirish, mulkiy paylar va oilaviy pudrat tizimini joriy etish asosida qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish maqsadini amalga oshirish borasidagi vazifalarni belgilab berdi.

Qonun ishlab chiqarish jarayoning uchinchi va g‘oyat faol rivojlanib borayotgan yo‘nalish - xo‘jalik yuritishning va institusional o‘zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmini yaratish edi. Bu yo‘nalishda korxonalar va tashkilotlar yangi bozor infrastrukturasining vujudga kelishini ta’minlaydigan xo‘jalik faoliyatining hamma tomonlarini tartibga soluvchi qonunlar va me’yoriy hujjatlarning ulkan majmuidan iboratdir.

Iqtisodiyotning turli sohalarida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan qonunlar qabul qilindi. Kooperatsiya to‘g‘risidagi, qishloq xo‘jalik kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risidagi, fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi, dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risidagi qonunlar shular jumlasidandir. Ushbu qonunlarda mamlakat yangi xo‘jalik mexanizmining asosiy qoidalari ilk bor bayon qilib berildi. Bu qoidalar iqtisodiy manfaatdorlikka, foydaga va o‘z faoliyatining natijalari uchun moddiy javobgarlik mas’uliyatiga asoslanadi.

Bozor infrastrukturasini yaratish va uning faoliyatiga xos jarayonlarni tartibga solishni ta’minlaydigan qonun me’yorlari faol shakllantirib borildi. Ularning asosiy qoidalari banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi, pul tizimi to‘g‘risidagi, tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining erkinligi to‘g‘risidagi, sug‘urta to‘g‘risidagi, tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida, birjalar va birja faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qabul qilinibgina qolmay, balki chuqur tarkibiy va muayyan tizimdagi o‘zgarishlarning qudratli manbaidir.

Eng muhimi, "xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalarini tan olgan holda" O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro iqtisodiy munosabatlarda teng huquqli sub’ekt ekanligi e’tirof etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarga a’zoligi to‘g‘risida, valyutani tartibga solish to‘g‘risida qabul qilingan qonunlar, asosiy xalqaro paktlar va bitimlarning O‘zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jihatidan yangi sahifa ochdi.

Iqtisodiyotimizga chet el investisiyalarini keng jalb etish, xorijiy investorlarning xuquqlari va manfaatlari ishonchli himoyalanishining kafolatlari ta’minlanishi bo‘yicha qonun asoslari qabul qilindi. Bu O‘zbekistonning kelajagi uchun alohida ahamiyatga ega chet el investisiyalari tashqi dunyo bilan jonli aloqada, bo‘libgina qolmay, balki chuqur tarkibiy va muayyan tizimdagi o‘zgarishlarning qudratli manbai hamdir.

Hozirgi vaqtga kelib bozor munosabatlarining zarur sharti va negizi bo‘lgan ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish uchun imkoniyatlar ochib beradigan barcha huquqiy me’yorlar yaratildi va yaratilmoqda. Bu jarayonda asosiy vazifa hozirgi sharoitlarga mos keladigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilangina cheklanmasdan, balki ularga og‘ishmay amal qilinishini ta’minlashdan iborat bo‘lgan davlatning turli funksiyalarni bajaruvchi davlat organlari tuzildi.

Iqtisodiyotni isloh qilish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish katta ahamiyatga ega. Ya’ni, iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichidagi eng muhim va dolzarb vazifa - mulkiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirmoqdir. Uning tub mohiyati mulkning haqiqiy egalari qo‘liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo‘l ochib berish va mulkdorda yangi mulk egasi hissiyotini tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun ham istiqlolimizning dastlabki yillaridan boshlab mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlab kelinmoqda.

Samarali islohotlar natijasida iqtisodiyotda davlat mulkini xususiylashtirish hamda tadbirkorlik tashabbusi uchun imkoniyatlar yaratib berish hisobiga mulkchilikning nodavlat xususiy va boshqa shakllari qaror topdi.

Bozor mexanizmlarini hamda xususiylashtirilgan mulkni shakllantirish bilan bog‘liq birinchi guruh vazifalarini hal qilishda ommaviy suratda davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining huquqiy jihatdan muvaffaqiyatli ta’minlanganligi alohida rol o‘ynadi. Bunda "davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi kerak... Korxonalarni xususiylashtirish jarayoni ustun holatda ijaraga berish, aksiyalashtirish, korxonalarning jamoa mulki shakliga o‘tishi prinsiplari asosida amalga oshirildi" .

1991 yil 19 noyabrda ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lgan bozor iqtisodyotini vujudga keltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkini o‘zgartirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida"gi Qonuni qabul qilindi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali ikki muhim vazifani hal etish maqsad qilib olingan edi.

Birinchidan - mulkni haqiqiy o‘z egasiga topshirish ya’ni mulkdan samarali foydalanishni tashkil etish. Bu yerda to‘la ma’noda xususiylashtirish amalga oshirilib, jismoniy shaxslarga va davlatga talluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob’ektlarini yoki davlat xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari davlatdan sotib olindi. Shu asnoda davlat va umumxalq mulki deb e’tirof etilgan, aslida esa egasi yo‘q mulkning qarovsiz qolishi va uning taqdiri hech kimni qiziqtirmasligi kabi boqimandalikka chek qo‘yila boshladi. Bu jarayonning uzviy davomi bo‘lgan "o‘ziga qarashli bo‘lgan mulkni saqlash, agar qonun xujjatalarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdor zimmasidir" degan qoida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 174-moddasida ham mustahkamlandi.

Ikkinchidan, bu ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini hamda haqiqiy raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning zaruriy sharti bulgan, davlat korxonalari va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlariga, davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish yo‘li bilan davlat monopoliyasida bo‘lgan mulkchilikka barham berildi.

Xususiylashtirishni kengaytirish, mulk shakllarini tubdan o‘zgartirishdan ko‘zlangan maqsad mulkni chinakam mulkdorlar qo‘liga topshirib, ularda mulkdorlik tuyg‘usini shakllantirish va bozor infrastrukturasini tashkil etish qoidalarini uzida mujassam etib, mamlakat iqtisodiyotini olg‘a siljitishning muhim sharti bo‘lib qolmoqda.

Insoniyat yaralgandan buyon hozirgi davrgacha bo‘lib o‘tgan taraqqiyot jarayonida mulkning turli ko‘rinishlari ma’lum bo‘lib, mulkchilik munosabatlari ta’sirida har bir jamiyat ma’lum miqdordagi rivojlanishiga sezilarli ta’sir etib kelgan. Ma’lumki, kishilik taraqqiyoti dunyoning barcha mamlakatlari va mintaqalarida turli davrlarda, turli holatlarda yuz bergani bilan, shaklan va mazmunan ayni bir xil tartibda amalga oshgan. Jumladan, mulkchilik, mulkka munosabat jamiyat tabiiy taraqqiyotining va kishilar dunyoqarashi hamda ehtiyojlarining mahsuli sifatida shakllangan.

Demak, O‘zbekiston Respublikasida ham jamiyatning iqtisodiy negizi iqtisodiy hayotning asosini tashkil etuvchi, xalqning moddiy manfaatlariga xizmat qiluvchi mulkiy munosabatlarga bog‘liq.

Jamiyat iqtisodiy tarraqqiyotining asosini tashkil etuvchi **mulk** - tabiat boyliklarini, ishlab chiqarish vositalarini hamda ishlab chiqarish faoliyati natijalarini muayyan shaxslar yoki ularning jamoalari tomonidan ijtimoiy o‘zlashtirishga asoslangan shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar natijasi bo‘lib, bunda biror mol-mulkning kimga tegishliligi aniq belgilab qo‘yiladi. Biz yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi ham mana shu mulk asosida, unga nisbatan mulk huquqining kimga tegishli ekanligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar hamda davlat **mulk huquqining sub’ektlari** bo‘lishi mumkin.

Mulk huquqining ob’ektlari: yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot do‘nyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog‘ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob’ektlari bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida **xususiy va ommaviy mulk** mustahkamlangan.

Xususiy mulkning mazmunini tashkil etuvchi norma "Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir" degan qoida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 207-moddasi belgilangan. Ya’ni meros tariqasida, ishlab chiqarishda o‘z mehnati bilan shaxsan ishtirok etish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, bitimlar tuzish, yollanma mehnatdan

foydalanish tartibida hamda qonunda ta’qiqlab qo‘yilmagan boshqa asoslarda olgan huquqidir.

Xususiy mulk huquqining sub’ektlari fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslardir.

Xususiy mulk huquqining ob’ektlari doirasi juda keng bo‘lib, ular: uy-joylar, xonadonlar, dala hovlilar, ekinlar, hayvon va parrandalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari; aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar; ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo va boshqa xo‘jalik faoliyati sohasida korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskuna, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalari; ixtirolar, seleksiya yutuqlari, sanoat namunalari va intellektual faoliyatning (mulkning) boshqa natijalari; iste’mol qilishga va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan har qanday mol-mulk qonunlarga muvofiq, xususiy mulk bo‘lishi mumkin, ayrim mol-mulk turlari bundan mustasno.

Ommaviy mulk tarkibiga quydagilar kiradi: O‘zbekiston mulki; ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki.

O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan mulk shakllarining asosiy turlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkidir.

O‘zbekiston Respublikasi xalqi davlat mulkining sub’ektidir. Mulkiy huquqni xalq nomidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va ular vakolat bergan davlat boshqaruvi organlari amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining mutloq mulkiga: yer (qonun hujatlarida nazarda tutilgan hollarda, tartibda va shartlarda mulk qilib berilgan yerlardan tashqari) yer osti boyliklari, ichki suvlar, respublika hududi doirasidagi havo havzasi, o‘simlik va hayvonot dunyosidan iborat. **O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va idora organlarining mol-mulki:** respublika xalqlarining madaniy va tarixiy boyliklari: respublika byudjetining mablag‘lari, respublika va davlat ahamiyatidagi banklar, sug‘urta zahira fondlari va boshqa davlat fondlari: davlat ahamiyatiga molik korxonalar, davlat oliy o‘quv yurtlari, ijtimoiy-madaniy soha ob’ektlari hamda davlatning respublika istiqlolini va iqtisodiy mustaqilligini ta’minlovchi boshqa mol-mulklar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkiga ma’muriy-huquqiy tuzilmalarning mulki kiradi. Davlat mulkini ahamiyati shundaki, davlat tasarrufida strategik ahamiyatga molik masalalar muhim iqtisodiy va xo‘jalik masalalari bo‘yicha, pul va valyuta muomalasi bo‘yicha qarorlar qabul qilish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umum respublika transport va muhandislik kammunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish kabi va boshqa masalalarni hal etish muhimdir.

3. Jamoat birlashmalari va ularning fuqarolar ijtimoiy faoliyatidagi ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalariga o‘z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarni bajarish imkonini kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan. Konstitutsiyaning XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan

O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi,

maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro‘yxatga olinishi kabi normalar o‘z ifodasini topgan.

O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma **jamoat birlashmasi** hisoblanadi.

“Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, “Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish kasbkor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma’rifiy, fizkultura-sog‘lomlashtirish va sport ishlarini o‘tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarni muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi”.

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki oilani yoxud ayrim guruhlarning shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g‘oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi-jamiyatni takomillashtirish. Ular o‘z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo‘ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo‘nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o‘zlariga o‘zlari yordam berishlari, o‘z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

Jamoat birlashmalarining faoliyat ko‘rsatishi quyidagi holatlarda yo‘l qo‘yilmaydi: - axloq-odob qoidalarini buzilishiga olib kelsa, noqonuniy maqsadi bilan konstitutsiyaviy tuzumni o‘zgartirishga;

- respublika hududi va birligini bo‘lib tashlashga; Qoraqalpog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi aloqalarni buzish uchun tashviqot olib borsa;
- zo‘rlik, vaxshiylik, ijtimoiy kelishmovchilikni tashkillashtirish uchun tashviqotlar olib borishsa; turli, millatlar o‘rtasida bir millatni yuqori qo‘yish evaziga kelishmovchilik keltirib chiqarsa va jamiyatni bo‘lib tashlash uchun dinga qarshi tashviqot olib borsa;
- harbiylashtirilgan birlashmalarni tashkil qilish hamda, diniy partiya xarakterida bo‘lgan boshqa davlat tuzilmasidagi diniy partiya filiallarini tuzish qonunchilikda qat’iyan man qilinadi.

Shuningdek, jamoat birlashmalari demokratiyaga qarshi, davlat hokimiyati va boshqaruvida o‘z vakillarini qonuniy qo‘yish yo‘li bilan hokimiyat vakolatiga ega bo‘lib qonunlarni ma’naviy kuch bilan qabul qildirish va davlatning demokratik yo‘lidan foydalanib, davlat hokimiyati va boshqaruvida o‘z organlarini tashkil qilish qat’iyan man qilinadi.

Davlat o‘zining Asosiy qonunida va boshqa qonunlarida jamoat birlashmalarining qonuniy huquq va manfaatlariga shart-sharoitlar yaratish uchun va nizomiy vazifasini amalga oshirish uchun kafolatlar beradi.

Yoshlar va bolalar tashkilotlariga davlat moliyaviy va mol-mulk tomonidan yordam beradi. Soliq siyosatida imtiyozli munosabatlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Binolardan foydalanishda va boshqa sharoitlar yaratadi. Davlat organlarining, mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Albatta tegishli qonunlarda ko‘rsatilgan nazorat funksiyalari bundan mustasnodir.

Jamoat birlashmasi birlashma sifatida tan olinishi uchun albatta O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinishi shart.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida"gi qonunida belgilangan.

Jamoat birlashmasi kamida o‘n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta’sis s’ezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig‘ilishini chakiradilar, unda ustav (nizom, o‘zga asosiy xujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro, jamoat tashkilotlarining respublika, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro‘yxatga olish tartibi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, noxiya, shaxar, poselka, qishloq xududida yoki ikki va undan ortiq noxiya, shaxar, poselka, qishloq xududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari viloyatlar, Toshkent shaxar xokimliklarining adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Jamoat birlamasi ustavini ro‘yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi raxbar idorasi a’zolari tomonidan imzolangan va shu a’zolar xar biring familiyasi, ismi, otasining ismi, to‘g‘ilgan yili, istiqomat joyi ko‘rsatilgan ariza topshiriladi. Arizaga ustav, ustavni qabul qilgan ta’sis s’ezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig‘ilish protokoli, ushbu Qonuning 6 va 8-moddalari talablari bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa materiallar ilova qilinadi.

Ustavni ro‘yxatga olish xaqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab ikki oy muddatda ko‘rib chiqiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o‘zgarishlar, qo‘shimchalar ham ustavlarni ro‘yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro‘yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmalari ustavlarini ro‘yxatga oluvchi idoralar ana shu birlashmalar ro‘yxatini tuzib boradilar.

Jamoat birlashmasining ustavida qo‘yidagilar ko‘zda tutilishi kerak:

1) jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi;

2) jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o‘z faoliyatini amalga oshiradigan xudud;

3) jamoat birlashmasi a’zoligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro‘yxatda qayd etiladigan a’zolarga ega bo‘lsa, bunday xollarda undan chiqish shartlari va tartibi;

4) jamoat birlashmasi a’zolari (qatnashchilari)ning xuquqlari va burchlari;

5) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari raxbar idoralariningg vakolatlari va ularni tuzish tartibi, ularning vakolat muddati;

6) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlarining mablag‘lari va boshqa mol-mulkini xosil qilishning pul bilan taminlanish manbalari;

7) jamoat birlashmasining raxbar idorasi qaerda joylashganligi;

8) jamoat birlashmasi ustaviga o‘zgartishlar, qo‘shimchalar kiritish tartibi;

9) jamoat birlashmasi faoliyatini to‘xtatish tartibi. Ustavda jamoat birlashmasi faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham ko‘zda tutilishi mumkin. Jamoat birlashmasining ustavi amaldagi qonunlarga zid bo‘lmasligi kerak.

Agar jamoat birlashmasining ustavi ushbu Qonunning 3, 4 yoki 10-moddalari qoidalariga zid bo‘lsa, yoxud ilgari xuddi shu nomdagi jamoat birlashmasi ro‘yxatga olingan bo‘lsa, jamoat birlashmasi ustavini ro‘yxatga olishni rad etish mumkin.

Ustavni ro‘yxatga olish rad etilgan taqdirda bu xaqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunning qoidalariga zid ekanligi ko‘rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jamoat birlashmasining ustavini ro‘yxatdan o‘tkazining rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin va bu ish O‘zbkiston Respublikasi grajdanlik protsessual qonunida ko‘zda tutilgan tartibda karab chiqiladi.

Xalqaro, respublika va viloyatlararo jamoat birlashmalarining ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishning rad etilishi ustaidan - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, maxalliy jamoat birlashmalari ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishning rad etilishi ustidan esa - tegishli viloyat,

Toshkent shaxar sudiga shikoyat qilish mumkin.

O‘zbekiston hududida faoliyat ko‘rsatuvchi xalqaro, davlatlararo jamoat tashkilotlarining bo‘g‘inlarini shuningdek, respublika, viloyatlararo jamoat birlashmalari Nizomlari Adliya Vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining jamoat birlashmalari Nizomlarini ro‘yxatga olish tartibi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, tuman, shahar, posyolka, qishloq, mahalla hududlarida harakat qiluvchi jamoat birlashmalari Nizomlari viloyat va Toshkent shahar hokimliklarining Adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

O‘zbekistonda jamoat birlashmalarining quyidagi turlari mavjud:

1) xalqaro jamoat birlashmalari;
2) respublika jamoat birlashmalari;.
3) mahalliy jamoat birlashmalari;
4) viloyat;
5) Toshkent shahar;
6) tuman;
7) shaharcha, qishloq;
8) viloyatlararo va tumanlararo jamoat birlashmalari.

Agar O‘zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati, nizomiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ortiq xorijiy davlatlar hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e’tirof etiladi.

Ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq faoliyati butun Respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari Respublika jamoat birlashmalariga kiradi. Bunda siyosiy partiyaning kamida 20 ming a’zosi bo‘lishi kerak.

Viloyat, shahar, tuman, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari mahalliy jamoat birlashmalariga kiradi.

Nizomdagi belgilangan vazifalariga qarab qaysi hududda faoliyat yuritsa o‘sha hudud ya’ni viloyat, shahar, tuman, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari hisoblanadi.

Zarurat bo‘lganda viloyatlararo va tumanlararo jamoat birlashmalari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari qonun oldida teng huquqlarga ega bo‘lib, ularning huquqlari nizomlarida belgilab qo‘yiladi:

1) O‘z faoliyati va maqsadlari to‘g‘risidagi axborotni erkin tarqatadi.

2) Qonunga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

3) Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

4) Davlat va jamoat idoralarida o‘z a’zolari nomidan ish yuritadi va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Moliya idoralari jamoat birlashmalarini mablag‘ bilan ta’minlash va ular daromadlarining manbaalarini, ular olgan mablag‘ miqdorini va soliqlar to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiq soliq to‘lashini nazorat qilib boradilar.

Nazorat idoralarini, qonunlarni qanday amalga oshirishlarini va bajarishlarini prokuratura organlari nazorat qilib boradilar.

Jamoat birlashmasi Nizomini ro‘yxatga olgan Adliya Vazirligi va joylardagi adliya boshqarmalari jamoat birlashmalari faoliyatining maqsadlariga taalluqli Nizom qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladilar.

Jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qoidalarni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma’muriy-moddiy yoki o‘zga javobgarliklarga sabab bo‘ladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Jamiyat va shaxs munosabatlari deganda qanday munosabatlar nazarda tutiladi?
2. Jamiyat va shaxs o’rtasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy tartibga solinishining ahamiyati qanday?
3. Iqtisodiy munosabatlar deganda qanday munosabatlar nazarda tutiladi va ularning

jamiyat va shaxs munosabatlari tizimida egallagan o'rni qanday?

4. Mulk nima va uning shakllari qanday?
5. Jamoat tashkilotlarining ta'rifi nimadan iborat?
6. Jamoat tashkilotlarining qanday turlari mavjud?

ADABIYoTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005,
2. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12.11.2010.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2001.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.: Uzbekiston, 2001.
5. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi O'R Qonuni, 1991, 19 noyabr.
6. Mulkchlik to'g'risidagi O'R Qonuni, 1990.
7. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi O'R Qonuni, 2000, 25 may.
8. O'R jamoat birlashmalari to'g'risidagi O'R Qonuni, 192, 3 iyul.
9. Ciyosiy partiyalar to'g'risidagi O'R Qonuni, 1996, 26 dekabr.
9. Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida O'Rning Konstitutsiyaviy qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 28 fevralda qabul qilingan, Senat tomonidan 2007 yil 29 martda ma'qullangan.
10. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi O'R Qonuni, 1998, 1may (yangi tahrir)
11. Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risidagi O'R Qonuni, 1997, 24 aprel.
12. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risidagi O'R Qonuni, 1997, 24 aprel.
13. Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi O'R Qonuni, 1997, 26 dekabr.
14. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risidagi O'R Qonuni, 2002, 12 dekabr.
15. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.
16. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.
17. Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriev. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T.:Sharq, 2001.
18. www.press-service.uz
19. www.gov.uz
20. www.lex.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLATINING TUZILISHI VA MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISHI

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy– hududiy tuzilishi

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi va uning tashkiliy-huquqiy jihatlari, davlatning ma'muriy-hududiy tashkil etish tamoillari to'g'risida, hususan Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va uning tashkiliy-huquqiy jihatlari to'g'risida to'liq va mustahkam bilim shakllantirish va shu orqali talabalarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: davlat tuzilishi, milliy davlat tuzilishi, davlatni ma'muriy-hududiy tashkil etish, ma'muriy-hududiy birlik, unitar davlatlar, federativ

davlatlar, viloyat, tuman, shahar, respublikaga bo'ysinuvchi shahar, shaharchalar, Qoraqalpog'iston Respublikasining maqomi.

Asosiy savollar:

1.Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi tushunchasi va shakllari.

2. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy va davlat tuzilishi masaslalarining hal etilishi.

3.O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati.

"Aqliy xujum" savollari:

1. Davlat tuzilish bo'yicha qaysi shakllarini bilasiz?

2. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi deganda nima tushuniladi?

1.Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi tushunchasi va shakllari.

Har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir.

1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, navbatdan tashqari 6–sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunining 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir. Uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o'zgartirilishi mumkin emas. O'zbekiston tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e'tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1991 yil 21 dekabrdagi Olmaotada imzolangan xalqaro shartnomasiga to'la ravishda mos tushadi.

Xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iboratdir. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy ob'ektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlat, jumladan, O'zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.

Hududi katta, aholisi zich va milliy-etnik tarkibi turli-tuman bo'lgan davlatlarda ma'muriy boshqaruv samaradorligini oshirish va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda huquqiy demokratik prinsiplarni tabaqalashgan tarzda shakllantirish kabi bir qancha masalalarni xal qilish uchun yagona davlat yer kengliklari ma'lum bir qism (bo'linma)larga ajratiladi.

Davlat tuzilishi shakli – davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar va ushbu qismlar hamda markaziy va mahalliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteridir[1]. Demak, davlat tuzilishida davlatning ma'muriy-hududiy tashkil etilishi eng birlamchi ko'rsatkich va asosiy elementlaridan biridir.

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo'lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir. Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirish o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra nafaqat ma'muriy-hududiy, balki:

iqtisodiy-hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar);

harbiy-hududiy (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, Farbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

siyosiy-hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

---

[1]Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Ҳ.Б.Бобоев ва Ҳ.Т.Одилқориевлар умумий таҳрири остида-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000. 141-бет.

ekologik-hududiy (masalan, Orol va Orol bo‘yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofozaga muhtoj bo‘lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Davlatning ma’muriy jihatdan ajratilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi davlat bilan uning tarkibiy qismlari o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hamda ushbu qismlarning har birini huquqiy holatiga doir masalalarni qamrab oladi. Shuning uchun ham rivojlanishning qanday bosqichida turmasin yoki davlat tuzilishining qanday shakllaridan iborat bo‘lmasin har bir suveren davlatning yer kengliklarini ma’muriy-hududiy jihatdan ma’lum bir qismlarga ajratib olish juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hamda huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir davlatning maydoni, aholisining soni, milliy-etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi kabi omillarga ko‘ra uning yer kengliklari ma’lum bir qismlarga ajratiladi. Bunday ma’muriy-hududiy qismlarga ajratish aksariyat hollarda davlatning markazdan turib ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkoni bo‘lmagan tarzda amalga oshiriladi. Ajratilgan qismlar mexanik tarzda emas, balki biron bir maqsadni ko‘zlab va ma’lum bir prinsiplarga asoslangan holda bo‘linadi. Shuning uchun ham Konstitutsiyamizning 4-bo‘lim XVI bobi O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy "bo‘linishi" emas, balki "tuzilishi" deb nomlandi.

Davlatning ma’muriy-hududiy bo‘linishi davlat boshqaruvini osonlashtirish uchun, uning yer kengliklarini siyosiy nuqtai nazardan ma’lum bir qismlarga ajratib olish deb tushunish mumkin. Ma’muriy-hududiy tuzilish esa davlatning yer kengliklarini huquqiy davlat sub’ektlari, ya’ni mustaqil ijtimoiy-siyosiy qismlar tariqasida tashkillashtirilishidir.

"Tuzilish" degan yuridik atama "bo‘linish" degan atamaga nisbatan kengroq, huquqiy jihatdan esa mustaqilroq qismlarga ajratish desa bo‘ladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobi "O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi" deb nomlanib, u 1927, 1937, 1978 yillarda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalarida belgilangan huquqiy me’yorlardan tubdan farq qiladi. Masalan, yangi qomusimizda mahalliy boshqaruv organlari – viloyat, tuman va shahar hokimiyatlariga o‘zlarining ma’muriy-hududiy bo‘linmalarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni turli jihatlarini har tomonlama tartibga solishda katta vakolatlar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlat qurilishi va uning tuzilishi asoslariga bag‘ishlangan bir qator asarlarida, xususan "O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda" degan kitobida bizda davlat tuzilishi yer kengliklarini viloyat, tuman va shaharlarga bo‘linishi sun’iy ravishda, o‘z-o‘zidan kelib chiqqan "texnik" jarayon bo‘lmay, balki respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy strategik maqsadni amalga oshiruvchi tayanch qismlariga ajratilishi ekanligiga alohida urg‘u bergan.[1] Shuning uchun ham yurtboshimiz davlat tuzilishi va boshqaruvida markazdan quyi bo‘linmalarga tomon harakat yo‘nalishi, ya’ni: *birinchisi* – markaziy boshqaruv organlari vakolatlarining anchagina qismini mahalliy hokimiyatlarga; *ikkinchisi* – mahalliy boshqaruv organlaridan qator vakolatlarni fuqarolarning joylardagi jamoat birlashmalariga va o‘zini-o‘zi boshqaruv organlariga berish kerakligini bir necha bor ta’kidlaydi.

O‘zbekistonning markaziy davlat apparatida asosan konstitutsiyaviy tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklarini, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta’minlash, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, samarali tashqi siyosat o‘tkazish kabi vazifalar qolishi kerak. Strategik, ya’ni uzoqqa mo‘ljallangan va davlatning suveren huquqini ta’minlovchi :

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.:Ўзбекистон, 1999, 117-бет

1) muhim iqtisodiy va xo‘jalik ahamiyatiga ega masalalar, (masalan, pul va valyuta muomalasi bo‘yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish);

2) tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni regional va global miqyosda xal qiluvchi masalalar (masalan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ekologik inqirozli hududlarni mo‘tadillashtirish);

3) respublika va xalqaro ahamiyat kasb etuvchi transport, aloqa va muxandislik kommunikatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish;

4) yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish;

5) mudofaa, energetika va boshqa maxsus vazifalarni bajarish kabi masalalar davlatning markaziy apparatlari darajasida xal etilishi lozim bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan *umumiqtisodiy, umumekologik, umumsiyosiy* masalalardan tashqari barcha masalalar mahalliy boshqaruv organlar vakolatlariga kiritilishi hozirgi zamon ma’muriy-hududiy tuzilishning asosiy yutuqlaridandir. Endilikda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirish, xususiy mulkni turli ko‘rinishlarini va shakllarini rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, iste’mol bozorini to‘ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, kishilarning yashash darajasini va hayot farovonligini oshirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish mahalliy-hududiy tuzilmalarda xal etilishi lozim bo‘ladi. Xuddi ana shunday jarayonni og‘ishmay amalga oshirish O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining mustahkam asoslarini yaratish va ma’muriy-hududiy tuzilmalarning huquqiy-iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga olib keladi.

2.O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy va davlat tuzilishi masaslalarining hal etilishi.

O‘zbekiston Respublikasiviloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat (Konstitutsiyaning 68-moddasi).

Har bir davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishini ilmiy asosda tashkil qilmaslik uning xavfsizligiga, barqarorligiga va albatta, taraqqiyotiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-2000 yillarda bo‘lib o‘tgan viloyatlar va Qoraqolpog‘iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashuvlarida ma’muriy-hududiy tuzilishni to‘g‘ri tashkil etish, joylardagi vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining huquqiy vakollatlarini oshirish Konstitutsiyamizda belgilangan imperativ shartlarni amaliy tadbiq qilishga olib kelishini bir necha bor uqtirib o‘tganlar. Konstitutsiyamiz me’yorlariga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasi yer kengligini ma’muriy-hududiy qismlarga bo‘linishi aholini davlat bilan yaqinlashuvida, fuqarolarni davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirishda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining milliy-etnik huquqlarini tenglashtirishda va ularning xohish-irodalarini inobatga olishda xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarini ifoda etilishiga ko‘ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma’muriy-hududiy birlik xo‘jalik yurgazishning o‘ziga xos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlari va an’analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat. Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O‘zbekiston Respublikasi aholisi – 2000" nomli statistik to‘plamga muvofiq 2000 yil 1 yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma’muriy-hududiy qismlardan iborat. Ulardan 12 tasi viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yig‘inidan iborat bo‘lgan.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabr "Shahar va tuman hokimliklari apparati tuzilishini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq 26 ta viloyat bo‘ysunuvidagi

shaharlar tuman bo‘ysunuviga o‘tkazildi va ularning soni 28 taga tushib qoldi. Tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarda shahar hokimligi lavozimlari qisqartirilib, ular tuman hokimligi qoshida faoliyat yurgazadigan bo‘ldilar.

Viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlarning huquqiy maqomidagi ushbu o‘zgartirishlar davlat siyosatidan kelib chiqqan holda, mahalliy hokimiyatlarning ko‘pgina vakolatlarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralariga, xususan mahallalarga topshirish oqibatida yuz berdi.

O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risidagi qonunning 10-moddasiga ko‘ra *"... viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo‘lgan, muhim ma’muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin"*. Shunisi e’tiborliki, qonunda shaharlarning huquqiy maqomini *ko‘tarish* haqida huquqiy me’yorlar mavjud, ammo ularning maqomini *tushirish* haqida hech qanday me’yorlar berilmagan.

Yuqorida qayd etilgan Qonunning IV bobiga muvofiq *“aholi punktlarini ma’lum bir turkumdan ikkinchi bir turkumga o‘tkazish tegishli viloyat hokimlarining iltimosiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi”*. Ushbu holat haqidagi qarorlar, albatta, *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasida e’lon qilinishi shart”* (30-modda).

Davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi davlat qurilishining umumiy masalalarini to‘laqonli amalga oshirish nuqtai nazaridan hududiy tashkillashtirish ekan, ularda davlat boshqaruvi markaziy davlat organlari → mahalliy hokimiyatlar → o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 68-moddasiga muvofiq ravishda ma’muriy-hududiy tuzilishga qishloq va ovullarning soni emas, ulardagi balki o‘zini-o‘zi boshqaruvchi qishloq va ovullarning fuqarolar yig‘ini sonining keltirilishi to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi qonunning 5-moddasiga binoan ma’muriy-hududiy boshqarish vakolati qishloq va ovullarga emas, balki ulardagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining hududiy birliklariga topshirilgandir.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy qismlarini, ularning huquqiy maqomiga ko‘ra 3 toifaga ajratib guruhlashtirish mumkin (1-rasm):

1. *Yuqori toifadagi qismlar* – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri;
2. *O‘rta toifadagi qismlar* – qishloq va shahar tumanlari, viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar;
3. *Quyi toifadagi qismlar* – tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullarning fuqarolar yig‘ini.

Yuqori toifadagi qismlar. Davlat qurilishi shakliga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi unitar davlatdir. Shuning uchun ham o‘ziga xos alohida huquqiy maqomga ega bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi maqomga tenglashtirilgandir. Davlatning ma’muriy-hududiy qismlari ijtimoiy hayotning hamma jabhalarini o‘z ichiga oladi. Milliy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va siyosiy ahamiyatiga ko‘ra yuqori toifadagi qismlar bir-biriga yaqin turadi.

Viloyatlar eng yirik ma’muriy-hududiy qismlardan bo‘lib, O‘zbekistonda ularning soni 12 ta. "Viloyat" atamasi "oblast" so‘zining sinonimi bo‘lib, oblastdan ko‘ra ma’muriy-hududiy tuzilishning aynan ma’nosini beradi. Chunki "oblast" nafaqat ma’muriy birlikka nisbatan, balki tabiiy, iqtisodiy, harbiy birliklarga nisbatan ham qo‘llaniladi. "Viloyat" esa ma’lum bir hududga nisbatan qo‘llanilib, milliy qadriyatlarimizni hamda tariximizni to‘liq aks ettiruvchi atamadir. Mamlakatimiz viloyatlari ishlab chiqarish kuchlarining ahvoli, ularning joylanish xarakteri, transport va aloqa kommunikatsiyalarining rivojlanishi, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

O‘rta va quyi toifadagi ma’muriy – hududiy qismlar viloyatlar tarkibiga kirib, muhim tashkiliy vazifalarni bajaradi. Ular davlat vakillik organlari va boshqaruv idoralari bilan aloqa bog‘lovchi yagona tizim hisoblanadi va mahalliy hokimiyatlarga rahbarlik qilishning hamda ularni vatanimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda birlashtirishni amalga oshiradi.

Toshkent shahri. Aholisining soni 2,3 million kishidan iborat bo‘lib, unda 100 dan ziyod millat va elatlar yashaydi. Iqtisodiy salohiyati (mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16%, sanoat mahsulotining 20%), fan va madaniyat o‘chog‘i (6 ta universitet va 23 ta institut), markaziy davlat boshqaruv idoralarining deyarli barchasi joylashganligi uchun ham poytaxt shahar huquqiy maqomiga ko‘ra viloyat darajasidadir. Uning tarkibida 11 ta shahar tumani va 445 ta o‘zini o‘zi boshqaradigan fuqarolar yig‘ini – mahallalar mavjud.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi – O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren respublika. U ham o‘zining ijtimoiy – iqtisodiy salohiyati va milliy tarkibiga ko‘ra yuqori toifadagi huquqiy maqomga ega. Ushbu huquqiy maqom Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi biln belgilangan. Maydoni 164,9 ming kv. km. aholisi 1,5 million kishi. U 15 qishloq tumani, 12 shahar, 16 shaharcha va 120 ovullarni birlashtiruvchi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruvchi ma’muriy – hududiy qismlarga bo‘lingan. Poytaxti – Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ysunuvidagi Nukus shahridir.

*O‘rta toifadagi qismlar*dagi ma’muriy-hududiy birliklarning boshqaruvida ham mahalliy hokimiyatlar o‘z tuzilmasiga ega bo‘lib,. ularning tarkibida o‘zini o‘zi boshqaruv idoralari faoliyat yurgizadilar. 2001 yil 1 martga kelib O‘zbekistonda 164 qishloq va 19 ta shahar tumanlari mavjud bo‘lgan.

Tuman – temuriylar davrida qo‘llanilgan turkiy ibora bo‘lib, 10 ming va undan ortiq askar yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’muriy-hududiy qismlar tushiniladi. Tumanlar joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy, xo‘jalik va madaniy masalalarni hal qilishga bevosita rahbarlik qiladigan bo‘g‘inlardir. Mamlakatimizda ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar avvalom bor qishloq tumanlari chegarasining o‘zgarishi bilan amalga oshiriladi.

Viloyatlar bo‘ysinuvidagi shaharlar. Umuman shaharlar aholi manzilgohlari bo‘lib, u boshqa ma’muriy – hududiy bo‘linmalarga nisbatan yaxlitligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasining agrar sohaga nisbatan ustun turishi bilan ajralib turadi. Qonun bo‘yicha 30 ming kishidan ko‘p aholisi bo‘lgan bunday ijtimoiy-iqtisodiy shaharlar o‘z huquqiy maqomiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi: 1) viloyat markazlari hisoblangan shaharlar; 2) viloyat bo‘ysinuvidagi shaharlar. Ulardagi boshqaruv idoralarining tuzilishi va tarkibi bir-biridan farq qiladi.

Quyi tofidagi qismlarga o‘z mahalliy hokimiyatlariga ega bo‘lmagan va asosan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv idoralari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ma’muriy-hududiy bo‘linmalar kiradi.

Tuman bo‘ysinuvidagi shaharlarga sanoat korxonalari, kommunal xo‘jalik, uy-joy jamg‘armasi, ijtimoiy va madaniy muassasalari, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari mavjud bo‘lgan, aholisi 7 ming kishidan kam bo‘lmagan va ularning aksariyati noqishloq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lgan aholi punktlari kiradi. Ushbu huquqiy maqomga ega bo‘lish uchun aholi punkti ma’muriy ahamiyat kasb etishi va istiqbolli yo‘nalishlari ham bo‘lishi talab etiladi. Ularning soni 2001 yilga kelib 91 taga yetgan.

Shaharchalar. Aholisining soni 2 000 kishidan kam bo‘lmagan sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo‘l stansiyalari va boshqa muhim ob’ektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentyabrdagi 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan.

Qishloq va ovullarning shaharchalardan farqi ularda yashovchi aholi sonining eng kam miqdori belgilanmaganligi va mehnatga qobiliyatli kishilarning aksariyat qismi qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lganligidadir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyati aholi punktlarining aksariyati “ovul” deb nomlansa, qolgan viloyatlarda “qishloq” deb yuritiladi. O‘zbekistonda 11,8 mingdan ortiq qishloq va ovullar 1451 o‘zini o‘zi boshqaruvi fuqarolar yig‘inlariga birlashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi "Davlat chegarasi to‘g‘risida"gi qonunning 3-moddasiga muvofiq, davlat chegarasi uning hududi doirasidagi yer kengliklarini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal (ko‘ndalang) satxdan iboratdir.

Mamlakatimizning yuqori toifadagi ma’muriy-hududiy qismlari-viloyatlar va Qoraqalpog‘ston Respublikasi chegaralarining aksariyat qismi davlat chegaralaridan iboratdir. Shuning uchun ham "Davlat chegarasi to‘g‘risida"gi qonun me’yorlari ma’muriy–hududiy qismlarning chegaralariga oid masalalarni ham qamrab oladi. Ushbu Qonunning 5-moddasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, qishloq tumanlari chegaralari davlat chegaralaridan o‘tadigan bo‘lsa, ularni belgilash va o‘zgartirish xalqaro shartnomalarga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat chegarasi delimitatsiya (lotincha tilida "delimitatio" –chegaralash, ayirboshlash) va demarkatsiya (fransuz tilida "demacration" – chegara belgilarini qo‘yish) qilinadi, ya’ni ikki davlat o‘rtasida chegara chiziqlari o‘tkaziladi va tegishli belgilar qo‘yiladi. Davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish, himoya qilish va qo‘riqlash umumsiyosiy masalalar toifasiga kirib, O‘zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlari tomonidan belgilangan normalarda va tartiblarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy qismlarning ichki chegaralarini o‘zgartirish milliy qonunchilikka asosan tartibga solinadi. Masalan, "O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida"gi qonuning 5-moddasiga ko‘ra, yuqori huquqiy toifaga kiruvchi viloyatlar chegaralarini belgilash, o‘zgartirish, tashkil qilish va tugatish ushbu ma’muriy-hududiy qismlarning mahalliy boshqaruv organlari iltimosnomasiga ko‘ra va Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Ko‘p bosqichli tizimga ega bo‘lgan ushbu huquqiy jarayon o‘ta nozik davlat ahamiyatiga molik masalalar toifasiga kiradi. Chunki viloyat va respublika chegaralarini o‘zgartirish, ya’ni viloyatlarning bo‘linishi yoki qo‘shilishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy va milliy-etnik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi chegaralarini o‘zgartirish Juqorg‘i Kenges qarori asosida Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi yagona unitar shakldagi mustaqil davlat bo‘lgani uchun ham Qoraqalpog‘iston Respulikasi uning davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanishi, xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishi kabi barcha jabhalardagi umumiy masalalarni birgalikda hal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Viloyatlarni tuzish, tashkil qilish, chegaralarini o‘zgartirish yoki tugatish masalalari tegishli viloyat vakillik idoralarning tavsiyasi asosida Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko‘ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda mazkur masala bo‘yicha tegishli viloyatlarda referendum o‘tkazilishi mumkin.

Viloyat eng yirik ma’muriy-hududiy bo‘linma sifatida o‘rta va quyi qismlarga nisbatan bir muncha barqaror hisoblanadi. Viloyat ularning tashkil etilishi, chegalarining o‘zgartirilishi va tugatilishi uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma’naviy, ham milliy-etnik, ham huquqiy asoslar mavjud bo‘lishi talab qilinadi.

Qishloq va shahar tumanlarini tuzish ham muhim huquqiy, iqtisodiy va siyosiy masalalar darajasidagi davlat faoliyatiga kiradi. Shuning uchun ularni tuzish yoki tugatish yiriklashtirilayotgan yoki tugatilayotgan tuman Kengashlari tavsiyasi va Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarni Respublika miqyosidagi shaharlar toifasiga kiritish tegishli shahar va viloyat xalq deputatlari Kengashi tavsiyasiga binoan Vazirlar Maxkamasi kiritadigan taklifiga ko‘ra

Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Xuddi shunday jarayon shaharlarni viloyat toifasidagi shaharlarga kirgazishda ham qo‘llaniladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida shaharlarni quyi toifdan yuqori toifaga o‘tkazish Juqorg‘i Kengesning tavsiyasiga asosan Vazirlar Mahkamasi kiritadigan taklifiga ko‘ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshirish qonunchilikda ko‘zda tutilgan.

3.O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi "Qoraqalpog‘iston Respublikasi" deb nomlangan. Mazkur bob 6 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasiga ko‘ra, "Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi" deyiladi. Asosiy qonunning 70-moddasi 1992 yil 9 yanvarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashkil topganligini va 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Asosiy Qonuni bilan uning O‘zbekiston Respublikasi tarkibida suverenligini tasdiqlaydi. Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami deb e’lon qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining I bobi "Davlat suvereniteti" deb nomlanib, uning 1-moddasida Qoraqalpog‘iston - O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir, deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘lishligi, uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo‘lmasligi ko‘rsatilgan. Shuni ta’kidlash joizki Sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo‘lsa o‘sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo‘ydi. Qoraqalpog‘iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida "O‘zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiqligi haqida O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish" huquqi belgilangan. 81-moddasida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, "O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini turmushga tatbiq etishni tashkil qiladi" deyilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo‘lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog‘iston hududida ham majburiydir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishini uning o‘zi ko‘rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o‘z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi bo‘linmas va daxlsizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74-moddasi g‘oyat muhim siyosiy mazmun kasb etadi. Unda O‘zbekiston tarkibidagi Qoraqapog‘istonning chinakam suverenligini tasdiqlovchi qoida mustahkamlangan: "Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega". Bu konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida: "Jamiyat va davlat

hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, ya'ni referendumga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi" deb mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi referendumi davlat hayoti va ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari bo'yicha, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va o'zga qarorlarini qabul qilish, ularni o'zgartirish, jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida umumxalq ovoz berishi bo'lib, xalq hokimiyatini amalga oshirish vositasidir" deb belgilangan. Referendum o'tkazish tashabbusi huquqiga ega bo'lgan sub'ektlarning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi nomidan uning davlat hokimiyatining Oliy organi - Jo'qorg'i Kengesi chiqishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi bilan kelishilgan holatda referendum o'tkazishni tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy o'zgartirish soliqlar, byudjet, afv etish (amnistiya), jamoat tartibini saqlash, aholining sihat-salomatligini va xavfsizligini ta'minlash, favqulodda va shoshilinch chora-tadbirlar ko'rish, O'zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi masalalari, mansabdor shaxslarni tayinlash va ozod etish bilan bog'liq masalalar referendumga qo'yilishi mumkin emas. Referendum o'tkazish tartibi hududiy vakillik organlarini saylovlarni o'tkazish talablariga muvofiq ravishda fuqarolarning umumiy, teng va demokratik huquqiy prinsiplari asosida yashirin ovoz berish yo'li orqali amalga oshiriladi. Fuqarolarning o'z xohish-irodalarini izhor etishlarini nazorat etishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasining 2-bandida mustahkamlangan bo'lib, unda jumladan shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali" tartibga solinadi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat huquqi O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanishi har ikkala suveren davlatlarni Konstitutsiyalarida belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan ta'minlanadi degan holat O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Konstitutsiyalarining moddalariga binoan izohlanishi lozim. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston suverenitetini O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilish omillari quyidagilarni tashkil etadi:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqil huquq va vakolatlarini O'zbekiston Konstitutsiyasida qayd etilishi;

2) O'zbekiston Davlat hokimiyatining oliy organlari: Oliy Majlisda, Vazirlar Mahkamasida, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarida Qoraqalpog'iston vakilligining mavjudligi;

3) hududiy ustivorlik tamoyili, unga binoan Qoraqalpog'iston hududiy tuzilishining roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi;

4) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibidan chiqish masalasi bo'yicha referendum o'tkazish huquqi;

5) qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomining berilganligi;

6) Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tashqi, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar o'rnata olish huquqi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan konstitutsiyaviy normalar Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining tarkibiga o'z xohishi bilan kiruvchi va muhofaza qilinuvchi suveren davlat ekanligi mustahkamlangan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?

2. Qishloq tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasida tuman tuzish tartibi qanday?

4. Ovullar odatda qaerda tuziladi?

5.O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘zaro munosabatlari qanday tartibga solingan?

6.Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi qanday huquqiy xujjatlar bilan belgilanadi?

ADABIYoTLAR RO‘YHATI

1.Karimov I.A. O‘zbekiston XX1 asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston, 1999.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2001.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.: Uzbekiston, 2001.

4.O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy–hududiy tuzilishi, toponomik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal qilish tartibi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 1996, 30 avgust.

5. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.

6.Tadjixanov U., Saidov A., Odilqoriev X.. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T.:Sharq, 2001.

7. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.

8.www.press-service.uz

9.www.gov.uz

10.www.lex.uz

SAYLOV TIZIMI TUSHUNCHASI

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga saylov tizimi tushunchasi, mohiyati va prinsiplari, saylov o’tkazish mehanizmini tushuntirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: saylov, saylovchi, saylov tizimi, saylov huquqi, davlat vakillik organlari, aktiv saylov huquqi, passiv saylov huquqi, okrug saylov komissiyasi, saylov jarayoni

Asosiy savollar:

1. Saylov tizimi tushunchasi va mohiyati.
2. Saylov huquqi prinsiplari
3. Saylovlarni o‘tkazish tartibi

“Aqliy xujum” savollari:

1. Saylov huquq fuqarolarning qaysi huquq turlariga kiradi?
2. Saylovning ijtimoiy funksiyasi nimadan iborat?
3. Kimlar saylovda ovoz berishga huquqlidir?
4. Qaysi masalalar referendum predmeti bo’lishi mumkin?

1. Saylov tizimi tushunchasi va mohiyati.

O’zbekiston Respublikasida saylov tizimi deganda O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va saylov qonunlariga muvofiq, respublika fuqarolari tomonidan Respublika Prezidenti, Oliy Majlis deputatlari va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarini saylash tartibi tushuniladi.

Saylov tartibi O’zbekiston Respublikasi konstitusiyaviy-huquqiy normalari bilan belgilanib, ularning yig’indisi saylov huquqini tashkil qiladi. Demak, saylov tizimi va saylov huquqi bir-biri bilan o’zaro bog’liq, lekin bir ma’noni anglatmaydi.

Saylov huquqi konstitusiyaviy-huquqiy normalarning yig’indisi bo’lib, O’zbekiston Respublikasi konstitusiyaviy huquqining muhim tarkibiy qismi, uning muhim instituti hisoblanadi. Saylov huquqi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Oliy Majlisi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining saylovi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar yig’indisidir.

Lekin «saylov huquqi» termini faqat konstitusiyaviy-huquqiy institutni bildiribgina qolmay, balki O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining alohida bir sub'ektiv huquqini, ya'ni saylash va saylanish huquqini ham anglatadi. Bu erda fuqarolarning «saylash va saylanish» huquqiga e'tibor berish lozim. Fuqarolarning saylash huquqi - bu faol saylov huquqi deb nomlanib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Respublika Prezidenti, Oliy Majlis deputatlari, mahalliy Kengashlarga bo'ladigan saylovlarda qatnashish huquqi bo'lsa, passiv saylov huquqi - bu O'zbekiston fuqarolarining saylanish huquqi, ya'ni Respublika Prezidentligiga, Oliy Majlis deputatligiga yoki xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatligiga saylanish huquqini bildiradi.

Professor A.Saidov «Saylov huquqi» tushunchasini va iborasini ikki ma'noda ishlatadi. «Birinchisi, bu saylov huquqi saylab qo'yiladigan davlat organlarini shakllantirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimidir... Ikkinchisi, bu fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarni tuzishda qatnashish, ya'ni ularning tarkibini saylash (faol saylov huquqi) va unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) huquqlaridir»[1].

Saylash huquqi fuqarolarga saylanayotgan organlarni shakllantirishda qatnashish imkoniyatini beradi. SHu bilan bir vaqtda, ko'ppartiyaviylik sharoitida saylovchi muayyan siyosiy partiyaning dasturini, vakillik hokimiyati mahalliy organlarining faoliyatini ma'qul deb topar ekan, bu bilan qonunchilik hamda oliy mansabdor shaxslar faoliyatining yo'nalishini belgilab qo'yadi.

Saylanish huquqi nomzod bo'lmish shaxsning saylovchilar tomonidan e'tirof etiladigan kerakli kasbiy va axloqiy fazilatlari bilan bog'liq bo'lib, hokimiyat vakillik organlari va fuqarolarning mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvida faoliyat olib borish imkoniyatini yaratadi.

SHunday qilib, hokimiyat vakillik organlariga saylov xalqning o'ziga tegishli davlat hokimiyatini bevosita amalga oshirishning keng tarqalgan shakli bo'lib, ayni vaqtda xalq saylovlar yo'li bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi oliy organlarga, barcha darajali Kengashlarga ana shu hokimiyatni amalga oshirish vakolatlarini beradi.

O'zbekiston Respublikasi saylov huquqi o'z manbalariga ega. Bular saylov o'tkazish tartibini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi konstitusiyaviy-huquqiy normalaridan iborat. Bunday huquqiy normalarga quyidagilar kiradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (XXIII-bob), Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasi (XXII-bob)ning saylov to'g'risidagi normalari.

2. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonun, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonun, «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonun, «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar kiradi.

Bu qonunlar fuqarolarning hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlovchi yuridik kafolatlar va tartiblarni o'zida mujassamlashtirgan.

3. Saylov o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan yuridik normalarga viloyat, tuman va shahar hokimliklarining saylov to'g'risidagi qonunlarni bajarish yuzasidan qabul qilgan huquqiy hujjatlari ham kiradi. Masalan, viloyat, shahar va tuman hokimliklari tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov okruglarini tuzish, saylov komissiyalari tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi va saylov huquqi demokratik asoslarga qurilib, xalq hokimiyatini amalga oshirishga qaratilgan. Bu saylov tizimi hokimiyat organlarida aholining barcha qatlamlari keng ko'lamda vakillikka ega bo'lishini, saylovga tayyorgarlik jarayonida jamoat fikrini har tomonlama aniqlashni, vakillik organlarining vazifalarini, deputatlikka nomzodlarning amaliy va shaxsiy fazilatlarini muhokama etishni, xalq ommasining ovoz berishdagina emas, balki saylov o'tkazish jarayonida bevosita faol ishtirok etishini ta'minlovchi demokratik qoidalariga asoslanadi.

2. Saylov huquqi prinsiplari

O’zbekiston Respublikasi fuqarolari umumiylik, teng saylov huquqi, to’g’ridan-to’g’ri saylov huquqi, o’z xohish-irodalarini erkin bildirish va yashirin ovoz berish prinsiplariga asosan saylovni amalga oshiradilar.

Umumiy saylov huquqi, shuni anglatadiki, O’zbekiston Respublikasining 18 yoshga kirgan har bir fuqarosi saylov huquqiga egadir. Saylovchilar ro’yxatiga saylov kuniga qadar yoki saylov kuni 18 yoshga to’lgan hamda mazkur Kengash hududida ro’yxat tuzilayotgan paytga qadar muqim yoki vaqtincha yashab turgan barcha fuqarolar kiritiladi.

O’zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to’g’risida»gi qonunida: «O’zbekiston fuqarolarining Konstitusiya va qonunlarda mustahkamlab qo’yilgan saylov huquqlari davlat muhofazasidadir», - deb ko’rsatilgan. Qonunga asosan, 35 yoshdan kichik bo’lmagan O’zbekiston fuqarolari Respublika Prezidenti etib saylanish huquqiga, saylov kunigacha 25 yoshga to’lgan fuqarolar O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylanish huquqiga, saylov kunigacha 21 yoshga to’lgan fuqarolar esa hokimiyatning mahalliy vakillik organlariga saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovchilarga, ular qaerda bo’lishlaridan qat’i nazar saylovlarda bevosita qatnashish huquqi kafolatlanadi.

Faqat sud tomonidan muomalaga layoqatsiz, deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to’g’ridan-to’g’ri yoki bevosita cheklashga yo’l qo’yilmaydi.

O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o’zida hokimiyatning ikkitadan ortiq vakillik organiga deputat bo’lishi mumkin emas.

Shunday qilib, qonunlar umumiy saylov huquqini har taraflama va izchil kafolatlaydi.

O’zbekiston Respublikasida o’tkaziladigan saylovlar tengdir.

Teng saylov huquqining ma’nosi shundan iboratki, har bir fuqaro - saylovchi bir ovozga ega; saylovda hamma teng asoslarda qatnashadi; ayollar va erkaklar teng saylov huquqlariga ega; harbiy xizmatchilar barcha boshqa fuqarolar bilan teng ravishda saylov huquqlaridan foydalanadilar; hech kim saylovda boshqa shaxslarga nisbatan biron bir afzallikka ega emas. Bularning hammasi teng saylov huquqi amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Saylov huquqining tengligi, har bir saylovchi ovoz berish uchun faqat bitta ro’yxatga kiritilishi hamda shaxsiy ovoz berishi bilan ta’minlanadi. Saylov byulletenlari shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko’rsatilgandan keyingina beriladi.

Saylovda barcha saylovchilarning teng asosda qatnashuvi saylov okruglarining ularda yashovchi fuqarolar soniga teng qilib tashkil etilishi bilan ham ta’minlanadi. Chunki har bir okrugdan bitta deputat saylanadi. Bu bilan amalda bir okrugdagi saylovchi ovozi boshqa okrugdagi saylovchi ovoziga amaliy ravishda teng bo’lishiga erishiladi. Bundan tashqari, tenglik saylov prinsipi butun O’zbekiston fuqarolari saylov huquqining qonun tomonidan teng muhofaza etilishini ham ifodalaydi.

To’g’ridan-to’g’ri saylov huquqi hokimiyat vakillik organlariga saylov to’g’ridan-to’g’ri o’tkazilishini bildiradi; saylovchilar o’z nomzodlariga saylov vaqtida bevosita ijobiy yoki qarshi ovoz berishlari mumkin.

To’g’ridan-to’g’ri saylov huquqi ko’p pog’onali saylovdan farq qilib, ko’p pog’onali saylovda pastki pog’ona vakillik organi yuqori pog’ona vakillik organiga o’z vakillarini saylaydilar.

To’g’ridan-to’g’ri saylov huquqining ustunligi shundaki, bunday saylov tartibida davlat hokimiyatining hamma saylanadigan organlari bevosita xalqning vakillik organi hisoblanadi. Bu saylov tartibi saylovchilar bilan vakillik organlari o’rtasidagi aloqani mustahkamlashga, vakillik organlarining faoliyatini saylovchilar tomonidan yaxshiroq nazorat etishga, deputatlarning bevosita saylovchilar tomonidan chaqirib olinishini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

O’zbekiston Respublikasida vakillik organlariga va Respublika Prezidentiga saylovlarda ovoz berishning erkinligi va yashirinligi ta’minlanadi. Bu shuni bildiradiki, saylovda ovoz beruvchilarning xohish-irodasi nazorat qilinishiga yo’l qo’yilmaydi. Uchastka saylov komissiyalari ovoz berishni maxsus ajratilgan binolarda tashkil etib, fuqarolarga o’z xohish-irodasini erkin va yashirin ravishda bildirish imkoniyatini yaratadilar. Buning uchun saylov uchastkasidagi ovoz berish binosida, saylov byulletenlarini to’ldirish uchun albatta alohida xona yoki kabina bo’ladi. Kabinada ovoz berayotgan shaxsdan boshqa biror kimsaning, shu jumladan saylov komissiyasi a’zolarining hozir bo’lishi taqiqlanadi. Byulleten’ saylov qutisiga shaxsan saylovchi tomonidan tashlanadi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, O’zbekiston Respublikasida saylovlar saylovchilarning o’z xohishi bilan ixtiyoriy ravishda qatnashishi asosida o’tkaziladi. Hech kim fuqarolarni majburiy ravishda saylovga qatnashish yoki qatnashmaslikka majbur qilolmaydi va bunga qonun yo’l qo’ymaydi. Saylovchilarning saylov vaqtida erkin xohish bildirishini ta’minlaydigan yana bir omil, saylov qonuniga asosan, saylov kuni tashviqot yuritishga yo’l qo’yilmaydi.

O’zbekiston Respublikasida Respublika Prezidenti lavozimiga, Respublika Oliy Majlisiga va boshqa vakillik organlariga saylovlarni tayyorlash va uni o’tkazish ochiq va oshkoralik asosida amalga oshiriladi.

Saylovlar oshkoralik prinsipi asosida o’tkazilishini bildiruvchi yana bir narsa - saylovchilarning Respublika Prezidentligiga ko’rsatilgan nomzodlarni va hokimiyatning vakillik organlariga ko’rsatilgan nomzodlarni yoqlab yoki ularga qarshi tashviqot yuritish huquqiga egaligidir[1].

Bundan tashqari, har bir saylovchi, qonunga asosan, saylov davomida saylov okruglari va uchastkalarini tuzishga, saylov komissiyalarining tarkibi, komissiyalar joylashgan manzil va ish vaqti, deputatlikka nomzodlarni ro’yxatga olish, ovoz berish va saylov yakunlariga doir axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Tegishli saylov komissiyalarining saylov okruglari va uchastkalarini tuzish, saylov komissiyalarining tarkibi to’g’risidagi, shuningdek deputatlikka nomzodlarni ro’yxatga olish, ovoz berish va saylov yakunlari qarorlari esa matbuotda e’lon qilinadi.

Saylovchilar saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar va ayrim nomzodlarning kelgusi faoliyat dasturi bilan tanishish huquqiga ham egadirlar.

Saylovchilarning huquqlari sud yo’li bilan ham himoya etiladi. Saylov komissiyalarining, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalarining g’ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan har bir saylovchi sudga shikoyat qilish huquqiga ega va bu imkoniyatni amalga oshirish davlat tomonidan kafolatlanadi.

3. Saylovlarni o‘tkazish tartibi

Deputatlar saylovi oldingi chaqiriq davlat vakillik organlari depu- tatlarining vakolat muddati tugashiga kechi bilan uch oy qolganda Oliy Majlis tomonidan tayinlanadi. Oliy Majlis vakillik organlariga saylov tayinlaganidan keyin uch kun ichida saylov kuni to‘g‘risida matbuotda ma’lum qilinadi. Oliy Majlisga deputatlar saylovini o‘tkazuvchi saylov okruglari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ma’muriy hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi. Saylov okruglari, qoida bo‘yicha, 0‘zbekiston Respublikasining butun j hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi. Har bir saylov uchun » saylov okrugiga to‘g‘ri keladigan saylovchilar normasi Oliy Majlis tomonidan belgilanadi.

Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida saylov okruglarining ro‘yxati, ulaming chegaralari va saylovchilar sonini ko‘rsatgan hoi- I da, saylov tayinlanganidan keyin kechi bilan o‘n besh kun ichida e’lon qilinadi. Saylov okrugi - saylov o‘tkazish uchun Konstitutsiya va saylov to‘g‘risidagi qonunlar asosida belgilab qo‘yilgan hududiy saylov birligidir.

Deputat qaysi okrugdan saylangan boisa, u shu okrug aholisining vakili deb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunga asosan, Oliy Majlisga saylov o‘tkazish uchun ikki yuz ellikta saylov okrugi tuziladi.

0‘zbekiston Respublikasi mahalliy Xalq deputatlari Kengashlariga saylov to‘g‘risidagi qonunga asosan xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 60 tadan saylov okruglari tuziladi. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 30 tadan saylov okruglari tuziladi.

Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi. 0‘zbekiston Res- publikasida saylovlami tashkil qilish hududiy prinsipga asoslanadi, shu- ning uchun saylovlar saylov okruglari orqali amalga oshiriladi.

Saylov to‘g‘risidagi qonunlarga asosan saylov uchastkalari shahar, tuman hokimlarining taqdimnomasiga asosan okrug saylov komissiya- lari tomonidan tuziladi. Harbiy qismlarda saylov uchastkalari qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. 0‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida saylov uchastkalari Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Saylov uchastkalari saylov tayinlangandan keyin o‘ttiz kundan kechikmay, tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 3000 nafar saylovchilardan iborat qilib, tuziladi.

0‘zbekiston Respublikasida saylovni tashkiliy ravishda o‘tkazish uchun quyidagicha saylov komissiyalari tuziladi:

Markaziy saylov komissiyasi.

Okrug saylov komissiyasi.

Uchastka saylov komissiyasi.

0‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi 0‘zbekis- ton Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis deputatlari saylovlarini, shuning- dek, 0‘zbekiston Respublikasi Relercndumini tashkil etish va o‘tkazish uchun tuziladi luimda u 0*7. faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatida 0‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, saylov to‘g‘risidagi qonunlarga, referendum to‘g‘risidagi qonunga va boshqa qonunlarga amal qilgan holda ish olib boradi. Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis tomonidan o‘n besh nafar a’zodan iborat tarkibda tuziladi. Markaziy saylov komissiyasining a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining tavsiyasi bo‘yicha Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadilar.

Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a’zolari orasidan Prezidentning taqdimnomasi bilan komissiya majlisida saylanadi. Raisning o‘rinbosari va komissiya kotibi komissiya a’zolari orasidan komissiya majlisida saylanadilar. Markaziy saylov komissiyasi respublika hududida saylov to‘g‘risidagi qonunning ijro etilishini nazorat qiladi va uning hamma joyida bir xilda qoilanishini ta’minlaydi. 0‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining vakolatlari 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunning 11-moddasida to‘liq ko‘rsatilgan.

Okrug saylov komissiyasi saylov e’lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan yigirma kundan kechikmay rais, rais o‘rinbosari, kotib va yana kamida 6 nafar a’zodan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyalarining vakolatlari 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunda to‘liq ko‘rsatilgan. Saylov okrugi saylov to‘g‘risidagi qonunning ijrosini nazorat qiladi, saylov uchastkalarini tuzadi va ularga rahbarlik qiladi, deputatlikka nomzodlar- ga saylov kampaniyasida ishtirok etishlari uchun teng sharoit yaratilishi- ni ta’minlaydi, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan deputatlikka nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlami e’lon qiladi va bu nomzodlarga tegishli guvohnomalar beradi, saylov okrugi bo'yicha saylov natijalarini aniqlaydi va Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi va qonunda ko'rsatilgan boshqa vakolatlami amalga oshiradi.

Uchastka saylov komissiyasini okrug saylov komissiyasi tuzadi. Uchastka saylov komissiyasi saylov tayinlangandan keyin ellik kundan-. kechikmay 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o‘rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. 0‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari hududida uchastka saylov komissiyasi | raisining vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

0‘zbekiston Respublikasi vakillik organlariga saylovlarga tayyor- garlik ko'rish, ovoz berishni tashkil qilish va berilgan ovozlami sanab chiqish uchun saylov uchastkalariga bo‘linadi. Uchastka saylov komissiyasi aholini saylov kuni va ovoz berish joyi to‘g‘risida xabardor qiladi.

Ovoz berish binolari va saylov qutilari hamda boshqa saylov ashyolari tayyorlab qo‘yilishini ta'minlaydi. Oliy Majlisga saylov to‘g‘risidagi qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari to'liq ko‘rsatilgan.

0‘zbekiston Respublikasida saylovga tayyorgarlik ko'rish va ular- ni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar orasida deputatlikka nomzod- lar ko‘rsatish eng muhim va mas'uliyatli tadbirlar hisoblanadi.

Oliy Majlis deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish saylov kuni tayin- Ianganidan keyin yigirma beshinchi kundan e'tiboran boshlanadi va saylovga qirq besh kun qolganida to‘xtatiladi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari sessiyalarida hamda fuqarolar guruhi Oliy Majlis deputatligiga nomzod ko‘rsatish uchun tegishli saylov okrugining kamida yuz nafar saylovchisidan iborat tashabbuskor guruh tuzishi mumkin va deputatlikka nomzod ko‘rsatish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiya saylov e'lon qilgan kundan kamida olti oy oldin 0‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan bo‘lsa, deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga ega.

Siyosiy partiyalar, vakillik organlari va saylovchilar tashabbuskor guruhlari Oliy Majlisga 250 ta nomzod ko‘rsatish huquqiga egadirlar. Deputatlikka ko‘rsatilgan nomzod faqat bitta okrugdan o‘tishi mumkin.

Deputatlikka nomzod tanlashni siyosiy partiyalar, hokimiyatning vakillik organlari va saylovchilar tashabbuskor guruhlarining o‘zlari hal etadilar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Saylovlar o'tkazishning qaysi prinsiplarini bilasiz?
2. O'zbekiston Respublikasida saylovlar o'tkazish muddatlari qanaqa?
3. Saylovga nomzodni taqdim etish va ro'yxatdan o'tkazish tartibini ayting.
4. Bir deputatga yetarli eng kam ovoz berilishi raqami qanday belgilanadi?
5. Referendum o'tkazish prinsiplarini keltiring.

ADABIYoTLAR RO‘YHATI

1. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. - Т.: Ўзбекистон, 2005.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2001.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.: Uzbekiston, 2001.
4. "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайловлар тўғрисида"ги қонуни. Қўшимчалар ва ўзгартиришлар билан // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 2003.
5. "Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Қўшимча ва ўзгартиришлар билан // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 1998. 3-сон. 38-м.
6."Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларига сайлов тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Ўзгартиришлар ва қўшимчалар билан, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 2003.

7. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.
8. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.
9.Tadjixanov U., Saidov A., Odilqoriev X.. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). –T.:Sharq, 2001.
10. www.gov.uz
11. www.lex.uz

OLIY MAJLIS – O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY VAKILLIK ORGANI VA QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYAT

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: talabalarda davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi hokimiy hokimiyatning taqsimlanish tamoili, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvcb hokimiyatning shakllanishi va takomillashib borishi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosilqilish orqali, ulaming huquqiy madaniyatini oshirishga yordam berish.

Tushuncha va tayanch iboralar: hokimiyat, davlat hokimiyati, siyosiy hokimiyai hokimiyatning taqsimlanish tamoili, demokratik respublika, xalq vakillik organi, parlament.

Asosiy savollar:

1. Davlat hokimiyati tushunchasi va uni tashkil etishning konstitutsiyaviy **tamoillari.** Davlat hokimiyati tizimida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rni va ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasida qonunchiqaruvchi hokimiyatning vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning shakllanishining tartibi.

“Aqliy xujum” savollari:

1. 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qachondan ikki palatadan iborat bo‘ldi?
2. 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining vazifasi nimalardan iborat?
3. 0‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning vazifasi nimalardan iborat?

1. Davlat hokimiyati tushunchasi va uni tashkil etishning konstitutsiyaviy tamoillari.

Davlat hokimiyati tizimida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rni va ahamiyati.

Davlat hokimiyati tizimida qonun chiqaruvchi hokimiyat orni va ahamiyati.

Fuqarolarning tinchligi, millatlararo totuvlik, halqning baxt-saodatini ta'minlashni bosh maqsad qilib qo'ygan har qanday davlat, bunday maqsadga erishish asosiy vositalaridan biri bo'lgan davlat hokimiyatini shakllantirish va uning faoliyatini tashkillashtirishda demokratik tamoillar hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Zero, davlat hokimiyati xalq manfaatini ko'zlagan holda amalga oshirilib, uning asosiy vazifasi inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashdir.

Hokimiyat bu u yoki bu kishi ustidan boshqarish, hukm yuritish, u yoki bu narsaning taqdirini hal etish huquq, imkoniyatidir. Hokimiyat bo'ysinishdagi shaxsga nisbatan ta'sir o'tkazilishini, shunday ta'sir o'tkazish huquqi borligini nazarda tutadi.

Hokimiyat bu hukmronlik qiluvchilarning o'z irodalariga o'zgalar, ya'ni tobelar irodasini bo'ysindirish yuzasidan bo'ladigan real imkoniyati va qobiliyatidir.

Davlat hokimiyati alohida ijtimoiy-siyosiy hokimiyat bo'lib, uning irodasi butun jamiyatning irodasi sifatida ilgari suriladi.

Mustaqillik yo'lida sobitqadamlik bilan ilgarilab borayotgan O'zbekiston Respublikasi ham o'z davlatchilik tuzilmasini shakllantirishda jahon davlatchilik va parlamentarizmning boy tajribasiga suyanib, milliy qadriyat va manfaatlar ustuvorligidan kelib chiqadi. Jumladan, Respublikamiz davlatchiligi hamda mamlakat demokratik tarraqiyoti *insonning siyosiy huquqlarini xalqaro andozalar miqyosida belgilanishi, xalqaro huquq ustunligi, hokimiyatlar*

taqsimlanishi, davlatning asosiy muassasalari va mahalliy o 'zini-o 'zi boshqarish idoralarining saylanishi, ко 'ppartiyaviylik, mafkuraviy plyuralizm tamoillarining amalda qo'llanishi bilan chambarchas bog'liq ekan, bu tamoillarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining ifodasini topgan va ular asosida davlat hokimiyat organlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi parlamenti shakllantiriladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7 moddasida e'tirof etilishicha, davlat hokimiyatining birdan bir manbai - xalq. Uning xohish irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi huquqiy demokratik davlatning muhim prinsiplaridan biri bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat hokimiyatining vakillik organlariga va o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylanish va saylash, shuningdek, roeferendumda ishtirok etish huquqida namoyon bo'ladi.

Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyatini shakllantirish hamda davlat rahbarini saylashda keng ifoda etilib, xalqning xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi amalda namoyon bo'ldi.

Davlat hokimiyatini shakllantirishda hokimiyatni taqsimlash tamoiliga asoslanish har qanday davlatning demokratik hususiyatini belgilab beradi. Davlat hokimiyatining taqsimlanishi asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Mazkur prinsip hokimiyat organlarining o'zaro kelishib, bir-birini nazorat qilib, uyg'unlashib ishlashlariga imkoniyat yaratib, adolatli, demokratik davlat qurishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Hokimiyatlarning taqsimlanishi g'oyasi antik davr donishmandlari Platon, Aristotel, Polibiy, Likurgning asrslarida o'z ifodasini topgan. Hokimiyatlarning taqsimlanishi nazariyasi otalari bo'lmish Jon Lokk, Sharl Monteske hokimiyatlarning taqsimlanishi inson huquqlarini ta'minlanishining eng muhim vositasi sifatida talqin qilishgan. Zero, hokimiyatning biron bir organ yoki shaxs qo'lida mujassam boiishi umumiy manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste'molliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan aslo sig'ishmaydi.

Monteske ta'limotida davlat hokimiyatining taqsimlanishi hokimiyatlarning muvozanati, tengligi va o'zari bir-birini tiyib turish va qarama-qarshi ta'sir etish tizimini joriy etilishini ta'minlashi to'g'risida gap boradi.

Davlat hokimiyat organlarini umume'tirof etilgan demokratik tamoillar asosida shakllantirish, davlatning nechog'lik demokratik, huquqiy davlat ekanligini ko'rsatish maqsadida emas, balki, O'zbekiston barcha fuqarolarining manfaati, haqiqiy demokratik, huquqiy davlatni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda parlamentarizmni rivojlantirish va parlament faoliyatini takomillashtirish aynan shu maqsadga qaratilgan bo'lib, respublikamizda qonun chiqaruvchi hokimiyat , islohatlari nimadan iborat ekanligi va ularni amalga oshirish huquqiy shart-sharoitlari nimadan iborat ekanligi bilan ushbu malakaviy ishda tanishib chiqamiz. **Qonun chiqvruvchi hokimiyat -** bu davlat oliy vakillik organining qonunlar qabul qilish, ularni o'zgartirish va bekor qilish bo'yicha alohida, huquqi, vakolatidir. **Qonun chiqarish -** davlatning o'ta muhim funksiyalaridan biri bo'lib, u saylab qo'yiladigan oliy vakillik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning irodasini qonun shaklida ifoda etishdir.

Insoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hisoblangan hamda jamiyatning umuinmilliy vakillik muassasasi sifatida dunyoga kelgan **parlament** uzoq yillar davomidagi tarixga ega va uning ildizlari XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. Parlament so'zining lug'aviy ma'nosi fransuz tilidan olingan bo'lib, "gapirmoq" ma'nosini

anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi K va uning chinakam tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish **parlamentlar,** aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadilar. Parlament murakkab mexanizm, partiyaviy, min6taqaviy, guruhiy, shaxsiy manfaatlarning murakkab chatishmasidir. Unda ijtimoiy manfaatlarning oshkora ifoda etilishi parlamenti hokimiyat ramoqlari bilan turli davlat organlari o'rtasidagi, markaz bilan mintaqalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartarf etishning f ochiq minbarig aylantradi.

2. O'zbekiston Respublikasida qonunchiqaruvchi hokimiyatning vujudga kelishi va rivojlanishi.

Qonunchilik hokimiyati davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu — hokimiyatni isloh qilish, uning faoliyatini takomillashtirish, bir tarafdan, davlat hokimiyati butun tizimining tarixiy evolyusiyasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tarafdan kishilik jamiyati tarraqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakatimiz taqdirini tubdan o'zgartirib yuborgan tarixiy voqea-xodisalar, ya'ni mamlakatimizning mustaqillikka erishishi qonun chiqaruvchi hokimiyat mazmun - mohiyatiga yangicha qarashni, uni davlat hokimiyati organlari tizimidagi mavqeini o'zgaritirishni taqozo etdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgan bir davrda qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishga vazmin munosabat yetishmas edi. Qonun hujjatlari fuqarolarning ayrim guruhlari o'z fikrlarini mitinglar va namoyishlar, ultimatumlar yo'li bilan bildirgan, shu zayl davlat hokimiyati organlariga bevosita ta'sir o'tkazishga harakat qilgan, siyosiy ehtiroslar junbushga kelgan bir vaziyatda qabul qilingan holar ham bo'lgan. Zero, totalitar tuzumdan ozod bo'lgan mamlakatlarda parlamentarizm muammolari juda o'ziga hosdir. Bir qarashda, bunday davlatlarda demokratik institutlar, shu jumladan vakillik institutlari shakllantiriladi, erkin saylovlar o'tkaziladi, yangi konstitutsiyalar qabul qilinadi, parlament institutlarining qaror topishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Lekin totalitar tuzumdan qutilgan mamlakatlarda siyosiy madaniyatning rivojlanmaganligi, ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirishdagi muammolar barcha sayi harakatlarni yo'qqa chiqaradi. Respublikamizda asl qonun chiqaruvchi hokimiyatni qaror toptirish aynan shu muammolarni bartaraf etish bilan bog'lab qo'yildi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990 yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi - Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmokda edi. Demokratik islohatlarni bosqichma bosqich amalga oshirish yo'lidan borayotgan davlatimizda birdaniga Oliy Kengash tarqatilib yuborilmay, mustaqilligimiz asoslarini, davlatimiz rivojining huquqiy poydevorini yaratishdek muhim va ma'suliyatli vazifa endi bu organning asosiy vazifasi etib tayinlandi. 1990-1994 yillarda konun chikaruvchi xokimiyat organi sifatida faoliyat kursatgan Oliy Kengash o'z vakolat muddati davrida 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qaror qabul qildi- ki, ularning ahamiyatini hech ham kamsitmaymiz..

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respubliksining Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi.Uning 76-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi» deb belgilab berildi. Oliy Majlis maqomining konstitutsiyaviy -huquqiy mustahkamlanishi ilgari mavjud bo'lgan Oliy Sovetdan shunchaki voz kechilganinigina emas, balki O'zbekistonda chinakam parlamentarizm qaror topayotgani va rivojlanayotgani, ya'ni parlament alohida o'rin tutgani holda tuzilishiga ko'ra va vazifalari jihatidan hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi, qonun ustuvorligi tamoillariga asoslangan qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etishning demokratik tizimi rivojlanayotganligini bildaradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq bir palatali parlament - Oliy Majlisni shakllantirishga kirishildi. 1993 yil 8 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisiga saylov to'g'risida»gi, 1994 yil 22 sentyabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunlar kabul kilinadi-ki, ular asosida Oliy Majlis O'zbekiston yangi davlatchiligi tuzilmasida munosib o'rin egalladi, torn ma'noda umume'tirof etilgan mazmun-mohiyat kasb etdi, qonun chiqaruvchi oliy organ-parlamentaga aylandi hamda hokimiyatning boshqa tarmoqlariga maqom jihatdan tenglashdi.

Mustaqilligimizning ilk davrlarida majud siyosiy-huquqiy sharoitni, hozirgi kunda mavjud siyosiy-huquqiy muhit, fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyati va faolligi bilan tenglashtirib boimaydi. Bunday yutuqlarga erishishimzda, albatta qonunchilik faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi katta ahamiyat kasb etdi. Mustaqillikning o'tish davrlarida hech qanday huquqiy asoslar bo'lmagan bir sharoitda, ijtimoiy turmushni isloh qilish sharoitida, demokratik institutlar rivojlanmagan, professional siyosatchilar safi yetarli darajada to'lmagan bir paytda mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiluvchi zarur qonun hujjatlarini uzoq cho'zmay, tezroq qabul qilish vazifasi bir palatali parlamentga yuklatilishi hozirgi kunda bu sohada erishgan yutuqlarimizning asosiy sababidir.

1994 yil 25 dekabr kuni saylangan 1-chaqirik O'zbekiston RespublikiMuning Oliy Majlisi va 1999 yil 5 dekabr kuni saylangan 2-chakirik Uzbekistan RespublikuHi Oliy Majlisi bir palatadan iborat bo'lib, ularni, saylash jarayoni va faoliyatlari bir biridtui iuqarolar siyosiy faolligining oshishi bilan, jamiyatda fikrlar hilma-hilligini shaklanishi biltin lubdan farqlana boshladi. Bu esa sekin astalik bilan qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilish vaqti kelayotganlidan dalolat edi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning shakllanishining tartibi.

Respublikapmiz Prezidenti I.Karimov 2000 yil 25 may kuni ikkinchi chakirik U/.bekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida kilgan ma'ruzalarida, milliy parlament tarraqiyoti uchun mutlaqo yangi g'oyani - doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritdilar. Bu demokratik isloxatlarni boskichma-boskich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda Respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan goya edi. O'tish davrining murakkab tarixiy sharoitlarida shakllangan Oliy Majlis uchun bunday islohat uning barcha institutlari jamiyat va davlat bilan birga siyosiy, iqtisodiy sohalardagi hamda xalqaro maydondagi kuchlar nisbatini aks cttirgani holda o'z faoliyatini tashkil etishining maqbul shakllarini tanlab, qonun chiqarish va boshqa vazifalarni yanada samarasini oshirish uchun zo'r imkoniyat edi. Zero, ikki palatali parlament:

- mamlakatning mintaqalari, kichik tuzilmalari, olisroq joylashgan qismlarining manfaatlariga rioya etilishi;
- qonunlar chiqarish jarayonida uchraydigan populizm, lobbizm va yengil-elpi, tor doiradagi manfaatlar ustunligi;
- ijroiya hokimiyati bilan bir palatali parlament o'rtasidagi ortiqcha tortishuvlar;
- parlament va hukumat vakolatlarining aralashib ketishiga chek qo'yish imkoniyatiga ega.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ikki palatali parlament, asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lgan huquqiy davlat barpo etishning, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishning eng yaxshi vositasi deb ta'kidlashimiz mumkin. Undan tashqari ikki palatali parlament qonun chiqaruvchi organning tutgan o'rni, mavqei mustahkam bo'lgan va parlament an'analari rivojlangan davlatlar uchun xos bo'lib, uning davlat hokimiyat_ organlari tizimidan o'rin egallashi mamlakatning tarixiy an'analariga, milliy hususiyatlariga, iqtisodiy va ijtimomiy taraqqiyot darajasiga ham bog'liq. Darhaqiqat, mustaqilligimizning ilk davrlarida mavjud bo'lgan siyosiy, iqtisodiy - ijtimoiy shart-sharoit bir_ palatali parlament tizimini joriy etishni taqozo etgan bo'lsa, "jamiyatimizning tez suratlar bilan o'zgarishi, odamlar ma'naviy ulg'ayish yo'lida ildam qadam tashlashi" bir palatali parlamentdan ikki palatali parlament tizimiga o'tishni taqazo etdi.

Ikkinchi chaqirik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama kilinib, ikki palatali professional parlament tuzish va uning faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omillar - yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar,- iqtisodchilar va boshqa mutahassis kadrlar korpusi shakllanib yetilganligi, ko'ppartiyaviylikka asoslangan siyosiy tizim shakllanganligi, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining^ ortganligini inobatga olgan holda parlamentni ikki palatali kilib tuzish zarur degan xulosaga kelindi.

Respublika Konstitutsiyasida mustahkamlangan davlat hokimiyati tizimini tubdan_ o'zgartirish murakkab siyosiy-huquqiy jarayon bo'lib, bunday o'zgarishlarni amalga oshirish mavjud konstitusion normalarga o'zgartirish kiritishni taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstisiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstisiyasiga o'zgartirish- tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari ve Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdanikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi. Ushbu— Konstitusion normadan kelib chiqqan holda, hamda hal etilishi nazarda tutilgan masak

"jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalaridan"[2] biri ekanligini inobatga olgan holda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining yettinchi sessiyasi 2001 yilning 6 dekabrida ***"O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risV'da*** *tarixiy* ***qaror*** qabul qilib, unga ko'ra 2002 yil 27 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasida "O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylash" hamda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish» masalalari bo'yicha referendum o'tkazish belgilandi. Umumxalq muhokamasiga qo'yilgan ushbu ikki masala bo'yicha to'liq ijobiy yechimga erishilib, referendum natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yil 2 aprelda qabul qilingan ***"Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Qonstitutsiyaviy qonunda*** mustahkamlandi. Ushbu qonun mamlakatimizda ikki palatali parlament tuzish uchun asos bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakillik organi bo'lib, ikki palatadan - Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi (quyi palata) hamda Oliy Majlisning Senati (yuqori palata)dan iborat bo'ladi.

Ushbu ikki palataning parlament tuzilmasidagi o'rni va mavqeini belgilashda 2002 yil 12 dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining X sessiyasi qabul qilgan ***"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»*** va ***"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risda»gi*** **Konstitutsiyaviy qonunlarning** ahamiyati katta bo'lib, ushbu qonunlar ikki palatali parlament shakllantirishning huquqiy asoslari tizimida va ikki palatali parlament shakllantirish jaryonida muhim huquqiy ahamiyat kasb etdi.

Bir palatali parlament tizimidan ikki palatali parlament tizimiga o'tish jarayonida Konstitutsiyamizning XVIII (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi), XIX (Prezident), XX (Vazirlar Mahkamasi), XXIII (Saylov tizimi) boblariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga huquqiy asos bo'lib hizmat qilgan 2003 yil 24-aprelda qabul qilingan ***"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunmng*** ahamiyati o'zgacha bo'lib, aynan shu Konstitutsiyaviy Qonun asosida o'zgartirilgan Bosh Qomusimiz meyorlariga binoan, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Oliy majlis ikki palatadan, ya'ni Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat bo'ladi.

Mamlakatimizda parlament tizimini isloh qilish jarayoni 2003 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan ***"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun*** asosida 2004 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti - Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamda joylardagi davlat hokimiyat vakillik organlariga bo'lib o'tgan saylovlarda o'zining mantiqiy davomini topadi.

Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitusion islohotlar, shuningdek asosiy konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi. Saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi Qonunga muvoflq, saylov uchastkalariga bo'lingan 120 ta saylov okrugi tashkil etdi. Saylovning birinchi bosqichi 2004 yil 26 dekabr kuni o'tkazilib, 62 nafar xalq noibi, 2005 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi bosqichda Qonunchilik palatasiga 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhlari ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi. Saylovda quyidagi siyosiy partiyalar ishtirok etdi: O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi (2000 yilning iyunida «Fidokorlar» partiyasi «Vatan taraqqiyoti» partiyasi bilan

birlashgan), O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, shuningdek O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi.

Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarining ana shu tarixiy anjumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov dasturiy ma'ruza qilib, unda jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilashning aniq va teran asoslantirilgan konsepsiyasini, shuningdek mamlakatimizni 2005 yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilishning asosiy vazifalarini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan 2005-2009 yillarga mo'ljallangan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hokimiyati tuzilmasidagi navbatdagi islohatlar **2008 yilda qabul qilingan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillshtirilishi munosabati bilan O'Rning ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish—haqida"gi Qonuniga** muvofiq amalga oshirildi. Unga ko'ra, Jamiyatni demokratik yangilash va mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarida mamlakat oliy qonunchilik organi, joylardagi hokimiyat vakillik organlarining roli va o'mini yanada kengaytirish- hamda mustahkamlash maqsadida qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari soni 120 tadanl50taga ko'paytirildi. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning faqat siyosiy partiyalardan ko'rsatilishi esa qonunchilik, vakillik organlarini shakkllantirishda siyosiy partiyalar rolini oshirdi.

Saylovlarda fuqarolik jamiyati institutlari roli va ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirildi. Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyat va aholi salomatligini yaxshilash uchun kurashish masalalari, ya'ni hal etilishidan, o'z siyosiy yo'nalishidan qat'i nazar, jamiyatning barcha_ qatlamlari manfaatdor bo'lgan muammolarning o'ta muhimligidan kelib chiqqan holda O'R OM Qpda O'Ekologik harakatidan saylangan deputatlarga 15ta deputatlik o'rni berildi.

3. O'R OM shakllantirishning umumiy huquqiy jihatlari.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Oliy Majlis Senatini shakllantirish tartib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 2003 yil 29 avgustadla yangi tahrirda qabul qilingan "***O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun*** bilaf tartibga solinadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Oliy Majlis Senatini shakllantirish jarayoni. ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda bir-biridan farqlansa-da, bu ikki palatan shakllantirish tartibini belgilab beruvchi umumiy meyorlar bilan tanishib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarini shakllantirishda **umumiy ahamiyatga ega bo'lgan meyorlardan** biri deputatlikka nomzod shaxslarning *yoshini belgilab beruvchi* meyordir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati A'zosi bo'lishi mumkin. Har bir suveren davlat o'z qonunchiligida saylov huquqi senzlarini, ya'ni saylov huquqining qonuniy cheklovlarini belgilab, hozirda saylov huquqining, asosan, saylovchi va saylanuvchining yoshi jihatidan cheklovlari belgilangan. Bu masala bir qancha mamlakatlarning Konstitutsiya va qonunchiligida deyarli shunday hal etilgan bo'lib, masalan AQSh Kongressining yoki Yaponiya parlamentining vakillar palatisiga 25 yoshga to'lgan fuqarolar, Yaponiya parlamentining maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to'lgan fuqarolar saylanishi mumkin. Passiv saylov huquqining yosh jihatdan chegaralanishi, saylanuvchilarning davlat va jamiyat hayotida faoliyat olib borishlari uchun ozmi-ko'pmi ma'lum hayot tajribasiga, chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari lozimligi bilan bog'liq bo'lib, jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzlari mavjud.

Oliy Majlis palatalarini shakllantirishda umume'tiborga loiq masalalardan biri nomzod shaxslarning *siyosiy-huquqiy tegishliligi* masalasi bo'lib, bu masala O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatligiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati A'zoligiga kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z nomzodlarini qo'ya olishlarini belgilab qo'ygan Konstitutsiyaning 77-moddasida o'z yechimini topgan. Yuqorida bayon etilgan saylanish huquqi siyosiy huquqlar turkumiga kirib, boshqa huquqlardan, masalan shaxsiy yoki ijtimoiy huquqlardan farqli o'laroq, siyosiy huquq insonda, uning biror bir davlatga siyosiy-huquqiy tegishliligi bo'lgandagina vujudga keladi. Ya'ni siyosiy huquqlar insonning aniq davlat fuqaroligiga ega bo'lishi bilan bog'liq huquqlar bo'lib, insonga siyosiy jarayon va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Siyosiy huquq bo'lmish passiv saylanish huquqi davlat tomonidan faqatgina o'z fuqarolariga berilib, fuqaro ushbu huquqdan o'zi tegishli bo'lgan davlat hududidagina va ushbu davlat manfaatini ko'zda tutgan holdagina foydalana olishi mumkin.

Konstitutsiyada e'tirof etilgan yuqoridagi umumiy talablardan tashqari, ***"<O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun*** Oliy Majlis saylovlarida o'z nomzodlarini qo'yish yo'li bilan ishtirok etmoqchi bo'lgan shaxslarga nisbatan bir necha talablarni belgilab qo'ygan-ki, ularga ko'ra:

- sodir etgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;
- saylov tayinlangan kunga qadar so'nggi 5 yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamagan fuqarolar;

-O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari;

- diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77 moddasiga asosan **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi** hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat bo'lib, ularning vakolat muddati 5 yil.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarga tayyorgalik saylov komissiyalari tomonidan ochiq va oshkora tarzda olib borilib, bunday tayyorgarlik ishlari ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi.

Qonunchilik palatasiga saylovlar o'tkazish uchun ***135ta xududiy saylov okruglari tashkil etilib,*** okruglar chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan, saylovchilarning teng miqdorini hisobga olgan holda belgilanadi. Har bir hududiy saylov okrugidan bir nafar deputat saylanadi. Saylovlarda saylovchilarga mumkin qadar qulayliklar yaratish maqsadida, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlarning chegaralarini inobatga olgan holda saylovlarga qadar 60 kun oldin ***saylov uchastkalari tuzilib,*** ularning chegaralari tegishli saylov okruglari doirasidan chiqib ketmasligi kerak. Barcha saylovchilarning saylov huquqlarini birdek ta'minlash maqsadida xorijiy davlatlardagi vakolatxonalar huzurida, sanatoriyalar va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa stasionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin yerlardagi fiiqarolar turgan joylarda, alohida saylov uchastkalari tuzilishi mumkin. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar ko'pi bilan 3 ming nafar saylovchilardan iborat tarkibda tashkil etilishi lozim. Saylov uchastkasi bo'yicha saylov uchastka komissiyasi ***saylovchilar ro'yxatini tuzib,*** ushbu ro'yxatga O'zbekiston Respublikasida saylov kuniga qadar yoki saylov kuni 18 yoshga to'ladigan, ro'yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotgan fuqarolarning familiyalari kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlar jarayonida ***nomzodlarni ko'rsatish bosqichi*** juda katta ahamiyatga ega bo'lib, deputatlik lavozimiga saylanishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi aniqlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarni ko'rsatish siyosiy partiyalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda, siyosiy partiyalar saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida 4oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan, saylovda ishtirok etishini qo'llab-quwatlovchi yigirma ming saylovchining imzosini to'plagan bo'lishi lozim. Saylovlarga kami bilan 70 kun qolgunga qadar siyosiy partiyalar Markaziy saylov komissiyasiga

- ro'yxatga tegishli tartiba olinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- imzo varaqalari hamda
- partiya rahbari tomonidan imzolangan saylovlarda ishtirok etish uchun ariza taqdim qilishlari lozim.

Markaziy saylov komissiyasi ***esa tegishli hujjatlar taqdim qilingan kundan e'tiboran besh kun davomida*** partlyani saylovlarda qatnashishi to'g'risida qaror qabul qilishi ***lozim..***

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalar tomonidan saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugaydi. Deputatlikka nomzod tanlash tartibi siyosiy partiyalarning o'zlari hal qilgan holda, har bir okrugdan bitta deputat, ya'ni 135 nomzod ko'rsatishga vakolatlidir.

Qonunchilik palatasiga saylovlarning keyingi bosqichi ***Markaziy saylov komissiyasi tomonidan deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish*** hisoblanadi. Buning uchun siyosiy partiya rahbari deputatlikka nomzod shaxslarni ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza bilan Markaziy saylov komissiyasiga muroajat etib, arizaga:

- siyosiy partiya yuqori organi majlisining deputatlikka nomzodlar ko'rsatish to'g'risidagi qarori;
- deputatlikka nomzod shaxslarning familiya, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi.- mutahassisligi, lavozimi, ish va yashash joyi, partiyaga tegishliligi, saylov okrugi raqami ko'rsatilgan siyosiy partiya yuqori organi majlisining bayonnomasi.

- deputatlikka nomzod shaxsning mazkur saylov okrugidan saylanishga rozilig"" to'g'risidagi arizasi;

- deputatlikka nomzod shaxsning Qonunchilik palatasi deputatligiga saylangani taqdirida egallab turgan lavozimidan ozod etilishi to'g'risidagi arizasi ilova qilinadi.

Markaziy saylov komissiyasi hujjatlar topshirilgan kundan e'tiboran 7 kun davomida o'larni o'rganib ***qonuit talablariga javob berishi to'g'risidagi hulosasini taqdim etadi.*** Deputatlikka nomzod shaxslarni ro'yxatga olish saylovlarga qadar 35 kun qolganida tugatiladi.

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga kiritilgan deputatlikka nomzodlar ***saylov oldi kampaniyalarini*** boshlashga haqlidirlar. Bunda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquq va sharoitlar yaratib berilib, deputatlikka nomzod 10 nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishi, nomzod ro'yxatga olinganidan keyin o'z ishonchli vakilarini o'zi belgilashi, deputatlikka nomzod qilib ro'yxatga olingan shaxs saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishi, saylovoldi yig'ilishlarida so'zga chiqish huquqiga egadirlar. Televidenie ko'rsatuvlari va radioeshittirishlarida qatnashish vaqtida, o'rtacha oylik ish haqi saylov o'tkazish uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan saqlangan holda, ishlab chiqarish yoki xizmat vazifalarini bajarishidan ozod bo'lish huquqiga ega.

"Referendum yakunlari hinula davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Qonstitutsiyaviy qonuniga ko'ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov Qonunchilik palatasi Konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda - dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlar saylov kuniga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilmagan, sud qarori bilan ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanmayotgan shaxslarning umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri, erkin va yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasini shakllantirishda eng muhim bosqichlardan biri ***ovoz berishdir.*** Negaki aynan shu bosqichda xalqning xohish-irodasi namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ovoz berish jarayoni saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lganida ochiladi hamda saylov kuni soat 6:00 dan 20:00 gacha o'tkaziladi.

Saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari hozirligida saylov qutisini muhrlaydi, saylov byulletenlarini va saylovchilarning ro'yxatlarini komissiya a'zolari o'rtasida taqsimlaydi hamda saylov boshlanganligini e'lon qiladi.

Ovoz berishga saylovchilar ro'yxatga turuvchi fuqarolar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan qatnashishlari lozim.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining ***natijalarini aniqlash*** uchastka saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan bayonnomalar asosida amalga oshiriladi. Okrug saylov komissiyalari taqdim etgan:

- okrug bo'yicha saylovchilar umumiy soni;
- saylov byulletenlari va varaqalari olgan saylovchilarning soni;
- har bir deputatlikka nomzodni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni;
- haqiqiy emas deb topilgan byulletenlar va varaqalar soni to'g'risidagi bayonnomalar asosida Markaziy saylov komissiyasi hisoblash jarayonini amalga oshiradi Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olgan deputatlika nomzod **deputat etib saylangan hisoblanadi.** Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarni ro'yxatga olib, bu to'g'risida deputatlarni habardor qiladi.

Saylov natijalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar ro'yxati saylovlar o'tkazilgandan keyin 10 kundan kechiktirilmagan holda matbuotda e'lon qilinishi lozim.

Agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ikki nafardan ortiq nomzod qo'yilgan bo'lsa-yu, ulardan birontasi ham saylanmasa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan ikki nafar nomzod bo'yicha okrugda **takroriy ovoz berishni** o'tkazish haqida qaror qabul qiladi va bu haqda Markaziy saylov komissiyasi hamda okrug saylovchilarini xabardor etadi. Takroriy ovoz berish tegishli Qonun talablariga rioya etgan holda ikki hafta ichida o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan deputatlikka nomzod, saylangan deb hisoblanadi.

Takroriy ovoz berishda saylovchilarning ishtirok etishi foizi hisobga olinmaydi.

Qonunchilik palatasi deputatining takroriy saylovi o;tkazilishi qonunda belgilangan bo Tib, u quyidagi hollarda o'tkaziladi:

a) agar saylov okrugida saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

b) agar takroriy ovoz berish Qonunchilik palatasiga deputat saylanganligini aniqlash imkonini bermagan bo'lsa;

v) agar saylov okrugi bo'yicha deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod ovozga qo'yilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa.

Qonunchilik palatasi deputatining takroriy saylovi Markaziy saylov komissiyasining topshirig'iga binoan okrug saylov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Bunda Markaziy saylov komissiyasi takroriy saylov yangi tarkibdagi okrug va uchastka saylov komissiyalari tomonidan o'tkazilishi zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ovoz berish asosiy saylov o'tkazish uchun tuzilgan avvalgi saylov uchastkalarida va saylovchilarning ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasi deputatining takroriy saylovi asosiy saylovdan keyin ko'pi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi. Saylov komissiyalarini tuzish, deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish va boshqa tadbirlar ushbu Qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga deputatlarni saylash tartibi

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasining o'n besh deputati mazkur harakatning oliy organi (Konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish va ularni saylash tartibi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasiga deputatlar sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ochiq hamda oshkora amalga oshiriladi.

O'zbekiston ekologik harakatidan Qonunchilik palatasi deputatlari etib saylanadigan shaxslarga "Oliy Majlisga saylovlar to'g'risadagi Qonunda nazardatutilgan talablar qo'yiladi.

Oliy Majlis yuqori palatasi hisoblanmish Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat. Senatning hududiy vakillik jihati, uni tashkil etish tartibini belgilab beradi.

O'zbekiston Resublikasi Oliy Majlisi Senat a'zolari 100 kishidan iborat bo'lib, uning ko'pchilik qismi, ya'ni 84 a'zosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyat vakillik organlari deputatlari orasidan saylanib, Senat a'zolarining qolgan 16 a'zosi esa eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbeksiton Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Ko'rib turganimizdak, O'zbekiston Respublikasi Senatini tashkil etishning ikki tartibi mavjud bo'lib, bu Senatning Qonunchilik hokimiyati tizimida, Qonunchilik hokimiyatining esa davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rni va mavqeini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77 moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyat vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, va Toshkent shahridan teng miqdorda - 6 kishidan saylanadi. Senatga saylovlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar

davlat hokimiyat vakillik organlariga bo'lib o'tgan saylovlardau keyin bir oydan kechiktirilmagan holda o'tkazilishi lozim. Senat a'zolarini saylash masalasi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyat vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislari basharti unda jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz yiqqan nomzodlar Senat a'zosi etib saylangan hisoblanadi, basharti ular uchun qo'shma majlisda ishtirok etgan deputatlarning 50 % ko'prog'i o'z ovozlarini bergan bo'lsa.

Agar ovoz berish chog'ida belgilangan miqdorda Senat a'zolari saylanmagan bo'lsa, saylanmay qolgan Senat a'zoligi uchun ovozlarning zarur miqdorini to'plamagan nomzodlar bo'yicha *takroriy ovoz berish* shu qo'shma majlisning o'zida o'tkaziladi.

Markaziy saylov komissiyasi davlat hokimiyati vakillik organlari qo'shma majlisi bayonnomalari asosida 5 kun davomida Senat a'zolarini ro'yxatga olishi lozim. Bunda Markaziy saylov komissiyasi Senat a'zolari saylovlarini haqiqiy emas deb topishlari mumkin, basharti saylovlar jarayonida, ovozlarni hisoblashda, yashirin ovoz berish natijalarini aniqlashda qonun buzilishi hollari aniqlansa.

Qonunchilik Senat a'zoligiga *takroriy saylovlar* o'tkazish hollarini ham belgilab, takroriy saylovlar:

- asosiy saylovlar noqonuniy deb topilgan;
- takroriy ovoz berishda Senat a'zolari belgilangan miqdori saylanmagan hollarda o'tkaziladi. Bunda takroriy saylovlar saylanmay qolgan miqdordagi Senat a'zoligi uchun o'tkazilib, asosiy saylovlar o'tkazilgan sanadan 15 kundan kechiktirilmagan holda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 16 nafar a'zosi, fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sahasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li, el yurt hurmatini qozongan, bilimi, mehnati, Vatan manfaati yo'lida hizmati bilan ko'zga ko'ringan fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatini shakllantirish borasida barcha tadbirlar yakunlangandan so'ng Markaziy saylov komissiyasi Senatni shakllantirish natijalari va Senat a'zolari ro'yxatini Markaziy Saylov komissiyasi matbuotida 10 kundan kechiktirmagan holda e'lon qilishi lozim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Davlat hokimiyati tushunchasi mazmunini ochib bering.
2. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi mazmunini ochib bering.
3. Hokimiyatning taqsimlamnish tamoili mazmuni qanday?
4. O'zbekiston Respublikasida parlamentning shakllanishjarayoni qanday kechgan?
5. O'zbekiston Respublikasida parlament tuzilmasidagi islohatlar nimadan iborat?
6. Bir palatali parlament bilan ikki palatali parlamentlarning o'ziga hos jihatlari va afzalliklari nimadan iborat?
7. O'Rda bir palatali parlamentdan ikki palatali parlament tizimiga o'tishning huquqiy asoslari nimadan iborat bo'ldi?
8. O'R OM QPni shakllantirish tartibi qanday?
9. O'R OM Senatini shakllantirish tartibi qanday?

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: Shark, 1993.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005,
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2011.
4. "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Qonstitutsiyaviy qonun, 2002, 2 aprel

5."O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun, 2002, 12 dekabr.
6."O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risda»gi Konstitutsiyaviy qonun, 2002, 12 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonun, 2003, 29 avgust
8."Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillshtirilishi munosabati bilan O'Rning ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni, 2008 yil
9. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.
10. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.
11. Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriev. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T.:Sharq, 2001.
12. Odilqoriev H.T., Tulteyev I.T. Ikki palatali parlament, T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005 yil
13. Jalilov Sh.I., G.Yu.Ganiyev.Konstitutsiyaviy huquq. -T.:0'zMU, 2008.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUSIYAVIY HUQUQIY MAQOMI

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarda prezidentning davlat boshlig'i sifatidagi faoliyatining huquqiy asoslari, prezidentning huquqiy vakolatlari, preezidentlikka saylovlar o'tkazish huquqiy tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmakar hosil qilish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: Prezident, Prezidentlik instituti, davlat boshlig'i, monraxiya, res- publika, dunyo hamjamiyati, ob'yektiv zaruriyat, davlat strukturasi, siyosiy yo'lboshchi, bayonot, davlat mustaqilligi, deklaratsiya, Pezident saylovi, daxlsizlik, akkreditatsiya, nomzod, xalqaro munosabatlar.

Asosiy savollar:

1. Prezidentlik instituti va uning O'zbekiston Respublikasida ta'sis etilishi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar o'tkazish tartibi va tamoillari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi va konstitutsiyaviy vakolatlari.

"Aqliy xujum" savollari:

1. "Prezident" so'zining imloviy ma'nosi nima?
2. 0'zbekiston Respublikasida Prezidentlik instituti qachon tashkil topgan?
3. 0'zbekistonda Prezidenti lavozimiga saylanadigan shahsga qo'yiladigan talablar qanday?

1.Prezidentlik instituti va uning O'zbekiston Respublikasida ta'sis etilishi.

Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib, davlat boshqaruvning prezidentlik shaklini joriy qildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990 yil martida "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan joriy etildi. Oliy Sovet 12-chaqiriq birinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib Islom Abdug'anievich Karimov saylandi. 1991 yil 29 dekabr va 2000 yil 9 yanvarda to'g'ridan-to'g'ri umumxalq Prezidenti saylovlari o'tkazildi. Saylovlar muqobillik asosida o'tkazilib, I.A.Karimov Prezident etib saylandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning Prezidentlik institutini joriy qilish tajribasi, deyarli barcha sobiq ittifoq respublikalarda qabul qilindi.

Darhaqiqat, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, «O‘zbekiston tarixida ilk marta joriy etilgan Respublika Prezidenti lavozimi yangi O‘zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o‘rinni egalladi. U siyosiy tizimning o‘zagi bo‘lib qoldi».

Prezidentlik hokimiyati jamiyatdagi siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning va O‘zbekiston demokratik islohotlari yo‘lidan muaffaqiyatli borishning kafolati bo‘lgani holda, mustaqil o‘zbek davlatchiligi binosining asosiy tayanchiga aylandi.

Bizning davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin. Aynan shu ma’noda Prezident millat timsoli, davlat ramzi sifatida namoyon bo‘ldi, Oilada, davlatda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari, davlatning fuqarolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa munosib hayot ko‘rish mumkin emas.

Kuchli ijroiya hokimiyati bo‘lmasa hatto eng demokratik yo‘l bilan qabul qilingan qonunlar ham bajarilmasligi mumkin. Bu esa qonunlarning so‘zsiz bajarilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklarining himoya qilinishi, siyosiy va iqtisodiy islohotlar turmushga tadbiq etilishini ta’minlaydigan prezidentlik hokimiyatini taqozo etdi.

Shunday qilib, prezidentlik boshqaruvi barqarorlik, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta’minlash, qonunchilik va huquq-tartibotni qaror toptirish, hamda konstitutsiyaviy tuzum barpo etish asosidir. Prezidenlik boshqaruvi davlat tushunchasi, uning ma’no-mohiyatini tubdan o‘zgartirdi.

Prezident islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularning muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi. O‘zbek davlati bozor iqtisodi munosabatlariga vazminlik bilan, puxta o‘ylangan holda, bosqichma-bosqich o‘tishni amalga oshirmoqda.

"Prezident" tushunchasi konstitutsiyaviy - huquqiy ma’noda davlat boshlig‘ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat – huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo‘lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga xosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta’minlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Prezident – hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga rioya qilinishida davlat mexanizmi uchun eng muhim institutdir.

Konstitutsiyaning 89-moddasida "O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir. ", deyilgan.

Davlat boshlig‘i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida yetakchi va muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekistonning Oliy vakilligini amalga oshiradi. Davlat boshlig‘i o‘zida u yoki bu hokimiyat tarmog‘ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddadan iborat bo‘lib, ularda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar o‘tkazish tartibi va tamoillari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi “O‘zbekiston Respublikasi Prezident saylovi to‘g‘risida"gi Qonuni bilan belgilangan[1] (1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan).

Saylov huquqining konstitutsiyaviy prinsiplari yashirin ovoz berish yo‘li bilan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash huquqidir.

Prezident saylovlari haqidagi Qonun fuqarolarning saylov huquqining umumiyligi ya’ni saylovchilar ro‘yxatini tuzish tartibi, ovoz berish huquqini rasmiylashtirish va ovoz berish faktini tasdiqlash kabi tadbirlarning huquqiy jihatdan kafolatlanishini nazarda tutadi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998, 3-сон, 38-модда.

Teng saylov huquqi shundan iboratki, har bir saylovchi bir ovozga ega bo‘ladi va barcha fuqarolar saylovlarda teng sharoitlarda ishtirok etadilar.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi shundan iboratki, saylovchilar Prezidentni saylashda bevosita ishtirok etadilar.

Yashirin ovoz berish esa saylovchining o‘z irodasini bildirish ustidan nazorat qilishga yo‘l qo‘ymaslikni nazarda tutadi. Bu konstitutsiyaviy prinsip fuqarolarning o‘z irodasini erkin bildirishini ta’minlashning huquqiy kafolatlanishi bo‘lib, demokratik jamiyatning asosiy belgilaridan biridir.

Fuqarolarning Prezidentni saylash huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Albatta, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ba’zi bir alohida hollar bundan mustasnodir.

O‘zbekiston Respublikasining saylovlar kuniga qadar 18 yoshga to‘lgan har bir fuqarosi Prezidentni saylash huquqiga egadir. Prezidentlik saylovlarini tashkil etish belgilangan ba’zi bir alohida hollar bundan mustasnodir. Prezidentlik saylovini o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tuziladigan Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90 – moddasiga asosan Prezident lavozimiga nomzodlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

birinchidan, 35 yoshdan kichik bo‘lmagan, faqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi Prezident etib saylanishi mumkin;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosigina saylanishi mumkin;

uchinchidan, Prezidentlikka nomzodga O‘zbekiston Respublikasi hududida kamida 10 yil yashagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Bu muddat - Prezidentlikka nomzod faqat bilimlar va amaliy tajribaga ega bo‘libgina qolmay, balki O‘zbekistondagi hayotning o‘ziga xos sharoitlarini tushunish uchun ham zarur va yetarlidir;

to‘rtinchidan, davlat tilini yaxshi biladigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi Prezidentlikka saylanishi mumkin. Tillardan foydalanishni tartibga solish – O‘zbekistonda konstitutsiyaviy ahamiyatga ega. U yoki bu tilning davlat tili sifatidagi maqomi Konstitutsiya bilan belgilanadi. Masalan, Konstitutsiyaning 4-moddasida "O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir" – deb belgilab qo‘yilgan. Davlat hokimiyati organlari, rasmiy ish yuritish, sud ishlarini olib borish majburiy ravishda davlat tilida olib boriladi, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy nashrlar e’lon qilinadi.

O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasi aholisining mutlaq ko‘pchiligi bo‘lmish o‘zbek xalqining ona tilidir. U O‘zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omilidir. Aynan shuning uchun Konstitutsiya va O‘zbekiston suverenitetining kafili bo‘lmish Prezident o‘zbek tilini yaxshi bilishi shart;

beshinchidan, O‘zbekistonda bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo‘lib saylanishi mumkin emas..

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 90-moddasining 2-qismida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini saylashning asosiy prinsiplari aniq belgilab qo‘yilgan. Prezidentlik Respublikalarida Prezident mamlakatning barcha saylovchilari tomonidan umumxalq saylovlari yo‘li bilan saylanadi.

O‘zbekistonda Prezident saylovlari umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Prezidentning o‘z lavozimida bo‘lish muddati 5 yildir. O‘zbekistondagi 1991 va 2000 yillardagi Prezident saylovlari aynan shu yo‘l bilan o‘tkazildi.

Prezident saylovlarini o‘tkazish tartibi 1991 yil 18 noyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to‘g‘risida"gi Qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Bu qonunga 2004 yil 2 dekabrdagi Qonunini bilan o‘zgartirish kiritilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi va konstitutsiyaviy vakolatlari.

O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab, o‘z lavozimini bajarishga kirishadi. Qasamyod – tantanali va’da, Konstitutsiya va xalqqa xizmat qilish yuzasidan Prezident o‘z lavozimiga kirishganda beradigan qasamyoddir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyodining matni Konstitutsiyaning 92-moddasida berilgan:

"*O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman.*"

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti parlament deputatlari oldida tantanali ravishda qasamyod qabul qiladi. Qasamyod qabul qilishda Prezidentning qo‘l ostida Konstitutsiya matni bo‘ladi. Prezident O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qiladi. Prezident qasamyod qabul qilishi bilan, davlat madhiyasi ijro etiladi.

O‘zbekistonda umumxalq saylovida saylangan Prezident I.A.Karimov birinchi bo‘lib qasamyod qabul qildi. Agar bir shaxs ikkinchi marta Prezident bo‘lib saylansa, qasamyod takroran qabul qilinadi.

Prezidentning qasamyodi faqat rasmiy tantanali marosim sifatidagina qabul qilinmaydi. Shuningdek, u yuridik ahamiyatga ham ega.

Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati quyidagilardan iborat:

birinchidan, Prezident qasamyod qabul qilishi bilan o‘z lavozimiga kirishadi va o‘zining konstitutsiyaviy vakolatlarini bajara boshlaydi. Shu vaqtdan boshlab, oldingi Prezident o‘z vakolatini tugatadi;

ikkinchidan, qasamyodning matni odatda Konstitutsiyada beriladi, xalqqa e’lon qilinadi va parlament oldida Prezident tomonidan tantanali qabul qilinadi. Qasamyod matnida Konstitutsiyaga sadoqat, xalq va davlatga xizmat qilish bilan birga, ko‘pincha diniy tusdagi ifodalar bo‘ladi yoki qasamyod Qur’onda yoxud Injilda qabul qilinadi;

uchinchidan, qasamyodni buzish Prezidentni javobgarlikka olib keladi, bu uning o‘z lavozimidan chetlatilishi uchun asos bo‘lishi mumkin (bunday marosim ko‘p mamlakatlarda impichment nomini olgan);

to‘rtinchidan, Prezident o‘ziga bevosita berilmagan vakolatlarga asoslangan harakatlarida unga qasamyod yuklagan majburiyatlarini ro‘kach qilish imkoniga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasida Prezident o‘z lavozimida ishlayotgan vaqtda quyidagi vazifalarni birga olib bormasligi nazarda tutilgan:

birinchidan, boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallash;

ikkinchidan, vakillik organining deputati (parlament, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish) bo‘lish;

uchinchidan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti daxlsizlik huquqiga ega. Prezidentning daxlsizligi mutlaq bo‘lib, u bajaradigan majburiyatlardan kelib chiqib, Prezidentning qonunlar bilan alohida muhofaza etilishini anglatadi. Prezident shaxsining daxlsizligi uning butun vakolatlari davomida alohida kafolatlarni ta’minlanishi bilan bog‘liq.

2003 yil 25 aprelda qabul qilingan “ O‘zbeksiton Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun bilan kafolatlanadi[1].

Prezident shaxsining daxlsizligi unga qarshi jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkin emasligini bildiradi. Prezident majburiy ravishda, masalan, guvoh sifatida sudga chaqirilishi,

[1]“Ўзбекистон Республикаси Президенти фаолиятининг асосий кафолатлари тўғрисида»ги Қонун // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2003, № 3ғ4, 34-модда

ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Prezident hibsga olinishi, tintuv etilishi va shaxsiy ko‘zdan kechirilishi mumkin emas. Shu ma’noda Prezidentning shaxsi daxlsizdir.

Prezident konstitutsiyaviy vakolatlarining ko‘lami uning davlat va ijroiya hokimiyatining boshlig‘i ekanligidan kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi ko‘plab vakolatlarni beradi. Prezident faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘rnatilgan doiralardagina faoliyat ko‘rsatadi. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari davlat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlar tajribasida davlat boshlig‘ining konstitutsiyaviy vakolatlari tarixiy rivojlanish bosqichlarining, shu davlatda istiqomat qilayotgan xalqlarning milliy kelib chiqish xususiyatlari va jug‘rofiy joylashuvining ta’sirida turli xil belgilangan bo‘ladi. Asosan, davlat boshlig‘ining konstitutsiyaviy vakolat muddatlari diqqatga sazovordir. Masalan: AQSh, Rossiyada – 4 yil, Fransiya, Ukraina, Germaniya, Braziliyada – 5 yil, Meksika, Misrda – 6 yil, Italiya, Isroilda – 7 yil. Prezident vakolat muddatlarining bunday tartibda belgilanganligi yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, har bir millat va elatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilgan 2002 yil 27 yanvardagi referendum, mustaqillikdan keyingi davrning eng muhim O‘zbekiston tarixida munosib o‘rin egallaydigan davlat boshqaruvining takomillashtirish rejalarini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II-chaqiriq sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan: O‘zbekiston Respublikasining, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati mustahkamlangan: umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirish ovoz berish yo‘li bilan saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddati – yetti yil", deb belgilanganligi davlat boshlig‘ining o‘z xalqi oldiga qo‘ygan vazifasini bajarish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Ushbu norma 2003 yil 24 aprelda O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritildi.[1]

Prezidentning asosiy vazifasi – davlatning birligini mamlakat ichida va tashqarisida namoyon qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining quyidagi yo‘nalishlarida uning konstitutsiyaviy vakolatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

1. Avvalambor, O‘zbekiston Prezidenti fuqarolar huquq va erkinliklarining kafilidir. Bu shuni bildiradiki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti inson huquqlarini himoya qilish mexanizmining uzluksiz ishlashi uchun shaxsan javobgar, biror sabab bilan ushbu huquq va erkinliklar amalga oshirilishi buzilgan hollarda tegishli choralar ko‘rishga majbur. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning ta’sirchan mexanizmini yaratish, xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat organlari xodimlari va butun aholining inson huquqlari masalalari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning demokratiyalash, inson huquqlari va boshqaruv tizimini qo‘llab-quvvatlash borasidagi tavsiyalariga muvofiq, O‘zbekiston Prezidenti 1996 yilning 31 oktyabridagi farmoni bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil qildi.

Prezident inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan hamda aholining alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini, masalan pensionerlar, nogironlar va davlat tomonidan himoyaga muhtoj fuqarolarni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan qonunlar, farmonlar chiqarish orqali o‘zining inson huquq va erkinliklarining kafili sifatidagi funksiyasini bajarib kelmoqda.

[1] Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси ОЛий Мажлис Ахборотномаси, 2003, № 3-4, 27-модда

2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezident o‘z vakolatlarini amalga oshira borib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarining o‘z konstitutsiyaviy majburiyatlarni zarur darajada bajarishlarini ta’minlaydi. U xatti-harakatlari Konstitutsiya talablariga javob bermayotgan organlar va shaxslarga bevosita murojaat qilish orqali ham, shu sohadagi vakolatli organlar, xususan sudlar vositasida ham bunga erishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyada belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko‘radi. Suverenitetni muhofaza kilish davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining faoliyat ko‘rsatishi orqali ta’minlanadi. Shuning uchun Prezident maxsus vakolatlarga ega, xususan, favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz berganda shaxsan o‘zi tezkor qarorlar qabul qiladi. Masalan, u fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Respublika Oliy Majlisining tasdig‘iga kiritadi.

3. Prezident davlat boshlig‘i sifatida xalqaro munosabatlar sohasida muhim vakolatlarga ega. Bunda u muhim vakillik funksiyasini bajaradi. Bu funksiyani u yakka o‘zi shaxsan amalga oshiradi.

Prezident mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi.

Prezident xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasining vakilidir. Bu yerda Prezident O‘zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlari sub’ekti, suveren va mustaqil mamlakat sifatida namoyon qiladi. Bu shuni anglatadiki, faqat Prezidentgina shartnoma va bitimlarga imzo chekishi, muzokaralarda O‘zbekiston nomidan qatnashishi, Respublikaning xalqaro majburiyatlari bajarilishini ta’minlashi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va bitimlari qonun qabul qilish orqali O‘zbekiston Oliy Majlis palatalari tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak. Xalqaro shartnoma va bitimning ratifikatsiya qilinganligi ratifikatsiya yorlig‘i bilan tasdiqlanadi. Ratifikatsiya yorlig‘iga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti imzo chekadi. Ikki tomonlama shartnoma va bitimlar tuzilganda uning ishtirokchilari ratifikatsiya yorliqlarini almashadilar. Ko‘p tomonlama shartnomalarda ratifikatsiya yorlig‘i depozitariy davlatga yoki xalqaro shartnoma matnini saqlovchi xalqaro tashkilotga berib qo‘yiladi.

Prezidentning tashqi siyosat sohasidagi muhim vakolatlari jumlasiga qo‘yidagilar kiradi:

Akkreditatsiyadan o‘tgan elchilar va boshqa diplomatik vakillarga ishonch va chaqirib olish yorliqlarini topshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlardagi elchilari va boshqa diplomatik vakillari nomzodlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish to‘g‘risida taqdim kiritadi.

Yorliqlar topshirilayotganda, odatda tashqi ishlar vaziri qatnashadi. Diplomatik vakil o‘zining nomini, davlatning nomini, davlat boshlig‘ining nomini aytadi, yorliqni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga topshiradi. Ko‘pincha yorliqlar topshirish uchun bir nechta yangi elchilar yig‘ilishadi. Yorliqlar topshirilgach, O‘zbekiston Prezidenti yangi elchi bilan qisqacha suhbatlashadi. Prezidentning ishonch yorlig‘ini qabul qilishi shuni anglatadiki, tayinlangan va O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy davlat elchisi yoki diplomatik vakil yoxud xalqaro tashkilot vakili akkreditatsiyadan o‘tgan, ya’ni rasmiy ravishda mamlakatimizda o‘z majburiyatlarini bajarishga kirishgan deb hisoblanadi.

Xorijiy davlat elchisi yoki xalqaro tashkilot hamda xorijiy davlatning diplomatik vakili funksiyasini bajarishining to‘xtatilishi Prezidentga chaqiruv yorlig‘ini topshirish orqali rasmiylashtiriladi.

Chet el davlatlarida O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatlarining boshliqlarini tayinlash va chaqirib olishning tartibi "Xorijiy davlatlardagi O‘zbekiston Respublikasi

diplomatik vakolatxonalarining boshliqlarini tayinlash va ularni chaqirib olish to‘g‘risida" gi 1992 yil 3 - iyuldagi qonun bilan belgilanadi. Bu qonun " Diplomatik aloqalar to‘g‘risida" gi 1961 yilgi Vena konvensiyasi hamda boshqa umume’tirof etgan xalqaro - huquqiy normalar va qoidalarga to‘la mos keladi.

Xorijiy davlatdagi O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasining boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimi bilan Senat tomonidan tayinlanadi. Diplomatik vakolatxona boshlig‘i lavozimiga nomzodni Tashqi ishlar vazirligi manfaatdor organlarning kelishuvini olgan holda tavsiya etadi. Favqulodda va muxtor elchi yoki favqulodda va muxtor vakilning belgilangan mamlakatga jo‘nab ketishidan oldin Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti imzo chekkan va tashqi ishlar vazirining imzosi qo‘yilgan, belgilangan davlat boshlig‘iga berish uchun mo‘ljallangan ishonch yorlig‘ini tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining boshlig‘ini chaqirib olish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

birinchidan, diplomatik vakolatxona boshlig‘i almashtirilganda;

ikkinchidan, diplomatik vakolatxona boshlig‘i nomaqbul shaxs (person non grata) deb e’lon qilinganda;

uchinchidan, davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilganda;

to‘rtinchidan, davlatlar o‘rtasida urush holati e’lon qilinganda;

beshinchidan, davlat xalqaro huquq sub’ekti sifatida mavjudligini tugatganda.

4. Konstitutsiyada belgilab qo‘yilganidek, Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotning, ichki va tashqi siyosatining eng mu*him masalalari yuzasidan *Oliy Majlis palatalariga har yili ma’ruzalar taqdim etadi Uning ma’ruzasi normativ hujjat hisoblanmaydi. Bu axborot siyosiy tusga ega bo‘lib, mamlakatni rivojlantirishning dasturiy prinsiplari va strategik vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Ma’ruzada O‘zbekiston Prezidentining mamlakat kelajagini qanday tasavvur qilayotganligi bayon etiladi. Jumladan, O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi chiqishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin: 1995 yil 23 fevraldagi birinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi "O‘zbekiston ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy tamoyillari", 1996 yil 29 avgustdagi milliy parlamentning oltinchi sessiyasidagi, "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim vazifalari", 1999 yil 14 aprelda o‘n to‘rtinchi sessiyadagi, "O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda"; 2000 yil 22 yanvarda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi, "Oliy maqsadimiz - Vatan ozodligi va obodligi, xalq erkinligi va farovonligi" , 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisida “ Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” mavzusidagi chiqishlari davlatning tashqi va ichki siyosatning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tildi. Prezidentning bu ma’ruzalarida mamlakat taraqqiyotining strategik ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining , ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida nutq so‘zlaydi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijroiya hokimiyatini tuzish bilan bog‘liq vakolatlari ancha keng bayon qilingan. Bunday vakolatlarning ko‘pchiligiga quyidagi ikkita sabab bor:

birinchidan, Prezident bo‘lib saylangan shaxsning dasturi umumxalq saylovlari orqali qo‘llab - quvvatlangani uchun u ijro hokimiyat organlarini tuzishda ma’lum vakolatlarga ega bo‘lishi kerak. Chunki uning dasturini bajarish asosan, ijro hokimiyati organlari zimmasiga tushadi, ularni tuzishda Prezidentning vakolatlari juda muhim o‘rin tutadi;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslaridan biri bo‘lmish hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipi davlat hokimiyatining biror organi faqat bir hokimiyat tarmog‘i tomonidan tuzilishini istisno qiladi. Shuning uchun davlat hokimiyatining markaziy organlarini tuzishga ham Prezident, ham Oliy Majlis jalb qilingan. Bunga quyidagi

ikki yo‘l bilan erishiladi: Prezident muayyan mansabdor shaxslarni tayinlaydi, Oliy Majlis esa ma’qullaydi, yoxud Oliy Majlis tayinlaydi, nomzodni esa Prezident taklif qiladi.

Ijro hokimiyati organlarini tashkil qilishda Prezidentning vakolatlari juda keng. Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi. Bosh vazirning taqdimiga binoan Prezident O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi. Bundan tashqari Prezident ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi. Prezident vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi hamda shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlis palatalar tasdig‘iga kiritadi. Prezident Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchilik bu masalalarni Oliy Majlis Senatining tasdig‘iga kiritadi. Shuningdek, Prezident viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig‘iga kiritadi. Prezident o‘z qarori bilan Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr - qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti - harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini lavozimidan ozod etishga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalaga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati taqdimiga kiritadi.

6. Sud hokimiyati organlariga kelganda, shuni aytish mumkinki, Prezident Oliy Majlis Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari , Oliy xo‘jalik sud raisi va sudyalari nomzodlarni taqdim etadi. Ularni Oliy Majlis Senati saylaydi. Shuningdek, Prezident viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo‘jalik sudi sudyalarini tayinlaydi va lavozimlardan ozod qiladi. Prezidentning taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati Markaziy Bank boshqaruvi raisi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Faqat ijro hokimiyati organlarini tuzishgina emas, balki ularning faoliyati bilan bog‘liq sohada ham Prezidentga katta vakolatlar berilgan. Konstitutsiyaga muvofiq Prezident ijro hokimiyatining boshlig‘i hisoblanadi. Bosh vazir taqdimiga binoan hukumat a’zolarini tasdiqlaydi va ularni lavozimidan ozod etadi.

Agar respublika boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlari Konstitutsiya va qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga zid bo‘lsa yoki ular inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini poymol qilsa, ushbu masala tegishli sudda hal qilinmagunicha Prezident bu hujjatlarni to‘xtatish yoki bekor qilishga haqli.

7. Prezidentning respublika davlat va boshqaruv oliy organlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlashdagi vakolatlari ham bor. Buning uchun u Konstitutsiyada o‘rnatilgan, Oliy Majlisga ta’sir o‘tkazish (XVIII bob), Vazirlar Mahkamasiga ta’sir o‘tkazish (XX bob) dastaklaridan foydalanishi, ba’zi hollarda sudga murojaat qilishi, masalani Konstitutsiyaviy sud ko‘rib chiqishi uchun taqdim etishi mumkin

Prezident O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo‘mitalarini hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, buni Oliy Majlis palatalarining tasdig‘iga kiritadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta’minlash uchun Prezident Konstitutsiyada ko‘rsatilgan boshqa vositalardan ham foydalanish imkoniga ega. Lekin Prezidentning davlat va ijro hokimiyati boshlig‘i sifatidagi obro‘si hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki u to‘g‘ridan - to‘g‘ri umumiy saylovlarda xalq topshirgan siyosiy mandatga ega.

8. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarni imzolaydi.

Prezidentning imzosi bo‘lmasa, qonun kuchga kirmaydi. Bu davlat boshlig‘ining an’anaviy funksiyasi bo‘lib, qonunga majburiy kuch beradi va qonun chiqaruvchilik jarayonini yakunlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma’qullagan qonun imzolanishi

va e’lon qilinishi uchun Prezidentga o‘n kun ichida yuboriladi. Prezident esa o‘ttiz kun ichida qonunni imzolaydi hamda matbuotda e’lon qilinadi

Qonunni imzolash rasmiy akt emas. Qonunni imzolash uning xalqqa e’lon qilinganligini, ya’ni uni ommaga bildirganligini anglatadi. Bunday rasmiy e’lon qilish - Oliy Majlis qabul qilgan va Prezident imzolagan qonun matnini rasmiy maqom berilgan matbuot organida nashr etishdir. Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishida ular qo‘llanilishining majburiy shartidir. Qonun butun O‘zbekiston Respublikasi xududida kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Konstitutsiyaviy huquqda bu " Prezident vetosi " nomini olgan bo‘lib, boshqaruvning prezidentlik shaklidagi davlatlarga xosdir.

Veto - davlat boshlig‘ining parlament qabul qilgan, lekin hali kuchga kirmagan qonunga e’tiroz bildirish huquqidir. O‘zbekiston Konstitutsiyasida "Veto" atamasi ishlatilmagan. O‘zbekiston Konstitutsiyasida Prezidentning asoslangan e’tirozini bildirib, qonunni takroran muhokama qilish va ovozga quyish uchun Oliy Majlisga qaytarish huquqi haqida gapiriladi.

Qaytarish uchun asoslar ro‘yxati Konstitutsiyada ko‘rsatilmagan, lekin qonunni qaytarar ekan, Prezident bunday qarorning sababini asoslab beradi. Bunda Prezident umuman qonunga va e’lon qiladi yoki uning biror qoidasiga e’tiroz bildirishi mumkin.

Agar Prezident tomonidan qaytarilgan qonunni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati a’zolarining umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi ma’qullasa, qonun o‘n to‘rt kun ichida Prezident imzolashi va e’lon qilishi kerak bo‘ladi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat masalasidagi vakolatlari Konstitutsiya 93-moddasining 19-bandida aniq ifodalangan. Faqat Prezidentgina butun respublika hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etishga haqli. U qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida Oliy Majlisning palatalari tasdig‘iga kiritadi. Lekin Prezident bunday qarorni qabul qilishda erkin emas, chunki favqulodda holat faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibdagina joriy etiladi. Prezident bu haqda qabul qilgan qarorini uch kun ichida Oliy Majlis palatalarining tasdig‘iga kiritadi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining harbiy sohadagi vakolatlari ancha keng. U respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning Oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, Xavfsizlik Kengashini tuzadi va unga rahbarlik qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi.

Prezidentning Oliy Bosh qo‘mondon ekanligi Mudofaa vazirligiga har qanday buyruqlar berishiga imkon tug‘diradi. Mudofaa vaziri amalda bevosita Prezident rahbarligida ishlaydi. Urush yoki agressiya holatida Prezident har qanday vaqtda Qurolli kuchlarga boshchilik qilishni o‘z qo‘liga olishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tajovuzdan, bir - birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilishga haqli, u bu qarorini uch kun mobaynida mamlakat Oliy Majlisi palatalarinig tasdig‘iga kiritadi.

11. Davlat boshlig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga fuqarolik, siyosiy boshpana berish, O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash, amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlis Senatiga taqdimnoma kiritish va avf etish kabi masalalarni hal qilish kiritilgan.

O‘zbekistonda yagona fuqarolik o‘rnatilgan bo‘lib, unga qanday asoslarda ega bo‘lishidan qat’iy nazar barcha uchun tengdir (Konstitutsiyaning 21-moddasi). Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotishning asos va tartiblari O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolik to‘g‘risida" gi qonuni bilan belgilanadi. Qonunning 30- moddasida Prezidentning fuqarolik masalalari bo‘yicha vakolatlari belgilangan.

Prezident bu masala bo‘yicha quyidagi qarorlarni qabul qiladi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish;

ikkinchidan, xorijda yashayotgan tegishli iltimosnoma bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish;

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga tiklash to‘g‘risida;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqarish to‘g‘risida;

beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotganlik to‘g‘risida.

Yuqorida aytilgan masalalarni dastlabki ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiya tuzilgan. U har bir ariza yoki iltimosnomaning Prezident ko‘rib chiqishiga tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini qabul qilish va undan chiqishining batafsil tartibi (zarur hujjatlari, ular qaerga yuborilishi kerak va h.k.). "O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishning tartibi to‘g‘risidagi qoidalar" bilan tartibga solinadi. U 1992 yil 22 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari bo‘yicha Prezident farmon chiqaradi.

Siyosiy boshpana – o‘z mamlakatida siyosiy vajlarga ko‘ra ta’qib qilinayotgan xorijiy shaxsga, fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga boshqa mamlakatda yashash huquqini berishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xorijiy shaxsga yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga siyosiy boshpana berilishi shuni anglatadiki, bu odam O‘zbekistonga kelishi mumkin va jinoyatchi sifatida boshqa davlatga berilmaydi. Odatda siyosiy boshpana siyosiy faoliyati, ilmiy va madaniy vajlar uchun, milliy va diniy vajlar tufayli ta’qib qilinayotgan shaxslarga beriladi. Siyosiy boshpana huquqi 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (14-modda) va BMT Bosh Assambleyasining 1967 yil 14 dekabrdagi rezolyusiyasi bilan qabul qilingan hududiy boshpana to‘g‘risidagi deklaratsiyada nazarda tutilgan, lekin rezolyusiya faqat tavsiya xususiyatiga ega. Siyosiy boshpana olish uchun zarur bo‘lgan shartlarni belgilash – boshpana berayotgan davlatning suveren huquqidir. Faqat O‘zbekiston Respublikasinitng Prezidentigina siyosiy boshpana berish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishga vakolatlidir.

12. Davlat mukofotlari va faxriy unvonlar – davlatning iqtisod, fan, madaniyat, san’at, Vatanni himoya qilish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi yuksak xizmatlari uchun fuqarolarni rag‘batlantirishning oliy shaklidir.

Konstitutsiyaga muvofiq davlat mukofotlari (ordenlar, medallar, yorliqlar) bilan taqdirlash O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan amalga oshiriladi. U oliy harbiy unvonlarni (masalan, armiya generali), oliy malakaviy unvonlarni (masalan, diplomatik daraja), oliy maxsus unvonlarni (masalan, amaldagi davlat adliya maslahatchisining toifa darajasini) beradi. Fan va texnika, adabiyot va san’at sohasidagi davlat mukofotlari bo‘yicha komissiyaning qarori Prezident farmonlari bilan tasdiqlanadi. Faqat O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarigina emas, balki xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham davlat mukofotlari va faxrli unvonlar bilan mukofotlanishi mumkin. Masalan, 1996 yil aprelda fransuz olimi, professor L. Keren Amir Temur merosini o‘rganishga qo‘shgan katta hissasi uchun "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.

Mukofotlangan shaxs qasddan jinoyat sodir etganda sudning taqdimnomasiga binoan faqat Prezident tomonidan davlat mukofotlaridan mahrum qilinishi mumkin (Prezidentning maxsus farmoni chiqariladi).

13. Amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oliy Majlisning Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi. Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘la yoxud qisman ozod qilish yoki ilgari sud tayinlagan jazoni o‘tagan shaxslarning sudlanganligini olib tashlashdir. Amnistiya e’lon qilinishi bilan jazoni o‘tayotgan shaxslar uni

oʻtashdan ozod qilinadilar yoki jazo muddati qisqartiriladi. Agar ayblanuvchi ishning amnistiya boʻyicha toʻxtatilishiga e'tiroz bildirsa, ushbu ish tergovi va sud yurituvida davom etadi. Sud ayblanuvchini aybdor deb topsa, shu amnistiya aktida koʻrsatilgan asoslarga koʻra toʻxtatiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Oʻzbekiston sudlari tomonidan hukm qilingan fuqarolarni afv etadi. Afv etish toʻgʻrisidagi qarorni qabul qilar ekan, Prezident inson huquqlari va erkinliklarining kafolati sifatida maydonga chiqadi. Chunki mahkumning Oʻzbekiston Prezidentiga murojaat qilishi – jinoiy jazo chorasini qaydaydir darajasida boʻlsada oʻzgartirishning soʻnggi imkoniyatidir.

Amnistiyadan farqli ravishda afv – individual akt, ya'ni muayyan shaxs yoki shaxslar guruhiga taalluqli hujjatdir. Afv hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyati uchun sudlangan shaxsni jazodan ozod qilish yoki jazoni yumshatishdir. Afv etish reabilitatsiyadan farq qiladi. Reabilitatsiya (oqlash) ham individual akt, lekin u oqlangan shaxs noqonuniy hukm qilinganini bildiradi. Afv esa hukmning toʻgʻriligini tasdiqlaydi, lekin mahkumning holatini yengillashtiradi (jazo chorasini oʻzgartirish, jazoni oʻtashdan ozod qilish).

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti oʻz vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

14. Konstitutsiyaning 95-moddasi koʻp mamlakatlarda mavjud boʻlgan davlat boshligʻining parlamentni tarqatib yuborish institutiga bagʻishlangan. Parlamentni tarqatib yuborish - uning vakolatlari tugaguncha, yangi saylovlar belgilangunicha parlament faoliyatining toʻxtatilishidir. Parlamentni tarkatib yuborish hokimiyatlarning boʻlinishi prinsipini amalga oshiradigan muvozanatlar va ziddiyatlar tizimining muhim elementidir.

Parlamentni tarqatib yuborish, qoida tariqasida, Konstitutsiya amalga oshirish mumkin yoki qonunlar asosida koʻrsatilgan.

Prezident Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki Senati faqat Konstitutsiyada aniq belgilangan hollardagina tarqatishi mumkin:

birinchidan, Oliy Majlisning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki Senatini tarkibida uning normal faoliyatini tahdidga soladigan, hal qilib boʻlmaydigan ixtiloflar yuz berganda;

ikkinchidan, Oliy Majlis palatalari bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilganda;

uchinchidan, Qonunchilik palatasi bilan Senat oʻrtasida Oliy Majlisning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib boʻlmaydigan ixtiloflar yuz berganda;

Toʻrtinchidan, tarqatib yuborishga Konstitutsiyaviy sudning roziligi boʻlganda.

Demokratik tuzumdagi parlamentni tarqatib yuborish instituti uchun ikki tomonlama bir xil yuridik aloqa xosdir: parlament tarkibi faoliyatining toʻxtatilishi va yangi saylovlarning belgilanishi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 95 - moddasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Senatini tarqatilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida, oʻtkazilishi koʻrsatilgan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 95-moddasining 3-qismida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatini tarqatib yuborilishini cheklovchi qoida belgilab qoʻyilgan. Masalan, butun Oʻzbekiston hududida favqulodda holat joriy qilingan boʻlsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini tarqatilishi mumkin emas. Bunday, alohida favqulodda vaziyatda davlat amaldagi parlamentsiz qolishi mumkin emas.

Shunday qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisi palatalarini tarqatib yuborish huquqi mutloq emas, chunki bu huquq Konstitutsiyada qat'iy belgilangan vaziyatlar bilan chegaralangan.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. 0'zbekistonda Prezidentlik instituti qachondan boshlab joriy qilindi?
2. Prezident qasamyodining yuridik ahamiyati nima?
3. 0'z lavozimida ishlayotgan Prezident boshqa qanday lavozimlarga ishlashi taqiqlanadi?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlarini ayting.
5. 0'zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi?
6. 0'zbekiston davlat boshqaruvi shakliga ko'ra qanday respublika hisoblanadi?

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: Shark, 1993.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash^. mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005,
3. Mamiakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqaroiik jamiyatdmi rivojlant1rish konsepsiyasi. O'zbekiston RespublikasL Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi vi Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12.11.2010.

4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2011.

5. "0'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrirn moddalariga o'zgartirish v qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98 - moddariga)"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2011 yil (4,25- mart)

6.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2011. 7.0'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. T.: Uzbekiston, 2001.

8. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi QonmT" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 Й., 52-con.

9. "0'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari" to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.

10. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent TDYuI, 2005.

11. Rustamboyev M., Ahmedov D., Xidirov S., Bekov I. O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasini o'rganish. T.:Yangi asr avlodi, 2005.

12. Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriev. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyavh. huquqi. (darslik). —T.:Sharq, 2001.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda ijro etuvchi hokimiyat tushunchasi, uning davlat hokimiyat organlari tizimidagi o'rni va ahamiyati, ijro etuvchi hikimiyat organlari tizimi, ushbu tizimni shakllantirish tartibi, faoliyatining huquqiy jihatlari tog'r'sida bilim va ko'nikmalar hosil qilish orqali, ularning huquqiy madaniyatini oshirishga yordam berish.

Tushuncha va tayanch iboralar: ijro etuvchi hokimiyat, Vazirlar Mahkamasi, Bosh Vazir, joylardagi ijro etuvchi hokimiyat organlari, hokim, zakq deputatlari kengashlari, mahalliy o'zini' o'zi boshqarish organlari.

Asosiy savollar:

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari tushunchasi va xususiyatlari
2. 0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, uning funktsiyalari va tashkil etilishining huquqiy jihatlari.

"Aqliy xujum" savollari:

1. Vazirlar Mahkamasi qanday hokimiyatni amalga oshiradi?
2. Vazirlar Mahkamasining vazifalari nimalardan iborat?
3. Vazirliklaming faoliyatlari qanday amalga oshiriladi?

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari tushunchasi va xususiyatlari

Ijro etuvchi hokimiyat organlari davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan davlat hokimiyatining mustaqil bir bo'g'inidir. Ma'muriy huquq sohasi olimlarining fikricha, ijro etuvchi hokimiyat subyektlari o'rnatilgan vakolatlar (kompetensiya) doirasida davlat boshqaruvini amalga oshiradilar, shuningdek ijro etuvchi hokimiyat davlat boshqaruvi organlari tizimidan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Binobarin, ijro etuvchi hokimiyat bu hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy

hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv faoliyatining maxsus shakl va usullaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishiga, vakolatlar doirasi (kompetensiya)ga, davlat-hokimiyat vakolatlariga va davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilotdirl . Ijro etuvchi hokimiyat organi shu hokimiyat mexanizmi(tizimi) ning tarkibiy qismi bo'lib, davlat nomidan ish ko'radi, ijro etish va farmoyish berish faoliyatni amalga oshiradi, o'zining qonunchilik hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasi hamda tuzilishiga ega, faoliyatining o'ziga xos shakl va usullarini qo'llaydi. Ushbu organlar faoliyatining mazmuniga ko'ra davlat boshqaruvini amalga oshiradi. **Davlat boshqaruvi** - ommaviy ehtiyoj va manfaatlarni anglash, ularni baholash va tarkibiy qismlarga ajratish, aniq maqsadlar qo'yish, ma'lum bir qarorlar ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan ko'p hollarda, qonun chiqarish va odil sudlov faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan davlat hokimiyat organlarining faoliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari o'zining davlat-huquqiy tabiatiga ko'ra, o'zini o'zi boshqarish organlaridan, funksional ahamiyatiga ko'ra esa, davlat hokimiyatining boshqa organlaridan farq qiladi. Shu bilan birga, ijro etuvchi hokimiyat organlari davlatning muayyan funksiya va vazifalarini ta'minlashda qonunchilik hamda sud organlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar turli xil kelishuv komissiyalari, vakillik organlarning yig'ilishlarida ijro etuvchi hokimiyat organi rahbarining hisobotini eshitish kabi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarining bir necha xususiyatlarini **qayd etish mumkin.**

Birinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organi - qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati singari davlat apparatining mustaqil bug'ini hisoblanadi, u davlatning xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy, tarmoqlararo sohalarida ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi.

Ikkinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari huquqiy hujjatlarni qabul qilish, o'rnatilgan talablar va qoidalarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, huquqiy aktlar talablarining buzilishidan turli boshqaruv usullari orqali himoya qilishdan iborat davlat-hokimiyat vakolatlariga ega.

Uchinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati qonun osti xususiyatga ega, ya'ni ular o'z faoliyatini qonun asosida va qonunlarni ijro etish maqsadida amalga oshiradi.

To 'rtinchidan, har bir ijro etuvchi hokimiyat organi o'zining funksiyasi va vakolatlari doirasiga ega.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining asosiy funksiyalari va vazifalari belgilab berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2003-yil 9-dekabr farmonida Respublika davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari etib quyidagilar belgilangan.

— O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiyhujjatlarning amalda ro'yobga chiqarilishini, ular ijrosi ustidan ta'sirchan nazoratning amalga oshirilishini ta'minlash;

— tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlash;

— mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-— insonning konstitutsiyaviy huquqi va erkinliklarini, aholining ta'lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;

— tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;

— soliqlar, bojxona to'lovlarini yig'ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo'li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish.

Beshinchidan, har bir ijro etuvchi hokimiyat organi tashkiliy tuzilishga ega, ya'ni zaruriy moddiy-texnik, moliyaviy, axborot va boshqa resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Oltinchidan, har bir ijro etuvchi hokimiyat organi davlat faoliyatini muayyan hududda amalga oshiradi.

Shunday qilib, **ijro etuvchi hokimiyat organi** — bu o'z tuzilishiga, vakolat doirasiga, faoliyat ko'rsatish hududiga ega, tegishli qonunchilik hujjatlarida tashkil etiladigan, davlat nomidan ish ko'radigan, ijro etish va farmoyish berish tartibida xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy, tarmoqlararo sohalarga rahbarlikni amalga oshiruvchi, davlat mexanizmining mustaqil tarkibiy bo'g'inidir.

2.0'zbekiston Respublikasi huqumati (Vazirlar Mahkamasi), uning funktsiyalari va tashkil etilishining huquqiy jihatlari.

Hukumat bu - davlat boshqaruvining oliy organi bo'lib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Hukumat shu bilan birga, jamoat tartibi va milliy havfsizlikni ta'minlaydi, shuningdek davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda Qurolli kuchlarga umumiy rahbarlik qiladi. Turli mamlakatlarda hukumat turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan Vazirlar Kengashi, Kabinet, Ministrlar Kabineti, Davlat Kengashi, Ma'muriy Kengash, Federal Hukumat, Hukumat va hokazo. O'zbekiston Respublikasida hukumat «Vazirlar Mahkamasi» deb nomlangan bo'lib, «O'zbekiston Respublikaci Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsipiga asoslanadi. Respublikada yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olish uchun o'z faoliyatini oshkoralik, insonparvarlik va qonuniylik asosida olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati - Vazirlar Mahkamasining vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari awalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan. Jumladan, «...Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlashi...» belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonunga asosan Hukumat, ya'ni Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagi faoliyat sohalarini keltirish mumkin: iqtisodiyot sohasidagi faoliyat; ma'muriy - siyosiy sohadagi faoliyat; ijtimoiy - madaniy sohadagi faoliyat.

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari awalambor, o'zining faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni namoyon qilar ekan, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatidan farqli ravishda, ijro faoliyatini amalga oshiradi. Oliy Majlis tomonidan

qabul qilingan qarorlar, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, ijroiya hokimiyati tarkibiga kiruvchi davlat organlari ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari aynan shulardan kelib chiqqan holda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi *ma'muriy - siyosiy sohada* juda keng **vakolatlarga** ega.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi:

Respublika boshqaruv tuzilmasini takomillashtiradi;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari; idoralari; davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi;

Vazirlar Mahkamasining *iqtisodiy sohadagi* asosiy **vakolatlari** davlatning muhim faolityanini amalga oshirish bilan bog'liq. Vazirlar Mahkamasining qonun bilan belgilangan vakolatlari doirasida:

iqtisodiy jarayonlarni boshqaradi: mulkchilikning barcha shaklarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ro'yobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart - sharoitlar yaratish;

xo'jalik yuritishning yangi shakllari - konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa ana shunday tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga ko'maklashadi, xalq xo'jaligi va aholi talablarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora - tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini va ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora - tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi *ijtimoiy - madaniy* sohada ham keng **vakolatlarga ega.** Xalq ta'limiga rahbarlik, ilmiy, madaniyat - ma'rifat masalalari, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mehnatni tashkil etish va kadrlar tayyorlashni tashkil etish bo'yicha vakolatlar yig'indisi Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy - madaniy sohadagi vakolatlari sirasiga kiradi.

Bu borada Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida:

fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora - tadbirlarini amalga oshiradi;

fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnat qilish huquqini ta'minlash chora - tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantrish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z **tarkibiga** ega. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar.

2002 yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

Konstitutsiyaning 98-moddasi hamda yangi tahrirdagi qonunning 15-moddasiga ko'ra, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarari ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga

binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi, boshqacha qilib aytganda Vazirlar Mahkamasi Raisi funksiyalarining barchasini amalga oshiradi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 4 martda qabul qilingan Senat tomonidan 2011 yil 25 martda ma'qullangan **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddaIariga) O'zbekiston Respublikasining QONUNIga,** hamda **O'R Konstitutsiyasining 97- moddasiga** muvofiq Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi **Bosh vaziri nomzodi** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining a'zolari** Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan **ishonchsizlik votumi** bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh va/.ir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad elilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi».

Bosh vazirning vakolatlari quyidagilardan iborat:

Bosh vazir:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazirning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

- Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi;

- Vazirlar Mahkamasining qarorlarini imzolaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi hamda hukumatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolaydi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvining Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqish talab etilmaydigan masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh vazir o'z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot berib boradi.

Bosh vazir yo'qligida uning vazifasini Bosh vazir o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Bosh vazir bo'lmagan hollarda uning vazifalarini birinchi o'rinbosar bajaradi.

Vazirlar Mahkamasining doimiy organlari sifatida Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi. Vazirlar Mahkamasi Raisining qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi yuqori organlarining qarorlarini hayotga tatbiq etishga ko'maklashish, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlarning qanday bajarilayotganligini nazorat qilish hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari foliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida **Vazirlar Mahkamasi** tomonidan uning **doimiy komissiyalari** tuzilishi mumkin. Bundan tashqari davlat va xo'jalik boshqaruvining alohida masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari loyixalarini ishlab chiqish uchun, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining alohida topshiriqlarini bajarish uchun **Vazirlar Mahkamasining vaqtinchalik komissiyalari va ishchi organlari** tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va madaniy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida amaldagi qonunlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan **qarorlar va farmoyishlar** chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari **Vazirlar Mahkamasining qarorlari** shaklida chiqariladi. Shoshilinch yoki boshqa joriy masalalar bo'yicha hujjatlar **Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari** yoki majlis qarorlari shaklida chiqariladi.

O'zini o'zi nazorat qilish savollari:

1. Ijro etuvchu hokimiyat tushunchasi va uning asosiy hususiyatlari nimadan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining huquqiy asoslari nimadan iborat?
2. Vazirlar Mahkamasi tarkibi qanday shakllantiriladi?
3. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlari nimadan iborat?
4. Qo‘mitalar va vazirliklar faoliyatlaridagi farqni gapirib bering.
5. O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimiga tayinlanish tartibi qanday?
6. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida kimlar oldida javobgar?

ADABIYOTLAR

1. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 7 dekabr.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: O'zbekiston, 2011..

3.. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashitrish va fuqarolik jamiyatim rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12.11.2010.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2011.

5. "0'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ning ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98 - moddariga)"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2011 yil (4,25- mart)

6. "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'R Qonuni, 1993, 6 may, (yangi tahriri)

7. Jalilov Sh.I., Ganiyev G.Yu. Konstitutsiyaviy huquq. O'quv qo'llanma - T.: O'zMU, 2005.

8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.T.: TDYuI.- 2005.

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish: (lotin yozuvidagi darslik) Mualliflar jamoasi, bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun. —T.: Yangi asr avlodi, 2005.

12..0'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi faniga sxemali o'quv-metodik qo'llanma.// So'z boshi A.A.Azizxo'jaev; Tuzuvchilar: O.Xusanov, X.Azizov va boshq. -T.: Sharq, 2001..

13. Jalilov Sh., Ganiyev G.Konstitutsiyaviy huquq. O'quv qo'llanma - T.:0'zMU, 2008.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHKARISH ORGANLARINING KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshkarish organlarining tushunchasi, mahalliy davlat hokimiyatining davlat hokimiyat organlari tizimidagi o'rni, fuqarolarning o'zini o'zi boshkarish organlarining ahamiyati, ushbu organlarining shakllantirish tartibi, faoliyatining huquqiy jihatlari tog'r'sida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

Tushuncha va tayanch iboralar: hokimiyat organlari, hokim, xalq deputatlari kengashlari, mahalliy o'zini' o'zi boshqarish organlari.

Asosiy savollar:

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi.
2. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va vazifalari

"Aqliy xujum" savollari:

1. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari nimalardan iborat?
2. Xalq deputatlari Kengashlarining asosiy ish shakli nimadan iborat?
3. Mahalliy hokimiyat organlari vazifalari nimadan iborat?

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI-bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" deb nomlangan. Konstitutsiyaning ***99-moddasiga*** ko'ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqii masalalarni hal etadilar.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlarining ikki tabaqali tizimi vujudga keltirildi. Mahalliy ijro va vakillik organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning konstitutsiyaviy holati aniqlandi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari bir-biriga bo'ysunmagan mustaqil davlat va vakillik organlari bo'lib, o'zaro munosabatlarda hamkorlik asosida o'z faoliyatlarini tashkil etadilar. Mahalliy xalq deputatlari Kengashlariga hokimlarning rahbarligi uni Kengash oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

"Vakillik va ijroiya hokimiyatining tegishliligiga qarab, viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'R Bosh vazirning taqdimiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo'ysungan shaharlarning hokimlarini tuman hokimi tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi."

Mahalliy ijroiya hokimiyati deganda O'zbekistonda barpo qilingan viloyat, tuman shahar hokimiyatlari tizimi tushuniladi. Mahalliy vakillik va ijro etuvchi mahkama hokimning rahbarligi ostida ishlaydi.

Konstitutsiyaga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi: qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy vamadaniy rivojlantirish;

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. **(100-modda).**

Viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boshchilik qiladi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilishi va tashkil etilishi tartibi, faoliyat yuritish asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli Nizomlar bilan belgilanadi. Xo'jalik va ijtimoiy - madaniy qurilish tarmoqlarini tezkorlik bilan boshqarishni ta'minlash uchun tegishli bosh boshqarmalar, bo'limlarni va boshqa ijro etuvchi tuzilma bo'linmalarini birlashtiruvchi tarmoq majmualari tuziladi. Mana shu tarmoq majmualariga rahbarlik qilish hokimning o'rinbosarlariga yuklatiladi. Tuzilma bo'linmalari hokim tomonidan tasdiqlanadigan Nizom asosida ishlaydilar.

Shuningdek, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim muammolarini muhokama qilish uchun hokim huzurida Maslahat Kengashi tuziladi, uning tarkibiga hokimning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari kotibiyat boshlig'i kiradi. Hokimning qaroriga muvofiq, Maslahat Kengashi tarkibiga xalq deputatlari Kengashining deputatlari va boshqa tashkilotlardan bo'lgan vakillar ham kirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasidagi hokimliklar faoliyatini tashkil qilishdagi muhim yo'nalishlaridan biri aholini qabul qilish, ularning istak-xohishlarini o'rganish, omma bilan bevosita muloqotda bo'lishdir,. Hokim, hokimning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, bo'limlar, boshqarmalar va bosh boshqarma rahbarlari, hokim kotibiyati boshlig'i aholini qabul qiladilar.

Qonunchilikda davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning ariza va xatlarini ko'rib chiqishning ma'lum tartibi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga binoan, hokimlar ariza va xatlar bo'yicha. qilingan ishlarni hisobini olib boradi va uning vazifasiga ularni to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqishni nazorat qilish yuklatilgan.

2. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq uchinchi sessiyasida 1993 yil 2 sentyabrida qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qishloq, shaharcha va ovullarda va ular tarkibidagi mahallalarda tuziladigan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tuzilishini va ularni huquqiy holatini belgilab berdi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining huquqiy holatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashishadi, o'z hududlaridagi ijtimoiy xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtiradi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida quyidagicha belgilangan, «shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini say lay di. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi». (105-modda)

Konstitutsiyada ko'zda tutilgan mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan ilk bor **1993** yili va **1999** yili yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, o'zini-o'zi boshqarish organlarini ikki bosqichi yoki ikki turi tuziladi, birinchisi oldin davlat hokimiyati organlari tuzilgan hududlarda yangi qishloq, shahar va ovullarda tuzildi, ikkinchisi shaharlardagi mahallalarda oldingi mahalla komitetlari o'rnida tuzildi. Shaharcha, qishloq va ovullarda tuziladigan o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat organlarini ayrim funksiyalarini bajarmoqdalar.

O'zini-o'zi boshqarish har qanday demokratik jamiyat tuzumining asosini tashkil etadi. Fuqarolarning mahalliy o'zini- o'zi boshqarish orqali davlatni boshqarishda ishtirok etishi demokratik prinsiplardan biridir. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini amalda haqiqiy vakolatlar bilan ta'minlash fuqarolar manfaatlarini ham amalda haqiqiy ta'minlaydigan boshqarishga erishish imkonini beradi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun **fuqarolar** yig'**inini** chaqirishning eng demokratik asoslarini belgilaydi. Fuqarolar yig'inini rais (oqsoqol) tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki hokim bilan kelishilgan holda zaruratga qarab chaqiradi. Fuqarolar yig'ini shuningdek xalq deputatlari Kengashi, hokim tomonidan yoki o'n sakkiz yoshga yetgan va ushbu hududda yashayotgan fuqarolar uchdan bir qismining tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

Yig'inni chaqirishning iloji bo'lmagan taqdirda fuqarolar vakilarining yig'ilishi o'tkaziladi. Yig'ilishlarga ko'chalar va turar-joy binolaridan, mahallalardan va boshqa hududiy tuzilmalardan o'n sakkiz yoshga yetgan va mazkur hududda doimiy yashovchi fuqarolar vakil qilinishi mumkin. Vakillik me'yorlarini tegishli xalq deputatlari Kengashlari yoki tuman shahar hokimi belgilaydi.

Fuqarolar yig'inlarida qatnashish huquqiga ega bo'lgan barcha aholining yarmidan ko'prog'i ularga kelgan taqdirda yig'inlar vakolatli hisoblanadi, vakillar yig'ilishlari esa ularga vakillarning kamida uchdan ikki qismi kelgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Qonunda rais (oqsoqol) va uning maslahatchilarini saylash tartibi belgilangan, ularni fuqarolarning yig'ini (yig'ilishi) tegishli tuman, shahar hokimi bilan kelishgan holda saylaydi.

O'zini - o'zi boshqarish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda qonunda ular faoliyatining **iqtisodiy va moliyaviy negizi** belgilanganligi hozirgi bozor munosabatlari o'rnatilgan davrda katta ahamiyatga ega.

O'zini-o'zi boshqarish organlari qurgan, sotib olgan yoki qonunda belgilangan tartibda ularga berilgan binolari, ijtimoiy-maishiy va boshqa ob'ektlar, shuningdek sotib olingan transport vositalari, xo'jalik anjomlari hamda boshqa mol-mulk o'zini-o'zi boshqarish organlarining mulkidir, ya'ni bular o'zini-o'zi boshqarish organlarini iqtisodiy negizini tashkil etadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy resurslari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayr ehsonlaridan, xayriya jamg'armalari ajratib beradigan mablag'lardan tarkib topadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mablag'lari bankdagi mustaqil schetlarda saqlanadi, ular tomonidan mustaqil tasarruf etiladi va olib qo'yilishi mumkin emas.

Qonunda o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, bu organlaming strukturasi va ular faoliyatini tashkil etish, rais (oqsoqol)ning vakolatlari berilgan.

O'zini-o'zi boshqarish organlari o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida qarorlar qabul qiladilar. Bu qarorlarni tegishli hududda yashaydigan barcha fuqarolar ado etishlari shart. O'zini- o'zi boshqarish organlarining qonunga zid hujjatlarini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari yoki tegishli hokimlar bekor qiladilar.

Qonunga muvofiq o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy qarorlari, shuningdek rais (oqsoqol)ning hatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Fuqarolarning yig'inini (yig'ilishini) olib borish uchun rayosat saylanadi. Yig'inni (yig'ilishni) rais (oqsoqol) yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Barcha masalalar bo'yicha qarorlar ochiq ovoz berish orqali va oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

NAZORAT UChUN SAVOLLAR

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tushunchasi va ularning huquqiy holati qanday?
2. Mahallliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish tartibi qanday?
3. Hokimlarning vazifasi nimadan iborat?
4. Mahalliy o'zini -o'zi boshqarish organlari vazifalari nimadan iborat?
5. Mahalliy o'zini -o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi qanday.

ADABIYOTLAR

3. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 7 dekabr.

4. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - T.: O'zbekiston, 2011..

3.. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashitrish va fuqarolik jamiyatim rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12.11.2010.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2011.
5. "Mahalliy davlat organlari to'g'risida"gi O'R Qonuni, 1993.
6. Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'R Qonuni, 1999, aprel.
7. Jalilov Sh.I., Ganiyev G.Yu. Konstitutsiyaviy huquq. - T.: O'zMU, 2005.

8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.T.: TDYuI.- 2005.

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish: (lotin yozuvidagi darslik) Mualliflar jamoasi, bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun. —T.: Yangi asr avlodi, 2005.

12..0'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi faniga sxemali o'quv-metodik qo'llanma.// So'z boshi A.A.Azizxo'jaev; Tuzuvchilar: O.Xusanov, X.Azizov va boshq. -T.: Sharq, 2001..

13. Jalilov Sh.I., G.Yu.Ganiyev Konstitutsiyaviy huquq. O'quv qo'llanma - T.:0'zMU, 2008.

SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI VA FUNKSIYALARINING UMUMIY TAVSIFI

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarda sud hokimiyati tushunchasi, uni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilishining konstitutsion tamoillari mazmun-mohiyati, huquqiy jihatlari va asoslari, O'zbekiston Respublikasi sud tizimi, uni shakllantirish tartibi, sudyalarning huquqiy maqomi to'g'risida to'liq va mustahkam bilim shakllantirish va shu orqali talabalarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish.

Tushuncha va tayanch iboralar: sud tizimi, konstitutsion sud, umumiy sudlar, xo'jalik sudlari, odil sudlov, sud himoyasi, aybsizlik prezumptsiyasi, fuqarolik ishlari, jinoyat ishlari, xo'jalik nizolari, hakamlik sudlari.

Asosiy savollar:

1. Sud hokimiyati tushunchasi, uning asosiy vazifalari va amalga oshirilishining konstitutsiyaviy tamoillari.
2. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimi va uni shakllantirish tartibi.
3. O'zbekiston Respubliksida sudyalarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ularga qo'yiladigan talablar.

“Aqliy xujum” savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati deganda qanday davlat organlari nazarda tutiladi?
2. O'zbekiston Respublikasi sud tizimiga qaysi sudlar kiradi?
3. Sudyalik lavozimiga nomzod oldiga qanday talablar qo'yilgan?

1. Sud hokimiyati tushunchasi, uning asosiy vazifalari va amalga oshirilishining konstitutsiyaviy tamoillari.

Sud hokimiyati davlat organlari tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Sud hokimiyatining faoliyati inson huquqlari va erkinligiga bevosita aloqador bo'lib, odil sudlovni amalga oshirish faoliyati natijasida shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlanadi.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida tarkibiy qismi bo'lib, qonunchilik va ijroiya hokimiyati, siyosiy partiya hamda jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda harakat qiluvchi hokimiyat tarmog'idir.

Sud hokimiyati organlari sudyalarning faqat Konstitutsiya va qonun talablariga bo'ysunish tamoyiliga asoslanib, o'z mustaqilligini ta'minlaydilar. Ular odil sudlovni amalga oshirish faoliyati bo'yicha hech kimga hisobdor emaslar.

Faqat Konstitutsiya asosida tashkil qilingan sud hokimiyati, qonun asosida sud ishlarini adolatli olib borishda, xalq vakillarining yordamiga tayanib, jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish, tekshirish va boshqa ishlar bo'yicha hukm chiqarish yoki qaror qabul qilish huquqiga ega.

Shunday qilib, sud va faqat sud o'ziga berilgan vakolallar doirasida odamlarga hamda shu orqali jamiyatga va jamiyatda bo'ladigan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Sud hokimiyati - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi tamoiliga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlami va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatli organdir. O'zbekiston Respublikasining odil sudlov organlari, davlat hokimiyatining bir tarmog'iga kiruvchi va qonun ustivorligini ta'minlab, tartibga solib turuvchi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularni tiklash, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan jazo chorasini qo'llash vakolatiga ega organ xisoblanadi.

Har bir davlatda odil sudlov organlari tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilmalarda tashkil etiladi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish jarayonlarida korxona va tashkilot, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabat natijasida kelib chiqadigan masalalarni belgilangan hududiy birliklar miqyosida ko'rib chiqadi. Shuningdek, sud organlarining vazifalari va maqsadlari odil sudlovni amalga oshirish, hamda Respublika Konstitutsiyasida belgilab berilgan talablarni bajarishdan iborat.

1996 yil 29 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-chaqiriq, VI sessiyasida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi huquqiy islohotlarning asosiy maqsadi sudning alohida va mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatidagi mavqeini qayta tiklash g'oyasi bo'ldi. Sud hokimiyatining yangi tarmoqlari yaratildi. Sudning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlari sud orqali himoya qilinishining kafolatlanishi huquqiy me'yorlari takomillashtirilmoqda, endigi vazifa shu me'yorlarning sudlov amaliyotiga izchillik bilan kirib borishini ta'minlash, ularning odamlar ongida chuqur o'rnashib qolishiga erishishdan iboraf'dir deb ta'kidlagan edilar.

Davlat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda sud organlarining ta'siri kuchli bo'lib, uni davlat nomidan kafolatlaydi, Konstitutsiya va qonunlarda belgilab berilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, millatlarning tengligi tamoyillari asosida amalda qo'llanilishini nazorat qiladi. Mamlakat ijtimoiy hayotidagi ishlab-chiqarish muassasalarida, davlat idoralarida, jamoat birlashmalarida fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquqlarini mulk shaklidan qat'iy nazar himoya qilinishini ta'minlaydi.

Sud ishlari ichida eng asosiy vazifa odil sudlovni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, sud hokimiyatining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi vakolatlari ham mavjud:

1) konstitutsiyaviy nazorat;
2) davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatlari hamda ular tomonidan qabul qilingan qarorlarining qonuniyligini tekshirish;
3) sud hukmi va qarorlarining ijrosini ta'minlash;
4) sudlarga tegishli ma'muriy huquqbuzarlik holatlarini ko'rib, tekshirib chiqish;
5) sud amaliyotidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik masalalari bo'yicha tushuntirish vakolati;
6) sudyalar tarkibining shakllanishida ishtirok etish va uning organlariga yordam berish vakolati.

Yuqoridagi vakolatlarning amalda bajarilishi odil sudlov bilan uzviy bog'liq bo'lib, sud hokimiyatining mazmunini tashkil etadi va u qabul qilgan hukm va qarorlarning majburiy ijrosini ta'minlashga qaratiladi. Sud hokimiyati qarorlarining hayotga tadbiq qilinishi majburiydir, bu holat qonun bilan belgilangan. Qonun davlat organlari, jamoat birlashmalari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning sud hukmiga bevosita bo'ysunishlarini talab qiladi. Hanirna davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar sud hokimiyati qarorlarining amalga oshishida sudga yordamlashishlari shart va majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi odil sudlov organlari faoliyatining asosiy maqsadi, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy amal qilinishiga qaratilgan. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirilishi uchun sud organlariga qonunda katta vakolatlar berilgan.

O'zbekiston Respublikasida sud organlari faoliyatidagi eng muhim tamoyillardan biri Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi hisoblanadi. Faqatgina sudlarga jinoyat ishlari va fuqarolik ishlarini qonunda belgilangan tartibda sudlov jarayonlarida davlat nomidan choralar ko'rish huquqi berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasining Sudlar to'g'risida"gi qonunida sud organlarining faoliyat prinsiplari tushunchasiga quyidagieha ta'rif berilgan:

"Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishiga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadilar."

O'zbekiston Respublikasida Odil sudlovni amalga oshirishning eng asosiy shartlardan biri fuqarolarning sud oldida tengligidir. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Sudlov ishlarini yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi. Bunday holatlar ayrim jinoyatlarni ko'rib chiqishda qo'llaniladi.

Tergov va sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida ayblanuvchilarga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi 1-bandida fuqarolarning shaxsiy huquqlari belgilab berilgan: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha, u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi."

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan. Konstitutsiyaning 44-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Ushbu Konstitutsiyaviy normaning amal qilish tartibi qonun hujjatlarida hususan O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan hatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida" gi qonun asosida va boshqa qonunlarda belgilangan.

Har bir shaxs o'z manfaatini shaxsan yoki qonuniy vakil orqali himoya qilish huquqiga egadir. O'z huquqlarini qonuniy vakil tomonidan himoya qilish imkoniyati huquq layoqatiga ega bo'lgan, fikrlay oladigan jismoniy shaxslarga ham beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha, u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilishi uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi" deb mustahkamlangan.

Ushbu konstitutsiyaviy norma umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarga to'la mos keladi. Masalan: aybsizlik prezumpsiyasi inson huquqlari sohasidagi e'tiborli xalqaro hujjatlar: «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» (11-modda), «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi Xalqaro pakt (14-modda), «Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida»gi Yevropa konvensiyasi (6-moddasining 2-bandi) normalarida o'z ifodasini topgan.

Aybsizlik prezumpsiyasi sudya, tergovchi va prokurorlarning shaxsiy fikrini emas, balki shaxsning ob'ektiv huquqiy holatini o'zida ifodalaydi. Isbotlash burchi yuklatilgan shaxslargina ayblanuvchi deb topishi, gumon qilinuvchini uybini to'la, har tomonlama, xolisona isbotlaganlaridan so'ng ayblanuvchini sud aybdor deb topishi mumkin

Sud tomonidan qonuniy kuchga kirgan ay bio v hukmi chiqarilmagunga qadar ayblanuvchi aybsiz deb hisoblanadi.Aybsizlik prezumpsiyasi qoidasiga ko'ra mavjud barcha shubha va taxminlar to'liq aniqlanguncha, ushbu holat ayblanuvchi foydasiga hal qilinadi, bu esa o'z navbatida, shaxsning ma'lum jinoyat bo'yicha aybsizligini ko'rsatadi.

Ayblanuvchi o'z huquqlarini himoya qilishi uchun o'z iltimosiga ko'ra himoyachi bilan ta'minlanishini talab qilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasida, himoyachining ishtirokida fuqarolarga aybini isbotlovchi dalillar asosida ayblov e'lon qilinishi yoki u gumon qilingan deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qarorini o'qib eshitilishi belgilangan.

Hech kimning qonunda belgilangan huquqlarini kamsitishga, hibsga olinishiga, qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqlar o'tkazishlariga yo'l qo'yilmaydi. Millati, dini, kelib chiqishidan qat'i nazar, qo'pol muomala qilish, diniy qarashlarga majburlash mumkin

emas. Xohlagan diniga e'tiqod qilish, vijdon erkinligi Konstitutsiya va qonunlarda kafolatlangan insonlarning shaxsiy daxlsizlik huquqlari buzilgan taqdirda davlat va sud organlari tomonidan himoyalanadi.

O'zbekiston Renspublikasida sudlov ishlarini yuritish o'zbek tilida, Qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Sudlov ishlarini olib borilayotgan vaqtda tilni bilmaydigan, sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sudlov ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudlov jarayonlarida ona tilida so'zlashish huquqi ta'minlanadi

Sud organlarining faoliyati ijtimoiy adolatni, tenglik va totuvlikni ta'minlashga, huquqiy qonuniylikni barcha choralar bilan mustahkamlashga qaratilgandir.

2. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimi va uni shakllantirish tartibi.

O'zbekistonning ijtimoiy va davlat tuzumiga asoslangan, ma'muriy-hududiy bo'linishiga muvoflq yagona sud tizimi mavjud.

Yagona sud tizimining tashkil qilinishi, sud faoliyatini Konstitutsiya hamda xalqaro shartnomalarda umume'tirof etilgan tamoyillarga binoan qabul qilingan amaldagi qonunlar asosida olib borishga, sudlarning maqomi tengligini ta'minlashga va davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari faoliyat ko'rsatadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha sud organi hisoblanib, Konstitutsiyaviy sudda ish yuritish orqali sudlov hokimiyatini mustaqil amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi (Konstitutsiyaning 108-moddasi 1-bandi) Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyani huquqiy muhofaza qiluvchi qonunlarni (qonunchilik va ijro hokimiyatining boshqa hujjatlarini) konstitutsiyasiga zid deb topishi, ya'ni ularni harakatdan to'xtatib qo'yishga ega bo'lgan maxsus organ hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyati 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Bunday maxsus normalardan tashqari, sudni tashkil qilish va faoliyatini tartibga solishda, barcha sud organlari uchun umumiy hisoblangan konstitutsiyaviy qoidalar ham manba bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy sud yagona sud sifatida ta'sis etilgan hamda sudlov organlari tizimiga ega emas. Shuning uchun ham unga nisbatan Konstitutsiyada "Oliy yoki yuqori" deb daraja berilmagan.

Konstitutsiyaviy sud tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan sud Raisi, Rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasidan saylanadigan sudyani qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a'zosidan iborat tarkibda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis Senati a'zolari deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida siyosat va huquq sohasi mutaxassislari bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatli va zarur

malakali O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Konstitutsiyaviy sud sudyasi etib saylanishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Konstitutsiyamizning 109-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga binoan Konstitutsiyaviy sud quyidagi vakolatlarga ega:

1) Qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi.

2) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi.

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

5) Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Bulardan tashqari Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiyaning 82-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunining 10-moddasiga binoan Oliy Majlisga qonunchilik tashabbusi huquqi bilan chiqishga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorlari, xulosalari va boshqa to'xtamlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami u matbuotda e'lon qilingan paytidan boshlab kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sudning to'xtami qat'iy va uning ustidan shikoyatga o'rin bo'lmaydi (27-modda. Konstitutsiyaviy sud to'xtamlarini matbuotda e'lon qilish).

Konstitutsiyaviy sud tomonidan normativ hujjatlar yoki ulardagi alohida ma'lum holatlar Konstitutsiyaviy sudning ushbu ish yuzasidan qabul qilingan qaroriga muvofiq konstitutsiyaga zid deb topilsa, ushbu normativ hujjatlar yoki ularning ma'lum qismi o'z yuridik kuchini yo'qotadi.

Fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatini umumiy yurisdiktsiya sudlari amalga oshirib, Konstitutsiyamizning 110-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi - Fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining Oliy organi hisoblanadi.

Oliy sud faoliyatini tashkil qilish va tartibga solish O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunda ko'rsatilgan protsessual shakl va tartibda umumiy yurisdiksiyali sudlar, shuningdek, harbiy sudlar faoliyati ustidan ham sudlov nazoratini amalga oshiradi.

Iqtisodiy sohada, turli mulk shakllariga ega tashkilotlar, idoralar, korxonalarni boshqarish jarayonida, shuningdek tadbirkorlar orasida vujudga keladigan munosabatlarda yuzaga chiqqan bahslarni hal qilish Respublikamizdagi xo'jalik sudlari tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudi tizimini Respublikasining Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar hamda Toshkent shahar xo'jalik sudlari tashkil qiladi.

Xo'jalik sudlarining asosiy vazifalari: tashkilotlar va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonunchilikni to'g'ri va bir xilda qo'llash; iqtisodiy munosabatlarda qonuniylikni mustahkamlash va qonunchilikning huquqiy vositalaridan foydalanishga sharoit yaratishdan iborat.

Xo'jalik sudlari faoliyatining asosiy tamoyillari hamda sud muhokamasi tartiblari ko'p holatlar bo'yicha fuqarolik jarayonidagi sud muhokamasiga mos keladi. Xo'jalik sudi faoliyatining asosiy tamoyillari: qonuniylik, xo'jalik sudyalarining mustaqilligi; sud va qonun oldida hammaning tengligi; tomonlarning teng huquqliligi, ish yuritishda oshkoralik, sud muhokamasini yuritishda oshkoralik, sud muhokamasining bevosita va uzviy amalga oshirish hisoblanadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan huquqiy hujjatlari-xo'jalik sudining to'xtami, qarori, ajrimi barcha davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, hamda boshqa organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan O'zbekiston Respublikasining butun hududida bajarilishi shart.

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 43-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi xo'jalik ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining Oliy organidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi. Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi ishlarini birinchi instansiya sudi sifatida, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida ko'radi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining tushuntirishlari xo'jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo'jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo'jalik sudlarining ishini tashkil etish ijobiy tajribasini o'rganadi, umumlashtiradi.

Oliy xo'jalik sudining vakolatlari uning vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 63-moddasi cudyalarni saylash va tayinlash tartibini mustahkamlab qo'ygan. Ushbu moddaning mazmunidan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, sudyalar tarkibini shakllantirish davlat hokimiyati barcha tarmoqlarining o'zaro hamkorligi bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga muvofiq, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudlarining sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senat a'zosi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi yoki tayinlanadi.

Viloyat sudlari, Toshkent shahar sudlari, tumanalararo, tuman (shahar) sudlari sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga ko'ra, xo'jalik sudlarining sudyalari esa,. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Harbiy sudlar sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Sudyalar besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi.

Ilk bor sudyalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 64-moddasida belgilangan tartibda qasamyod qiladi.

Demak, odil sudlov faoliyatining amalga oshirilishi, qonunchilik va ijro hokimiyati tarmoqlari singari, sud hokimiyatining ham naqadar muhim va mas'ul vazifalari mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa-davlat hokimiyati, tarmoqlarining teng huquqligini, maqsadlarining birligini, davlatni boshqarishda birdek mas'uliyat bilan faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

3. O'zbekiston Respubliksida sudyalarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ularga qo'yiladigan talablar.

Sudyalarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, saylanish tartibi, tayinlanishi va lavozimini egallashi, ular mustaqilligining kafolatlari, shuningdek ularning

moddiy va ijtimoiy ta'minoti Konstitutsiya va "Sudlar to'g'risida"gi qonun normalarida belgilab qo'yilgan.

"Sudlar to'g'risida"gi qonunning 60-moddasiga ko'ra, sudyalar odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega bo'lib, sud raislari, rais o'rinbosarlari ham ayni vaqtda sudyalardir.

Qonun sudyalarning Oliy martabali mansabdor shaxs hisoblanganligi uchun, sudyalikka nomzodlar uchun qator talablar qo'yadi. "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 61-moddasiga ko'ra, yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan Oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisos bo'yicha kamida uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan hamda malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida yetti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, sudya bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.----------

Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan, ofiserlar tarkibiga kiruvchi harbiy unvonga ega bo'lgan va ushbu modda talablariga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy sud sudyasi bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga nomzodlar uchun alohida talablar qo'yilgan.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib, siyosat va huquq sohasi mutaxassislari bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatli va zarur malakali O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkinligi belgilangan.

Sudyallikka nomzodning Oliy yuridik ma'lumotli ekanligi Oliy yuridik o'quv yurtining yoki Oliy o'quv yurtining yuridik fakultetini tugatganligi va davlat namunasiga ega bo'lgan diplom olganligi bilan belgilanadi.

Oliy yuridik o'quv yurtini tugallagan vaqtdan yuridik ma'lumot olingan deb hisoblanib, tanlangan mutaxasisislik bo'yicha, yana qayta o'qish talabini qo'ymaydi. Nomzodning yuridik sohadagi ish stajiga, uning avval sudya bo'lganligi yoki tergovchi, prokuror, advokat, yurist konsultant va boshqa yuridik sohalardagi mehnat faoliyati kiradi. "Yuridik sohadagi faoliyat" tushunchasi sirasiga huquq sohasi bo'yicha ilmiy va pedagogik faoliyati bo'yicha shug'ullanish ham kiritiladi. Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga qo'shimcha talablar sifatida qo'yilgan huquq va siyosat sohasida yuqori darajadagi mutaxassis deb tan olishlik uchun, Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish amaliyotidagi tajribadan kelib chiqib nomzodning ilmiy darajasining bo'lishi, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining rahbar lavozimlarida uzoq muddat ishlaganligi, yoxud mezon bo'lib xizmat qilinganligini ko'plab ilmiy ishlar muallifi ekanligini ko'rsatish mumkin.

Konstitutsiya va qonun sudyalarga asosiy talablardan tashqari, qator qo'shimcha talablar ham o'rnatganligini ta'kidlash joiz:

2) sudyalar hokimiyat vakillik organlarining deputatlari bo'lishi mumkin emas. (Hokimiyat taqsimlanishi tamoyiliga asosan)

3) sudyalar siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishi mumkin emas. (Sudlar o'z faoliyati mustaqil bo'lishligi uchun kafolat sifatida sudlarni siyosiylashtirmaslik)

4) sudyalar ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Qonun talablaridan yana biri, sudya lavozimiga qonunga xilof harakatlarni sodir etmagan shaxslar tayinlanishi yoki saylanishidir.

Sudyalar o'z vakolatlarini amalga oshirish vaqtida ham, xizmatdan tashqari holatda ham sud hokimiyatining obro'sini, sudyalarning sha'ni va qadr-qimmatini tushiruvchi, xolis va adolatli odil sudlovga nisbatan shubhali harakatdan o'zlarini tiyishlari shart.

Tegishli sud sudyaligiga nomzod O'zbekiston fuqarolari, yuqoridagi talablarga javob bergan taqdirda, ushbu lavozimni egallashi uchun sudyalarning malakaviy kollegiyasiga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi. Sudyalarning malakaviy kollegiyasi tegishli sud raisiga tavsiya etilgan har bir nomzodlar bo'yicha o'z xulosasini taqdim etadi.

Agar sud raisi xulosa bo'yicha rozilik bermasa, xulosa o'z navbatida sudyalarning malakaviy kollegiyasiga qayta ko'rib chiqish uchun qaytariladi. Sudyalarning malakaviy kollegiyasining qayta ijobiy xulosasi bo'yicha, tegishli sudning raisi tomonidan nomzod ishini qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi tomonidan sudyalik lavozimiga tanlash va tavsiya etish masalasini hal etish vaqtida, qonunchilik va ijtimoiy adolat asosida sudyalarni saylash yoki tayinlash kafolati sifatida jamoat nazorati o'rnatilishi ko'rsatib o'tilgan. Sudyalarning mustaqilligi asosiy konstitutsiyaviy tamoyil bo'lib, sud hokimiyatining mustaqilligi va samarali faoliyatini, inson huquq va erkinliklarini himoya qila olishini ta'minlovchi shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasiga binoan, "Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi foliyatiga biron-bir tarzda aralishishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalar mustaqilligining asosiy kafolatlaridan biri Konstitutsiyamizning 112-moddasi 2- bandida belgilanganidek, ularning daxlsizligi hisoblanadi.

Daxlsizlik yoki immunitetdan tashqari, sudyalarning immuniteti ham ya'ni sudyalar ish bo'yicha bexavotir qaror chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim hamda chiqarilgan qarori yuzasidan hech kim tomonidan ta'qib etilmasligi va hech kim uning ushbu qarori yuzasidan izoh talab qilishga yoki bekor qilishga aralashuvi mumkin emasligi kafolatlanadi.

Sudyalarning daxlsizlik instituti, sudyalarning avvalombor, shaxsi daxlsiz ekanligini, har qanday holatda ham unga bo'ladigan tajovuzdan saqlanish sharoitlarini o'zida ifodalaydi. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, foydalanadigan transporti va aloqa vositalariga, xat xabarlariga, unga tegishli ashyolar va xujjatlarga taalluqlidir.

Qonun sudyalarning o'zlarini ham jinoiy javobgarlikka tortishning alohida tartibini belgilaydi. Shuningdek, sudya sudyalarning tegishli malaka hay'atining roziligisiz ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Sudyani jinoiy javobgarlikka tortish faqat qonun bilan belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiriladi. Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Shuningdek, sudya O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi mumkin emas.

Sudyalarni almashtirib bo'lmaslikning ma'nosi, sudya tegishli suddagi sudyalik lavozimini vakolat muddati tugaguniga qadar egallab turishi va sudyalik vakolatidan foydalanish huquqi deb tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasining 5- bandida sudya vakolat muddati tugagunga qadar o'z sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Sudyalarning almashtirib bo'lmaslik kafolatlaridan biri, qonunda mustahkamlab qo'yilgan asoslardan tashqari, sudyalarning vakolatlari to'xtatilishi yoki tugatilishi mumkin emasligidir.

Sudyaning vakolatlari ayrim hollarda sudyalarning tegishli malaka hay'ati qarori asosida muddatdan ilgari tugatilishiga yo'l qo'yiladi. Sudya ushbu qaror ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. 0‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qanday ish yuritadi?
2. 0‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimining tuzilishi haqida gapirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi (umumiy sudlar) qanday vazifalarni bajaradi?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari qanday nizolarni ko'rish bilan shug'ullanadi?
6. Aybsizlik prezumpsiyasi nima?
7. Sudyalarga qanday faoliyat bilan shug'ullanish ta'qiqlanadi?

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. T. O'zbekiston. 2009 yil.
2. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. T., O'zbekiston, 2009 yil.
3. Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
4. Karimov I. A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
5. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2000 y.
6. "0'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1995 y.
7. "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2007 y.
8. Jalilov Sh.I., Ganiyev G.Yu. Konstitutsiyaviy huquq. O'quv qo'llanma - T.: O'zMU, 2005. 9.0'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.T.: TDYuI.- 2005.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish: (lotin yozuvidagi darslik) Mualliflar jamoasi, bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun. -T.: Yangi asr avlodi, 2005.
11. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi faniga sxemali o'quv-metodik qo'llanma.// So'z boshi A.A.Azizxo'jaev; Tuzuvchilar: O.Xusanov, X.Azizov va boshq. -T.: Sharq, 2001..
12. Jalilov Sh.I., G.Yu.Ganiyev Konstitutsiyaviy huquq. O'quv qo'llanma - T.:0'zMU, 2008.

SEMINAR MASHGULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

1-mavzu: Davlat va huquq nazariyasi asoslari

Ilova 5

1. «Huquqiy davlat va uning belgilari», «Zamonaviy davlat», «Fuqarolik jamiyat va shaxs» tushunchalarini mantiqiy chizmalarga solish.

2. Mavzuga oid slayd-prezentasiyalar tayyorlash.

Ilova 6.

«Klaster» asosida huquq norma belgilarini ko'rsating va tushunchasini tuzing.



HUQUQ NORMA – bu ……

Ilova 7.

«VENNA DIAGRAMMA» VA UNI TUZISH TARTIBI

«Venna diagramma» turli tushunchalarning jihatlarini umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash hamda qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llanilib, tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

1. *Davlat va huquqning asosiy belgilarini hamda mutanosib jihatlarini* «Venna diagramma»sida ifoda eting.



Ilova 8.

Tushuncha va tayanch iboralar: Davlat, davlat shakli, davlatning boshqaruv shakli, davlat tuzilish, davlatning siyosiy tuzumi, huquq, huquqiy normalar, huquq tizimi, huquq tarmog'i, huquq instituti, huquq manbalari, huquqiy odat, yuridik pretsedent - normativ-huquqiy hujjat, xalqaro-huquqiy normalar.

2-mavzu: Ma'muriy huquq asoslari

Ilova 5.

«Klaster» asosida «boshqaruv munosabatlar», «ijro etuvchi organlar», «ma'muriy huquqbuzarlik» tushunchalarini tashkil etadigan asosiy belgilarni ko'rsating.



Ilova 6.

«Klaster» asosida ma'muriy jazo turlari va mazmunini keltiring.



Ilova 7.

Tushuncha va tayanch iboralar: boshqaruv, boshqaruv munosabatlar, kuzatuv, nazorat, tekshiruv, fuqarolar va ijro etuvchi organlar, ma'muriy majburlov choralari, ma'muriy huquqbuzarlik, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy jazo.

3-mavzu: Fuqarolik huquqi asoslari

Ilova 5.

Talabalar bir necha guruhlarga bo'linib « Fuqarolik huquqi», «Fuqarolik huquqi predmeti», : «*Jismoniy shaxs*», «*Yuridik shaxs*», «*Huquqiy layoqati*», «*Muomala layoqati*», «Mulk huquqi», «Meroslik huquqi» tushunchalarni «Klaster» asosida yoritish tavsiya etiladi.

Ilova 6.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik huquqi tushunchasi nimadan iborat?
2. Fuqarolik huquqi qaysi munosabatlar tartibga solingan?
3. Fuqaroviy-huquqiy tartibga solishning usulining o'ziga hos jihati qanday?
4. Mulkiy munosabatlar deganda qanday munosabatlar tushuniladi?
5. Shahsiy nomulkiy munosabatlar deganda qanday munosabatlar tushuniladi?
6. Huquq va muomala layoqati mazmuni nimadan iborat?
7. Yuridik shahslarning asosiy belgilari nimadan iborat?

Ilova 7.

Tushuncha va tayanch iboralar: mulk, mulkiy munosabatlar, shaxsiy nomulkiy munosabatlar, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, subyektlarning tengligi, subyektlarning erkinligi, shartnoma, huquqiy layoqat, muomala layoqati, emansipatsiya, muomala layoqatini cheklash, muomalaga layoqatsiz deb topish, davlat korxonalari, hususiy korxonalar.

4-mavzu: Mehnat huquqi asoslari

Ilova 5.

«Klaster» asosida «Mehnat huquqi» mazmunini tashkil etadigan asosiy elementlarni ko'rsating.



Ilova 6.

«Klaster» asosida «Mehnat shartnomasi» mazmunini tashkil etadigan asosiy elementlarni ko’rsating.



Ilova 7.

Ishga joylashishning ketma-ketligini jadval asosida ko’rsating.



Ilova 8

«Venna diagramma» asosida mehnat huquqi, tadbirkorlik huquqi va fuqarolik huquqlari o’rtasida aloqani aniqlang.



Ilova 9.

Nazorat savollari

1. Mehnat shartnomasi mohiyatini yoriting.
2. Ishga joylashishning tartibini kursating.
3. Mehnat shartnomasi qanday tuziladi?
4. Ishga joylashish uchun xodim tomonidan ish beruvchiga qaysi hujjatlar taqdim etiladi?

Ilova 10.

Tushuncha va tayanch iboralar: mehnat qilishga bo'lgan huquq, mehnat munosabatlari, majburiy mehnat, diskriminatsiya, ish beruvchi, hodim, ishga joylashish, mehnat daftarchasi, sinov mudati, mehnat shartnomasi, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari.

5-mavzu: Oila huquqi asoslari

Ilova 5.

Talabalar bir necha guruhlarga bo'linib «Oila huquqi» mavzusiga oid tarqatma materiallarda mavjud muammoli vaziyatlarni hal etish tavsiya etiladi.

1. Muammoli vaziyatlar guruh talabalari orasida o'qib eshittiriladi.
2. Muammoli vaziyatlar tahlili jarayonida qonunga hilof holatlarni aniqlashtirirsh, qayd etib borish tavsiya etiladi.
3. Aniqlashtirilgan qonunga hilof holatlarni tegishli qonunlar asosida hal etish yo'llarni taklif etish lozim.
4. Muammoli vaziyatga oid qushimcha savollarga javob berish lozim.
5. Muammoli vaziyatlarga javoblar amaldagi qonunchilikka asoslangan bo'lishi kerak.

Ilova 6.

Tushuncha va tayanch iboralar: Oila, nikoh, FHDYo organlari, nikoh yoshi, nikohning ihtiyoriyligi, nikohni tugatish, sud yoki FHDYo organlarida nikohni tugatish, aliment majburiyatlari, umumiy mulk, mulkning teng taqsimlanishi, farzandlarga g'amho'rlik ko'rsatish, farzandlarning ota-onasiga g'amho'rlik ko'rsatishi, vasiylik, homiylik, farzandlikka olish, ota-onalik huquqidan mahrum bo'lish.

6-mavzu: Jinoyat huquqi asoslari

Ilova 5.

Talabalar bir necha guruhlarga bo'linib quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1-guruh talabalari – «huquq sohasi» umumiy tushunchasi asosida «jinoyat huquqi» tushunchasini tuzadi;

2-guruh talabalari – «jinoyat huquqi predmeti» to'g'risida o'z fikrlarini varoqda bayon etadilar;

3-guruh talabalari – «Klaster» asosida «jinoyat huquqi vazifalari»ni ko'rsatadilar;

4-guruh talabalari – aqliy hujum orqali «jinoyat huquqi tamoyillari»ni sanab o'tadilar.

Ilova 6.

Nazorat savollari

1. Jinoyat huquqi qaysi munosabatlarni tartibga soladi?
2. Jinoyat tushunchasi qaysi belgilardan iborat?
3. Jinoyat sub’ekti asosiy belgilarini aniqlang.
4. Jinoyat uchun jazo maqsadi nimadan iborat?
5. Jinoyat uchun asosiy jazo turlarini ko’rsating.
6. Jinoyat uchun qushimcha jazo turlarini ko’rsating.

Ilova 7.

Tushuncha va tayanch iboralar: jinoiy qilmish, shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari, manfaatlarni qoriqlash, jinoyatni oldini olish, ayb, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi, harakat, harakatsizlik, huquqqa xiloflilik, ijtimoiy xavfning darajasi, jinoyat tarkibi, jinoiy jazo.

7-mavzu: Xalqaro huquq asoslari

Ilova.5.

Talabalar bir necha guruhlarga bo’linib quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1-guruh talabalari – aqliy hujum orqali «xalqaro huquqi predmeti»ni sanab o’tadilar;

2-guruh talabalari – «xalqaro huquqi vazifalari» to’g’risida o’z fikrlarini varoqda yozib bayon etadilar;

3-guruh talabalari – «Klaster» asosida «xalqaro huquqi tamoyillari»ni sanab o’tadilar;

4-guruh talabalari – «Klaster» asosida «xalqaro huquqi manbalari»ni varoqda yozib bayon etadilar.

Ilova 6.



Ilova 7.

«Klaster» asosida «Xalqaro huquq manbalari»ni ko’rsating.



Ilova 8.

Tushuncha va tayanch iboralar: xalqaro munosabatlar, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, o’z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar, “erkin shaharlar”, davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo’l bilan hal etish, xalqaro shartnomalar, deklaratsiya, konventsiya, xalqaro doktrinalar.

8-mavzu: Konstitutsiya va uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni

Ilova 3

d) «Siyosiy huquqlar»
e) «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar»
11. «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi» iborasi O’zbekiston Konstitusiyasining qaysi bobida joylashgan?
a) «shahsiy huquq va erkinliklar»

b) «fuqarolik»
c) «umumiy qoidalar»
d) «siyosiy huquqlar»
e) «iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar»

12. «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega» iborasi O'zbekiston Konstitusiyasining qaysi bobida joylashgan?

a) «Shahsiy huquq va erkinliklar»
b) «Fuqarolik»
c) «Umumiy qoidalar»
d) «Siyosiy huquqlar»
e) «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar»

13. O'zbekiston Konstitusiyasiga muvofiq, ish vaqti nima bilan belgilanadi?

a) qonun bilan
b) hodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvi bilan
c) jamoa kelishuvi bilan
d) jamoa shartnomasi bilan
e) to'g'ri javob yo'q

14. Muayyan davlat xududida yashaydigan, biroq uning fuqaroligiga ega bulmagan va o'zining xorijiy davlat fuqarosi ekanligini isbotlay olmagan shaxs – bu:

a) eqspatriant
b) emigrant
c) qochoq
d) bipatrid
e) apatrid

15. «Har bir shahs mulkdor bo'lishga haqli» iborasi O'zbekiston Konstitusiyasining qaysi bobida joylashgan?

a) «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar»
b) «shahsiy huquq va erkinliklar»
c) «Umumiy qoidalar»
d) «Fuqarolik»
e) «Siyosiy huquqlar»

16. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini keltirib chiqaradigan asoslirni kursating.

a) filliasiya
b) naturalizasiya
c) fuqarolikni tiklash
d) yuqoridagilarning barchasi
e) to'g'ri javob yo'q

17. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga oid masalalarni kim hal etadi?

a) Senat Raisi
b) Prezident
c) Qonunchilik palatasi Spikeri
d) Vazirlar Mahkamasi Raisi
e) To'g'ri javob yo'q

Mavzu : O'ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

1. O'zbekistonda ommaviy axborotga nisbatan senzura bormi?

a) ha, doimiy ravishda
b) yo'q
c) faqat gazetalarga nisbatan

d) faqat radio eshittirishlarga nisbatan
e) faqat televideniyaga nisbatan
2. O’zbekiston Konstitusiyasiga ko’ra mahfiy jamiyatlar tuzish mumkinmi?
a) ta’qiqlanadi
b) Adliya Vazirligi ruhsati bilan mumkin
c) Milliy havfsizlik hizmati ruhsati bilan
d) Prokuror ruhsati bilan mumkin
e) Ha, mumkin
3. O’zbekistonda siyosiy partiyalarni qaysi organ ro’yhatdan o’tkazadi?
a) Oliy sud Raisi
b) Bosh prokuror
c) Adliya vazirligi
d) Senat Raisi
e) Qonunchilik palatasi Spikeri
4. O’zbekistonda nikoh qaysi qoidaga asoslanadi?
a) tomonlarning tengligi va ihtiyoriy roziligi
b) nikohning majburiyligi va shartligi
c) hotinning erdan ustun turishi
d) erning hotindan ustun turishi
e) to’g’ri javob yo’q
5. O’zbekiston Konstitusiyasiga muvofiq farzandlar o’z ota-onalari haqida g’amhurlik qilishga qaysi holda majburdirlar?
a) o’zlarining hohishlari bo’lganda
b) o’n olti yoshga to’lganda
c) ota-onalari iltimos qilganda
d) voyaga etganda va mehnatga layoqatli bo’lganda
e) to’g’ri javob yo’q
6. O’zbekiston Konstitusiyasiga muvofiq ota-onalar o’z farzandlarini necha yoshga etgunlariga qadar boqishga majburlar?
a) 17 yosh
b) 18 yosh
c) 16 yosh
d) 20 yosh
e) 21 yosh

Mavzu: OLIY MAJLIS – O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILY VAKILLIK ORGANI VA QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYAT

1. Oliy Majlisning Senati mutlaq vakolatlaridan birini aniqlang.
a) ijro etuvchi hokimiyat apparatini shakllantirish
b) bosh prokuror xisobotlarini eshitish
c) diplomatlarning ishonch yorliqlarini qabul qilish
d) siyosiy boshpana berish
e) Bosh prokurorni tayinlash
2. O’zbekiston Prezidenti favqulodda holat joriy etilsh to’g’risidagi qarorni qaysi muddat ichida Oliy Majlis tasdigiga kiritadi?
a) o’ch soat
b) o’ch kun
c) o’ttiz kun
d) o’n kun
d) shu vaqtning o’zida

3. Oliy Majlis a’zolari tomonidan Bosh vazirga ishonchsizlik votumi tegishincha qabul qilingada Vazirlar Mahkamasi …

a) o’z faoliyatini davom etadi

b) ta’tilga chiqadi

c) Oliy Majlis Senatiga o’tkaziladi

d) Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o’tkaziladi

e) istefoga chiqadi

4. Oliy Majlis vakolatlariga nima kirmaydi?

a) O’zbekiston Prezidenti farmonlarini tasdiqlash

b) Prezident taqdimiga binoan amnistiya to’g’risidagi hujjatlarni qabul qilish

c) Oliy Majlis Senat Raisini saylash

d) ijro etuvchi hokimiyat apparatini shakllantirish

e) barcha javoblar to’g’ri

5. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a’zolarning qanchasining ovozi mavjudligida Bosh vazir nomzodi tasdiqlanadi?

a) barcha deputat va senatorlarning ovozi mavjudligida

b)deputat va senatorlarning umumiy sonining yarmidan ko’p bo’lmagan ovozlarining mavjudligida

c) deputat va senatorlarning umumiy sonining kamida uchdan ikki qismining ovozi mavjudligida

d) deputat va senatorlarning umumiy sonining yarmidan ko’pi ovozi mavjudligida

e) deputat va senatorlarning umumiy sonining kamida turtdan ikki qismining ovozi mavjudligida

5. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod necha marotaba rad etilgandanda Prezident Oliy Majlisni tarqatib yuborishga haqli?

a) bir marta

b) besh marta

c) uch marta

d) turt marta

e) ikki marta

Mavzu: O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING KONSTITUSIYAVIY HUQUQIY MAQOMI

1. Qaysi holatda fuqaro O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozomiga saylanmaydi?

a) 65 yoshga to’lganlik

b) to’g’ri javob yo’q

c) davlat tilini yaxshi bilishi

d) saylovgacha kamida 10 yil O’zbekistonda yashashi

e) 35 yoshga yetmaganligi

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga nomzodlarni taqdim etish qaysi muddatda yakunlanadi?

a) saylovga o’n kun qolganda

b) saylovga besh kun qolganda

c) saylovga bir oy qolganda

d) saylovga ikki o’y qolganda

e) saylovga yigirma kun qolganda

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlaridan birini aniqlang.

a) Oliy Majlis Senat Raisi o’rinbosarlarini saylash

b) Bosh prokuror hisobotini eshitish

c) O’zbekiston Konstitutsiyaviy sudini saylash

d) oily hokimiyat organlarining bahamjihat ishlashini ta’minlash

e) Markaziy Bank raisi hisobotini eshitish

4. Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Prezidenti mustaqil ravishda qaysi normativ-huquqiy aktlarni chiqara oladi?

a) faqat farmon va farmoyishlar

b) faqat farmon va qarorlar

c) farmon, buyruq va farmoyishlar

d) Prezident faqat qonunlar chiqaradi

e) farmon, qaror va farmoyishlar

5. O'zbekiston Prezidenti mustaqil ravishda qaysi normativ-huquqiy aktni chiqara olmaydi?

a) farmon

b) qonun

c) farmoyish

d) qaror

e) to'g'ri javob yo'q

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlariga nima kirmaydi?

a) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalarini hal etish

b) Bosh prokurorni tayinlash

c) Oliy Majlis Senat o'rinbosarlarini saylash

d) Milliy xavsizlik xizmatini tuzish

e) viloyat hokimlarini lavozimga tayinlash va ozod etish

7. Toshkent shahar hokimi kimning taqdimiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi hamda lavozimdan ozod etiladi?

a) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

b) Oliy Majlis Senati

c) shahar prokurori

d) shahsan tayinlaydi hamda lavozimdan ozod etadi

e) Bosh vazir

8. Prezident tomondan ko'rib chiqilganidan sung qancha muddat ichida Bosh vazir lavozimiga nomzod Oliy Majlisga tasdiqlash uchun taklif etiladi?

a) bir oy

b) uch kun

c) o'n kun

d) yigirma kun

e) besh kun

Mavzu: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI

1. Bosh vazir nomzodi kim tomondan taqdim etiladi?

a) Siyosiy partiya

b) Oliy Majlis Senati

c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

d) Prezident

e) Konstitutsiyaviy sud

2. Konstitutsiyaga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ aktlarni chiqaradi?

a) faqat farmon va farmoyishlar

b) faqat farmon va qarorlar

c) faqat qarorlar va farmoyishlar

d) faqat buyruqlar

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari kim tomondan tasdiqlanadilar?

a) Prezident

b) Oliy Majlis Senati

c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

d) Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi

e) Bosh vazir

4. Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko’rib chiqqanidan keyin qancha muddat ichida uni Oliy Majlisga tasdiqlash uchun taklif etadi?

a) bir oy

b) uch kun

c) o’n kun

d) yigirma kun

e) besh kun

5. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod necha marotaba rad etilgandanda Prezident Oliy Majlisni tarqatib yuborishga haqli?

a) bir marta

b) ikki marta

c) uch marta

d) turt marta

e) besh marta

6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari kim tomondan tasdiqlanadilar?

a) Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi

b) Oliy Majlis Senati

c) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

d) Prezident

e) Bosh vazir

7. Oliy Majlis a’zolari tomonidan Bosh vazirga ishonchsizlik votumi tegishincha qabul qilingada Vazirlar Mahkamasi …

a) iste’foga chiqadi

b) ta’tilga chiqadi

c) Oliy Majlis Senatiga o’tkaziladi

d) Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o’tkaziladi

e) o’z faoliyatini davom etadi

Mavzu: MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING O’ZINI O’ZI BOSHKARISH ORGANLARINING KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

1. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlaridan birini aniqlang.

a) fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash

b) muayyan hududni (tuman, shaxar) nomini o’zgartirish

c) fuqarolar yig’ini raisini tayinlash

d) prokurorni tayinlash va lavozimidan ozod etish

e) qonunlarni ishlab chiqish

2. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlariga nima kirmaydi?

a) qonunlarni ishlab chiqish

b) qonuniylikni ta’minlash

c) mahaliy byudjetni shakllantirish

d) mahalliy kommunal xo’jalikka rahbarlik qilish

e) mahalliy soliqlarni belgilash

3. Toshkent viloyat hokimi kim oldida hisobot beradi?

a) Toshkent shahar hokimi

b) Viloyat prokurori

c) Bosh vazir

d) Oliy Majlis Senati

e) Viloyat xalq deputatlari Kengashi

4. Toshkent shahar hokimi kim oldida hisobot beradi?

a) Toshkent viloyati prokurori

b) Toshkent viloyati hokimi

c) Bosh vazir

d) Oliy Majlis Senati

e) Prezident

5. O'zbekiston «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

a) 2004 yil 29 aprel

b) 1998 yil 21 may

c) 2005 yil 4 oktyabr

d) 1990 yil 12 noyabr

e) 2006 yil 8 yanvar

Mavzu: SUD HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI VA FUNKSIYALARINING UMUMIY TAVSIFI

1. 0‘zbekiston Respublikasida odil sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplaridan birini aniqlang.

a) shahs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish

b) qonunning to'g'ri qo'llanishini ta'minlash

c) jinoyatlarni tez va to'la ochish

d) ishlarini yuritishning oshkoraligi

e) qonuniylikni mustahkamlash

2. 0‘zbekiston Respublikasida odil sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplariga nima kirmaydi?

a) advokatning odil sudlovning barcha bosqichlarida qatnashishi

b) jinoyatlarni tez va to'la ochish

c) sudlarning daxlsizligi

d) sudyalarning siyosiy partiyalar a'zosi bulmasligi

e) sudlarning faqat qonunga bo'ysunishi

3. 0‘zbekiston Respublikasida odil sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplariga nima kirmaydi?

a) advokatning odil sudlovning barcha bosqichlarida qatnashishi

b) sud ishlarini yuritishning oshkoraligi

c) qonuniylikni mustahkamlash

d) aybsizlik prezumptsiya

e) sud ishlarini yuritish tili

4. Davlat sirlari bilan bog'liq ishlarni qaysi sud ko'rib chiqadi?

a) Konstitutsiyaviy sud

b) fuqorolik ishlari bo'yicha sudlar

c) jinoyat ishlari bo'yicha sudlar

d) Oliy xujalik sudi

e) Harbiy sud

5. O'z vakolatiga ko'ra Toshkent shahar sudi qaysi instansiya hisoblanadi?

a) birinchi, ikkinchi va nazorat instansiya sudi
b) ikkinchi, uchinchi va nazorat instansiya sudi
c) nazorat instansiya sudi
d) kassasiya sudi
e) to’g’ri javob yo’q

UMUMIY SAVOLLAR

1. Davlat tushunchasi, belgilari va funksiyasi.
2. Davlat shakllari tushunchasi va turlari.
3. Davlat va huquq tushunchalari o‘rtasidagi mutanosiblik.
4. Huquq va ijtimoiy meyorlar, huquq tizimi, huquqiy manbalar tushunchalari.
5. Huquq norma tushunchasi, belgilari va tuzilishi.
6. Ma’muriy huquq tushunchasi va predmeti.
7. Ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasi.
8. Ma’muriy jazo va uning turlari hamda uni qo’llovchi davlat organlari.
9. Fuqarolik huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoyillari.
10. Fuqarolik huquqi sub’ektlari.
11. Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti va tamoyillari.
12. Mehnat shartnomasi, uni tuzish, o’zgartirish va bekor qilish tartibi.
13. Ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat ta’tillari.
14. Oila huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoyillari.
15. Nikoh shartnomasi, uni tuzish va bekor qilish tartibi.
16. Farzandlikka olish, vasiylik va homiylik.
17. Jinoyat huquqi tushunchasi, uning predmeti va vazifalari.
18. Jinoyat tushunchasi, belgilari va turlari.
19. Jinoyat uchun jazo tushunchasi va uning turlari.
20. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan xolatlar.
21. Xalqaro xuquq tushunchasi, predmeti, manbalari va tamoillari.
22. Xalqaro huquqning asosiy sub’ektlari.
23. O‘zbekiston xalqaro huquq sub’ekti sifatida.
24. Konstitutsiya tushunchasi, funksiyasi va belgilari.
25. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishining tarixi va ijtimoiy zarurati.
26. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o’zgartirish kiritish tartibi.
27. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.
28. Davlat suvereniteti tushunchasi va mohiyati.
29. Xalq hokimiyatchiligi.
30. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi.
31. Tashqi siyosat tushunchasi va uning huquqiy asoslari.
32. Shaxsiy huquq va erkinliklar.
33. Siyosiy huquq va erkinliklar.
34. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar.
35. Fuqarolik tushunchasi.
36. O’zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari.
37. Fuqaroligi yuq va chet el fuqarolarning huquqiy holati.
38. Fuqarolik jamiyat tushunchasi.
39. Davlat tuzilishi tushunchasi.
40. Ma’muriy-hududiy tuzilish tushunchasi.
41. Suveren Qaraqalpog’istonning huquqiy holati.
42. O’zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzilishining iqtisodiy asoslari.

43. Iqtisodiy islohotlarni amalgam oshirish sohasidagi davlat organlarining vazifalari.
44. Mulk tushunchasi.
45. Mulkdorlik shakllari.
46. Jamoa mulki tushunchasi va turlari.
47. Xususiy mulk tushunchasi va ob'ektlari.
48. Davlat mulkini xususiylashtirish tushunchasi.
49. Jamoat birlashmalari tushunchasi.
50. Jamoat birlashmalar tizimi.
51. Siyosiy partiyalar.
52. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari.
53. Ommaviy axborot vositalar tushunchasi.
54. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari.
55. Hokimiyat bo'linishining prinsipi mazmuni.
56. Qonunchiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uning davlat organlari tizimidagi o'rni.
57. O'zbekiston Respublikasida qonunchiqaruvchi hokimiyatning paydo bo'lishi.
58. O'zbekiston Respublikasida qonunchiqaruvchi hokimiyat tizimining takomillanishi.
59. Bir palatali parlamentdan ikki palatali parlamentga o'tishning huquqiy asoslari.
60. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tushunchasi va uni tuzish tartibi.
61. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari.
62. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tushunchasi va uni tuzish tartibi.
63. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari.
64. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari.
65. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qonunlarni qabul qilish jarayonining huquqiy jixatlari.
66. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruv shaklining joriy etilishi.
67. O'zbekiston Respublikasida Prezidentni saylash tamoyillari.
68. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomi.
69. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolatlari.
70. Ijro etuvchi hokimiyat tushunchasi va uning davlat organlari tizimidagi o'rni.
71. O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat tizimi.
72. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning faoliyatining umumiy jixatlari.
73. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shakllanish tartibi.
74. Mahalliy hokimiyat organlari.
75. Xalq deputatlari Kengashlari – mahalliy vakillik organlari sifatida.
76. Mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish tartibi.
77. O'zini o'zi boshkarish organlari tushunchasi va shakllanish tartibi.
78. Fuqarolarning o'zini o'zi boshkarish organlarining vakolatlari.
79. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida sud hokimiyatining o'rni.
80. Sud hokimiyatini amalgam oshirishning konstitutsiyaviy tamoyillari.
81. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi.
82. O'zbekiston Respublikasi sudyalarining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.
83. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi.
84. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi.
85. O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi.

FANDAN TARQATMA VA TAQDIMOT MATERIALLARI

(diskda ilova qilinadi)

Davlat va huquq nazariyasi asoslari

Ilova 1.



Ilova 2.



Ilova 3.



Ilova 4.



Ma'muriy huquq asoslari

Ilova 1.



Ilova 2



Ilova 3.



Ilova 4.



Fuqarolik huquqi asoslari

Ilova 1.

FUQAROLIK HUQUQI TAMOYILLARI

- Ishtirokchilari huquqlarining sud orqali himoya qilinishini ta'minlash.
- Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi
- Fuqarolik - huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining erkinligi.
- Ishtirokchilarning ijtimoiy adolat va qonuniylik asosida faoliyat yuritishlari.
- Barcha mulk shakllarining tengligi va qonun bilan teng muhofaza qilinishi.
- Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari mulkining daxlsizligi.
- Ishtirokchilarining xususiy ishlariga aralishishga yo’l qoyilmaslik.

Ilova 2.

Jismoniy shahslarni huquq subyektlari sifatida xarakterlaydigan asosiy huquqiy xususiyatlar huquq va muomala layoqatlaridir

Huquq layoqati fuqarolik huquq va burchlariga ega bo`lish layoqati hisoblanib, barchaning teng ravishda huquq layoqati e'tirof etiladi. (FKning 17 moddasi)

Muomala layoqati fuqarolarning o`z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o`zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir (FKning 22 moddasi)

Ilova 3.

YURIDIK SHAXS BELGISI:

- tashkiliy birlik
- mulkiy mustaqillik
- mustaqil mulkiy javobgarlik
- fuqarolik muomalasida o`z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo`lishi kerak

Ilova .4.



Mehnat huquqi asoslari

***Ilova* 1.**



***Ilova* 2.**



***Ilova*3.**



***Ilova* 4.**



Oila huquqi asoslari

Ilova 1.



Ilova 2.



Ilova 3.



Ilova 4.



Jinoyat huquqi asoslari

Ilova 1



Ilova 2.



Ilova 3.



Ilova.4.



Xalqaro huquq asoslari

Ilova 1.

Ilova 2.

XALQARO HUQUQ TAMOYILLARI

- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik
- xalqaro nizolarni tinch yo’l bilan hal etish
- davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
- davlatlarning o’zaro hamkorlik qilishlari majburiyatiga ega ekanliklari
- xalqlarning teng huquqliligi va o’z taqdirini o’zi belgilash huquqiga egaligi
- davlatlarning suveren tengligi
- davlatlarning o’z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari

Ilova 3.

XALQARO HUQUQ, HUQUQ TARMOG’I SIFATIDA TARTIBGA SOLADIGAN MUNOSABATLAR

davlatlar o’rtasidagi ikki tomonlama va ko’p tomonlama munosabatlar	davlatlarning Xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’lishi bilan bog’liq davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o’rtasidagi munosabatlar	davlatlar va nisbiy mustaqil Xalqaro maqomga ega bo’lgan davlat ko’rinishidagi tuzilmalar o’rtasidagi munosabatlar (masalan, Vatikan Rim katolik cherkovining markazi sifatida alohida o’ziga hos Xalqaro huquqiy maqomga ega).

Ilova 4.



Konstitutsiya va uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni

Ilova.1.



Ilova2.



O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinlikliklari va burchlari.

Ilova 1.


INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING TASNIFI
Huquqshunos olimlar tomonidan XVI-XVIII asrlarda keltirilgn nazariyalarga kura:
insonning tabiiy, yani ajralmas va daxlsiz huquq va erkinliklari
davlat tomonidan taqdim etiladigan va himoyalanadigan fuqarolar huquq va erkinliklari
Huquq sub'ektlar turlariga kura:
shaxsiy huquq va erkinliklar (aniq bir shaxsga taa'luqli)
jamoa huqulari (jamoani tashkil etuvi bir necha shaxslarga taa'luqli)
Huquq va erkinliklarning cheklanishi hamda vaqtincha tuxtatilish imkoniyati mavjudligiga kura:
cheklanishi va vaqtincha tuxtatilishi mumkin bo'lmagan mutloq huquq va erkinliklari
cheklanishi hamda vaqtincha tuxtatilishi mumkin bo'lgan nisbiy huquq va erkinliklari
Huquq va erkinliklarning mazmuniga kura:
shaxsiy huquq va erkinliklar
siyosiy huquq va erkinliklar
iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

Ilova 2.



Ilova3.



Ilova.4.



O‘zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslari

Ilova 1.



Ilova 2.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida jamoat birlashmalarning qo’yidagi shakllari e’tirof etilgan:

- kasaba uyushmalar
- olimlarning jamiyatlari
- xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari
- ijodiy uyushmalar
- ommaviy harakatlar
- fuqarolarning boshqa uyushmalari

Oliy Majlis – O’zbekiston Respublikasining oily vakillik organi va qonun chiqaruvchi hokimiyat

Ilova 1.



Ilova 2.



O’zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitusiyaviy huquqiy maqomi

Ilova 1.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90 – moddasiga asosan Prezident lavozimiga nomzodlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- 35 yoshdan kichik bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi
- O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi
- O‘zbekiston Respublikasi hududida kamida 10 yil yashagan
- davlat tilini yaxshi biladigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi

Ilova 2.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING VAKOLATLARI (konstitutsiyaning 93-moddasi)

maqsad va mazmuniga kura, shartli ravishda qo’yidagi guruhlarga bo’lish mumkin

- Qonunchilik va qonuniylik sohasidagi vakolatlar
- Davlat organlarini tuzish sohasidagi vakolatlar
- Fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari sohasidagi vakolatlar
- Xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlar

Ilova 3.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QABUL QILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR (konstitutsiyaning 94-moddasi)

farmonlar | **qarorlar** | **farmoyishlar**

O’zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy kuchga ega

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlariga zid bo’lmasligi shart

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitusiyaviy-huquqiy maqomi

Ilova 1.



Ilova 2.



Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshkarish organlarining konstitusiyaviy-huquqiy asoslari

Ilova 1.



Ilova 2.



Ilova 3.



Sud hokimiyatining tashkil etilishi va funksiyalarining umumiy tavsifi

Ilova 1.



Ilova 2.


O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMI
(Konstitutsiyaning 107-moddasi)
O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi
O’zbekiston Respublikasi Oliy sud
O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi
Qoraqalpogʜston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo’yicha oliy sudlari
Qoraqalpogʜston Respublikasi xujalik sudi
Viloyatlar va Toshkent shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo’yicha sudlar
Tumanlararo, tuman, shahar fuqarolik va jinoyat ishlari bo’yicha sudlari
Harbiy va xujalik sudlari

FANDAN MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISH BO'YICHA O'SLUBIY KO"RSATMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgust
286 sonli buyrug'iga 1-ilova

Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha YO'RIQNOMAdan ko'chirma

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni tug'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Fan bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, talabaning aniq mavzu bo'yicha berilgan topshiriqni darsdan tashqari vaqtda bajarish orqali amalga oshiriladi va talabalarning bilim hamda ko'nikmalarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Fanning hususiyatiga ko'ra mustaqil ishning quyidagi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1) fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

2) seminar mashg'ulotlariga tayorgarlik ko'rish;

3) ma'lum mavzu bo'yichareferat tayorlash;

4) ko'rgazmali vositalar tayorlash;

5) mavzu bo'yicha amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayorlash;

6) mavzu bo'yicha ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayorlash;

7) mavzu bo'yicha amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash;

8) uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Fan hususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga hizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat kiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h-k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko’rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o’zlashtirish uchun yordam beradigan ko’rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, grafiklar, namunalar va h-k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o’qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma’lum ko’rsatmalar, yo’l-yo’riqlar beriladi. Ko’rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo’yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko’rgazmali materiallardan foydalanish bo’yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Mavzu buyicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo’yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo’lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo’ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o’qituvchi tomonidan talabaga testga qo’yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko’zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, toshpiriqlarni tuzish usullari bo’yicha yo’l-yo’riq beriladi. Konsul’tasiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo’yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to’ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada eskpertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo’yicha (mavzuni talabaning o’zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o’quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertasiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to’playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo’shimchalar, izohlar kiritadi, o’z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o’qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma’ruza kafedrada himoya qilinadi.

Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo’lim bo’yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy axamiyatga ega bo’lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshrilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo’lishi kerak.

Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o’qituvchi bilan xamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o’rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o’zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.) aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo’lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to’g’ri belgilanishi (yo’llanma va ko’rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari buyicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.k.);
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg’ulotlari, konsul’tasiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma’ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko’rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

auditoriyada amalga oshiriladigan TMIlari: o'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMIlari: o'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laborotoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg'ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suxbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko'rish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o'tilgan materiallarni o'zlashtirish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi.

Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o'quv dasturida auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishi belgilangan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o'zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o'zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsul'tasiya soatlarida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini baholash. TMI natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi tug'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha konsul'tasiyalar tashkil etish tartibi

1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo'yicha konsul'tasiyalar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qildib borish maqsadida tashkil qilinadi.
2. TMI bo'yicha konsul'tasiya darsi fanning kalendar tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.
3. Konsul'tasiya darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.
4. Fan o'qituvchisi konsul'tasiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi;
- topshiriq bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya etadi;
- TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. TMI bo'yicha konsul'tasiyalar o'quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.
6. TMI bo'yicha konsul'tasiya darslari o'qituvchi jurnalida qayd etib boriladi.

Fandan mustaqil (referat, nazorat) ish mavzularining RO'YHATI

1. Davlat tushunchasi, belgilari va funksiyasi.
2. Davlat shakllari tushunchasi va turlari.
3. Davlat va huquq tushunchalari o'rtasidagi mutanosiblik.
4. Huquq va ijtimoiy meyorlar, huquq tizimi, huquqiy manbalar tushunchalari.
5. Huquq norma tushunchasi, belgilari va tuzilishi.
6. Ma'muriy huquq tushunchasi va predmeti.
7. Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi.
8. Ma'muriy jazo va uning turlari hamda uni qo'llovchi davlat organlari.
9. Fuqarolik huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoyillari.
10. Fuqarolik huquqi sub'ektlari.
11. Oila huquqi tushunchasi, uning predmeti va tamoyillari.
12. Nikoh shartnomasi.

13. Farzandlikka olish, vasiylik va homiylik.
14. Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti va tamoyillari.
15. Mehnat shartnomasi, uni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi.
16. Ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat ta'tillari.
17. Jinoyat huquqi tushunchasi, uning predmeti va sub'ektlari.
18. Jinoyat uchun jazo tushunchasi va uning turlari.
19. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan xolatlar.
20. Qishloq xujaligida ishlab chiqarish bilan bog'liq munosabatlar.
21. Xalqaro xuquq tushunchasi, uning predmeti va manbalari.
22. Xalqaro huquqning asosiy sub'ektlari.
23. O'zbekiston xalqaro huquq sub'ekti sifatida.
24. Xalqaro huquqning asosiy tamoillari.
25. Xalqaro xuquq va milliy huquq tizimi.
26. "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish" fanining tushunchasi va predmeti.
27. Bir palatali parlamentdan ikki palatali parlamentga o'tish huquqiy asoslari.
28. Fuqarolar burchlari.
29. Inson huquqlari, erkinliklari tushunchasi, uning turlari, ulardan amalda foydalanishning huquqiy jihatlari.
30. Konstitutsiyaning davlatlarning asosiy qonuni sifatida paydo bo'lish va rivojlanish tarihi.
31. Nodavlat va jamoat tashkilotlarning O'zbekistonda konstitutsiyaning demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni va ahamiyati.
32. O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari.
33. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi.
34. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining huquqiy asoslari.
35. O'zbekiston Respublikasida parlament tarixi.
36. O'zbekiston Respublikasida Prezidentining huquqiy holati.
37. O'zbekiston Respublikasida saylovlar o'tkazish tamoyillari.
38. O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi va uning takomillashtirilishi.
39. Parlament tushunchasi va tarixi.
40. Qonunchilik palatasi va Senatning shakllantirilishi, ularning umumiy va mutlaq vakolatlari.
41. Sudyalikka nomzodlarga qonunchilikda belgilangan talablar.
42. Vazirlar Mahkamasi tarkibi, joylardagi hokimiyat organlarini shakllantirish tartibi.
43. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi.
44. Vazirlar Mahkamasi vazifalari.
45. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari mohiyati.

FANNI O’ZLASHTIRISH BO’YICHA MASLAHAT VA TAVSIYLAR

«Huquqshunoslik. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» fani ma’ruza, munozara va mustaqil ish davomida o’qib o’rganiladi. Fanning tuzilishi amaldagi milliy huquq tizimiga to’g’ri keladi, o’rganiladigan mavzular esa amaldagi O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan chambarchas bog’lanib ketadi.

Ma’ruza mashg’ulotlarida ko’rib chiqiladigan savollarning asosiy ilmiy-nazariy qoidalari va ularning amaliy ahamiyati ochib beriladi va mazkur fanga oid mavzularni o’rganish bo’yicha tavsiyalar beriladi.

Munozara mashg’ulotlari davomida talabalar fanning asosiy qoidalari haqidagi nazariy bilimlarga ega bo’lishlari kerak, aniq holatlarga nisbatan amaldagi qonunchilik normalarini to’g’ri talqin qilish va qo’llash ko’nikmalariga ega bo’lishlari kerak. Muammoli holatlarni echish O’zbekiston Respublikasi qonunchiligining tegishli normalariga asoslangan holda bajarilishi lozim.

Mazkur fanni o’rganishda muhim omillardan biri bo’lib talabalarning mustaqil ishlari hisoblanadi. Mustaqil ish muayyan mavzuni va fanni butunlay o’rganish jarayoni vaqtida amalga oshiriladi. Mavzu bo’yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o’rganib chiqish orqali ishni ma’ruza mashg’ulotiga tayyorgarlik ko’rish bilan boshlash zarur, chunki mavzuning mazmunini tashkil etuvchi savollar to’g’risida umumiy tasavvurlarga ega bo’ladilar. Munozara mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko’rishda talabalar O’zbekiston Respublikasi Konstituцiyasi, O’zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ aktlar hamda mavzu bo’yicha tavsiya qilingan manbalardan foydalanadilar. Kerakli me’yorda chet el qonunchiligi tajribasi o’rganiladi. Mustaqil ish paytida berilgan topshiriqlarga yozma javoblar berish, mavzuga oid asosiy qoidalarni konspektlashtirish tavsiya etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishini ta’minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Interfaol usullarni qo‘llash bo‘yicha umumiy metodik tavsiyalar: 1. Ishlash uchun joyni tayyorlash. Auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun qulay joylashishlar zarur. 2. Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo‘lish.Barcha tinglovchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo‘lib, so‘z erkinligini hurmat qilishlari kerak. 3. Tinglovchilarning guruhlarga bo‘linishiga jiddiy e’tibor berish. 4. Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo‘lishi kerak. 5. Tinglovchilarning mashg‘ulotga ruhiy tayyorgarligiga ko‘maklashish. 6. Interfaol usullar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilganda guruhda ta’lim oluvchilar soni ko‘p bo‘lmasligi kerak. 4-6 kishidan iborat bo‘lgan kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.

Ta’lim jarayonida qo‘llanishi tavsiya etiladigan ayrim interfaol usullar

“Aqliy hujum” usuli-g‘oyalarni ishlab chiqish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar:uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarini ilgari suradilar. “Aqliy hujum” quyidagi qoidalar bo‘yicha o‘tkaziladi: -fikr hech qanday cheklanmagan holda, iloji boricha balandroq ovozda aytilishi lozim;-har qanday fikrni aytish mumkin, u qabul qilinadi; -g‘oyalarga tushuntirish berilmaydi, ular vazifalarga bevosita bog‘liq holda aytiladi; -takliflar berish to‘xtatilmaguncha, aytilgan g‘oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar: 1.Ishtirokchilarni majburiy bo‘lmagan holda o‘tkazing. 2.Fikrlarni bayon qilish uchun qog‘oz va doskani tayyorlang. 3.Aqliy hujum ishtirokchilariga muammoni yetkazish kerak. 4. Ish tartibini aniqlang: a) fikrlar tashlanganda ularni

baholamang b) doimiy fikrlash ozodligi v) qancha aqlli fikr ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi g) “ushlang”, “tuting” boshqalarning fikrlarini rivojlantiring 5.Fikrlar to‘g‘risida surishtiring va tezda ularni yozing. 6.Qog‘oz varag‘i to‘ldirilganda, uni muhokama uchun qo‘ying. 7.O‘z g‘oyalaringizni qo‘shib yangi g‘oyani rag‘batlantiring. 8.Boshqalar fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo‘l qo‘ymang.

Aqliy hujumning asosiy ko‘rinishlaridan biri juftlikdagi aqliy hujumdir.Agar ish daliliy axborotga bog‘liq bo‘lsa, unda ta’lim oluvchilarga dalillar ro‘yxatini tuzish taklifi beriladi. Ikki daqiqadan so‘ng individual ishdan keyin ular bir-birlari bilan muloqotda bo‘lib muhokama qiladilar va o‘zlarining ro‘yxatlarini birlashtiradilar.

“Charxpalak” texnologiyasi-ushbu texnologiya ta’lim oluvchilarni o‘tilgan barcha mavzularni yod olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida ularni baholay olishga qaratilgan. O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o‘quv predmetining biror-bir bo‘limi tugallanganda o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

O‘tkazish texnologiyasi: 1.Ishtirokchilar kichik guruhlarga bo‘lib olinadi (sharoitga qarab). 2.Mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtirish. 3.Guruh ishtirokchilari mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifani bajaradilar. 4.Har bir guruh ishtirokchisi o‘zi ishlab chiqqan tarqatma materialning o‘ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o‘zining biror bir belgisini chizib qo‘yishi kerak. 5.Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga tarqatiladi. 6.Yangi guruh a’zolari berilgan materiallarni o‘rganib, unga o‘z o‘zgartirishlarini kiritadilar. 7.Tuzatish, o‘zgartirish kiritilgan materiallar yana bir marta boshqa guruhlarga uzatiladi (guruhlar soniga qarab). 8.Guruhlar materiallarni bir-birlari bilan oxirgi almashganlaridan so‘ng har bir guruh ishtirokchisi o‘zining birinchi to‘ldirgan materialini (guruh raqami va o‘zi qo‘ygan belgi asosida) tanlab oladilar. 9.Har bir guruh ishtirokchisi tarqatma materialdagi o‘zi belgilagan javoblarini boshqa guruh ishtirokchilari kiritgan tuzatishlari bilan taqqoslaydilar va tahlil qiladilar. 10.Ta’lim beruvchi tarqatma materialda berilgan vazifani o‘qib, guruhlar bilan to‘g‘ri javobni belgilaydilar. 11.Har bir ishtirokchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar o‘rtasidagi farqni aniqlab, shunga mos ballni to‘playdi va o‘z-o‘zini baholaydi.

Bilaman/bilishni xohlayman/bilib oldim (B/Bh/B)-biror matn yoki mavzuni interfaol o‘qish-o‘zlashtirish usullaridan biri bo‘lib, jadval ko‘rinishida bajariladi va quyidagicha qo‘llaniladi: ta’lim oluvchilarga biror mavzu e’lon qilinadi. Bu to‘g‘rida ularga ma’lum bo‘lgan axborotlarni jadvalning “Bilaman” qismiga, mavzu bo‘yicha yana qanday ma’lumotlarni bilishni xohlashsa, ularni jadvalning “Bilishni xohlayman” qismiga yozadilar. So‘ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi.Ular mikroguruhlar tarkibida matnni mustaqil o‘zlashtirib, jadvalning “Bildim” qismini to‘ldiradilar. Har bir guruh sardori tuzilgan jadvallarni taqdim qiladi. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanadi.

“FSMU” texnologiyasi –ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozarlar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida, biror bir bo‘lim o‘rganilgandan so‘ng qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga ham tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. F-fikringizni bayon eting,S-fikringiz bayoniga biror bir sabab ko‘rsating, M-ko‘rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring, U-fikringizni umumlashtiring

“Davra suhbati”-aniq ish tajribasini o‘rganish, axborot almashish kabi faoliyatlarni o‘tkazishda ko‘maklashadi. Davra suhbatini ikki xil shaklda o‘tkazish mumkin: 1) Yozma davra suhbati-o‘zaro hamkorlikda muammo yoki g‘oya-fikrlarni samarali usulinitopishning usuli. A’zolar ko‘rilayotgan u yoki bu masala yuzasidan o‘z g‘oyasi yoki taklifini yozadi, so‘ng yozilgan qog‘ozni yonidagi a’zoga uzatadi. Navbatdagi a’zo berilgan g‘oya yoki taklif yuzasidan mustaqil bilimi va qarashlariga asoslangan holda tushuncha va izohlarini qo‘shimcha qiladi va navbatdagi a’zoga uzatadi.Har bir ishtirokchi fikrlarini o‘zi tanlagan rangli qalam bilan yozadi.Bu har bir ishtirokchining suhbatda qatnashganlik darajasini yaqqol ko‘rsatadi. Jarayon to barcha a’zolar

o‘rganilayotgan masala yuzasidan o‘z bilim va munosabatlari asosida mustaqil fikr yoki savollari bilan ishtirok etib bo‘lishlariga qadar davom ettiriladi. 2) Og‘zaki davra suhbati-bu yuqorida ko‘rsatilgan usulga o‘xshash bo‘lib, faqatgina og‘zaki shaklda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbat bilan, undan oldin taklif etilgan fikrlarni qabul qilib olib, uni rivojlantiradi.

